

TO'RAYEV ANVAR

O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUASSASALARI TARIXI

(O'quv qo'llanma)

60220300-Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) bakalavriat
ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan

Buxoro 2023

KBK 63.3(50')ya 73

UO`K 35.075(575.1)(09)

Ushbu o'quv qo'llanma 60220300 -Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda ilk davlat va davlat birlashmalarining vujudga kelishidan to Amir Temur hukumronligi davrigacha bo'lgan davrda davlat boshqaruvdagi markaziy va mahalliy organlarning o'rni, davlat muassasalarida faoliyat yuritib kelgan mansab egalarining vazifa va vakolatlari, yer egaligi, soliq tartiblari, harbiy qo'shin, janglarda qo'llanilgan harbiy taktikalar, sud-jazo organlarining faoliyati, qo'shni davlatlar bilan olib borilgan diplomatik aloqalar, ma'muriy boshqaruv, o'tkazilgan islohatlar, ilm-fan sohasida yuz bergan o'zgarishlar tahlil qilinadi.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari tarix ta'lim yo'nalishlari "bakalavr" yo'nalishida tahsil oladigan talabalarga hamda ushbu sohaga qiziqadigan keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan

Mas'ul muharrir: Hayitov Sh.A. tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: Raxmonov K. J. tarix fanlari nomzodi, dosent

Shukrullayev Yu. A. tarix fanlari nomzodi, dosent

Ahmadov A. A. tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ⓢ ISBN 978-9943-8424-9-6

Ⓢ Muhammad Poligraf - 2022

Ⓢ Duna poligraf xususiy korxonasi

KIRISH

So‘nggi yillarda jahon hamjamiyatining ajralmas qismi bo‘lgan O‘zbekistonda ham jamiyat hayotidagi tub burilishlar va milliy tafakkuridagi o‘zgarishlar tufayli O‘zbekiston tarixiga qiziqish yanada kuchaydi. Ayniqsa, bu borada milliy davlatchilikning mahalliy boshqaruv usullari, O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi borasidagi ayrim munozaralar bilan birga davlat boshqaruvi va unga bo‘ysungan mahalliy boshqaruv organlarining tuzilishi, ularning vazifasi, vakolatlarini o‘rganish va tahlil qilishga bugungi kunda dolzarb masala sifatida qaralib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 26- sentabrda qabul qilingan “Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290 sonli qarori qabul qilindi. O‘quv qo‘llanma mazkur qarordagi ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida raqobatbardosh kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish maqsad qilindi.

“O‘zbekistonda davlat muassasalari tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmada ajdodlarimiz o‘zlarining boshqaruv tartibiga qaysi davrdan boshlab ega bo‘lganliklari, qadimgi davrdagi davlatlarning boshqaruvidagi o‘ziga xoslik jihatlari atroflicha bayon qilingan. Bugungi kunda davlatimiz taraqqiyotida davlatchilik tarixining o‘rnini yosh avlodlarga o‘rgatish tarixchi olimlarning vazifalaridan biridir. Bunda kishilik jamiyati davridan to bugungi kungacha bo‘lgan tarixiy, siyosiy voqealar, davlat rahbarlari tomonidan olib borilgan islohotlar, qo‘shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni o‘rganish ham maqsad qilib olindi.

Shu nuqtai nazardan ham mazkur o‘quv qo‘llanmada o‘zbek xalqi davlatchiligining asoslari, bu jarayonga ta’sir etgan hamda tezlashtirgan omillar, turli davrlarda davlatchilik rivojining yuqori nuqtasi yoki inqirozi va ularni kelib chiqarishdagi sabablari, davlatchilik turlari va shakllari, turli davrdalardagi mansablar va unvonlar, ma’lum sulolalar va tarixiy shaxslarning davlatchilik tarixidagi o‘rni va ahamiyati, harbiy qo‘shin, yer egaligi va soliq tizimi masalalari atroflicha yoritib o‘tiladi.

Shuningdek, hukmdorlar tomonidan davlatdagi ichki va qo'shni davlatlar bilan tashqi aloqalar, davlatni boshqarish davomida olib borgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalaridagi yangiliklarga ham alohida e'tibor qaratilgan.

1-Mavzu: O‘zbekistonning davlat muassasalari tarixi fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari

Reja:

- 1. Davlat muassasalari fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari.**
- 2. Davlat va davlat muassasalari tushunchasi.**
- 3. Davlat muassasalarining shakllanishidagi shart-sharoitlar.**
- 4. Davlat muassasalari tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.**

Tayanch tushunchalar: Davlat, davlatchilik, davlat muassasalari, respublika, monarxiya, demokratiya, yuridik fanlar, ijtimoiy-siyosiy fanlar, maxsus tarix fanlari, boshqaruv apparati, ibtidoiy jamoa tuzumi, ibtidoiy to‘da, urug‘ jamoasi.

Yurtimiz tarixini o‘rganishda, uning olis tarix qaridan qay darajada chuqur o‘rin egallaganligini anglashda unda mavjud bo‘lgan tarixiy muassasalar faoliyatini tadqiq qilish nihoyatda ahamiyatlidir. Shu sababdan davlat muassasalari tarixi fani borgan sari dolzarb fanlar safidan joy olmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng ijtimoiy fanlarni rivojlantirish yo‘lida ta‘lim sohasida ham ko‘pgina islohotlar amalga oshirildi.

Dastavval, davlat ishlarini tartibga solish, ichki va tashqi aloqalarni boshqarib turish zaruriyati maxsus davlat muassasalarining tuzilishiga olib keldi. Ular turli tarixiy davrlarda, turli siyosiy vaziyat va qonuniyatlar ta‘sirida o‘zgarib, rivojlanib bordi. O‘z xususiyatlariga ko‘ra davlat muassasalari mamlakatni boshqaruvchi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari vazifasini bajarib kelganligi bilan belgilangan bo‘lsa, aynan bugunga kelib muassasalar tizimi fan sifatida ko‘tarilib o‘zining dolzarbligini yana bir karra isbotladi.

Davlat muassasalari fanining asosiy maqsadi: davlatni boshqarish sohasidagi tarixiy tajribani o‘rganish orqali malakali ish yurituvchi, hujjatshunos, arxivshunos kadrlarni tayyorlash. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni yechish talab qilinadi:

- ✓ davlat muassasalarining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;
- ✓ davlat muassasalarining tuzilishi va faoliyatini o'rganish;
- ✓ davlat muassasalarining huquq va majburiyatlari, vazifalarini yoritish.

O'zbekistonda davlat muassasalari tarixi bilan tanishtirish orqali yurtimizning davlatchilik an'analari va uning boshqaruvi, undagi tarixiy muassasalarning roli va o'rnini qanday va qaysi yo'sinda olib borilganligini ko'rishimiz mumkin.

Davlat muassasalari fanini o'qitishning vazifalari:

- Davlat va davlat muassasalari tarixini chuqur tahlil qilish;
- Davlat muassasalari haqida tushuncha;
- O'zbekistonda davlat muassasalari tarixi predmeti;
- Kursning tarixshunosligi va manbashunosligini o'rganish;
- Mustaqillik yillarida davlatimiz muassasalari boshqaruvini o'rganish;
- Bugungi davr jamiyati taraqqiyotida davlat va davlat muassasalari boshqaruvini tadqiq etish;
- Davlat va davlat muassasalari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz tomonidan qanday qabul qilinayotganligini tahlil etish.

Davlat muassasalari fanining ahamiyati: "O'zbekistonda davlat muassasalari tarixi" fani eng qadimgi, o'rta asrlar hamda jamiyatimiz rivojlanishidagi davlatchilik tarixini, davlat muassasalari boshqaruvini chuqur tushunish, tahlil va tadqiq etishni o'z oldiga vazifa qilib olgan. Chunki, jamiyatimizning ilk davlatchilik tarixini, davlat muassasalari boshqaruvini o'rganmasdan turib bugungi va ertangi davlatimiz boshqaruvini tasavvur qila olmaymiz. Fanning ahamiyati ham davlat muassasalari tarixini O'zbekiston miqyosida yoritishdan iborat bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov qayd etganlaridek: "Tarixiy xotira xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini bayon etish, milliy o'zlikni anglash,

ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida nihoyat muhim o'rin tutadi"¹.

Har bir shaxs, fuqaro o'zi tug'ilib o'sgan vatani tarixidan, ajdodlar merosidan, turli tarixiy davrlarda sodir bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy hodisalardan voqif bo'lishi zarur.

Jahon tarixida ilk davlatlar dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi yerlar va sug'orish kanallari bilan chegaralangan hududlarda paydo bo'lgan. Dastlabki davlatlar mil. avv IV mingyilliklarda tashkil topgan bo'lib, ularda o'ziga xos davlat muassasalari tizimi ham shakllangan. Davlatning vujudga kelishi turli jamiyatlarda turlicha kechgan. Masalan, Qadimgi Afinada urug'doshlik jamiyati ichida avj olgan sinfiy ziddiyatlar oqibatida shakllanib borgan. Germanlarda esa davlat boshqa xalqlar yerlarini bosib olish oqibatida vujudga kelgan. O'rta Osiyoda davlatning vujudga kelish jarayoni tashqi bosqinchilik, davlatlarning istilosi oqibatida vujudga kelgan. Insoniyat tarixida davlat paydo bo'lgach, odamlarning hayotida katta o'zgarish sodir bo'ldi. Endi aholi urug'-urug', qabila-qabila bo'lib emas, balki muayyan bir davlatning chegarasida yashay boshlaganlar.

Davlat tuzilishi ilgari ma'lum bir hukmron sinf manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilot sifatida talqin etilgan. Bugungi kunda esa davlat tushunchasi mohiyati tubdan o'zgarib, u quyidagicha ta'riflanadi:

Davlat-suverenitetiga, boshqaruvning hamda fuqarolar va ularning erkinliklarini himoya qilinishining maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquqiy normalarini yaratishga qodir bo'lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy, hududiy tashkiloti. Davlat-butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonun chiqaradigan va suverenitetiga ega bo'lgan yagona siyosiy tashkilot. U hokimiyatning bosh instituti bo'lib, jamiyat siyosiy tuzilishining, odamlar, guruh, sinf va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini tashkil etadi, yo'naltiradi va nazorat qiladi².

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. –B. 140.

² O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 3-tom. -T.: 2002.

Boshqaruv jihatdan davlat monarxiya va respublika, tuzilishiga ko‘ra unitar (oddiy), federativ, konfederativ shakllariga bo‘linadi.

Aynan davlatning bunday bo‘linishini bundan bir necha asr oldin yashab o‘tgan buyuk qomusiy allomamiz Abu Nasr Farobiyda ham ko‘rishimiz mumkin. Farobiy o‘zining “Shahar siyosati to‘g‘risida” asarida davlatni boshqarishning monarxiya, aristokratiya va demokratiya kabi shakllarini asoslab bergan. Abu Nasr Farobiyning fikricha, xalq o‘z orasidan o‘zi ishongan, boshqalarga namuna bo‘la oladigan, xalq va davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yadigan odamni saylaydi. Bu boshliq davlatni xalq nomidan boshqaradi va u adolatli siyosat olib boradi. Mana shunday boshqaruvni Abu Nasr Farobiy demokratiya shaklidagi davlat boshqaruvi deb tushungan³.

Birinchi bo‘lib demokratiya siyosiy tartibi qadimgi Yunonistonda mil. avv. 594-yilda o‘rnatilgan bo‘lsa, respublika boshqaruv shakli qadimgi Rimda mil. avv. 509-yilda joriy etilgan. Davlat ishlarini tartibga solish, ichki va tashqi aloqalarni boshqarib turish zarurati maxsus davlat muassasalarini tuzilishiga olib keldi.

Davlat muassasasi-bu davlat mexanizmining qonunga muvofiq ravishda o‘z tuzilishini, ijtimoiy hayotning muayyan sohasini boshqarish bo‘yicha aniq belgilangan kafolatiga ega bo‘lgan va yaxlit birlik hosil qiladigan tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi⁴.

Davlatchilikning paydo bo‘lishi nazariyasi arxeologiya fanining eng yangi ma’lumotlariga asoslanuvchi ibtidoiy jamiyatning “neolit” inqilobiga to‘g‘ri keladi. Bunday yondashuv ingliz olimi Chayld tomonidan XX asrda tarix faniga kiritilgan. Chayld neolit davrida o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka ya’ni ovchilik, baliqchilik va meva terishdan dehqonchilik, chorvachilikka o‘tilganligini, metalga ishlov berish boshlanganligini yangi davrning paydo bo‘lganligi bilan izohlaydi.

Barcha xalqlar ibtidoiy jamoa tuzumini o‘z boshlaridan kechirgan. Qaysilari oldinroq, qaysilari keyinroq. Muassasalarning ilk elementlari ayni qadimgi davrga borib taqaladi. Urug‘ jamoalarida ayol yoki erkak

³ Tojiboeva X.M. Farobiy buyuk jamiyatshunos olim. -T.: “Turon Zamin Ziyos”, 2016. –B. 11.

⁴ Abdurahimova N.A., Isakova M.S., Sulaymanova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T.: “Sharq”, 2007. –B. 6.

nufuzining ortib borishi, ularning ichki muammolar hal qilinishi ustida bosh qotirishlari, o'z urug'ini himoya qilish harakatlari kabilar davlat apparatining oddiy ko'rinishidir.

O'zbek davlatchiligi qachon paydo bo'lgan? "Nima emish, O'zbekiston XX asrning 20-yillarida, aniqrog'i, 1924-yili davlat maqomini olgan emish. Biz shu gapga ishonishimiz kerakmi?"⁵. O'zbek xalqining etnogenezi, etnik tarixi borasida ham bahs munozaralar bo'lgan. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning 1998-yil iyul oyida tarixchi va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan bo'lgan uchrashuvida yuqoridagi masalalar dolzarb masala sifatida ko'rilgan.

O'lkamiz hududlarida qadimgi shaharsozlik madaniyatining asoslari quyidagilardan iborat:

- Aholining o'troq dehqonchilikka o'tishi va keng vohalar bo'ylab yoyilishi;
- Hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivojlanishi natijasida iqtisodiy hamda madaniy aloqalar va savdo-sotiqning taraqqiy etishi;
- Tabiiy-geografik hamda harbiy-strategik shart-sharoitlar⁶.

Nafaqat O'zbekiston, balki dunyo tarixida ilk davlatchilikning paydo bo'lishi masalalari hozirgi kunda tadqiqotchilar orasida eng dolzarb bo'lib turgan muammolardan biri hisoblanadi. Masalani o'rganib, unga aniqlik kiritishdan oldin davlatchilikning ildizlari va paydo bo'lish shart-sharoitlariga diqqat-e'tiborni qaratmog'imiz lozim. Neolit va bronza davrlariga kelib aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, qadimgi aholi ishlab chiqarishning ma'lum bir sohalariga dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ularning bir yerda to'planishi uchun zamin yaratdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi o'z navbatida mahsulot hajmining o'sib qo'shimcha mahsulot paydo bo'lishiga, bu esa, ijtimoiy va mulkiy tengsizlik paydo bo'lishiga olib keldi. Demak, qadimgi xo'jaliklarning ixtisoslashuvi, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, metalning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi, hunarmandchilikda turli tarmoqlarning rivojlanishi,

⁵ Karimov I. A. Asarlar, 7-tom. -T.: "O'zbekiston", 1999. -B. 139.

⁶ Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi. -T.: "Yangi asr avlodi". 2003. -B. 5.

o‘zaro ayirboshlash va savdo-sotiq taraqqiy etishi natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladi. Bu yuksalish ilk davlatchilikning asosi, poydevori bo‘lib hisoblanadi. Dastlabki davlatlar mil. avv. IV mingyilliklarda tashkil topgan bo‘lib, ularda o‘ziga xos davlat muassasalari tizimi ham shakllangan. Davlat tushunchasi ilgari ma’lum hukmron sinf vakillari manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilot sifatida talqin etilgan. Bugungi kunda esa davlat tushunchasi mohiyati tubdan o‘zgarib ketganligini yuqorida ko‘rib o‘tdik.

Davlatning asosiy belgilari sifatida fuqarolarning ma’lum bir hududda birlashishi, boshqaruv apparatining mavjudligi, barcha uchun majburiy bo‘lgan asosiy qonun osti huquqiy-me’yoriy hujjatlarga egaligi, ichki va tashqi siyosati hamda soliq tizimi shakllanganligini qayd etish joiz. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar rivojlanib borishi bilan davlat shakllari ham o‘zgarib borgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va ilk davlatlarning vujudga kelishi jarayoni turli xalqlarda ular hayotining muayyan sharoitlari va xususiyatlariga qarab turlicha sodir bo‘lgan. Masalan, qadimgi Afinada urug‘doshlik jamiyati ichida avj olgan sinfiy ziddiyatlar oqibatida bevosita davlatning eng sof, klassik shakli paydo bo‘lgan. Qadimgi Rimda esa uning hududidan tashqarida qolgan huquqsiz plebeylar g‘alabasi tufayli urug‘doshlik tuzumi yemirilgan va uning xarobalari o‘rnida davlat paydo bo‘lgan. O‘rta Osiyoga quldorlik tuzumidagi ajnabiy davlatlarning uzluksiz bostirib kirishlari bu yerda urug‘doshlik jamiyatining yemirilishi va davlatning paydo bo‘lish jarayonini tezlashtirgan. Demak, O‘zbekiston hududida davlat Afinadagidek sof holda ichki va tashqi ta’sirlarsiz vujudga kelmagan.

Qadimgi davr mobaynida O‘rta Osiyoda ikki daryo oralig‘idagi davlat birlashmalarining har xil tiplari mavjud bo‘lgan:

1. Mahalliy boshqaruv asosida paydo bo‘lgan va izchil rivojlangan davlat birlashmalari (Qang‘, Xorazm)
2. O‘rta Osiyodagi ikki daryo oralig‘ida to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy bosqin natijasida bosqinchi davlat tarkibiga kiritilgan va keyinchalik bo‘ysundirilgan davlatlar bilan birga paydo bo‘lgan boshqaruv (Ahamoniylar imperiyasi, Baqtriyaning Yunon davlati).

3. Aralash tipdagi davlat boshqaruvi. (Bunga O'rta Osiyodan chiqqan yuechjilar tomonidan mil. avv. II asr oxirlari-milodiy I asr boshida So'g'd va shimoliy Baqtriyada barpo etilgan davlat birlashmalari tegishlidir).

Davlatning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishida ijtimoiy normalar alohida o'rin egallagan. Ijtimoiy normalar insonlarning ongli, irodaviy faoliyati natijasida vujudga kelgan. Bu jarayon turlicha kechishi mumkin. Xususan, bir xil ijtimoiy normalar odamlarning maqsadli faoliyati natijasida vujudga kelsa, ikkinchilari esa insonlarning qayta-qayta amalga oshirgan faoliyatlari natijasida vujudga keladi. Bu xatti-harakatlar keyinchalik qat'iy me'yorlarga aylangan.

Urug' jamoasi a'zolari tomonidan ijtimoiy me'yorlarni buzgan odamni qoralash, uyaltirish, ostraxizm, ya'ni urug' jamoasidan haydab yuborish kabi jazo turlari qo'llanilgan. Buning natijasida jamiyatdan uzulib qolgan ayblanuvchi sarson-u sargardon bo'lgan, ko'pincha bunday sanksiya qo'llanishi oqibatida, og'ir sharoitda odam o'lib ketgan. Sanksiyalar sifatida tan jazolari va o'lim jazosi ham qo'llanilgan.

Jamiyatda turli tabaqalarning vujudga kelishi jamiyatni boshqarish va umumiy tartibotni ta'minlash uchun yozma qoidalar huquqi joriy etilishini taqozo etgan. Huquq mezonlari axloq va din qoidalaridan farq qilib, aniq yozma shaklga ega bo'lgan.

Qadimgi O'zbekiston davlati huquqi tarixiga oid muammolarni o'rganishda biz yozma manba "Avesto" ga murojoat etamiz.

Davlat muassasalari tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi keladigan bo'lsak ushbu fan falsafa, iqtisodiyot, diplomatika, milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, informatika, hujjatshunoslik, tarix, arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti kabi fanlar bilan o'rganiladigan muammolarning umumiyligiga ko'ra bir-biriga bog'langan. Davlat muassasalari tarixi fani bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'liq ravishda o'z masalalarini yoritadi:

- Umumiy tarix fani yordamida jahon davlatlari tarixi, davlat muassasalari tizimi, ularning vazifalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lamiz.


- O'zbekiston tarixi fani o'rganilayotgan davr tarixini, muassasalarning shakllanishini, mansabdor shaxslar vazifalarini ochib berishda yordam beradi.

- Yuridik fanlar davlat va huquq asoslari tushunchasi, davlat shaklini o'rganishda yordam bersa, ijtimoiy-siyosiy fanlar davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish va taqqoslash orqali ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga asos bo'ladi.

- Ijtimoiy-siyosiy fanlar-falsafa, siyosatshunoslik, psixologiya;
- Maxsus tarix fanlari-arxivshunoslik, tarixiy xronologiya, sfragistika;

- Umumiy tarix fanlari yordamida jahon davlatchiligi evolutsiyasi, davlat muassasalari tizimi ularni vazifalari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Maxsus tarix fanlari tizimining alohida sohasi sifatida ushbu fan davlatning vazifalarini bajarish uchun tashkil etilgan muassasalari tarixi faoliyati va ijtimoiy munosabatlarni o'rgatishni qamrab oluvchi o'z predmetiga ega. Umuman olganda davlat muassasalari tarixi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi, xususan, tarix fanlari bilan ko'proq aloqada bo'lishi, bu fanning o'z-o'zicha xulosalar chiqarishiga yo'l qo'ymay, tarixiy dalillar asosida, qadimgi hujjatlar va manbalarga suyanan holda, ilmiy xulosalarga kelishiga va tarixiy boshqaruv jarayonlariga xolisona yondashgan holda aniq fikr bildirishiga hissa qo'shadi. Bu esa fanning fanlar orasida salmoqli o'rin egallashiga xizmat qilib kelmoqda. "O'zbekistonda davlat muassasalari tarixi" fani boshqa fanlar bilan bog'liqlikni quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin:



Mavzu mashg'ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “*Konseptual jadval*” interfaol usulidan foydalaniladi.

Mavzu mashg'uloti uchun topshiriqlar:

1. Davlat muassalarining paydo bo'lishi, omillari, muammoning yechimi hamda xulosasi
2. O'zbekistonda davlat boshqaruv tizimi va omillari, muammoning yechimi hamda xulosasi

Muammoning mazmuni	Sabab va omillari	Muammoning yechimi	Xulosa
1. Davlat muassalarining paydo bo'lishi, omillari, muammoning yechimi hamda xulosasi 2. O'zbekistonda davlat boshqaruv tizimi va omillari, muammoning yechimi hamda			

xulosasi			
----------	--	--	--


Topshiriqni bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

- “Konseptual jadval” orqali muammoli vaziyat yaratildi
- Voqeliklarning sabab va omillari bilan (1-ustun) to'ldiriladi
- Muammoning yechimi to'liq izohlanishi kerak (2-ustun).
- Tegishli yakuniy xulosalar esa muhim bosqich hisoblanadi (3-ustun)

Mavzu mashg'ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri -
“Klaster” interfaol usulidan foydalaniladi.

Mashg'ulot uchun topshiriqlar (tayanch tushunchalar):

Davlat, muassasa, ijtimoiy-siyosiy fanlar, maxsus tarix fanlari, boshqaruv apparati, ibtidoiy jamoa tuzumi, jamiyat, huquq.



Topshiriqni bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

-“Klaster” metodini o‘tkazish bosqichlarida asosan mavzuga oid tayanch tushunchalarga e‘tibor qaratiladi.

- Tayanch tushunchalar orqali mavzuga oid 5 ta aniq ma‘lumot qayd etiladi.

- Ma‘lumotlarning ishonchliligi va ahamiyatini ko‘rsatish maqsadida foydalanilgan manbalar qayd etiladi.

- Muayyan tushuncha doirasida imkoniyat qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Davlat va davlat muassasasi tushunchalari haqida gapirib bering?
2. Davlat muassasalari fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. O‘zbekiston davlat muassasalari tarixi fanini o‘rganishning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?
4. Davlat boshqaruv shakllari haqida fikr bildiring?
5. Aralash tipdagi davlat boshqaruv deganda nimani tushunasiz?
6. Davlatning asosiy belgilari haqida ma‘lumot bering?
7. O‘rta Osiyoda davlatning vujudga kelishdagi omillar?
8. Davlat boshqaruv tartiblari deganda nimani tushunasiz?
9. Davlatning rivojlanishda savdo-sotiqning o‘rni bormi?
10. O‘zbekiston davlat muassasalari tarixi fani qaysi fanlar bilan o‘zaro aloqada?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. T., “O‘zbekiston”, 2021-yil.
2. Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T., “O‘zbekiston”, 1997-yil.
3. Karimov I. A. Asarlar, 7-tom, T., “O‘zbekiston” 1999-yil.

4. Orziyev M.Z, Ergashyev J. Yu. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Buxoro. “Durdona”. 2021-yil.
5. Abdurahimova N.A, Isakova M.S, Sulaymonova Z.M. Davlat muassasalari tarixi.T., “Sharq”, 2007-yil.
6. Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonov S O‘zbekiston tarixi. T., “Iqtisod-Moliya”, 2006-yil.
7. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchligi tarixi. T., “Sharq”, 2000-yil.
8. Hamidova M. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi (o‘quv qo‘l lanma), T., “Sharq”, 2005-yil.
9. O‘zbekiston tarixi. Murtazayeva R.H. tahriri ostida T., “Yangi asr avlodi”. 2003-yil.
- 10.O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 3-tom. Toshkent., 2002-yil.
- 11.Tojiboyeva X. Farobiy buyuk jamiyatshunos olim. T., “Turon Zamin Ziyo”, 2016-yil.
- 12.Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. T., “Sharq”, 2012-yil.

Axborot manbalari

13. www.ziynet.net
14. www.history.ru

2-Mavzu: O‘zbekiston hududida qadimgi davlat va davlat muassasalarining vujudga kelishi.

Reja:

- 1. Qadimgi davlat uyushmalarining vujudga kelishi.**
- 2. “Avesto”ning yaratilish tarixi va unda ilk davlat birlashmalari.**
- 3. “Avesto”da huquqshunoslikka doir masalalarning yoritilishi.**
- 4. O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatlar va ularda boshqaruv masalalari.**

Tayanch tushunchalar: Davlat uyushmasi, Avesto, vendidod, monarxiya, demokratiya, yasna, boshqaruv shakli, davlat tipi, konfederativ boshqaruv, federativ boshqaruv, unitar boshqaruv, talent, fargard, Denkard, Kavi, oqsoqollar kengashi, varzanapoti, xanjamana, v’yaxa.

O‘zbekiston hududida ilk davlatlarning va davlat uyushmalarining vujudga kelishi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga bog‘liq holda bo‘lgan. O‘rta Osiyoda turli xalqlarning yurishlaridan himoyalaniş maqsadida o‘zaro birlashish natijasida davlatlar vujudga kelgan. O‘zbekiston hududida ilk davlat uyushmalari mil. avv. VII-VI asrlarda tashkil topgan. Davlatga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat muassasalari tashkil topgan. Davlat muassasalari vazifasini maxsus tayinlangan shaxslar amalga oshirgan. Yil sayin ko‘payib borayotgan jamoa xo‘jaliklariga yer va suvni taqsimlash, qurish, irrigatsiya (sug‘orish), jamoaning ichki va tashqi ishlarini boshqarish zarurati “qishloq hokimlari” deb nomlanuvchi oqsoqollar sinfining shakllanishiga olib keldi. Ularning mol-mulkini himoya qilish, dushmanlarga qarshi kurashish va tinch paytda aholi ustidan nazorat qilish uchun 50-100 dan ortiq o‘z askarlari bo‘lgan. Ma’lum hududlar, bir necha qishloqlar birlashib tumanni hosil qilgan. Tumanni “oqsoqollar kengashi” boshqargan. Oqsoqollar kengashi esa viloyat yoki shahar hokimiga bo‘ysungan⁷.

Umuman olganda, so‘ngi paleolit davriga kelib odamlarning hayoti va turmush tarzida ham turli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Xususan, odamlar g‘orlardan chiqib, yengil turar-joylar: chayla va yarim yer to‘lalarda

⁷ Abdurahimova N.A., Isakova M. S., Sulaymanova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T.: “Sharq”, 2007. –B. 9.

yashay boshladilar. Ular endi faqat tog‘li hududlarda yashab qolmay vohalar bo‘ylab tarqalib, tekisliklarda, daryo va ko‘l lar bo‘ylarida joylashadilar hamda qarindosh-urug‘chilik jamoalariga bo‘linadilar. Natijada jamiyatda juft oilalar paydo bo‘ladi hamda ular birlashib urug‘ jamoasini tashkil etadilar⁸.

Fikrimizni yana davlatchilik shakllanishiga yo‘naltiradigan bo‘lsak, ilk davlatlarning paydo bo‘lishida o‘zaro ayirboshlash, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning ham ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. Dastavval shuni aytish joizki, O‘rta Osiyo hududlarida yashagan aholi qadimgi davrlardan boshlab o‘zaro munosabatlarni rivojlantirib kelganlar. Bronza davriga kelib shimoldagi ko‘chmanchi chorvador qabilalar va janubdagi o‘troq dehqonchilik aholisi o‘rtasida o‘zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashdi. Bu o‘rinda o‘sha davrda shakllanib, keyinchalik ancha rivojlangan qadimgi yo‘llarning ahamiyati beqiyos bo‘ldi. O‘rta Osiyo qadimgi aholisi mintaqadan tashqari qo‘shni davlatlar bilan ham o‘zaro aloqalarni rivojlantirganlar. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, qimmatbaho Badaxshon(Tojikiston) lojuvard toshlari mil. avv. 3 ming yillikdayoq Mesopotamiya va Misr shaharlarida nihoyatda qadrlangan va bu hududlar bilan o‘zaro mol ayirboshlash munosabatlari o‘rnatilgan.

Ma’lumki, mil. avv. 2-ming yillikka kelib qadimgi O‘zbekistonning dehqonchilik vohalarida o‘troq aholining alohida joylashuv manzilgohlaridagi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar (o‘troq dehqonchilikning rivojlanishi, aholi zichligining yuqori darajasi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tizimning murakkablashib borishi, o‘zaro almashinuv, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning kuchayishi) hamda harbiy siyosiy vaziyat O‘zbekiston hududlarida dastlabki shaharsozlikning paydo bo‘lishidagi asosiy omillardan hisoblanadi. O‘lkamiz hududidagi ilk shaharlar qishloqlardan iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqeyi bilan ajralib turgan. Bu shaharlar, asosan, aholisi sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan vohalarda, qadimgi savdo yo‘llari bo‘ylarida, hukmdorlar qarorgohlari

⁸ Murtazayeva R.H. O‘zbekiston tarixi. -T.: “Yangi asr avlodi”, 2003. –B. 28-29.

atrofida paydo bo'lgan. Bunday shaharlar o'zlari joylashgan vohalarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va harbiy markazlari vazifasini bajargan bo'lishi shubhasizdir.

Mehnat qurollarining takomillashishi natijasida yerga ishlov berish yaxshilanib, ekin maydonlari kengayib, odamlarning mehnati unumliroq bo'lib bordi. Temirning kashf etilishi, undan yasalgan mehnat qurollari qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning tez o'sishiga olib keldi. Odamlarning daryolarni bo'g'ib, to'g'onlar qurib, kanallar qazib yerlarga suv chiqarish imkoniyati kengaydi. Bu odamlar turmushini ancha yaxshiladi, umrini uzaytirdi, aholi son jihatdan ko'payib bordi.

Urug'chilik munosabatlari ham o'zgarib bordi. Ikki urug' a'zolaridan tashkil topgan er-xotin juft oilalar vujudga keldi. Katta patriarxal oilalar urug' jamoalaridan ajralib chiqadi, ularga urug' jamoalariga qarashli yerlardan chek yerlari ajratib beriladi. Shu tariqa urug' jamoasining umumiy xo'jaligi oilalar jamoasiga bo'linadi. Bunday oilalar jamoasi ishlab chiqarish jamoalari deb ham ataladi⁹.

Katta oila jamoasining oqsoqoli bir vaqtning o'zida oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq, piru-ustod va murabbiy bo'lgan. Urug'-qishloq oqsoqoli esa butun qishloq ahlining boshlig'i hisoblangan. Oqsoqqollar kengashi qo'lida diniy va dunyoviy hokimiyat jamlangan bo'lib, u jamoa faoliyatiga oid barcha masalalarni hal qilgan. Mo'tabar shaxslarning topshiriq va buyruqlari jamoa a'zolari uchun majburiy hisoblangan.

Ishlab chiqarish jamoalari tarkibini tashkil etgan har bir oila o'z xususiy mulkiga ega bo'lgan. Xususiy mulkning kelib chiqishi, jamoalarning ishlab chiqarish qonun-qoidalari asosida tashkil topishi o'z navbatida mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqardi. Boylik, avvalo, jamoa oqsoqollari, harbiy boshliqlar, mo'tabar shaxslar qo'lida to'plana boshladi. Ular yerlarning hosildor qismini egalladilar, ko'plab chorva mollariga ega bo'ldilar. Oqsoqqollar oila jamoalari, urug' va qabila ishlarini boshqargani uchun jamoachilar ularga yetishtirgan hosillarining, chorva mollarining bir

⁹ Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2006. -B. 46.

qismini berishga majbur bo'lgan. Oqsoqollar o'z iste'molidan ortib qolgan bunday mahsulotlarni mis, oltin, kumush buyumlariga ayirbosh qilganlar.

“Avesto”(Ovasto)-(parfiyoncha: apastak-matn; ko'pincha “Zend-Avesto”, ya'ni “tafsir qilingan matn” deb ataladi) zardushtiylikning muqaddas kitoblari to'plami. Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, “Avesto” O'rta Osiyoda, xususan Xorazmda mil. avv. 1-ming yillikning 1-yarmida vujudga kelgan deya hisoblanadi. “Avesto” da keltirilgan geografik ma'lumotlar ham buni tasdiqlaydi. “Avesto” uzoq vaqt mobaynida shakllangan. Unda keltirilgan ma'lumotlarning eng qadimgi qismlari mil. avv. 2-ming yillik oxiri 1-ming yillik boshiga oid bo'lib, og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tib kelgan. Keyingi asrlarda “Avesto” tarkibiga turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar ham qo'shilib borgan. “Avesto” ni Zardusht diniy asar sifatida bir tizimga solgan. Dastlabki yozma nusxasi esa 12 ming qoramol terisiga bitilgan deb rivoyat qilinadi. U Persepolda saqlangan. Aleksandr (Makedoniyalik Iskandar) Eronni zabt etganda, bu nusxa kuydirib yuborilgan. Arshakiylardan Vologes I davri (51-78)da qayta kitob qilingan, lekin u saqlanmagan. Sosoniylar davri (III-VII) asrda yaxlit kitob holiga keltirilgan. “Avesto” 21 nask (qism) dan iborat bo'lgan. Uning hajmi katta kitob bo'lganligi sababli dindorlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun uning ixchamlashtirilgan shakli “Kichik Avesto” yaratilgan. Arablar Eronni fath etgach zardushtiy ruhoniylarining bir qismi Hindistonga ko'chib o'tgan. Ularning avlodlari (parslar) Bombey shahrida o'z jamoalarida hozirgacha “Avesto” ning asl nusxasini saqlab keladi. Fransuz tadqiqotchisi Anketil Dyuperron zardushtiylik jamoasida yashab, “Avesto” tilini va yozuvini o'rganib, uni tarjima qilib nashr etgan (1771 y). “Avesto” ning bu nusxasi 27 jildan iborat bo'lib, asarning yettidan bir qismidir. U Yasna, Vispered, Vendidad, Gotlar va Yashtlar nomi bilan yuritiladigan kitoblarni o'z ichiga oladi. Kitobda bayon etilgan g'oyalarga ko'ra, olam ikki asosning, ikki ibtidoning, ya'ni yorug'lik bilan zulmatning, yaxshilik bilan yomonlikning to'xtovsiz kurashidan iborat. Yaxshilik va ezgulik xudosi Ahuramazda yer, o'simlik va boshqa hamma tabiiy boyliklarni yaratgan. Yomonlik va yovuzlik timsoli Anxramanyu Ahuramazdaga qarshi to'xtovsiz kurashadi, ammo uni yengishga ojizlik

qiladi. Bu kurash abadiy davom etadi. Yaxshilikni ifodalovchi kuchlar osmonda, yomonlikni ifodalovchi kuchlar yer ostida joylashgan, yer sathi esa kurash maydonidir. Hayotdagi turfa o'zgarishlar qaysi kuchning g'alaba qilishiga bog'liq. Inson ham tana va ruhning, axloq esa yaxshi va yomon xulqning o'zaro kurashidan iborat. Cheksiz, abadiy fazo va vaqt ham ikki qarama-qarshi qismdan: yaxshilik va Ahuramazda hukmron bo'lgan abadiy yorug'lik bilan yomonlik va Anhramaynu hukmron bo'lgan abadiy zulmatdan tashkil topadi. "Avesto" ta'limotiga ko'ra, birinchi inson Govamard (ho'kiz-odam; forscha Kayumars) bo'lib, undan barcha kishilar tarqalgan. Birinchi shoh Yima davri oltin davr hisoblangan, chunki unda o'lim bo'lmagan, Ahuramazda doimiy bahor yaratgan. Kishilar bekamuko'st, baxtiyor yashagan. 900 yil o'tgach shoh Yima g'ururga berilib, man etilgan sigir go'shtini yeydi va yovuzlik ramzi Anhramaynu hukmidagi kuchlar bosh ko'taradi. Olamni muzlik qoplaydi. Yima Ahuramazda amri bilan odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlab qolish uchun qo'rg'on (var) qurib, unga har bir jonzotdan bir juftini joylashtirgan. Insoniyat tarixining ilk oltin davri tugagach, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash davri bo'lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Ahuramazda g'alaba qilib, ezgulik saltanati barqaror bo'ladi, o'lganlar tiriladi. "Avesto"ning axloqiy-falsafiy mohiyati "ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu amal" hisoblangan. Zardushtiylarning ibodat oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu 3 ibora bilan boshlanadi. "Avesto" O'zbek, umuman O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadim davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy madaniyatlarini o'rganishda muhim va yagona manba hisoblanadi. "Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir"¹⁰.

O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan YUNESKO Bosh konferensiyasi 30-sessiyasi "Avesto" yaratilganining 2700 yilligini dunyo miqyosida nishonlash haqida qaror qabul qildi (1999-yil. noyabr). "Avesto" ning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o'rnini hisobga olgan holda hamda yuqoridagi qarordan kelib chiqib O'zbekiston

¹⁰ Karimov I. A. "Adolatli jamiyat sari". -T.: 1998. -B. 39-40.

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror e'lon qilib (2000-yil 29-mart), "Avesto"ning 2700 yilligini nishonlash tadbirlarini belgiladi. Unga ko'ra 2001-yilning oktabr oyida O'zbekistonda xalqaro ilmiy konferensiya va tantanali bayram tadbirlari o'tkazildi.

"Avesto" jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. Zardushtiylik e'tiqodiga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi sifatida yagona tangriga topinish shu ta'limotdan boshlangan. Bu kitob tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turadi.

"Avesto" oromiy va pahlaviy yozuvlari asosida yaratilgan maxsus alifboda dastlab to'qqiz ho'kiz terisiga yozilgan. Ilk nusxalari asosida sosoniylar (mil. avv. VII-III asr) davrida 21 kitob holida yig'ilgan, bizgacha ularning chorak qismi yetib kelgan. Tiklangan matnga "Zand" nomi bilan sharhlar bitilgan.

"Avesto" to'rt qismdan iborat:

1-Yasna ("Diniy marosimlar")

2-Yasht (ma'no jihatdan Yasnaga yaqin),

3-Visparad ("Barcha ilohlar haqidagi kitob")

4-Vendidad ("Yovuz ruhlarga qarshi qonunlar majmuasi").

"Avesto" insoniyat sivilizatsiya tarixining ilk sahifalarini tashkil etgani uchun jahon olimlarining e'tiborini tortgan. Kitob borasida F.Nitsshe, F. Shpigel, A. Mayllet, V. Bartold, E. Bertels, Yan Ripka, O. Makovelskiy, I. Braginskiy kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlari mavjud. O'zbekistonda "Avesto" ni o'rganish qadimdan boshlangan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Jafar Tabariy, Abu Baxr Narshaxiy asarlarida "Avesto" ta'limotiga va unda tilga olingan timsollarga murojaatlar mavjud bo'lgan. Hozirgi o'zbek olimlari A.Qayumov, H. Homidov, M. Is'hoqov, N. Rahmonovlarning ilmiy tadqiqot va maqolalari e'tiborli. Hukumatimiz qarori bilan 2001-yilda "Avesto"ning 2700 yilligi nishonlandi. Bundan tashqari "Avesto"da zardushtiylikning umumbashariy ahamiyati va mohiyatidan tashqari unda o'lkamizda ilk boshqaruv tizimining amal qilinganligi to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Mamlakatni idora qilgan shaxs "Kavi" deb yuritilgan.

Oqsoqollar kengashi–“varzanapoti”, “Xanjamana”, xalq yig‘ilishi-v’yaxa deyilgan¹¹.

Tarixchilarning ma’lumotlariga qaraganda, eramizning birinchi asrida ashkoniylar podshosi Valages Ariakid, III asrga kelib, Xusrav Parviz, Shopuri Xurmuzd davrida bu muqaddas kitob bir necha bor ko‘chirilgan. Shu sabablarga ko‘ra, keyingi vaqtlarga qadar “Avesto” ning vatani, ya’ni qaysi davlatga, xalqqa mansubligi haqida biror to‘la ma’lumotlar berilmagan edi. Keyingi vaqtlarda chop etilgan ilmiy-tarixiy maqolalarda Avestoning vatani Xorazm ekanligi takidlanib kelinmoqda. Xorazm “Avesto” ning ilk markazi kabi ma’lumotlarni uchratamiz¹².

“Muqaddas Avesto” ning 2700 yillik yubileyi shodiyonalari 3-noyabr 2001-yili ko‘hna Urganch shahrida “Avesto” ning vatanida bo‘lib o‘tdi. Bu tantanalarda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov qatnashib o‘zining sermazmun nutqida: “Avesto” birgina O‘zbek xalqining tarixiy ilmiy-madaniy yodgorligigina emas, balki u butun umumbashariyatning bebaho durdonasidir-deb ta’kidladilar. “Avesto” ning qancha qismdan iboratligi, umumiy mundarijasi, zardushtiylik diniy-falsafiy tizimi to‘g‘risidagi asar ekanligi haqida “Denart” da (IX asrga mansub) keltirilgan ma’lumotlarga mavjud. Bu asarda “Avesto” ning 21 nask qismdan iboratligini qayd qilinib, ularning mazmuni qisqacha bayon etiladi. “Avesto” sosoniylar davrida muqaddas hisoblangan va xalq orasida ishlatilmaydigan tilda yozib olingan. Bu tilni, hatto, ruhoniylar ham tushuna olmaganliklari sababli o‘sha davrning adabiy tili hisoblangan pahlaviy tiliga tarjima qilingan va uning asosiy mazmuniga keng sharhlar berilgan. Bu tarjima va sharhlar “Zend” nomi bilan ma’lum. Shu tufayli o‘tgan asrda Yevropada “Avesto” kitobi “Zend Avesto” deb noto‘g‘ri nomlangan. “Avesto” katta hajmda bo‘lganligi sababli dindorlarning kundalik faoliyatida foydalanishi uchun “Kichik Avesto” yaratilgan. “Kichik Avesto”, “Katta Avesto” dan tanlab olingan duolar to‘plamidan iborat bo‘lgan va bizgacha Avestoning juda oz qismi yetib kelgan.

¹¹ Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2006. –B. 55.

¹² Ziyokor gazetasining 2000-yil mart, aprel, may sonlaridagi maqolalarga qarang: Tilab Maxmudov. Avesto haqida. – T.: 2000.

Vendidodda jinoyatlar tasniflani, bizning kunimizgacha ulardan faqat oxirgi kitob Vendidod (forscha Vendidat – “Devlarga qarshi qonun”) yetib kelgan. Zardushtiylik huquqining ushbu yodgorligi zardushtiylik dini davlat maqomini, zardushtiylik esa davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yo‘qotgan davrda jamoa turmushi qattiq tartibga solinganligadan dalolat beradi. Shu sababli Vendidodning ko‘plab huquqiy qoidalari Yaxve dini jamoasi alohida bo‘la boshlagan davrda tuzilgan.

Shu bilan birga Vendidodning huquqiy qoidalari ancha dunyoviy zaminga xos xususiyatlarga egadir. Garchi besh kitobda va Vendidodda qonunlar Xudoning kashfiyoti sifatida taqdim etilgan bo‘lsaham, tadqiqotchilar ushbu kashfiyotning xususiyatidagi tafovutini qayd etadilar. Masalan, S.Ganbarov tomonidan yozilgan “Avesto”da siyosiy va huquqiy g‘oyalar” tadqiqotida Vendidodda jinoyatlar tasnifi misolida yaxshi ko‘rish mumkin:

- Birinchidan, dinga qarshi jinoyatlar: bid’at, boshqa din vakili bilan nikohga kirish, ruhoniylilik vazifasini qonunsiz bajarish.
- Ikkinchidan, shaxsga qarshi jinoyatlar: qasddan hujum qilish yoki jazava holatida hujum qilish, tahdid qilish, shifokorning zararli xatti-harakati, homiladorlik paytida ayolning sog‘lig‘iga qarshi jinoyatlar.
- Uchinchidan, hayvonlarga, ayniqsa, kuchuklarga qarshi jinoyatlar.
- To‘rtinchidan, mulkiy jinoyatlar: o‘g‘irlik, talon-toroj, bosqinchilik, firibgarlik. Xasislik mulkiy jinoyatlarning alohida turi hisoblangan. Chunki, “kimki adolatli iltimosni rad etsa ... aslida ashyo so‘rayotgan o‘g‘ri hisoblanadi”.
- Beshinchidan, axloqqa qarshi jinoyatlar: fohishabozlik, er-xotin xiyonati. Bundan tashqari ko‘rsatilmagan yordam ham qattiq jazolanadigan axloqiy jinoyat hisoblangan.
- Oltinchidan, tabiat kuchlariga qarshi jinoyatlar: yerga, suvga, olovga va o‘simlik dunyosiga qarshi jinoyatlar, ayniqsa, yerning isloflanishi bilan bog‘lik jinoyatlar. Tabiat kuchlarining o‘zi va hayvonlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlari to‘g‘risida maxsus to‘xtab o‘tilgan.

Tabiat kuchlari va hayvonlar o'sha paytdagi zardushtiylik huquqida jinoyat obyektlarigina bo'lib qolmasdan, balki subyektlari ham hisoblangan¹³.

Denkart asarida Ahura Mazdaning kashfiyoti uch turga bo'linishi haqida so'z yuritiladi: gazanig-oliy ma'naviy bilim va burch; darig (qonuniy)-dunyoviy bilim va dunyoviy burch; hada mapsrig-ushbu ikki soha (ya'ni sharhlar o'rtasida joylashgan barcha narsa)

Xisrav I (531-579 yy.) hukmronligi yillarida tuzilgan Sosoniylar qonunlari majmui-"Bir ming sud qarorlari kitobi" da huquqshunoslik kasbining katta diniy ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Din va huquqning aloqasiga, jumladan, sud ishlariga bunday qarash tasodifiy emas edi. Eronda kodekslashtirilgan huquq mavjud emas edi. "Denkart"ga muvofiq sudyalari (ular kohinlar tabaqasiga kirar edi) "Avesto" va Zandda ("Avesto"-ga forsha sharhlar) asosida qaror chiqarishlari kerak bo'lgan; oliy kohin (magupat) sudyalari va amaldorlarning har qanday qarorlarni bekor qilishi mumkin edi¹⁴.

Zardushtiylik huquqining yirik tadqiqotchisi A. Perixanyan "Avesto" da "ayollar huquqi" haqida qayd etadi.

Bugungi kunda huquqshunoslarimiz tomonidan tadqiq etilayotgan ilmiy tadqiqotlar inson huquqi muammolariga bag'ishlanayotgan bo'lsa, ushbu masalaning ilk yechimi sifatida yana "Avesto" ga murojaat etish mumkin. Jumladan, bolalarning huquqi to'g'risida "Avesto", -deb qayd etadi S. Ganbarov-tug'ilgan yoki hali tug'ilmagan bolalar huquqlarini qat'iy muhofaza qiladi ("Vendidod", XV, 36-39)". Voyaga etmagan bolalarni ota-onalaridan olib ketish, vasiysiz qoldirish og'ir jinoyat sifatida qaralgan. Bolalarni juda yoshligidan fanlarga o'qitish tavsiya etilgan. "Agar sening o'g'ling bo'lsa, deyiladi: "Adurbada maslahatlari"da, - uni bolaligidan maktabga ber, chunki o'qish-ko'zning nuri" deb qayd etgan. Ijtimoiy munosabatlarda o'sha davrlardagi boshqa dinlarda bo'lgani singari zardushtiylikda qulchilik qoralangan, biroq qul zardushtiylikda muayyan huquqlarga ega bo'lgan. Bir qator hollarda u o'z hukmdoriga qarshi da'vo qo'zg'ashi ham mumkin bo'lgan¹⁵.

¹³ Xamidova M. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. -T.: 2005. -B. 10.

¹⁴ Xamidova M. O'zbekiston davlat va huquq tarixi. -T.: 2005. -B. 12

¹⁵ Xamidova M. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. -T.: 2005. -B. 12.

“Vandidod” ning IV fargard, 4-12-bandlar tahlili asosida shartnomaviy munosabatlarning xususiyatini ta’kidlash mumkin, zero har bir keyingi bitimda avvalgi bitimdagiga qaraganda, qimmatliroq bo’lgan obyekt qo’yilgan va u avvalgisining kafolati sifatida chiqqan. “Vendidod” ga muvofiq, har bir buzilgan yoki bajarilmagan shartnoma katta qiymatdagi yangi shartnomani tuzish bilan almashtirilishi zarur. “Vendidod” jazolash tizimi bilan shartnomaning bajarilishini kafolatlaydi. “Vendidod” mutlaqo aniq qat’iy buyruq shaklida tuzilgan, agar bir tomon “bitimda aldagan bo’lsa” jismoniy jazolashni qo’llashni ko’rsatadi, IV fargardning 36-53-bandlari og’zaki bitimda aldaganlik uchun 300 marta tikanak bilan jazolashni va 300 ta kaltaklashni, qo’l berishib tuzilgan bitim buzilgani uchun 600 marta tikanak bilan jazolashni, 600 marta kaltaklashni belgilagan. Shuningdek, ahdni buzgan kishining yaqin qarindoshlarining gunohini yuvuvchi tavba-tazarrusi yaqinlariga mas’uliyatni ham belgilaydi. Yaqin qarindoshlarga nisbatan belgilangan jazo choralari ahdni buzgan kishini jazolashning asosiy choralariga, jumladan, jismoniy jazolashga qo’shimcha hisoblanadi¹⁶.

“Avesto” bo’yicha qarindoshlar guruhlariga tilga olinadi. “Vendidod” qarindoshlikning to’qqiz bosqichini quyidagidek ta’riflaydi:

1) ota-onalar; 2) farzandlar; 3) aka-uka va opa-singillar; 4) bobo va buvi; 5) nevaralar; 6) tog’alar va xolalar; 7) amakivachchalar va ammavachchalar; 8) jiyanlar; 9) aka-uka va og’a-singil nevaralari.

Zardusht ta’limotida qarindoshlik munosabatlari otalik, merosxo’rlik, o’zaro huquq va majburiyatlar, qonunlarni buzganlikdagi javobgarliklarni tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo’lgan. “Avesto” ni o’rganish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Jazo ma’lum uchlikni buzganlik sharoitlarida belgilanadi.
- O’zga fikrlovchilar uchun qattiq jazo belgilanadi.
- Qattiq jazo qasddan qilingan jinoyatlar, dinga qarshi jinoyatlar, takroriy jinoyatlar uchun belgilanadi. Bunda jazo takroran qilingan jinoyatlar soniga qarab oshadi.

¹⁶ Xamidova M. O’zbekiston davlati va huquqi tarixi. -T.: 2005. -B. 13.

- Jazoning bir turini boshqasi bilan birga qo‘shish xarakterli hisoblanadi.

- Ba’zi jinoyatlar “Avesto” bo‘yicha kechirilmas hisoblanadi.

- Jinoyatlarning ma’lum turi uchun jamoa javobgarligi belgilangan, bunda oila a’zolaridan birining gunohi qarindoshlarga yoyiladi.

“Avesto”ni o‘rganish jinoyatlarni quyidagicha klassifikatsiyalashni taklif etishga imkon beradi;

- dinga qarshi jinoyat;
- shaxsga qarshi jinoyat;
- hayvonlarga qarshi jinoyat;
- mulkiy jinoyat;
- axloqqa qarshi jinoyat;
- tabiat kuchlariga qarshi jinoyat

“Avesto” da sud va sudda ishlarni ko‘rish masalalariga ham katta e’tibor berilgan. Sud vazifalarini bajarish jamoa imtiyozi bo‘lgan, deb o‘ylash mumkin. Shu bilan birga “Avesto” odil sudlov uchun maxsus mo‘ljallangan shaxslar haqida shohidlik beradi.

Sud jarayoni, “Avesto” dan ko‘rinishicha, ma’lum marosimda, asosan, duolar o‘qish tegishli shaklda aytilishi bilan o‘tkazilishi lozim. Sudda ishni ko‘rish, chamasi, muhobalashuv, ya’ni munozaralashuv tusida bo‘lgan, ishni hal etishdan oldin qoida buzuvchining aybi qator masalalarni, aybdorlik shaklini - qasddan yoki ehtiyotsizlik tufaylimi, qattiq hayajon holatida, birinchi marta yoki takroran qoidani buzganlik, aybdor o‘z aybini tan oladimi, aybdorning diniy mansubligi va boshqalar aniqlangan. Demak, “Avesto” da jamiyat hayoti, aholi va inson manfaatlari daxlsizligi masalasi ham alohida o‘rin egallaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topgan va rivojlanib borayotgan vatanimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u bosib o‘tgan yo‘l uzoq davrni tashkil etadi. Biz fikrimizni O‘rta Osiyo hududida shakllangan qadimgi davlatlar va ularning boshqaruviga doir fikr va xulosalarimizni aytib o‘tib o‘sha davrdagi boshqaruvning qanday yo‘sinda bo‘lganligini yana bir bor oydinlashtirishni o‘zimizga joiz deb

bildik. Boshqaruv shakli-mutlaq monarxiya. O'zbekistonning qadimgi tarixida u bunday tipdagi va boshqaruv shaklidagi davlat tarkibiga kirgan bir necha davrlar bo'lgan.

Miloddan avvalgi 539-yildan boshlab miloddan avvalgi 330-yilgacha Ikki daryo oraligidagi deyarli butun hudud, Fargona va Chochdan tashkari, Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan Eron shohlari hukmronligiga bo'ysungan. Xorazm, Sug'd, Baqtriya, shuningdek, saklar muayyan ma'muriy birliklar-satrapliklarni tashkil etgan. Ularga Ahamoniylar podsholari tomonidan tayinlanadigan satraplar boshchilik qilgan va ular davlat g'aznasiga ma'lum miqdorda o'lpon to'lagan.

Shimoliy Baqtriya milodiy III asr o'rtasidan boshlab milodiy IV asr oxirigacha Sosoniylar podsholigi drisdiksiyasi ostida bo'lgan. Ularning tarkibiga kirgan Baqtriya maxsus huquqlardan foydalangan. Kelib chiqishi Sosoniylar sulolasining har xil shahobchalariga tegishli bo'lgan, kushonlar unvoniga hamda oltin, kumush va mis tangalar zarb qilish huquqiga ega bo'lgan sosoniy shahzodalar turgan. Ularning ayrimlari keyinchalik butun davlatning podshosi bo'lganlar.

Davlat tipi-konfederativ podsholik bo'lib, boshkaruv shakli-cheklangan monarxiya hisoblangan. Davlatlarning ushbu tipiga Qang' va Yuechji davlatlarini yoki Katta Yuechji davlatining kushonlargacha mavjud bo'lgan birinchi davrini kiritish mumkin. Ular odatda qabila boshliqlari yoki o'z tangasini zarb qiluvchi urug' boshliqlari tomonidan boshqariladigan bir nechta mustaqil o'lkalardan iborat bo'lgan¹⁷.

Misol uchun, Qang' davlati hududida kamida beshta mana shunday o'lka mavjud bo'lgan. Bular: Buxoro va uning atrofi (1). Uning hukmdorlari Yevtidem tangalariga taqlid qilib o'z nomlari va unvonlari bitilgan tangalar chiqargan. Buxoroning janubi-sharqi (2) va Samarkand Sug'dining shimoli-g'arbi (3). Bu yerda Girkod sulolasidan chiqqan dohiylar hukmdorlik qilgan, har xil shohlarning nomlari bitilgan o'z tangalarini chiqargan. Samarqand So'g'di (4) hamda o'zi mustaqil tanga zarb etgan Janubiy So'g'd (5) o'lkalari bo'lgan. Ayni vaqtda ushbu

¹⁷ Xamidova M. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. - T.: 2005. -B. 14.

o'lkalar uchun umumiy bo'lgan Qang'ning zarb qilingan tangasi muomilada bo'lmagan.

Davlat tipi-egallik qilish bo'lib, boshqaruv shakli-qabila doxiylari yoki urug' boshliqlarining meros qilib qoldiriladigan hokimiyat hisoblangan.

Davlat birlashmasining ushbu tipi kichikroq o'lka bo'lgan. Bu haqida Yunon-Baqtriya podsholigi qulagach Baqtriyaga kelgan Chjan-Szyan tomonidan miloddan avvalgi 128-yilda qayd etilgan. Elchining ma'lumotlariga ko'ra Baqtriyada ko'plab mayda mustaqil o'lkalardan iborat bo'lib, bu yerdagi deyarli har bir shahar o'z hukmdoriga ega bo'lgan. Xitoy manbalarida O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i hududida 55 ta o'lka mavjudligi ko'rsatiladi. Ular muayyan mustaqillikdan foydalangan va o'z tashqi siyosatini yuritishgan, jumladan, Xitoy bilan diplomatik munosabatlar o'rnatgan.

Davlatning mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lishi har xil muassasalarning, shu jumladan, soliqlar yig'ish bilan shug'ullanadigan muassasalarning mavjud bo'lishi bilan belgilanadi. Bu haqda yu.f.d.prof. A.Saidov, E.Rtveladze, E.Abdullayevlar hammuallifligida yozilgan "Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar" asarida O'rta Osiyo, shu jumladan qadimgi O'zbekiston hududida soliqlar mavjud bo'lganligi va u Ahamoniylar davridan amal qilgani qayd etiladi.

Ma'lumki, Ahamoniylar podsholigining butun hududi 20 satraplikka bo'linadi. Ulardan Baqtriya, Sak, Xorazm, Parfiya, So'g'd va Xarayva O'rta Osiyo hududida joylashgan bo'lib, ularning har qaysisi Ahamoniylar podshosining xazinasiga muayyan miqdorda soliq to'lashi shart bo'lgan. Soliq og'irlik o'lchovi-talantda ifodalangan va u 25,92 kg teng bo'lgan.

Ahamoniylar podsholigi satraplari, shu jumladan, O'rta Osiyo satraplari pul soliqlaridan tashqari natura shaklida ham o'lpon to'lashlari shart bo'lgan. Bu haqda, Doro I ning Suzadagi saroy qurilishi uchun Baqtriyadan oltin, Sug'diyonadan lojuvard, kumush titrat, Xorazmdan yarqirama rangdor toshlar keltirilgani tarixdan ma'lum.

Oʻrta Osiyoning janubiy viloyatlari Iskandar Zulqarnayn tomonidan bosib olingach, hamda Salavkiylar va Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga kiringach, bu hududda ellinistik dunyoga xos xususiyatlar tashkil topgan. Bu davlatlar boshqaruvi va davlat idoralari haqidagi maʼlumotlarni keyingi mavzularimizda bayon qilamiz.

Arab olimi Isfaxoniy qayd etganidek, “qonun tushunchasi zardushtiylikning eng ilk bosqichlarida uning muhim qismi boʻlgan...Zardushtiylik muqaddas adabiyotining uchdan bir qismi qonunning turli bosqichlari va sohalarida unga tegishli boʻlgan”, “Avesto” “amaliy qonunlari” ning maqsadi esa, “barcha jihatlaridan uygʻun boʻlgan uyushgan, gullab–yashnagan jamiyatni yaratish” boʻlgan.

Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Venn diagrammasi”** interfaol usuli orqali tushuntirish.

Mavzu mashgʻuloti uchun topshiriqlar:


1. “Avesto”ni oʻrganish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish kerak

A* Jazo maʼlum uchlikni buzganlik sharoitlarida belgilanadi

B* Oʻzga fikrlovchilar uchun qattiq jazo belgilanadi

S* Qattiq jazo qasddan qilingan jinoyatlar, dinga qarshi jinoyatlar, takroriy jinoyatlar uchun belgilanadi.

Masalaning oʻzaro bogʻliqligini xulosalash uchun yuqoridagi tushunchalar tanlandi.



Ma'ruza mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri "Venn diagrammasi" interfaol usuli haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim
- Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar yaxshi o'zlashtirilishi kerak
- "Venn diagrammasi" interfaol usuli qiyosiy tahlilga asoslangan bo'lib, masala mohiyati unga yaqin bo'lgan tushuncha va ma'lumotlar orqali o'zlashtiriladi.
- 1-, 2-, 3- tushunchalar to'g'risida to'liq ma'lumotlar berilganidan so'ng, ularni bog'lovchi xususiyatlarni A)* va B)* qatorga to'ldiriladi hamda tegishli xulosaga kelinadi.

Ma'ruza mashg'ulot uchun yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **"Pochta"** usulini amalga oshirish.

1. Bir nechta (mavzuga mos) konvert olib uning ustiga eng zarur bo'lgan asosiy yozuvlarni yozib qo'yadi va ularni stol ustiga ko'zga ko'rinarli qilib joylashtiriladi.

Masalan:

Dinga qarshi jinoyatlar

Shaxsga qarshi jinoyatlar

Hayvonlarga ayniqsa itlarga qarshi jinoyatlar

O'g'irlik, talon-toroj, bosqinchilik, firibgarlik jinoyatlar

1. Endi bu rejalarga mos fikr va atamalar yozilgan qog'ozchalar tarqatiladi.
2. Qaysi fikr yoki atama konvertlardagi rejalarga mos kelsa o'sha konvertga solinadi.
3. Savollarga aniq javob topib konvertga joylashtirilishi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi davlat uyushmalarining vujudga kelishidagi shart-sharoit nimalardan iborat edi?
2. "Avesto" ning yaratilish tarixi haqida tushuncha bering?
3. "Avesto" da qanday huquqiy munosabatlar bayon qilingan ?

4. Vendidodda jinoyatlar tasnifi va ular qanday qo‘llanilgan?
5. “Avesto” da davlat boshqaruvi va soliq masalalari haqida nimalarni bilasiz?
6. Oqsoqolla kengashi vazifa va vakolatlari bo‘lganmi?
7. Cheklanmagan manarxiya deganda nimani tushunasiz?
8. “Avesto” ning 2700 yillik yubileyi qachon nishonlandi?
9. Baqtriyaga qachon Chjan-Szyan kelgan?
10. Ahamoniylar davrida jami nechta satraplikga bo‘lingan?
- 11.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. T., “O‘zbekiston”, 2021-yil.
2. Orziyev M.Z, Ergashyev J. Yu. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Buxoro. “Durdona”. 2021-yil.
3. Abdirahimova N.A, Isakova M.S, Suleymonova Z.M. Davlat muassasalari tarixi.-T., “Sharq”, 2007-yil.
4. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T., “Sharq”, 2012-yil.
5. Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S. O‘zbekiston tarixi.-T., “Iqtisod-Moliya”, 2006-yil.
6. Xamidova M. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi.-T., “Sharq”, 2005-yil.
7. Murtazayeva R.H. O‘zbekiston tarixi. -T., “Yangi asr avlodi”, 2003-yil.
8. Ziyokor gazetasining 2000-yil mart, aprel, may sonlaridagi maqolalarga qarang:

Axborot manbalari

9. www.ziynet.net
10. www.history.ru

3-Mavzu: O‘rta Osiyoda Ahamoniylar davrida davlat boshqaruvi.

Reja:

- 1. Ahamoniylar davlatining vujudga kelishi, bosqinchilik yurishlari.**
- 2. Ahamoniylar hukmronligi davrida davlat boshqaruv apparati.**
- 3. Ahamoniylar davlatining qo‘shin turlari va O‘rta Osiyoni satrapliklarga bo‘linishi.**
- 4. Madaniyat va din.**

Tayanch tushunchalar

Tayanch tushunchalar: Ahamon, parsumi, talant, Bessmertnix, Elamtu, Kir, Kambiz, Doro, Frada, sak, massaget, satrap, satraplik, dinastiya, gonsa, talan, hazorapatu, irrigatsion sistema, “shoh yo‘li”.

O‘tmishga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qadimgi sharq imperiya va boshqa podsholik-u saltanatlari o‘zining katta masofalarga cho‘zilganligi va ko‘p sonli aholiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga ular tabiiy geografik sharoiti, til tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va madaniyati jihatdan bir xil bo‘lmagan xalqlarni o‘z qo‘l ostida birlashtirib, ular ustidan hukmronlik qilishgan. Yuqorida aytib o‘tilgan davlatlarning tayanchi biror ma‘lum bir vaqt barqaror boshqaruvining sababi sifatida ba’zilar qudratli qo‘shinni ko‘rsatsa, boshqalar bu davlat tarkibidagi xalqlar bir-biriga yaqin va doimiy aloqada ekanligi hamda ular rivojlanish darajasi deyarli bir xil ekanligini ta’kidlashadi. Sharqda qadimgi davlatlar chegaralari atrofida yashovchi aholining kamchiligi bir tilda gaplashgan. Qadimda faqatgina bir nechta davlatlarda butun aholi bir tilda so‘zlashgan. Yoki teskarisi, masalan, Ahamoniylar imperiyasi juda ulkan hududni egallagan bo‘lib, undagi xalq, elat, qabila-yu, qavmlar ko‘p sonli va turli tilda so‘zlashar edilar.

Qadim zamonlardan boshlab Urmiya ko‘lining janubiy tomonlarida parsua qabilalari yashar edilar. Mil.avv. VIII-VII asrlarda ular Elamga ko‘chib ahamon urug‘idan chiqqan sardor atrofida birlashganlar, ular dastlab podsholari Kayxusrav I

(Kir I) davrida Ossuriyaga, Kambiz I davrida (mil. avv. 600-559) Midiyaga itoat etganlar. Kambiz I bilan Midiya shohi Astiagning qizi o'rtasidagi nikohdan Kir II (Kayxusrav II) dunyoga keladi. Kambiz I vafot etgach Parsua taxtiga Kir II o'tirib, mil.avv. 559 yilda Pasargada shahrini qurdirib, uni davlat poytaxtiga aylantiradi. Mil. avv. 553-549 yillar mobaynida olib borilgan urushlarda Kir II bobosi Astiag qo'shinlarini yengib, Midiya va Elamni Parsuaga qo'shib oladi. Shu tariqa Ahamoniylar sulolasi asos solgan Ahamoniylar ya'ni Eron davlati tashkil topadi. Bu davlat qariyb ikki yuz yil mobaynida yashagan. Uning hududlari Misrdan to shimoli-g'arbiy Hindistonga qadar cho'zilgan edi. Ahamoniylar davlati poytaxti Pasargad, Persopol, Suza shaharlari bo'lgan. Forslarga qadar Suzada elamitlar yashaganlar. Forslar dastlab faqat Janubiy Eron hududlarida yashaganlar. So'ngra ular butun Eron hududini egallaganlar. Ariylar qabilalari joylashgan yurt keyinchalik Eron deb atalgan¹⁸.

Kir II g'arbda Lidiya shohi Krass qo'shinlarini, shimolda armanlarni yengib, butun Kichik Osiyoni bosib oladi. Lidiya poytaxti Sard talanib, shoh Krass asir olinadi va o'ldiriladi, shundan so'ng Geradodning xabar berishicha "... Kir II yo'lida Bobil, Baqtriya xalqi, sak va misrliklar turar edi". Mil. avv. 545-530 yillar oralig'ida Eron shohi Bobilni ham bosib olib Hind daryosigacha bo'lgan yerlarni istilo qiladi. Mil. avv. 530-yilda Kir II O'rta Osiyo ko'chmanchilari massagetlar bilan bo'lgan jangda o'ldiriladi. Kir II o'ldirilgach, Eron taxtiga uning o'g'li Kambiz II o'tiradi. "... shundan so'ng Kambiz II bor e'tiborini g'arbga tomon qaratadi va natijada milloddan avvalgi 525-yilda Misr bosib olinadi". Uning Efiopiyaga uyushtirgan harbiy urushi muvaffaqiyatsiz tugaydi. U Misrda ekanida Gaumata boshliq eroniylar isyon ko'taradi. Isyonni bostirish uchun Erondan qaytayotganda Kambiz II o'l diriladi (522-yil) shundan so'ng Eron taxtiga Gaumata o'tirib, 7 oy podsholik qiladi. Behistun yozuvlarida (1, 50 51) keltirilishicha, Gaumatadan "Xalq qo'rqardi". Hattoki, ko'pchilik Fors xalqi birlashib Doro huzuriga kelishadi va uni taxtga o'tkazish kerakligini aytishadi. Shunday qilib, bu voqealardan ko'p o'tmay mil. avv. 522 yil 29 sentabrda Gaumata fitnachilar tomonidan o'ldiriladi, undan so'ng Eron taxtiga Ahamoniylar urug'idan bo'lgan Doro

¹⁸ Asqarov A.A. O'zbekiston tarixi. -T.: "O'qituvchi", 1994. -B. 130.

I o‘tiradi. (Mil. avv. 522-486-yillar) Doro I podsholigining dastlabki yillarida Bobil, Misr, Elam, O‘rta Osiya va boshqa hududlarda boshlangan qo‘zg‘alonlarni shafqatsizlik bilan bostiradi. Bu haqda Doro shunday deydi: “... Qachonki men buyuk shahanshoh Gaumatani o‘ldirganimda, faqat bitta Asina ismli kishi-Upadarmining o‘g‘li menga qarshi chiqib Elamda o‘z hukmdorligini boshladi. U xalqqa shunday dedi: “...men elam hukmdoriman”. Shundan so‘ng isyonchi elamlilar Asinani hukmdor deb tan olishdi. ...men u yerga “gonsa”¹⁹ yubordim. Asina tutib keltirildi va men uning boshini oldim”. Ahamoniylar davri aynan Doro I davrida o‘z qudratining cho‘qqisiga erishdi desak xato bo‘lmas. U mamlakatda osoyishtalik o‘rnatgandan so‘ng qator sohalarda islohotlar o‘tkazdi. Biz hozir Doro I umuman, Ahamoniy hukmdorlar boshqaruvi davrida O‘rta Osiyo va O‘rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, harbiy va ma‘muriy masalalarga to‘xtalib o‘tamiz, ularning barchasi Eron shohlarining, ayniqsa, Doro I ning islohotlariga bog‘liqdir.

Eron shahanshohlari ulkan hududlarga cho‘zilgan mamlakatni boshqarishda ularning etnik va geografik xilma-xilligini hisobga olib, ularning yuqori darajadagi ma‘muriy tuzilishni ishlab chiqishgan. Bu ma‘muriy birliklarda byurokratik tamoyillarga asoslangan apparat ildiz ottirildi, sababi hayotning turli tomonlarini qamrab olgan bu tizim ma‘muriy birliklarni so‘zsiz itoatda tutib turish imkonini berar edi. Bularning barchasi uchun asosiy narsa poytaxt hisoblanar edi. Poytaxt har qanday buyuk imperiyalarda ham ma‘muriy, madaniy va tranzit aloqalar markazi hisoblanadi. Poytaxt mamlakatning barcha shahar-u qishloqlarini o‘ziga birlashtirgan bo‘lsada, unda o‘ziga xos boshqa joylarga o‘xshamagan madaniy yo‘nalish me‘moriy uslubi bo‘ladi. Eronliklar shunday moliya va ma‘muriy apparat yaratgan edilarki, bu orqali imperiyaning barcha hududlariga bir xil boshqaruv tizimi asosida boshqarishar edi.

Shoh Doro I mamlakatni satrapliklarni o‘lpon to‘lovchi okruglarga bo‘ladi. Satrapliklar hozirgi viloyatlarga o‘xshaydi. Ahamoniylar davlatida

¹⁹ Elam va Midiya tillarida mavjud. Lekin Fors tilida tarjimasi yo‘q. Taxminiy fikrlarga ko‘ra “qo‘shin” bo‘lishi kerak degan fikrlar mavjud.

ular bosib olingan davlat hududiga to'g'ri keladi. Masalan, Misr bunga misol bo'la oladi.

O'rta Osiyo hududi ahamoniylar tomonidan 3 ta satraplikka bo'linib idora etilgan. Baqtriya Marg'iyona bilan birgalikda 12-satraplikni tashkil etgan. U podsho xazinasiga yiliga 360 talan jarima to'lagan. Parfiya, Xorazm, So'g'd va Areya birgalikda 16-satraplikni tashkil etgan va yiliga 300 talan jarima to'lagan. Saklar va kaspiylar esa 15-satraplik bo'lib, ular Doro I xazinasiga yiliga 250 talan jarima to'lagan²⁰.

O'rta Osiyodagi umumiy barcha satraplar o'z hududlaridagi eng qiyin va qattiq hujjat va sud ishlarini ham olib borishgan. Satrap (O'rta Osiyodagi) mahalliy zodagon rasmiylarga soliqlar yig'ilishini, xazina hisob-kitobini ishongan. Bundan tashqari ular jarchilik, tergovchilik va kotiblik ishlarini ham yuritganlar.

O'sha paytda ish yuritishda Bobil usuli tanlangan edi. Hujjatlar esa oromiy yozuvida bitilgan. Ahamoniylar davrida oromiy yozuvi qadimiy Akkadning mixxat yozuvini siqib chiqardi. Natijada oromiy yozuvi Osiyoda xalqaro savdo va diplomatik tilga aylandi. Ko'p sonli aholi ahvoli va byurokratiyani (qonuniylikni) nazorat qilish maqsadida saroyda maxsus tekshiruv guruhi "shohning ko'zi va qulog'i"- bir vaqtning o'zida qadimiy va yashirin politsiya tuzildi. Bu maxsus guruh mamlakatning barcha hududlarida faoliyat olib borgan. Ular hatto, satrap va harbiy qo'mondonlarni ham nazorat qilib turishgan.

O'rta Osiyodagi satrapliklar, aniqrog'i, XVI satraplik tarkibiga kiruvchi Parfiya janubiy Turkmaniston va shimoliy-sharqiy Eronning ma'lum hududlarida joylashgan edi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Parfiya yirik shaharlarni o'zida birlashtirgan harbiy-ma'muriy markaz sifatida muhim rol o'ynagan. Midiya manbalarida Parfiya o'ziga qo'shni bo'lgan ko'chmanchi oaziv qabilalari bilan yaxshi aloqada bo'lganligi va ular bilan to'g'ridan to'g'ri savdo ayirboshlash ishlarini olib borganligi qayt etilgan. Milloddan avvalgi 549-yil Elam bosib olingandan keyin ikki yil mobaynida Ahamoniylar qo'shini oldingi Midiya davlati tarkibiga

²⁰ Asqarov A.A. O'zbekiston tarixi. -T.: "O'qituvchi". 1994. -B. 133.

kiruvchi Parfiya, Girkaniya, Arman xududlarini bo'ysuntirishga kirishganligi manbalarda ham qayd etilgan.

Miloddan avvalgi VII asrning 40-30 yillarida Ossuriya podshosi Ashshurbanipal Elam davlatini tor-mor qilgach, forslar Elam hukmronligidan ozod bo'lib Midiyaga qaram bo'ladilar. Mil. avv. VI asrda forslar Midiya hukmronligini ag'darib tashladilar va uni davlatlari tarkibiga qo'shib oldilar. Mil. avv. 559-yilda Fors podshosi bo'lgan Kayxusrav I keyingi ikki yil davomida Parfiya va Girkaniyani bosib oladi. Mil. avv. 545-539-yillarda Kayvusrav hozirgi Afg'oniston, O'rta Osiyo yerlarini bosib oladi. Fors davlati hududi Hindistonning shimoliy-g'arbiy chegaralarigacha, Hindikushning janubiy yon bag'irlari va Sirdaryo havzalarigacha yetdi. Kayxusrav shimoliy-sharqiy yo'nalishlarda o'z ta'sirini mustahkamlagach, Bobilga yurish qiladi. 539-yilda 2 oy davomida(avgust-sentabr oylari) Bobil yerlari bosib olinadi. Bobil podsholigi rasman saqlab qolinadi, uning ijtimoiy tuzilmasi o'zgartirilmaydi. Bobil shahri Fors podsholari turadigan qarorgohlardan biriga aylanadi. Bobil davlat apparatida bobilliklar yetakchi o'rinda qolaveradi, bobilliklarning qadimgi diniy e'tiqodlariga fors podsholari homiylik qiladilar.

Parfiya va deyarli barcha satrapliklarda "shohning qulog'i va ko'zi" (militsiya)ning ishi yaxshi va samarali bo'lishi uchun "shoh yo'li" ni ta'mirlash ishlari olib borilgan. Ularga qum sepilib, ustidan tosh yotqizilgan. Savdo yo'li bo'l mish, "shoh yo'li" ning bir qismi, aslida, asosiy qismi O'rta yer dengizidan Eron poytaxtigacha (miloddan avvalgi VI-IV asrlarda sharqning buyuk davlati Eron Ahomoniylar davlati hududidagi savdo yo'li "shoh yo'li" nazarda tutilmoqda) cho'zilib, O'rta yer dengizi bo'ylaridagi Efes, Sard shaharlarini Eron poytaxti Suza (oldinroq Persopol) bilan tutashtirgan. Bu yo'l Parfiya orqali ham o'tardi. Savdo yo'lining shu qismida-Parfiya yo'lida ko'plab karvon saroy, ko'priklar bo'lib, hammasidan ham qizig'i qurilgan inshootlarni doimo habiylar qo'riqlab turganlar. Bular asosan tovarlar saqlanadigan omborlar bo'lgan.

Parfiya davlati Ahamoniylar davlati tarkibiga kirganligi haqida gapiradigan bo'lsak, u Midiya hukmdori Astiag (miloddan avvagi 625-

584) davrida mustaqillikka erishadi va yunon tarixchisi tili bilan aytganda “o‘z yurtlarini saklarga topshiradi”²¹ Xorazm bilan ittifoq tuzib Midiyaga qarshi kurashga shaylanayotganda Midiya davlati qulaydi (miloddan avvalgi 550-yil). Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida Parfiya ahamoniylar qo‘l ostiga tushadi va saltanatning XVI okrugi tarkibiga kiradi²².

Ahamoniylar davlati tarkibidagi mamlakatlarda deyarli bir xil boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Parfiyadan shimolroqda Murg‘ob vohasida Marg‘iyona joylashgan edi. Marg‘iyona suvga boy hudud hisoblanadi. O‘sha davrlarda (miloddan avvalgi VI-IV asrlar) Marg‘iyonada juda mukammal rejalashtirilgan irrigatsion sistema asosida sug‘orish inshootlari qurilgan bo‘lgan. Marg‘iyonada tokzorlar juda ko‘p bo‘lganligi hamda bog‘dorchilikdan tashqari dehqonchilining taraqqiy etishiga ham mana shu sug‘orish tizimi asos vazifasini bajargan.

O‘rta Osiyodagi muhim viloyatlardan biri shubhasiz, Baqtriya bo‘lib, uning muhimligini shunda ko‘rish mumkinki, uni yo taxt vorisi yo shoh qarindoshi boshqargan. Ahamoniylarning Baqtriya bilan ilk munosabatlari to‘g‘risida ma’lumotlar yetarli deb bo‘lmaydi. Doro davriga kelib esa Baqtriya qat’iy ravishda Ahamoniylar qo‘l ostidagi mulklar qatorida sanab o‘tiladi²³.

Doro Baqtriyaga o‘z noibi qilib fors Dodarshishni tayinlagan. Geradod qiziq bir ma’lumot qoldirgan. Kir va uning o‘g‘li Kambiz hukmdorligi davrida qaram mamlakatlardan muayyam bir soliq olinmagan. Biroq har bir tobe mulklardan ularga sovg‘a-salomlar yuborib turilgan. “Doroni forslar savdogar deyishlariga sabab, deb yozadi Geradod: u birinchi bo‘lib soliq tizimini joriy etganligidir”²⁴. Baqtriya mustahkam qo‘rg‘onni eslatgan. Ahamoniylar undan shimoli-sharqiy hududlarni boshqarishda tayanch sifatida foydalanishgan. Doro I soliq siyosatini o‘zgartiradi. Yangi umumdavlat soliq tizimini shakllantiradi. Har bir viloyat yer hajmi va hosildorlik darajasiga ko‘ra qat’iy belgilangan soliq

²¹ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchilik tarixi. -T.: “Sharq” 2000. –B. 43.

²² Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchilik tarixi. -T.: “Sharq” 2000. –B. 43.

²³ Bu yerda e’tibor Behistun yozuvlariga qaratilgan. Geradodning “Tarix” asarida satrapliklar soni va hududi haqida boshqacha ma’lumotlar keltirilgan.

²⁴ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchilik tarixi. -T.: “Sharq” 2000. –B. 35.

to'lovini amalga oshirishi shart bo'lgan. Ilk bor ayrim ibodatxonalar o'zlariga qarashli yerlardan soliq to'lashga majbur qilindi. Soliq to'lovi sifatida yig'ilgan pullar bir necha o'n yillar podsho xazinasida saqlangan. Faqat ularning bir qismi xarajatlar uchun ishlatilgan. Shu boisdan savdo uchun tanga pul doimo taqchil bo'lgan. Bu hol tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va natural xo'jalikni saqlanishiga olib keladi.

Forslarning o'zlari pul to'lovidan ozod bo'lib, natural to'lovga tortilganlar. Qolgan qaram xalqlar har yili 7740 bobil kumush talanti (232200 kg) miqdorda soliq to'laganlar. Pul-tovar munosabatlarining rivojlanishi pul islohotiga sabab bo'lgan. Miloddan avvalgi 517 yildan so'ng Doro I butun mamlakat miqyosida yagona pul birligi fors pul tizimining asosi 8,4 gr og'irlikdagi tilla tanga "darik" ni joriy qiladi²⁵.

Bizga ma'lumki, Doro I islohotlaridan so'ng mamlakat satrapliklarga bo'lindi. Satrapliklarni ma'muriy va harbiy vakolatga ega bo'lgan satrap boshqargan. Lekin keyinchalik harbiy vakolat undan olib tashlandi (o'zi boshidan deyarli bunday vakolat kam berilgan). Harbiy boshliq lavozimi joriy qilinadi. Bu ikki mansab ustidan maxfiy politsiya nazorat olib borgan. Ahamoniylar davlatida eng yuqori darajadagi ishlar bilan, xususan, barcha davlatlardagi shohning yaqinlari hamda davlat lavozimida ishlaydigan shaxslarning (hatto forslarning) ustidan ishonchli bo'lgan Hazarapatu (ming boshi)-bir paytning o'zida shohning shaxsiy gvardiyasining bosh qomondoni bo'lgan lavozim nazorat olib borgan. Shunday bo'lsada, aynan Baqtriyaga kelganda, bu masalaga shubha qilish mumkin. Manbalarda keltirilishigicha, Baqtriyaliklar boshqa xalq vakillari bilan tezda til topishib, ittifoq tuzishga usta bo'lgan ekanlar. Shuning uchun ham bu yerda boshqaruvchi sifatida faqat forslar (asosan, taxt vorisi yoki shaxzodalar) tayinlangan. Baqtriya haqida gap ketar ekan shuni ta'kidlab o'tish lozimki, miloddan avvali V asrda Baqtriyada tanga, pullar chiqarila boshlangan. Bu esa asta-sekin shimoliy hududlarda hukmron tabaqa mavqei tushib borganini ko'rsatadi. Baqtriyadan shimolda

²⁵ Karimov Sh., Shamsiddinov R. Vatan tarixi. –T.: 1997. –B. 12.

So‘g‘diyona joylashgan edi. So‘g‘diyona Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o‘z ichiga olib poytaxti Maroqanda²⁶ bo‘lgan.

Ahamoniylarga tobe bo‘lgan yana bir hudud Xorazm hisoblanadi. Ahamoniylar tobeligiga tushib qolganligi to‘g‘risida aniq bir ma’lumot berilmaydi, ammo Doroning buyrug‘i bilan Zagros qoyasiga (Erondagi Kirmonshoh shahridan 30 km masofada joylashgan) o‘yib bitilgan yozuvga ko‘ra Xorazm, So‘g‘diyona, Ariya, Parfiya Ahamoniylarga qaram 23 viloyat (Satrapiya) qatorida sanab o‘tiladi. Ayni guvohliklarni Persopoldagi (Erondagi Sheroz shahridan shimolda taxminan 50 km masofada joylashgan, 520-450 yillar orasida qurilgan) yozuvlardan ham topish mumkin²⁷. Lekin Doro I ning qabr toshi bitiklarida Ahamoniylar saltanatida tobe mamlakatlar ro‘yxatida So‘g‘diyona, Ariya va Parfiya kiritilgan xolos. Xorazm esa bu qatorda yo‘q. Geradod qoldirgan ma’lumotlarda aytilishicha Parfiya, Xorazm, So‘g‘diyona, Ariya ahamoniylarga qaram XVI okrugni tashkil etib, yiliga 300 talant soliq to‘lab turganlar²⁸.

Miloddan avvalgi 520-yil Elamliliklar 3 marta Forslarga qarshi chiqdilar va bu haqda Behistun yozuvlarida shunday xabar qilinadi: “Elam deb nomlanmish davlatda isyon bo‘ldi. Elamliliklar Atamanta ismli shaxsni o‘zlarining hukmdori deb elon qilishibdi. Shundan so‘ng men qo‘shin yubordim. Meni xizmatimdagi Gaubaruva ismli forsni ularga boshliq qildim. U Elamliliklar bilan uzoq urushdi va Gaubaruva Elamliliklarni tormor qildi ularni boshlig‘ini ushlab meni oldimga olib keldi va men uni o‘ldirtirdim shundan so‘ng mamlakat meniki bo‘ldi”. Shu tariqa butun O‘rta Osiyo ahamoniylar qo‘l ostiga o‘tdi.

Ajdodlarimiz o‘z erki uchun doimo kurashib kelgan. Shu misolda Fradani olishimiz mumkin. Tarixchilarning xabar berishicha, eng ko‘p odam o‘ldirilgan joy Marg‘iyona bo‘lgan ekan (qo‘zg‘olonni bostirish paytida 55 ming kishi o‘ldirilgan, 6972 asir olingan).

²⁶ Arian va K.K.Rufning xabar berishicha Maroqanda mustahkam qal‘a edi. Harbiy qurollar orqali qal‘a himoya qilinardi, qal‘a 13 km devor bilan o‘rab olingan. Uning maydoni 50-70 ga. Bunday ulkan shahar aniq Ahamoniyar davrida bunyod etilgan.

²⁷ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchilik tarixi. -T.: “Sharq” 2000. –B. 30.

²⁸ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchilik tarixi kitobida. 1 talant 30,3 kg kumushga teng deb ko‘rsatilgan. –B.30.

Ahamoniylar davlat boshqaruvi shakliga ko'ra zo'rlikka asoslangan, tuzilishi esa markazlashgan initar (oddiy) shaklda edi. Butun hokimiyat podshoh qo'lida edi. U davlatni kuchli markaziy davlat apparatiga tayangan holda boshqargan. Davlat apparatida podshohdan keyin ikkinchi o'rinda hazorapat (ming boshi) turgan. U barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining nazorati hamda markaziy devon boshqaruvini yuritgan. Podshohning shaxsiy qo'riqchilariga boshliq bo'lgan hamda podshohga kelgan shikoyat va arizalar haqida ma'lumot berib borgan. Markaziy devonga kotiblar, taftishchilar, podshohga ma'lumot yig'ib keluvchilar, aloqa xizmati xodimlari va boshqalar bo'ysungan.

Ahamoniylardan Doro I mamlakatni mustahkamlash uchun qator islohotlar o'tkazadi. U bosib olingan hudud ustidan nazorat o'rnatadi, soliqlar yig'imini tartibga soladi. U davlat hududini satrapiya deb atalgan ma'muriy soliq okruglariga bo'ladi. Bunda, asosan, soliq miqdori talan²⁹ bilan belgilanganligini ko'rishimiz mumkin. Satrapliklar o'z hajmi jihatdan ilgarigi katta davlatlar, provinsiyalardan ham katta bo'lgan. Satrapliklar ichida avtonom o'z-o'zini boshqaradigan qabila va shaharlar Finikiya, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari ham mavjud bo'lgan. Forslar Finikiya shaharlarining ichki ishlariga aralashmaganlar va buning evaziga ular ahamoniylarni oxirigacha qo'llab-quvvatlaganlar. Satraplik lavozimiga forslar tayinlanadigan bo'ladi. Kayxusrav va Kambiz davrida satrap qo'l ostida fuqarolik va harbiy hokimiyat to'plangan edi. Bu haqida satrap Gobriyning Bobil, Suriya va yuqori Mesopotamiyada bir vaqtning o'zida fuqarolik va harbiy noib vazifasini bajargani to'g'risida aniq ma'lumotlar keltirilgan. Satrap va harbiy boshliqlar markaziy hokimiyatning, podshohning va ayniqsa, uning maxfiy xizmatining doimiy nazorati ostida bo'lgan. Chunki, viloyat satraplari doimo mustaqillikka erishishga harakat qilib, ajralib chiqish xavfini tug'dirganlar. Davlat boshqaruvi va barcha amaldorlar ustida oliy nazorat "xazorapat" deb atalgan mansabdor qo'lida bo'lgan. U bir vaqtning o'zida "o'n ming

²⁹ Talan soliq miqdori- 1 talan 34 kg ga teng bo'lgan. Ammo bu pul birligi B. Eshovning asarida 1 talan 30 kg kumushga teng bo'lganligi ko'rsatilgan. Sagdullayev A, Aminov B, Mavlonov O', N. Norqulovlarning O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti kitobida 1 talan 25.92 kg kumushga tengligi ko'rsatilgan.

o‘lmas” podsho shaxsiy gvardiyasining boshlig‘i bo‘lgan. Islohotlar natijasida markaziy podsho konselariyasi bilan katta byukrokratik apparat vujudga kelgan. Davlat boshqaruvi poytaxt Suzada bo‘lib, podshoning bosh qarorgohi Persopol bo‘lgan.

Miloddan avvalgi 522-521 yillarda anchagina hududlarni bosib olib yoki ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlarni bostirib bo‘lgan Doro I islohotlar qila boshlaydi. Yuqorida ma‘muriy jihatdan satrapiyalarga bo‘linganligini gapirib bo‘lgan edik. Endi uni barcha sohalardagi islohotlarni gapirib o‘tsak. Boshqaruv tizimida qonunlarni joriy etish maqsadida bir guruh qonunshunoslarni yig‘ib, qadimgi Misr hududidagi qonunlarning barchasini yetarlicha yaxshi o‘rgandi hamda o‘zining yangi qonunlari uchun asos bo‘lgan Hamurappi qonunlari bilan birga butun imperiya hududida barcha bo‘ysunishi shart bo‘lgan qonunlarni ishlab chiqdi. Doro I soliq tizimini joriy etib, o‘z boyligini ko‘paytiradi. Satrapliklardan qancha miqdorda soliq olishini Doro I o‘zi belgilagan edi. Bu belgilangan miqdor to ahamoniylar davlati qulagunga qadar o‘zgarmadi. Soliq yig‘ib olish anchagina shavqatsiz kechgan.

Forslarning qudratini dunyoda ularning armiyasi orqali bilishadi. Ahamoniylar armiyasi asosini forslar va midiyaliklar tashkil etgan, ular armiya safida 20 yil mobaynida xizmat qilganlar. Forslarning harbiy qudratini sharqiy eronliklar va shimoli-sharqiy hududdagi jangchilar saqlab turishgan. Forslarning otliq qo‘shini asosini O‘rta Osiyolik saklar tashkil etgan. Harbiy hayotda saklar butun Ahamoniylar davlati faoliyati davomida otliq qo‘shindagi ustunlikni hech kimga bermaganlar. Forslar armiyasida 10 ming kishidan tashkil topgan “*O‘lmaslar*” guruhi bo‘lgan. Janglardagi forslarning g‘alabasini aynan ular ta‘minlashgan. Hokimiyatdagi boshqaruv haqida gapiradigan bo‘lsak, barcha sud ishlarini satraplar nazorat qilgan, tergov va tekshiruv ishlari esa ishonchli mahalliy zodagonga yuklangan. Yo‘llarning ta‘mirlanganligi, karvon saroylarning qurilganligi aloqa tizimining yaxshi ishlashiga zamin yaratgan.

Qo‘shin otliq va piyoda harbiy qismlardan tashkil topgan. Otliq qismlar-zodagonlardan; piyodalar-dehqonlardan olingan. Bu ikkala qismlarning uyg‘un harakati urushlarda g‘alabani qo‘lga kiritishga sabab

bo'lar edi. Piyoda qo'shinning asosiy quroli kamon, suvoriyning qurol-aslahasi temir sovut, jez qalqon va ikki temir nayza ham bo'lgan.

Qo'shinning eng ilg'or qismi - o'n ming "o'lmas" askarlarining birinchi mingtasi faqat fors aslzodalari vakillaridan iborat bo'lib, podshohning shaxsiy qo'riqchilari hisoblanganlar. Qolgan qismlari turli fors, elam qabilalaridan to'ldirilgan.

Bosib olingan mamlakatlarga qaram aholining qo'zg'olonlarini bostirish maqsadida qo'shinlar joylashtirilgan. Misr va Bobilda 10-12 ming kishilik qo'shin turgan. Davlat chegaralarida harbiylarga yer berilib harbiy gornizonlar joylashtirilgan. Bevosita xizmatda bo'lgan harbiylar har oyda mahsulot bilan ish haqi olganlar. Iste'foga chiqqan askar oilasi bilan, asosan, kichik yer ulushidan kun ko'rgan, savdo va turli hunarlar bilan shug'ullangan. Eng muhim urush harakatlari davrida har bir qaram xalq ma'lum miqdorda askar yetkazib berish majburiyatini olgan.

Doro I davrida forslar dengizda ham yetakchi rol o'ynay boshlaydilar. Dengiz janglari Finikiya, Kipr, Egey orollari va Misr floti yordamida olib borilgan. Matros sifatida saklar, forslar xizmat qilganlar. Ko'pincha flotda rahbarlik vazifalarida misrliklar bo'lgan. Miloddan avvalgi V asrdan boshlab Fors o'lkasida dehqonlarning iqtisodiy ahvoli yomonlashadi. Dehqonlar harbiy xizmatdan bosh torta boshlaydilar. Bu o'z navbatida, fors piyoda qo'shinlarini jangovar qobilyatini yo'qotishiga olib keladi. Endilikda ular yaxshi qurollangan yunon yollanma askarlari bilan almashtirila boshlanadi.

Qadimgi Eron dini va madaniyati. Qadimgi Eron mafkurasida miloddan avvalgi I ming yillikda shakllangan diniy ta'limot-zardushtiylik muhim o'rin egalladi. Zardushtiylik Midiya podshosi Astiag davridayoq rasmiy dinga aylangan edi. Zardushtiylik dinining kohinlari diniy an'ana, urf-odat va rasm-rusumlarni saqlovchi maglar bo'lgan. Zardushtiylik odamlarni qurbonlik qilishni ta'qiqladi, odamlarni bir-biriga mehribon bo'lishini targ'ib qildi. Doro I mil.avv. 520 yil atroflarida zardushtiylikni rasmiy davlat dini deb e'lon qildi.


Forsda qadimgi zardushtiylik tabiat xudolari Mitra (quyosh xudosi), Anaxita (suv va hosildorlik xudosi) va yorug'lik, oy, shamol

kabilarni o'zida ifodalagan xudolarga sig'inilgan. Fors podsholari zardushtiylikning afzalligini tan olib, rasmiy din sifatida qabul qilgan bo'lsalarda, eng qadimgi xudolardan voz kechmaganlar.


Diniy e'tiqodni mazkazlashtirish maqsadida Kserks (mil.avv. IV asrda) Eronda diniy islohot o'tkazadi. U Mitra, Anaxita, Zardusht inkor qilingan boshqa qadimgi ibodatxonalarni yo'q qilmoqchi bo'ladi. Bu islohot o'z maqsadiga erishmaydi, yarim asrdan so'ng, qadimgi xudolarga sig'inish yanada keng avj oladi. Ahamoniylar ibodatxonalarning iqtisodiy qudrati haddan tashqari kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun Misr, Bobil va Kichik Osiyodagi ibodatxonalarni davlat soliq majburiyatlarini o'tashga majbur qiladilar³⁰.

Ahamoniylar boshqa dinlarga ham homiylik qilganlar. Doro I Bobil, Elam va Yaxudiyadagi buzib tashlangan ibodatxonalarni qayta tiklashga buyruq beradi. Misr ishg'ol qilingach, Kambiz Misr urf-odatlarini bo'yicha toj kiyadi. U Sais shahridagi ma'buda Neyt ibodatxonasida diniy marosimlarga qatnashadi. Doro I o'zini ma'buda Neytning o'g'li deb e'lon qiladi, xudo Amon va boshqa Misr xudolariga bag'ishlab ibodatxonalar quradi.

O'rta Osiyo viloyatlari ahamoniylar davlati tarkibida.



³⁰ Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti kitobi. -T.: 2004. -B. 51.



Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri-**“BBB”** uslubi orqali mustahkamlash.

Bilaman	Bilib oldim	Bilishni xohlayman

Mavzuni “BBB” uslubi orqali mustahkamlash uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

1. Mavzuni mustahkamlash uchun talabalardan qanday ma’lumotlarga ega bo‘lganliklari so‘raladi.
2. Talabalar tomonidan bildirilayotgan fikrlar inkor etilmasligi lozim.
3. So‘nggi bosqichda talabalardan qanday ma’lumotlarni bilish istagida ekanliklari so‘raladi.

Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Qarorlar shajarasi”** uslubi orqali mustahkamlash.

“Qarorlar shajarasi” metodi

Muammo: <i>Ahamoniylar davrida O'rta Osiyo hududlarini viloyatlarga bo'linishning o'ziga xos xususiyatlarini qanday baholaysiz ?</i>			
1-qaror variantlari		2-qaror variantlari	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Qaror			

Mavzuni “Qarorlar shajarasi” uslubi orqali mustahkamlash uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

1. Guruh ishtirokida qo‘llaniladigan "Qarorlar shajarasi" bir necha o‘n nafar talabalarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi.
2. Ta’lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan qaror yuzasidan oqilona qaror qabul qilish, talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variantning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkonini yaratadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ahamoniylar davlatining tashkil topishidagi shart-sharoitlar haqida so‘zlab bering?
2. Ahamoniylar davlat boshqaruvi qanday shaklda ekanligini tasvirlab bering?

3. Doro I mamlakatda o'tkazgan islohotlar va satrapliklarda yuritgan siyosati haqida nimalarni bilasiz?
4. O'rta Osiyodagi davlatlar nechita satraplikga bo'lingan?
5. Satrapliklarning soliqlarda tashqari majburiyatlari ham bo'lganmi?
6. Mahalliy hokimlarni davlat oldidagi majburiyatlari?
7. Ahamoniylar davrida soliq va qo'shin qanday tashkil etilganligini bilasizmi?
8. Qadimgi Eron madaniyati va dini haqida gapirib bering?
9. Doro I qachon zardushtiylkni rasmiy davlat dini deb e'lon qildi.
10. Ahamoniylar davrida qo'shin tuzilishi qanday bo'lgan?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. T., "O'zbekiston", 2021-yil.
2. Orziyev M.Z, Ergashyev J. Yu. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Buxoro. "Durdona". 2021-yil.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi.- T., "Sharq" 2000-yil.
4. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.- T., "Sharq", 2012-yil.
5. Sagdullayev A, Aminov B, Mavlonov O', Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti.- T., 2004-yil.
6. Karimov Sh, Shamsiddinov R. Vatan tarixi.- T., 1997-yil.
Asqarov A.A. O'zbekiston tarixi.- T., "O'qituvchi", 1994-yil.
7. Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi. T., "Yangi asr avlodi", 2003-yil.
8. Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S. O'zbekiston tarixi.- T., "Iqtisod-Moliya", 2006-yil.

Axborot manbalari

9. www.ziynet.net
10. www.history.ru

4-Mavzu: Yunon Makedonlar va Salavkiylar davrida boshqaruv tartiblari

Reja:

- 1. Aleksandr Makedonskiyning taxtga chiqishi va olib borgan yurishlari.**
- 2. Salavkiylar davlatining tashkil topishi va uning yurtimizda tutgan o‘rni.**
- 3. Iskandar va Salavkiylar hukumronligi davrida markaziy va mahalliy boshqaruv.**
- 4. Ellinistik madaniyatning kirib kelishi.**

Tayanch tushunchalar: Yepiskop, voha davlatchiligi, Eron donishmandlari, satrap, gipparx, Bess, Doro III, Antiox, Salavka I Nikotar, Fratafarn-Girkaniyada, Artaboz-Baqtriyada, Oksiart, Sug‘diyona, Paropamis-Hindiqush, Gefestion, Yaksart, Oks, Farnux Graniq, Suza, Persepol, Pasargada, Midiya.

O‘zbekiston davlatchiligining bugungi kunda o‘ziga xos boshqaruv sistemasi uzoq mingyilliklar mobaynida shakllanib, turli bosqinchilik yurishlari natijasida esa sinovdan o‘tdi. Bu jarayonlarni ilk ildizlaridan biri bo‘lib yunon-makedoniyaliklarning bosqinchilik yurishlari va ularning o‘lkamiz hayotida qoldirgan iqtisodiy, madaniy, ellinistik jarayonlar bilan birga olib borgan boshqaruv siyosati ham ilk boshqaruvning namunasi bo‘lib hisoblanadi desak, xato bo‘lmaydi. Bunda biz o‘tmishimiz voqeliklarini o‘rganish va unga haqqoniy baho bermoq uchun, albatta, tarixiy xotira kerak bo‘ladi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta’kidlaganlaridek: “Tarixiy xotira, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz xududining xolis va haqqoniy tarixini bayon etish, milliy o‘zlikni anglash, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida nihoyat muhim o‘rin tutadi”³¹.

Makedoniya podshosi Filip II bosqinchilik yurishlari davrida to‘satdan vafot etdi. Taxtni esa uning 20 yashar o‘g‘li Aleksandr egallaydi. Tarixchilardan Arrian Iskandar haqida fikr yuritib uni:

³¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xafsizlikka taxdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” - T.: “O‘zbekiston”, 1997. -B. 140.

“Iskandar Zulqarnayn jasur sarkarda, adolatli shoh, shu bilan birga, o‘z komilligini bilgan ideal inson edi”³², - deya unga yuqori baho berganligini ko‘rishimiz mumkin.

U Ahamoniylarga qarshi urushga jiddiy kirishib Kichik Osiyodan Parmenion boshliq qo‘shinlarni chaqirtirdi. Harbiy kengash to‘zib quruqlikda va suvda harakat qilayotgan qo‘shinlar oldiga aniq vazifalar qo‘ydi.

Mil. avv. 334 yil mayida (Graniq daryosi yonida), 333 yil oktabrida (Gavgamela, Shimoli-sharqiy Mesopotamiyada) bo‘lgan janglarda fors qo‘shinlari to‘la mag‘lubiyatga uchradi. Shundan so‘ng Aleksandr uchun Ahamoniylar davlatining markazlariga yo‘l ochilgan edi. Aleksandr, dastavval, Bobilni, so‘ngra Suza, Persepol, Pasargada shaharlarini egallab fors podsholarining xazinalarini qo‘lga kiritdi. So‘nggi Ahamoniy hukmdori Doro III avval Midiyaga, keyin esa Baqtriyaga qochib ketdi. Kursiy Rufning ma‘lumotlariga ko‘ra, Baqtriyaga Doro III ga qarshi fitna uyushtirilib u o‘ldiriladi va fitnaga boshchilik qilgan Bess o‘zini Ahamoniylar podshosi deb e‘lon qiladi. Ammo, Bess Aleksandrga harbiy qo‘shinlarni qarshi qo‘ya olmadi³³.

Tarixchi N. Xlopin fikriga ko‘ra I. Zulqarnaynning O‘rta Osiyoga yurishi quyidagi 4 bosqichda:

1. Midiya-Girkan bosqini.(mil.avv.333-yil)
2. Oriy va Drangianlar bosqini.(mil.avv.329-yil)
3. Baqtriya va So‘g‘d bosqini.(mil.avv.328-yil)

4. So‘g‘d va Hind bosqini.(mil.avv.327-yil) amalga oshirganligini ko‘rishimiz mumkin. Mil. avv. 329-yilning bahoriga qadar Aleksandr Ariya, Drang‘iyona, Araxosiya kabi viloyatlarni egallab Oks bo‘ylariga chiqib keladi. Arrian va Kursiy Ruf ma‘lumotlariga ko‘ra, bu paytda daryo juda sersuv bo‘lib, to‘lib oqardi. Aleksandr qo‘shinlari daryodan o‘tgach Bessni ta‘qib etib “Sug‘d viloyati Navtakaga” yo‘l oladilar (Avval Ptolomey Lag boshchiligidagi ilg‘or qism, keyin asosiy kuchlar). Sug‘d yerlarida Spitaman boshliq mahalliy sarkardalar Aleksandrni to‘xtatib

³² Lunin I.V. “История” -Т.: “Fan”, 1978 .-С-31.

³³ Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-Т.: “O‘zbekiston Milliy Universitet”, 2012. –В. 78.

qolish maqsadida Bessni asir olib unga topshiradilar. Ammo, Aleksandrda harbiy yurishlarni to'xtatish niyati yo'q edi. Navtakadan so'ng yunon-makedon qo'shinlari Sug'diyonaning poytaxti Smarakandaga yurish qilib uni egallaydilar. Kursiy Ruf ma'lumotlariga ko'ra, yunon-makedonlar "shaharda o'zlarining kichik gornizonlarini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib", shimoli-sharqqa tomon harakat qila boshlaydilar. Jizzax va O'ratepa oralig'idagi tog'li hududlarda yunon-makedon qo'shinlari qattiq talofat ko'radilar. Aleksandrning o'zi ham og'ir yarador bo'ladi. Shunga qaramasdan tog'li hudud aholisini qiyinchilik bilan mag'lub etgan yunon-makedonlar dasht ko'chmanchilari-saklar va Sug'diylar o'rtasida chegara bo'lgan Yaksart-Sirdaryoga tomon harakat qiladilar. Yunon-makedonlar Yaksart bo'yida to'xtab bu yerdagi shaharlarga o'z harbiy qismlarini joylashtira boshladilar. Ko'p o'tmay bu shaharlar aholisi Aleksandrga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Daryoning o'ng qirg'og'idagi saklar ham o'z qo'shinlarini bir yerga to'play boshlaydilar. Xuddi shu paytda Baqtriya va Sug'diyona hududlarida ham Aleksandrga qarshi qo'zg'olonlar boshlanib ketadi.

Aleksandr dastlab Yaksart bo'yida o'z mavqeini mustahkamlashga qaror qilib, bu yerdagi qo'zg'olonlarni bostirdi. Sug'diyonada mil.avv. 329 yil kuzida Spitaman boshchiligidagi qo'zg'olonni (Maroqandda) bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligidagi qo'shinlarni jo'natdi. O'zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo, bu yurish muvafaqiyatsiz tugadi.

Farnux boshchiligidagi Maroqandaga jo'natilgan qo'shinlar Spitaman tomonidan mag'lubiyatga uchradi. Aleksandrning o'zi asosiy kuchlari bilan Sug'diyonaga qaytishga majbur bo'ldi. Sug'diyonaning tog'li hududlaridagi bosqinchilar qadami yetmagan joylarda qo'zg'olonchilar yashirinib olgan edilar. Sug'diyonaning deyarli barcha aholisi Spitaman tomonida bo'lib, uning g'alabalariga katta umid bog'lagan edilar. Aleksandr esa, mil.avv. 329-328 yillar qishlovini Baqtriyada (ba'zi manbalarda Navtakada deyiladi) o'tkazar ekan vaqtni behuda ketkazmadi. U bu yerda Xorazm hukmdori Farasman bilan

muzokaralar olib bordi. Natijada Aleksandrning Xorazmga yurish rejasi to'xtatildi³⁴.

Mil. avv. 328 yilning bahoridan yunon-makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal'alar, tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Ahvol jiddiylashganidan xavotirga tushgan Aleksandr 30 ming qo'shinini 5 guruhga bo'lib, bu guruhlariga ishonchli sarkardalar-Gefestion, Ptolemey Lag, Perdikka, Ken va Artabozlarni boshliq etib tayinladi. Kuchlar o'zaro teng emasdi. Bu kurashda Spitaman halok bo'lganidan so'ng, asosan, tog' qal'alari qo'zg'olon o'choqlariga aylanadi. Yozma manbalarda eslatilgan "Sug'd qoyasi" (yoki "Arimaz qoyasi"), "Xorien qoyasi" shular jumlasidandir³⁵.

O'zbekiston hududlarida yashagan mahalliy aholi o'z ozodligi va mustaqilligi yo'lida bir tan-bir jon bo'lib harakat qilganlar. Ammo, kuchlar nisbati va harbiy texnikaning teng emasligi ko'p hollarda bosqinchilar ustunligini ta'minlagan. Shunga qaramasdan bunday holatlar davlatchilik tarixida muhim iz qoldirgan.

Shunday qilib, Xorazm, Choch (Toshkent vohasi), Farg'ona va saklar yurti Aleksandrdan mustaqil bo'lib qoladi. Sug'diyona, Baqtriya, Marg'iyona va Parfiya Aleksandrning davlatiga qo'shib, keyinchalik ularning hududida ayrim yunon-makedon davlatlari vujudga keladi.

Aleksandr bosib olgan hududlarda uning boshqaruv faoliyati, dastlab, Gretsiyaning ayrim demokratik an'analariga (harbiy yo'lboshchilar kengashi, qo'shinlar yig'ini) asoslangan edi. Qo'shinlar yig'inida sud ishlari ko'rib chiqilib, jinoyat va jazo masalalari qat'iy muhokama qilingan. Jinoyat turlari ichida eng og'irlari-podshoga qarshi fitna, xiyonat, isyonga da'vat etish hisoblanib, ushbu harkatlar uchun yagona jazo-o'lim jazosi belgilangan. Qatl etish haqidagi qaror qo'shinlar yig'inida qabul qilingan. Sharqqa qilgan yurishlari tugaganidan so'ng Aleksandr bu hududlarda barpo etgan o'z saltanatida Ahamoniylar davlat boshqaruvidagi idora-tartib usullarini o'zgartirmagan. Ya'ni satraplik

³⁴ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. -B.79.

³⁵ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. -B.79.

boshqaruvi va soliqlar yig'ib olish tizimi o'zining ilgarigi ahamiyatini saqlab qolgan³⁶.

Iskandar Zulqarnayn va uning yurtimizda mil. avv. IV asrda olib borgan boshqaruv sistemasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Iskandar Zulqarnayn esa Ahamoniylar imperiyasidan meros bo'lgan boshqaruv tizimini o'rnatdi va hokimiyat harbiy sarkardarlar qo'liga o'tdi. Ma'muriy boshqaruv apparati Ahamoniylar kabi satraplar qo'lida bo'lib, bu lavozimga faqatgina Iskandarga eng yaqin va sodiq bo'lgan harbiylar, eroniy donishmandlar tayinlangan³⁷. Eroniy Artabaz Iskandar buyrug'iga ko'ra, Baqtriya va qo'shni hududlar boshqaruviga tayinlangani, yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Dastlab eronliklar qo'lida bo'lgan „satrap“ lavozimi, keyinchalik butunlay makedonlar qo'liga o'tgan. Eronli satraplardan farqli o'laroq, ular o'z tangalarini zarb qilish va lashkar to'plash huquqiga ega bo'lganlar. Hokimlar devonida yepiskop³⁸-nazoratchilar bo'lib, ular ham Makedoniyalik edi. Yeparxiyalar gipparxiyaga bo'linib, gipparx o'zi otliqlar yetakchisi ma'nosini anglatgan. Ya'ni otliq bo'linma turgan joy alohida kichikroq ma'muriy birlik deyishga asoslar yetarli³⁹. Ayni vaqtda yepiskop lashkarboshi ham hisoblanardi.

Butun satraplikda Makedoniya harbiy garnizonlari joylashtirilib, ushbu garnizonlar rahbariga, hatto, viloyat satrapi ham bo'ysungan. Tarixchi Arrian so'zlariga ko'ra, Iskandar yaqinlaridan biri Ken qishlash uchun So'g'diyonada qolganda, unga o'zining harbiy otryadidan tashqari, qolgan yunon-makedon otryadlari, shuningdek, Aminta boshqaruvidagi mahalliy qo'shin ham bo'ysungan. Biroq, separatchilik harakatlari, turli xalqlar bosqini davrida, ya'ni favqulodda vaziyatlarda butun boshqaruv harbiy qo'mondon qo'liga o'tgan.

Aleksandr buyrug'iga ko'ra, So'g'diyona himoyasi va nazorati Kengash topshirilishi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Hokimlar

³⁶ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. –B.81.

³⁷ Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana tom I.- Toshkent.: "O'zbekiston", 2009. –C.137.

³⁸ Yepiskop-yunon-makedonlar istilosi davrida kichik ma'muriy birlik yetakchisi lavozimi bo'lib, dastlab u shahar va unga yaqin bo'lgan qishloqlarni o'z ichiga olgan. Keyinchalik bu boshqaruv tartibi Rim imperiyasiga ham tarqaladi. Imperator Diokletion davridagi ma'muriy islohotlarga ko'ra yepiskopga butun boshli viloyatlar bo'ysungan. Qarang. ru. Wikipedia. Org/wiki/ Епархия

³⁹ Ru.wikipedia.org/wiki/Гиперхия.

devonida yepiskop nazoratchilar bo'lib, ular ham makedoniyalik edi. Ayni vaqtda yepiskop lashkar ham hisoblanardi. Moliya boshqaruvi uchun ham alohida boshqaruv tayin qilingan edi. Shaharlar boshqaruvi Gipparxlar qo'lida bo'lib, har bir shaharning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, bu lavozimga ham shaxsan Iskandarni o'zi ularni tayinlagan. Arrian so'ziga ko'ra: "bir gipparxning shahar boshqaruvi Iskandarni qoniqtirmagan va uni shaxsan o'zi lavozimdan ozod etgan".

Mahalliy boshqaruv sistemasi esa mahalliy aristokratlar qo'lida bo'lgan. Mahalliy aristokratlar belgilangan boj va harbiy majburiyat o'tash sharti bilan kifoyalanib, mustaqil siyosat yuritish imkoniyatiga ega edi. Iskandarning qaynotasi-mahalliy aristokrat Oksiart Vaxshunvar o'z hududlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lib, sulola nomidan oltin tangalar zarb ettirgan. Oksiartdan tashqari, boshqa mahalliy aristokratlar-Nautaka boshqaruvchisi Sisimitr, parikatlar rahbari Xoriyen, Baqtriyalik Katan va Avstan, So'g'diyalik Arimasp va Spitamenlar manbalarida qayd etilgan.

Iskandar yurishlarining o'n yilidan uch yilini O'rta Osiyoga ajratadi. Iskandar barpo etgan Iskandariya shaharlari e'tiborni jalb etadi. "Ular garchi sotsial iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan bo'lsada, lekin har holda bu shaharlar Ellinizm olib kelgan yangi madaniy mayoqlari edi"⁴⁰.

O'rta Osiyoda istilo etilgan viloyatlar va shaharlarni boshqarish uchun yunon-makedon sarkardalari bilan birga mahalliy hokimlar ham jalb etilgan. Yozma manbalarning ma'lumot berishicha, Aleksandr davrida mahalliy aholi vakillaridan Fratafarn-Girkaniyada, Artaboz-Baqtriyada, Oksiart va Xoriyen-Sug'diyona viloyatlariga hokimlik qilganlar. Mil.avv. 325 yilda Oksiart qo'l ostiga Paropamis-Hindiqush viloyati topshiriladi.

Mil. avv. 325-324-yillarda makedonlar yaroq-aslahalari bilan qurollangan mahalliy aholi qo'shinlari yunon-makedon armiyasi safiga jalb etiladi. Aleksandr mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan maqsadli siyosat olib borgan. Mil. avv. 324 yilda Suza shahrida o'n mingta yunon-makedon askarlari mahalliy ayollarga uylanadilar. Aleksandrning o'zi va

⁴⁰ O'zbekiston xalqlari tarixi 1-jild.-T.: "Fan", 1992. –B. 45.

sarkarda Gefestion Doro III ning qizlarini hamda sarkarda Salavka Spitamanning qizi Apamani xotinlikka oladilar⁴¹.

Eronday qudratli davlatni uch oy ichida bo'ysundirgan makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoni bo'ysundirishga uch yil sarfladi. "Lekin uncha katta bo'lmagan hududni: Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona va Xo'janddan iborat Sirdaryo bo'ylarini bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Xorazm, Toshkent vohasi va Farg'ona mustaqilligicha qoldilar"⁴². Aleksandr yangi bosqinchilik urushlariga tayorgarlik ko'rayotga paytida bezgak kasalligiga chalinib, 33 yoshida vafot etdi.

Aleksandrning harbiy yurishlari Sharq va G'arb o'rtasidagi keng savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojlanishiga olib keldi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi natijasida mahalliy va yunon madaniyatining qo'shilish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonning ta'sirini moddiy madaniyatning rivojlanishida, qurilish va me'morchilik, kulolchilik va tasviriy san'at, yangi yozuvlarning tarqalishi, tangashunoslik hamda diniy e'tiqodlarda ko'rish mumkin. Yunonlar, o'z navbatida, qadimgi Sharqning juda ko'plab madaniy yutuqlarini qabul qiladilar hamda mahalliy aholi madaniyatiga ham ta'sir o'tkazadilar. Aleksandr davridan boshlab, bir necha asrlar davomida, Sharqning siyosiy tarixi (davlat tizimi, boshqaruv usullari, qonunlar va huquq) da turli an'analarning qo'shib rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin.

Mil.avv. 323 yilda Makedoniyalik Iskandarning vafotidan so'ng, taxt vorisligiga da'vogar shaxs yo'q edi. Aleksandr vafotidan so'ng 4 oy o'tgach uning xotini Raksana o'g'il farzand ko'radi. Unga Aleksandr deb ism qo'yadilar. Kichik Aleksandr sharqiy viloyatlar hukmdori etib tayinlanadi. Hukmdor hali yosh bo'lganligi sababli bu viloyatlarga rahbarlik qilish qo'mondonlardan Perdikka va Antipatr zimmasiga yuklanadi. Ammo toj-taxt uchun olib borilgan kurash yosh go'dakni ham omon qoldirmaydi. Taxt uchun kurashda Aleksandr lashkarboshilari o'rtasida kurash avj olib ketadi, Aleksandr lashkarboshilarining birontasi ham yorqin g'alabaga erisha olmaydi. Buning ustiga Aleksandr vafotidan xabar topgan xalqlar ozodlik kurashiga o'tlanadilar. Natijada mil.avv. 301-

⁴¹ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. -B. 81.

⁴² Sadullayev A., Kostetiskiy V., Norqulov N. O'zbekiston tarixi. -T.: "O'qituvchi", 1999. -B. 121.

yilda Frigiyaning Ips deb atalgan joyida Aleksandr lashkarboshilari o'rtasida yuz bergan qonli janglar oqibatida Aleksandr saltanati uch mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi: Misr, Makedoniya va Suriya ya'ni Salavkiylar davlatiga bo'linib ketdi. Makedoniya V asrning oxiri, III asrning o'rtalarida Baqtriyada Makedoniyalik Iskandarning eng ishonchli sarkardalaridan biri Salavka asos solgan Salavkiylar davlati tarkibiga kirar edi. Mil.avv. 312 yilda Salavka atrofidagi sarkardalar bilan qattiq kurash olib borib, Vaviloniyaga ega bo'ldi, va shu yili Bobilni bosib olib, Bobilda o'z hukmdorligini mustahkamlab, Bobil davlati hukmdori bo'ldi. Shundan so'ng, Salavka sharqiy satrapliklarni ham egallaydi. U tez orada o'z yerlarini Sirdaryo va Hind daryolariga qadar kengaytirdi. Bu masalada Salavka bilan Nikanor o'rtasida kurash kuchaydi. Nikanor birinchi jangdayoq mag'lubiyatga uchraydi. Salavka mil. avv. 311-302 yillarda boshqa satraplar bilan jang olib boradi va sharqda o'z hukmdorligini mustahkamlaydi. U bir necha yil davomida urushlar olib borib, davlat chegaralarini g'arbga va sharqqa tomon kengaytirib Eron va Markaziy Osiyo hududlarini ham bosib olishga erishdi. Salavka davlati tarkibiga Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona kirgan. Mil.avv. 302 yildagi Suriya, Kichik Osiyo va Mesopotamiya viloyatlari uchun Salavka bilan Antigona o'rtasidagi jang bir yilga cho'ziladi, bu jang Salavkaning yorqin g'alabasi bilan yakunlanadi. Shu tariqa Iskandar saltanatining katta qismi Salavka qo'li ostida birlashadi. U mustaqil siyosat olib bordi, satrapliklarni maydalab yubordi, ularning sonini 72 taga yetkazdi. Salavkaning maqsadi satrapliklarning qudratini pasaytirish va ular ustidan hukmdorlikni kuchaytirishdan iborat edi. Ammo Salavka I ning o'g'li Antiox I davrida satrapliklar yana yiriklashtirildi.

Mil. avv. 293 yilda Salavka o'z poytaxtini Bobildan Suriyaga-Antioxiyaga ko'chiradi. Satraplar qo'lida katta hokimiyat bo'lgan, ammo ularda oliy harbiy hokimiyat yo'q edi. Oliy harbiy hokimiyat markaziy hukmdor-podshoh ixtiyorida bo'lgan. Bu markaziy hokimiyatning ustunligini ta'minlash uchun zarur edi. Ammo bu boshqaruv usuli sharqiy viloyatlarda keyinchalik buzilgan bo'lsa-da, g'arbiy viloyatlarda saqlangan edi. Salavkiylar hokimiyatni sharqdagi harbiy manzilgohlarda joylashgan yunon-makedon qurol-aslahalari bilan qurollangan, mahalliy xalqlarining

vakillaridan iborat harbiy kuchlariga tayangan edi. Yunon-makedon hokimiyatini mustahkamlash maqsadida sharqda ko'plab harbiy tayanch nuqtalarini barpo etish Iskandar davrida boshlangan edi. Salavkiylar o'zlariga tobe o'lkalarda g'oyat qattiq qo'l lik siyosatini olib borganlar. Agar Aleksandr qaram yerlar aholisiga nisbatan murosasozlik yo'li bilan ham siyosat yurgizgan bo'lsa, Salavkiylar aksincha, mahalliy aholini, uning madaniyatini umuman inkor etish, noiblarni faqat yunonliklar orasidan tayinlash, mahalliy boshqaruvda ko'plab harbiy istehkomlar, inshootlar qurib, harbiy kuch orqali aholini bo'ysuntirib turish tadbirlariga zo'r berganlar. Aleksandrning yunon va mahalliy madaniyatlarni o'zaro uyg'unlashtirishdagi sa'y-harakatlari bo'lganligini bilgan holda, Salavkiylar, aksincha, tobe xalqlar orasida faqat yunon madaniyatini targ'ib etishni vazifa deb bilganliklarini qayd etish lozim. Iskandar, O'rta Osiyoda 12 ta shaharga asos solgan edi. Salavka I Nikotar asos solgan 75 ta shahar Salavkiylar davlatining asosiy tayanchi bo'lgan. Salavkiylar davlati satrapliklarga bo'lingan, tobe o'lkalarni satraplar (noib) orqali boshqarilgan. Strateglar sobiq lashkarboshilardan tayinlangan bo'lib, ular davlat mudofaasi va qo'shnlarni tashkil etish bilan shug'ullangan. Yunon tarixchisi Pompey Trogning yozishicha, Salavka ba'zi joylarni muzokaralar yo'li bilan egalladi, ammo Baqtriya, Parfiya, So'g'd yerlarida u qattiq qarshilikka uchradi va og'ir janglar olib borishga to'g'ri keldi. Ma'lum bir vaqt o'tgach taxminan mil. avv III asr o'rtalarida Baqtriya Salavkiylar saltanati tarkibidan ajralib chiqishga muvaffaq bo'ldi. Markaziy Osiyo janubiy viloyatlarini Salavkiylar tomonidan bosib olinishi mil. avv. 306 yilga to'g'ri keladi. Bu davrda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq ancha rivojlangan. Bu hududlarda 75 ta shahar qurilgan. Eng olis shaharlardan biri Yaksart ortida joylashgan Antioxiya shahri bo'lgan. Taxminlarga ko'ra, mazkur shahar hozirgi Toshkent viloyati hududida, yoki Farg'ona vodiysida joylashgan. Antiox davrida Baqtriya hayotida dastlabki tangalar oltin, kumush, mis, dirham va tetradirhamlar (pul birligi) zarb qilingan. Mil.avv. III asrning 60 yillariga qadar Baqtriyada Salavkiylarning zarbxonasi saqlanib qolgan. Bu zarbxonada oltin va kumush tangalar zarb etilgan. Baqtriya, So'g'diyona va O'rta Osiyodagi boshqa viloyatlarning iqtisodiy hayoti Salavkiylar

davlatining g'arbiy viloyatlaridan ancha farq qiladi. Salavka xalqaro savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor beradi. Ana shu maqsadda u Kaspiy bilan Qora dengizni bog'lab Amudaryo orqali "Tosh minora"ga yo'l ochishga qaror qiladi. (Beruniy fikricha, "Tosh minora" yoki "Tosh shahar" bu Toshkentdir.)

Strabon bergan ma'lumotlarga qaraganda, Antiox Marg'iyonada o'z nomiga qurdirgan shahar - Antioxiyani ko'chmanchilarning tinimsiz hujumidan himoya qilish maqsadida Murg'ob vohasi atrofini 250 km devor bilan o'rab olgan. Ammo ko'chmanchilarning hujumlari bu bilan to'xtamagan. Ular u yoki bu shahar devorlari ostida yoki ekinzor, dalalar hamda voqa bog'larida kutilmaganda paydo bo'lar va yana tezda ko'zdan g'oyib bo'lar edilar. Ana shunday og'ir bir vaziyatda Salavka I Hindistonga qarshi urush boshlaydi. Bu urush uning mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Natijada Salavkiylarning O'rta Osiyodagi obro'siga putur yetadi, ularga qarshi qo'zg'olonlar boshlanadi. Salaviylar og'ir ahvolga tushib qoladilar. Antiox mahalliy aslzodalarga bir qadar yon bosib, og'ir vaziyatning oldini oladi. U Baqtriyada Sharqiy viloyatlar uchun davlatning o'z pullarini zarb etishga kirishadi. Antiox nomi bilan Baqtriyada pul zarb etilishi uning mustahkam davlat siyosatini olib borayotganligini ko'rsatar edi. Mil. avv. 280 yilda Salavka I vafot etdi. Salavkiylar davlatiga Antiox I bosh bo'ladi. Ana shu davrdan boshlab sharqiy viloyatlar Antiox I faoliyatidan chetda qoladi. Chunki g'arbiy viloyatlardagi harbiy vaziyat uning qo'shini bilan birga bo'lishini taqazo etar edi.

Ayni paytda g'arbiy viloyatlarda ham vaziyat ko'ngildagidek emas edi. Xullas, Salavka I vafotidan so'ng davlatning zaminiga putur yetdi. Sharqiy viloyatlar oltin, fil lazuritlar bilan doim jarima to'lab tursalar-da, ularning mustaqillikka intilayotganliklari sezilib turardi. Bu jarayon, xususan, mil. avv III asr o'rtalariga kelganda ko'zga yaqqol tashlana boshladi. Bu davrda Baqtriya va So'g'diyonada aholi dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Shaharlarning o'sishi hunarmandchilik va suv xo'jaligining taraqqiyotiga ta'sir etgan. O'rta Osiyoning Salavkiylar davlati tarkibida bo'lishi so'zsiz ellin madaniyati ta'sirining o'lka xalqlari orasida tarqalishiga sabab bo'lgan omildir.

Mil. avv. III asrning o'rtalarida Salavkiylar saltanati inqiroz sari yuzlandi. Sharqiy satrapliklar markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortib, mustaqil siyosat yurgizishga intildilar. Mil. avv. 250 yillarda ko'chmanchi parnlar (dahlar) qabilasi Arshak boshchiligida Salavkiylar davlatidan ajralib chiqqan Parfiyona yoki Parfiya satrapiyasiga bostirib kirganlar va Parfiyani, so'ngra qo'shni Girkaniya viloyatini ishg'ol etganlar. Parfiya milodiy III asrning 20 yillarigacha mavjud bo'lgan. Salavka II o'z hokimiyatini qayta tiklash maqsadida olib borgan bir necha muvaffaqiyatsiz urinishlar (mil. avv. 230-227- yillar) dan so'ng Parfiyada Arshakiylar hukmronligini tan olishga majbur bo'lgan. Salavkiylar podshohi Antiox III Parfiyani 209 yilda bosib oladi. Biroq Salavkiylar davlatining zaiflashgandan foydalanib, Parfiya tezda o'z mustaqilligini tiklab oladi.

Ellin madaniyati Baqtiriyaga eng ko'p ta'sir ko'rsatdiki, bu yerda Iskandar va uning vorislarining asosiy shaharlari qurilgan edi. Professor V.M. Massonning qayd etishicha, "Baqtiriyada mil.avv. III-II asrlarda keyinchalik Hirot va Balxning O'rta Osiyo madaniy taraqqiyotidagi yetakchi o'rnini ta'minlagan hayotchan va ijodiy sintezni hosil qiluvchi ikkita negiz (ellin va mahalliy)mavjud bo'lgan"⁴³. Grek shaharlari O'rta Osiyo maydonining ulkan okeanidagi mayda orolchalarigina hisoblanadi. Ular aslida mintaqaning sotsial-iqtisodiy tizimiga singib ketmagan begona unsur edi. Shuni ishonch bilan aytish kerakki,makedonlarning bu yerda bo'lganligi O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. I. Zulqarnayn bosqini davlatchilik an'anlarini shakllanishida bir turtki bo'lib, O'rta Osiyoda yangi markazlashgan davlatlar (Yunon-Baqtiriya, Parfiya) vujudga kelishi uchun qulay bir imkoniyat yaratdi.

Iqtisodiy va ijtimoiy institutlarning tabiatiga ko'ra O'rta Osiyoda markazlashgan davlatlar, ya'nikim Baqtiriya va Xorazm "ishlab chiqarishning Osiyo usuliga" ega bo'lgan davlatlarning tipiga mansub ekanligini ko'rishimiz mumkin. Davlatchilikning birinchi tipining ijtimoiy-iqtisodiy genezisi yangi va eski dunyoning ilk sinfiy jamiyatlari

⁴³ Hidoyatov G.A "Mening jonajon tarixim". -T.: "O'qituvchi", 1992. -B. 45.

uchun xos bo'lgan, O'rta Osiyo janubidagi bronza davri dehqonchilik madaniyatining ilk sinfiy jamiyati bilan bevosita bog'liq edi.

Yuqorida aytib o'tilganlarga yakun yasas ekanmiz, shunday xulosaga kelish mumkinki, O'rta Osiyoda shahar madaniyati, davlatchilik va ilk sinfiy jamiyat so'nggi bronza davrida, eramizgacha bo'lgan II ming yillikning ikkinchi yarmida va ilk temir asrida, eramizgacha bo'lgan I ming yillikning birinchi choragida shakllangan. Umuman hozirda dunyoda ikki yuzdan ortiq davlatlar bo'lib, ular tarix sahnasiga bir vaqtda chiqmaganlar. Ayrim xalqlar-xetlar, shumerlar, skiflar bir vaqtlar tarix maydoniga o'zlarining rivojlangan davlatchiligi, yuksak madaniyati bilan chiqdilar. Ammo vaqt o'tishi bilan tarix taqazosi ila ular bizgacha yetib kelmadilar. Ularning tillari, davlatlari va o'zlari jisman yo'q bo'lib ketdilar yoki boshqa etnik birlashmalarga aralashib ketdilar. Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, davlatchilik jamiyatning ichida o'z ichki qonuniyatlari asosida paydo bo'ladi, rivojlanadi. Ya'ni davlat tuzilmasi tashqaridan tayyor holda ko'chirilmaydi, ma'lum jamiyat bag'rida tug'iladi. O'zbekiston davlatchiligi taraqqiyoti ham bundan mustasno emas.

O'zbekistonda ilk davlatlar "voha davlatchiligi", "shahar-davlatlar", Mesopotamiya, Misr, Xitoy davlatchiligi kabi bo'lganligi tarixiy manbalardan ayon. Bu sodda davlatchilik shakllarining rivoj topishiga sabab bo'lgan yurtimizga bostirib kirgan davlatlarning markaziy va mahalliy boshqaruvi alomati bo'lib hisoblanadi. Xususan, biz to'xtalib o'tgan Aleksandr Makedonskiy boshliq yunon-makedon davlatining boshqaruv tizimi fikrlarimizning isbotidir.

Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri-**"Tarixiy shaxslar sharhi"** uslubi orqali mustahkamlash.

t .r.	Shaxslar	Kim bo'lgan	Tarixda qanday iz qoldirgan
1	Aleksandr Makedonskiy		
2	Doro III		
3	Antiox I		
4	Salavka		

5	Oksiart		
6	Salavka II		

Mavzuni “*Tarixiy shaxslar sharhi*” uslubi orqali mustahkamlash uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

1. Mazkur jadval talabalarga taqdim etiladi
2. Mazkur jadval talabalar to‘ldirishi uchun 6 daqiqa vaqt beriladi
3. Mazkur jadval asosida talabalarga mustaqil fikr yuritishlariga imkon yaratiladi

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Aleksandr Makedonskiyning O‘rta Osiyoga yurishi haqida gapirib bering?
2. Makedoniyaliklar davrida olib borilgan O‘rta Osiyodagi islohotlar haqida fikr bildiring?
3. Ahamoniylardan Doro III kim tamonidan o‘ldiriladi?
4. Spitamen jasorati haqida so‘zlab bering?
5. Makedonskiy qachon O‘rta Osiyoga bostirib kiradi?
6. Makedonskiyning olib borgan mahalliy va markaziy boshqaruvi haqida gapiring?
7. Aleksandir Makedonskiyning o‘limidan so‘ng uning tuzgan davlati necha qismga bo‘linib ketdi?
8. Salavkiylar davlati tasarufiga kirgan hududlar?
9. Ellinistik madaniyatning vujudga kelishida asosiy rol nima deb o‘ylaysiz?
10. O‘zbek davlatchiligi tarixida Makedoniya davlatining tutgan o‘rnini qanday izohlaysiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. T., “O‘zbekiston”, 2021-yil.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.-T.: “O‘zbekiston”, 1998-yil.
3. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: “O‘zbekiston Milliy Universitet”, 2012-yil.

4. Usmonov Q, Sodiqov M, Oblomurodov N. O‘zbekiston tarixi.- T.: “Abdulla Qodiriy”, 2002-yil.
5. Boynazorov F. Qadimgi dunyo tarixi.- T.: “Iqtisod-Moliya”, 2006-yil.
6. Jo‘rayev U, Usmonov Q, Norqulov A. Tarixdan hikoyalar.- T.: “Cho‘l pon”, 2011-yil.
7. Boynazorov F. Qadimgi davr tarixi.- Jizzax.: “Sangzor”, 2002-yil .
8. Sadullayev A, Kostetiskiy V, Norqulov N. O‘zbekiston tarixi. -T.: “O‘qituvchi”, 1999-yil.
9. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana tom I.- Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2009-yil.
10. Lunin.I.V “ История” -T.: “Fan”, 1978.

Axborot manbalari

11. www.ziynet.net
12. www.history.ru

5- Mavzu: Qadimgi Qang‘ va Davon davlatlarida davlat muassasalari tizimi.

Reja:

- 1. Qang‘ va Davon davlatlarining tashkil topishi tarixi.**
- 2. Ushbu davlatlarda davlat boshqaruv tizimi.**
- 3. Qang‘ va Davon davlatlarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot.**
- 4. Qang‘ va Davon davlatlarining tanazzulga yuz tutishi.**

Tayanch tushunchalar: Qang‘yuy, Dovon, Usun, Qang‘, Aris, O‘trorda, Qanqada, “Shi Szi”, Oqqo‘rg‘on, Qang‘xa, Bityan, Yuni, O‘tror 1, Oqtepa 2, Qorovultepa, Choshtepa Mugua, Chan Fin, Yanlyu, Van, “samoviy otlar”, “Fragonik”, Parkan, Chyan Syan, Qovunchitepa, Choshtepa.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ma‘lum bir iz qoldirgan davlatlardan biri Qang‘ davlatidir (miloddan avvalgi III asrdan-milodiy III asrgacha). So‘nggi ma‘lumotlarning guvohlik berishicha, ushbu davlat miloddan avvalgi III asrning boshlarida paydo bo‘lgan. Bu jarayonda yunon-makedoniyaliklar hukmronligiga qarshi olib borilgan kurashlar va ichki nizolar alohida rol o‘ynagan. Bu davlatning etnik tarkibini turli qabila, elatlar tashkil etgan. Unda yetakchi qang‘arlardan tashqari katarlar, kamarlar, toharlar, apasshaklar, asiylar va boshqa qabila, urug‘lar ham yonma-yon istiqomat qilganlar.

Kanguy (xitoycha Kanzyu) davlati haqidagi ilk malumotlar mil. avv. II asrga mansub Xitoy solnomalari, jumladan, Chjan Szyanning Katta Yuechjiga qilgan sayohati tavsilotlari asosiga qurilgan Sin Syanning “Shi szi” solnomasida uchraydi⁴⁴.

Qang‘ so‘zining kelib chiqishi haqida tadqiqotchi olimlar aniq bir fikrga kelmaganlar. Sirdaryoning o‘rta oqimida mil. avv. III - mil. V asrlarda yashagan xalqlar xitoy solnomalarida qang‘yuy deb atalgan⁴⁵.

Qang‘arlar va Qang‘ davlati tarixi ustida olimlardan Ya. F.G‘ulomov, S. G. Klyashtorniy, B. A. Litvinskiy, Yu. F. Buryakov, Q. Sh. Shoniyozov va boshqalar katta ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar va

⁴⁴ Alimova D.A., Rtveladze E.V. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari.-T.: “Sharq”, 2001. –B.15.

⁴⁵ Бичурин. Н. Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии и древние времена. -Т.: II-том. 1950. -С. 184-188.

Qang' davlati to'g'risida qimmatli asarlar yaratdilar. Xitoy manbalarida qang'arlarda davlat bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar miloddan avvalgi III asr oxiri va II asr boshlariga to'g'ri keladi. Tarixchi olim Karim Shoniyozovning fikricha: "Qang' davlati solnomalarda aytilgan davrdan ancha oldinroq mavjud bo'lgan... So'zsiz Qang' davlati O'rta Osiyoga bostirib kelgan Makedoniyalik Iskandar qo'shinlari bilan yunon-makedoniyaliklardan tashkil topgan Salavkiylar sulolasi (miloddan avvalgi 312-250 yillar) uzluksiz ravishda olib borilgan kurashlari natijasida taxminan miloddan avvalgi III asr boshida vujudga kelgan"⁴⁶.

Qang' davlatining hududi dastlab Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlar (Toshkent vohasi hamda unga tutash tog' va cho'l hududlari)dan iborat edi. Miloddan avvalgi II asrning boshlariga kelib, Qang' davlatining yerlari birmuncha kengayib, sharqda Farg'ona vodiysi (Dovon), shimoli-sharqda Usun daryosi, g'arbda Sirdaryoning quyi oqimigacha borgan. Bu katta hudud Toshkent vohasini, Talas vodiysini va qisman Chu daryosining quyi oqimidagi yerlarni o'z ichiga olgan. Aholisi o'troq hayot kechirgan, dehqonchilik bilan shug'ullangan va o'z shahriga ega bo'lgan. Dovondan farqli ravishda Kanguy manbalarda ko'chmanchi davlat sifatida tasvirlanadi. Qang'li aholisining turmush tarzi shimoli-g'arb tomondan unga qo'shni bo'lgan yuechjilar va Yansay xalqlari bilan bir xilda edi⁴⁷.

Qang'arlar hukmron bo'lgan hududda mil. avv. I va milodiy I-II asrlarda 120000 oila 600000 kishi yashagan.

Mil. avv. II asr oxiri - I asr boshlari Qang' davlatining eng rivojlangan davridir. Shu davrlarda Qang' bir qator viloyatlarni o'z tobeligiga bo'ysundirgan edi. Xitoy solnomalarida bu viloyatlarning 5 ta nomi tilga olinadi. Bular-Susye (Kesh-Shahrisabz), Fumu (Zarafshon vodiysi), Yuni (Toshkent viloyati), Gi (Buxoro vohasi), Yuegyan (Urganch shahri va viloyati). Mil. avv. II-I asrlarda Orol dengizining shimoliy sharqidagi Yantsay (hozirgi Qizil O'rda) va Yan yerlari ham qang'arlar tobeligida bo'lgan. Shunday qilib, o'z davrida Qang' davlati O'rta Osiyoda yirik davlatga aylangan edi. Qang' davlati, shuningdek, bu davrda Xorazm, Sug'd va Ural tog' oldi yerlarini o'ziga bo'ysundirib, bu

⁴⁶ Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar. -T.: "Fan", 1990. -B. 27.

⁴⁷ Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar. - T.: "Fan", 1990. -B. 15.

davlatlarning ichki boshqaruviga aralashmagan, faqat yillik o'lib turgan. Qang' davlatining ikki poytaxti bo'lib, uning hukmdorlari yozni Aris daryosi sohilidagi O'trorda, qishlovni esa Qanqada o'tkazar edilar. Qanqa (Qang'iz) Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi Qang'xa shahar xarobasi o'rnida joylashgan bo'lib, unga mil. avv. III asrda asos solingan. Qang' davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgan. III asr o'rtalarida Qang' davlati zaiflasha boshladi. Qang' davlatidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqdi. Qang' davlatining asosiy aholisi o'troq va yarim o'troq bo'lib uning hududida ko'chmanchi chorvadorlar ham yashar edi. O'troq aholi asosan vodiya yashab, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmondchilik bilan shug'ullanib kelgan.

Qadimgi manbalarda Qang' davlat hokimiyati qay tarzda idora qilinganligi haqida aniq ma'lumotlar berilmagan. Katta Xan sulolasi tarixida (mil. avv. 202-mil. 205 yy.) faqat bir marta Qang'uy (Qang') podshosi o'z oqsoqqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi eslatib o'tiladi. Tadqiqotlar natijalarida xulosa chiqaradigan bo'lsak, Qang' davlati kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol ishtirok etganlar. Podshoh saroyi qoshidagi kengashda davlatning ichki hamda tashqi siyosati va boshqa barcha muhim masalalar maslahat bilan hal qilingan⁴⁸.

Qang' davlatining etnik tarkibi xilma-xil bo'lib, uning anchagina katta hududlarida Sug'diyona, Xorazm va Toshkent vohasida yashovchi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelgan o'troq aholi bilan birgalikda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador qabilalar (saklar, massagetlar, toharlar, alanlar va boshqalar) istiqomat qilganlar. Sirdaryoning o'rta oqimida yashagan qang'lilar Qang' davlati tashkil topishida asosiy o'rinni egallagan bo'lib, Qang' podsholari, asosan, qang'lilar bo'lgan.

Mil.avv. II - mil. II asrlarda Qang' davlati o'z rivojlanishining yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Qang' podsholariga bo'ysunuvchi yarim mustaqil viloyatlarni birlashtirgan bu davlat o'z vaqtida anchagina kuchli bo'lib, o'zbek davlatchiligi tarixida o'z o'rniga egadir. Agarda antik

⁴⁸ Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi. -T.: "Yangi asr avlodi", 2003. -B. 99.

davrda O'rta Osiyoning janubida shakllangan Kushon va Parfiya davlatlari Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar asos solgan davlatlar an'analarini o'zlashtirib taraqqiy etgan bo'lsa, Qang' davlati taraqqiyotida ko'chmanchilar davlatchiligi belgilari borligi bilan ajralib turadi⁴⁹.

Bu davlatda oliy kengash katta o'rin tutgan. Oliy kengashda qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganlar va muhim davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolarni hal qilganlar. Podsho maslahat majlisi bilan hamnafaslikda ish olib borgan. Bu narsa Qang' davlati harbiy demokratik prinsiplar asosida ish yurituvchi davlat bo'lganligini ko'rsatadi. Mamlakat viloyatlarga bo'lib idora qilingan. Viloyat boshliqlari jobu yoki yobular deb atalganlar. Xoqonlar ana shu jobu yoki yobularga tayanib mamlakatni boshqarganlar. Shu boisdan bunday hokimlar xoqonlarga yaqin kishilar, yoki ularning qarindosh-urug'laridan tayinlangan. Qang' davlatiga tobe bo'lgan viloyatlarni boshqarish mahalliy hokimlar qo'lida bo'lib, ular markaziy hokimiyatga boj to'lab turar edilar. Bunday tobe viloyatlar jumlasiga qadimgi Xorazm, So'g'd hududlari va Orololdi tumanlari (alan va yan qabilalari) kirgan.

Tarixchi olim Karim Shoniyozov bergan ma'lumotlarga qaraganda Qang' davlatining ikkita markazi bo'lgan. Ulardan biri, (Qang'diz) bo'lib, u Toshkent vohasida, Sirdaryoga yaqin yerda joylashgan. Bu shahar miloddan avvalgi III asrda bunyod etilgan bo'lib, u Qang' podsholarining doimiy qarorgohi bo'lgan. Aris daryosining quyi oqimida joylashgan O'tror (Tarband) esa Qang' davlati xoqonlarining yozgi qarorgohi bo'lgan.

M.I. Filanovichning fikricha, siyosiy tuzilma sifatida Qang', ehtimol, mil. avv II asrgacha shakllangan ko'chmanchi va yarim o'troq qabilalarning Qang' yo'l boshchilari qo'l ostida birlashtirilgan turli-tuman ittifoqlaridan iborat bo'lgan. Dastlab u uncha katta bo'l magan qabilalar ittifoqidan iborat bo'lib, janubda yuechjilar hokimiyatiga bo'ysunsa, sharqda xunnlariga qaram edi. Ammo, mil. avv. II- mil. II asrda asta-sekinlik bilan u qudratli davlatga aylanadi. Bu davrda Qang' davlati manbalarda 120 ming deb ko'rsatiluvchi kuchli qo'shinga ega bo'lgan va qo'shni Xitoyga nisbatan g'oyatda mustaqil siyosat olib borgan⁵⁰.

⁴⁹ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. -B. 90.

⁵⁰ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. -B. 88.

Arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, Qang' qo'shinlaridagi otliq suvoriylar yuechji suvoriylari kabi yubka shaklidagi burmali sovut, ko'krakka taqiladigan qalqon kiyishgan. Baland po'lat yoqalar ularning bo'ynini himoya qilsa, dubulg'alar boshni omon saqlagan. Qurollardan qilichlar, nayzalar, jangovar boltalar, kamon va o'qlar keng tarqalgan edi. Har bir bo'linma ajdar shaklidagi o'zining maxsus tug'iga ega bo'lgan. Demak, Qang' davlati qo'shinlarida qurollanish va harbiy san'atga alohida e'tibor berilgan⁵¹.

Qang' davlatining iqtisodiy hayoti masalasida, Xitoy tarixchisi Sima-Syan (miloddan avvalgi II asr) uning ko'chmanchi mamlakat bo'lganligini yozadi. Ammo milodning boshlarida to'ngich Xan sulolasining tarixida qang'uylarning o'troq xalq ekanligiga ishora qilinadi. Qang'uylarda qoramol va qo'ylar ko'p bo'lgan. Ular zotli otlarni ham ko'plab yetishtirganlar. Chorva mollarining ko'pchiligi podsho va uning yaqinlariga qaragan. Shuning uchun bo'lsa kerak xoqon va uning urug'lari bahor kelishi bilan qishki qarorgohdan yozgi qarorgohga ko'chganlar. Chorvasi kam bo'lgan aholi esa vohadan chiqib keta olmagan. Yashab qolganlari esa dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lganlar. Angren-Chirchiq atroflarida saqlangan yuzlab tepa-qo'rg'onlar bunga guvohlik beradi. Tarixiy ma'lumotlardan qang'arlarning Bityan, Yuni hamda arxeologlar ochgan O'tror 1, Oqtapa 2, Qorovultepa, Choshtepa xarobalari o'rnida qadimiy qo'rg'onlari va shaharlari ham bo'lgan. Hunarmandchilik, urush qurollari, (qilich, xanjar, oybolta, o'tkir uchli nayza va boshqalar) Toshkent vohasida ishlab chiqarilgan, Qoramozor, Qurama va Chotqol tog'larida temirchilik, misgarlik hunarining rivojlanishi uchun kerakli miqdorda ma'danlar bo'lgan. Bu joylardan juda qadim davrlardan boshlab mis, temir, kumush va boshqa metallar olingan. Ustalar turli metallarni bir-biriga qo'shib mustahkam qurollar yasashni ham bilganlar.

1984-yili xo'jandlik A. Aminov tomonidan Sirdaryodan topilgan qadimgi dubulg'a yuqorida aytib o'tganlarimizga misol bo'ladi. Dubulg'a 2 ming yillik tarixga ega. Dubulg'aning zirxi qo'shqavat bo'lib, turli

⁵¹ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. -B. 88.

metall qotishmalaridan ishlangan. Mutaxassislar uni yasash uchun mahalliy xom ashyo, jumladan, Qoramosor rudasi asosiy mahsulot bo'lib xizmat qilgan, deb taxmin qiladilar.

Qovunchitepa qazilmalaridan topilgan sopol idishlar Qang' davri madaniyatidan darak beradi. Sopol idishlar ko'pincha qizil ang'ob bilan bo'yalgan. Sopol idishlarning bir qancha turlariga hayvon boshi tasviri tushirilgan. Yuqorida tilga olingan arxeologiyaga oid barcha topilmalar Qovunchi madaniyati deb tarixga kirgan. Qovunchi madaniyati Toshkent vohasi, Sirdaryoning o'rta oqimi, Yettisuv va Shimoliy Farg'onada keng tarqalgan. Bu madaniyatning ayrim namunalari O'zbekistonning janubi va Tojikistonning bir qancha tumanlaridan ham topilgan. Qang' madaniyati, savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi va kengayishida bu davlat hududi orqali o'tgan qadimiy savdo yo'li-"Ipak yo'li" ning ahamiyati katta bo'lgan.

Qang'lilar e'tiqodi mafkurasida zardushtiylik dini yetakchi o'rinni egallagan. Ular quyoshni muqaddas deb bilganlar va unga sig'inganlar. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda madaniyatning boshqa turlari qatorida musiqa san'ati ham rivojlanganligi ta'kidlanadi.

Bizga qadar yetib kelgan yozma manbalar va bugunga qadar olingan arxeologik ma'lumotlarga asoslangan tadqiqotchilar Qang' davlati, uning tarkibi, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tarixini yoritishga, mazkur siyosiy birlashmada davlatchilik boshqaruvining shakllanishi va rivojlanishi xususida o'z munosabatlarini bildiradilar.

Qang' davlati olib borgan tashqi siyosat qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish, keskinlashgan vaziyatning oldini olish va o'z chegarasida osoyishtalik o'rnatishga qaratilgan edi. Shu bilan birgalikda, payti kelganda atrofdagi kuchsizlanib qolgan qabilalarga, vohalarga, viloyatlar ustiga hujum qilib, ularni o'ziga qaram qilish ayrim hollarda tashqi siyosatni belgilab berar edi.

Qang' davlatining janubdagi qo'shnisi-antik davrdagi ulkan va qudratli saltanatlardan biri Kushon davlati edi. Qang'lilar bu davlat bilan do'stona munosabat o'rnatishga harakat qilishlariga qaramasdan mil. I

asrda kushonlar qangʻilarning mulklari hisoblangan ayrim viloyatlarni oʻz chegaralariga qoʻshib oladilar.

Vohalarda yashovchi oʻtroq aholi dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik bilan ham shugʻullanganlar. Yozma manbalarda bu aholining sut-qatiqlari va zotdor otlari borligi haqida maʼlumotlar beriladi. Chorva mollarining koʻpchilik qismi koʻchmanchi va yarim oʻtroq aholi ixtiyorida boʻlgan. Koʻp sonli chorva mollarini esa mavsumga qarab, bir joydan ikkinchi joyga haydab boqqanlar. Qangʻ podsholari va ularga yaqin boʻlgan kishilar nihoyatda boy chorvadorlar boʻlganlar. Ular bahor kelishi bilan yaqinlari, qarindosh- urugʻlari bilan birgalikda yozgi qarorgohda, yaʼni Oʻtrorga borib yozni oʻtkazganlar. Kuzda esa qishlovni oʻtkazish uchun Qanqaga qaytib ketganlar.

Tadqiqotchilarning eʼtirof etishlaricha, qangʻilarning koʻpchiligi shaharlarda va katta-kichik qishloqlarda yashaganlar. Shaharlar mustahkam himoya inshootlari bilan oʻrab olinib, ularda qalʼalar ham mavjud boʻlgan. Koʻpchilik shaharlarning avvaldan oʻylangan rejaviy tuzum asosida qurilganligi Qangʻ davlatida shaharsozlik madaniyati rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mustahkam himoya inshootlari va qalʼalarga ega boʻlgan shaharlarda hamda yirik qishloq va qoʻrgʻonlarda yirik qabila boshliqlari, urugʻ yoki jamoa oqsoqollari, boy-badavlat oilalar va qisman hunarmandlar yashaganlar. Turar-joylar, asosan, paxsa va xom gʻishtdan qad koʻtargan. Qangʻ davlati aholisining koʻpchilik qismi tarqoq holda kichik-kichik qishloqlarda, yertoʻlalarda, kapa uylarda va oʻtovlarda yashab, yarim oʻtroq va koʻchmanchi turmush tarzi yuritganlar. Shahar va qishloqlarda hunarmandchilikning koʻplab sohalari- kulolchilik, temirchilik, teriga ishlov berish, zargarlik, toshtaroshlik, toʻqimachilik kabi oʻnlab turlari rivojlangan edi. Arxeologik maʼlumotlarning guvohlik berishicha, yirik shaharlarda hunarmandchilikning maʼlum sohasiga ixtisoslashgan ustalarning mahallalari mavjud boʻlgan. Tadqiqotlar natijasida topilgan rangdor sopol idishlar, turli matolar qoldiqlari, charm buyumlar, ot-ulov anjomlari hamda turli zeb-ziynatlar Qangʻ davlati madaniyati nihoyatda rivojlanganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Qanqa xarobalaridan, Joʻnariq atroflaridagi tepaliklardan, Qovunchitepa,

Choshtepa va Toshkent vohasining ko'pgina hududlaridan mil. avv. III va milodiy V asrga oid arxeologik topilmalar ham Qang' madaniyati rivojining namunasidir.

Mil. avv. II-I asrlarda Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan davlatlarining yana biri bu Parkana davlati (miloddan avvalgi III asrdan-milodiy II asr) bo'lib u Xitoy manbalarida Davon deb yuritiladi. Bu davlat Qang' davlati bilan qo'shni bo'lgan. Xitoylik elchi Chjan Syan yozma manbalarida Farg'ona vodiysidagi davlatni Davan (Da-yuan) deb atagan. Farg'ona vodiysining qadimgi davri tarixi yetarlicha o'rganilmagan. Vohada 70 ta shahar bo'lgan, poytaxti Ershi shahri (hozirgi Marhamat) edi. Davon qishloq xo'jaligi yuksak darajada rivojlangan mamlakat edi. Xitoy manbalarida Parkana davlati haqida bir qator qiziq ma'lumotlar uchraydi. Miloddan avvalgi II asrning 20 yillarida (128-yilda) Farg'ona, So'g'diyona, Baqtriya safarda bo'lgan xitoylik elchi Chjan Syanning guvohlik berishicha, Farg'onaning aholisi uch yuz ming kishidan iborat bo'lib, harbiy qo'shini soni 60 mingdan iborat bo'lgan.

Bu davlat, taxminan mil. avv. III asrdan to milodiy II asrgacha mavjud bo'lib, Farg'ona vodiysida joylashgan.

Farg'ona so'zi Sug'd manbalarida "Fragonik" shaklida yozilib "tog'lar orasidagi vodiylar, atrofi berk soylik" ma'nosini beradi. Xitoy manbalaridagi Dayyuan ham "tog'lar orasidagi vodiylar" ma'nosini beradi. Farg'ona vodiysining qadimda salavkiylar davlati tarkibida bo'lganligi haqida ham hech qanday ma'lumot yo'q. Bu shundan dalolat beradiki, Farg'ona qadimgi davrda ahamoniylar va yunonlar hukmronligi davrida siyosiy erkini o'z qo'lida saqlab qola olgan. Yunon manbalarida salavkiylarning lashkarboshisi Demodam miloddan avvalgi 280-yilda Yaksart (Sirdaryo)dan o'tib yunon xudosi Appolon shaniga altar (mehrob, olovxona) o'rnatdi, degan xabardan bo'lak hech narsani qoldirmagan. Bundan tashqari antik tarixchilar Yunon-Baqtriya podshohlaridan biri Sharqiy Turkistonga Farg'ona orqali bir marta qo'shin tortib borganligini qayd qilish bilan cheklanadi. Bu fikr-mulohazalar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, qadimgi Farg'ona davlati- Davan miloddan avvalgi II asrda emas, balki ancha ilgariroq, taxminan IV yoki III asrlardayoq tarix sahnasida

bo'lganligi ma'lum bo'ladi. U paytda bu davlat Parkan deb atalgan. Davan nomi esa xitoylar tomonidan berilgan nomdir.

Ba'zi bir xitoy yozma manbalarining guvohlik berishicha, miloddan avvalgi II asrlarda Davan aholisi ko'p, dehqonchilik va hunarmandchilik xo'jaligi yuksak darajada rivojlangan, shaharlarga boy va kuchli qo'shinga ega bo'lgan mamlakat edi. Buni boy arxeologiyaga oid to'plamlar ham tasdiqlaydi. Davan tarixining bu davri Sho'rabashad bosqichi deb ham ataladi. Sho'rabashad O'zgan yaqinida joylashgan bo'lib, vodiyni yirik shaharlaridan biri bo'lgan, uning yer maydoni 70 gektarga tengdir.

Davanda miloddan avvalgi II asrda bo'lgan Xitoy e'lchisi Chjan Syan bergan ma'lumotlarga qaraganda bu davlat kuchli siyosiy tizimga ega bo'lgan. Davlat tepasida mahalliy aholining aslzodalaridan chiqqan hukmdor turgan. Manbalarda ularning nomlari xitoycha Mugua, Chan Fin, Yanlyu-deb tilga olinadi. Hukmdor o'zining yonida eng yaqin ikkita qarindoshini yordamchi sifatida tutib davlatni boshqargan. U davlat ishlarini olib borishda oqsoqollar kengashiga suyangan. Bu kengash hukmdor bilan birgalikda davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy, siyosiy va diniy muammolar bilan shug'ullangan va ularni hal etgan. Ayni paytda oqsoqollar kengashi hukmdor faoliyatini ba'zi bir muhim masalalarda nazorat ham qilib turgan. Kengash mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida faol ishtirok etish bilan birga podshoh bilan bog'liq rasmiy tadbirda ham ishtirok etgan. Kengash qarori bilan davlatning muhim masalalari, ya'ni urush e'lon qilish, sulh tuzish, diplomatik munosabatlar o'rnatish kabi masalalar hal etilgan⁵².

Oqsoqollar kengashi oldida hukmdor huquqi cheklangan, xususan, urush, tinch elchilik masalalarida hal etuvchi kuch va huquq bu kengash qo'lida bo'lgan. Oliy kengash zarur bo'lsa, hukmdorni hokimyatdan chetlatishi, uning o'rniga yangisini saylashi ham mumkin. Hatto, o'zga davlatlar bilan bo'lgan janglarda davanliklarning mag'lubiyati uchun oliy hokimiyat egasi-hukmdor oqsoqollar kengashi qarori bilan o'lim jazosiga tortilganligi ham manbalarda qayd etiladi.

⁵² Abdurahimova N.A., Isakova M.S., Suleymanova Z.M. Davlat muassasalari tarixi.-T.: "Sharq", 2007. –B. 10.

Davan davlatining siyosiy tuzumi ilk shahar-davlat yoki vohadavlatlarining erkin ittifoqiga tayanardi. Bunday davlat tizimining shakllanishida ilk temir davrida (miloddan avvalgi XI-VIII asrlarda) qaror topgan dehqonchilik vohalari va ular negizida tashkil topgan qadimgi shaharlar asos bo'lgan edi. Bunday dehqonchilik vohalarining soni arxeologiyaga oid izlanishlar ma'lumotlariga qaraganda 10 dan ortiq bo'lgan. Bular Aravansoy, Akbura, Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Andijonsoy, Qorabosh, Tentaksoy, Maylisoy, Ulug'nor, Shahrixonsoy, Akman, Yilg'insoy va boshqalardir. Ularning har birida o'nlab antik davr yodgorliklari mavjud. Bu vohalar asosan so'ngi bronza davrida o'zlashtirilgan, miloddan avvalgi IV-I asrlarga kelganda esa ular zahirida shaharlar qad rostlaganini ko'ramiz.

Xitoy sayyohi va elchisi Chjan Syanning ta'kidlashicha, qadimgi Farg'ona bilan Xitoy o'rtasida doimiy suratda siyosiy, iqtisodiy, savdo va madaniy aloqalar bo'lib kelgan. Xitoy hukmdorlari doimo Farg'ona vodiysi boyliklariga, uning samoviy uchar otlariga hasad bilan qaraganlar va shu negizda ikki o'rtada tez-tez urushlar ham kelib chiqqan. Davanliklar o'z erki va ozodliklari uchun hamisha dushmanlarga qarshi shafqatsiz kurashib kelganlar.

Xitoy manbalarida qoldirilgan ma'lumotlarga qaraganda, miloddan avvalgi II-I asrlarda Davanda dehqonchilik madaniyati va yilqichilik yuksak darajada rivojlangan. Chjan Syan bu davrda hammasi bo'lib 70 ta obod shaharlar bo'lganligini, unda bir necha yuz ming aholi yashaganligini yozadi. Voha aholisi yerga ishlov berishda o'ta mirishkor bo'lgan. Ular sholi, bug'doy va boshqa ekinlarni ekib dehqonchilik qilganlar. Farg'ona vodiysida qadimdan uzumchilik keng rivoj topgan, undan sharbat tayyorlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Boylarning yerto'lalarida o'n yillab saqlangan sharoblar bo'lgan. Ammo, bu yerda Parfiya, Baqtriya, Xorazm, Sug'dda bo'lgani singari tanga pullar zarb yetilmagan. Savdo, asosan, pulsiz mol ayiriboshlash yo'li bilan olib borilgan. Antik Farg'onada hunarmandchilikning qator tarmoqlari keng rivoj topgan. To'qimachilik va kulolchilik sohalari bundan mustasno emas.

Chjan Syanning Davan davlatining harbiy qudrati haqidagi ma'lumotlari ham e'tiborlidir. Uning takidlashicha bu davlat 60 ming

qo‘shinga ega bo‘lgan. Piyoda askarlar oddiy qurollar bilan qurollangan, otliq qo‘shinning harbiy mahoratda tengi bo‘lmagan. Davan suvoriylarining chopar ot ustida turib orqaga qayrilib kamondan uzgan o‘qlari har qanday dushmanni ham dog‘da doldirgan. Vodiyning, hatto, ayollari ham kamondan o‘q uzish va mohirlikda erkaklardan qolishmagan deb takidlaydi.

Birinchi topilgan yodgorlikka nisbat bergan holda Farg‘ona dehqonchilik madaniyati Chust madaniyati deb ataladi.

Chust madaniyati yodgorliklari qadimgi daryolar va ularning irmoqlarining yoqalarida (ko‘proq daryo vodiylarida) voha yoki guruh-guruh bo‘lib joylashgan. Bu hol qulay tabiiy iqlim sharoitlariga ega bo‘lgan ayrim hududlarni o‘zlashtirish jarayoni bilan taqazo etilgan. Vodiyning geografik rayonlarida vohalarning bunday guruhlardan 15 tasi qayd etilgan va ularning ayrimlari quyidagi tarzda joylashgan:

1. G‘ova daryosi vodiysi va Ko‘kseraksoy tashlamasining qonusi;
2. Kosonsoy daryosi chap qirg‘og‘i;
3. Qoradaryoning chap qirg‘og‘i;
4. Xojaobod va uning atrofi;
5. Aravon guruhi;
6. Oqbura daryosining vodiysi;
7. Taldiqsuv daryosi irmoqlarining deltasi;
8. Yassi va Qoradaryo daryolari vodiysi;
9. Aravonsoyning yuqori va o‘rta oqimi hamda o‘zani kabilar bo‘lgan⁵³.

Qadimshunoslarning tadqiqotlari natijasida Farg‘onada ko‘p sonli uy-qo‘rg‘onlar, qishloq va shahar xarobalari topib o‘rganilgan. Sho‘rabashat (O‘zgan yaqini), Uchqo‘rg‘on (Namangan viloyati) singari shaharlar atrofidagi aholi yerni ishlash, sholi va bug‘doy yetishtirish, bog‘dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishganlar. Yuqorida aytib o‘tganimizdek hunarmandchilik juda yaxshi rivojlangan. Savdoda pulsiz mol ayirboshlash keng yo‘lga qo‘yilgan.

⁵³ Alimova D.A., Rtveladze E.V. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. –T.: “Sharq”, 2001. –B. 27.

Qadimgi Oʻzgan, Koson ham Dovonning eng mashhur shaharlari sirasiga kirgan. Dovon hududida 10 dan ortiq yirik dehqonchilik manzilgohlari mavjud boʻlib, ularda yerli mirishkor aholi sholi, bugʻdoy va boshqa dehqonchilik ekinlari yetishtirish bilan shugʻullangan. Bularga Aravonsoy, Oqboʻra, Sultonobod, Qoʻrgʻontepa, Andijonsoy, Moylisoy, Ulugʻnor, Yilgʻinsoy, Shahrixonsoy kabi dehqonchilik makonlarini nisbat berish mumkin. Xitoy sayyohi vodiya uzumchilik nihoyatda rivojlanganiga, shu bilan birga undan noyob sharbat va uzoq muddat saqlanadigan, quvvati oʻtkir musallaslar tayyorlash yuksak darajada yoʻlga qoʻyilganligiga alohida urgʻu beradi. Xitoy sayyohi va elchisi Chjan Szyanning bergan maʼlumotlariga qaraganda, Dovon ayniqsa, oʻzining “Samoviy otlari” bilan mashhur boʻlgan. Fargʻonaliklar ot ustida turib kamon otishga juda mohir va jasur boʻlganlar. Dovon davlati Xitoy, Hindiston va boshqa Sharq mamlakatlari bilan xalqaro savdoda muhim oʻrin tutgan.

Mil. avv. 104-101 yillarda Xitoy qoʻshinlari Dovonga yurishlar qilib, Ershi shahrini qamal qiladilar. Shu paytda Qangʻ davlatining qoʻshinlari yordamga kelib, xitoyliklarga qarshi kurashda faol qatnashdilar. Xitoy lashkarlari sulhga rozi boʻlib, Dovonni tashlab chiqadilar.

Fargʻona boshqaruv tizimida hukmdor, (manbalarda “van” (podsho) unvoni bilan ishlatilgan) uning ikki yordamchisi (vaziri) va oqsoqollar kengashi faoliyat koʻrsatganligi xitoy manbalaridan maʼlum. Yordamchilar, asosan, oliy hukmdorning qarindoshlari orasidan tayinlangan boʻlishi kerak. Ammo, oqsoqollar kengashi mamlakat ijtimoiy, siyosiy va tashqi munosabatlarida faol ishtirok etish bilan bir qatorda oliy hukmdor faoliyati bilan bogʻliq tadbirlarda qatnashish qudratiga ham ega boʻlgan. Urush ochish, sulh tuzish, yangi hukmdorni tayinlash, uni taxtdan mahrum etish kabi tadbirlarda oqsoqollar kengashi yetakchi oʻrin tutganligini koʻrsatuvchi guvohliklar talaygina. Masalan, xitoyliklarning Fargʻonaga tajovuzlari chogʻida oqsoqollar kengashi oʻzaro sulh tuzish tarafdori boʻlib chiqadi va bunga erishadi ham. Yoki boʻlmasa, xitoyliklar bosqini bilan bogʻliq voqealar sababchisi deb topilgan Mugʻuy oqsoqollar kengashi hukmi bilan qatl qilingan.

Eng qadimgi yozma manbalar Oʻrta Osiyodagi ayrim ilk davlat uyushmalari haqida maʼlumotlar bersada, Fargʻona haqida bunday maʼlumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan Y.A. Zadneprovskiy Qadimgi Fargʻona (Davan) podsholigining mavjud boʻlganligini taxmin qiladi. A.Asqarovning fikricha, mil. avv. I ming yillikning oʻrtalaridan oldingi davrdagi Fargʻona haqida soʻz yuritilganda, odatda, faqat “chifdom” (voha) shaklidagi qadimgi davlat asoslarining paydo boʻlishi anglashiladi. Olimning fikricha, mana shu holatni hisobga olib Fargʻonada davlatchilik, taxminan, mil. avv V-IV asrlarda paydo boʻlgan boʻlishi mumkin.

Mil. avv II asrdan boshlab Qashgʻardan Davanga shimoliy yoʻldan karvon yoʻli harakati boshlanadi. Bu yoʻldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib, Davan aholisi koʻpaya boshlaydi va koʻplab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo boʻladi. Savdo yoʻlida Davan muhim ahamiyatga ega boʻlib boradi. Tadqiqotchilarning fikricha, Yassi va Qoradaryo vohalarida koʻpgina qalʼalar savdo yoʻlini qoʻriqlash maqsadida barpo etiladi⁵⁴.

Mil. avv. 125-yilda Davanga kelgan Xitoy elchisi Chjan Syan bu yerda qishloq va shaharlari obod, sugʻorma dehqonchilik va hunarmandchilik xoʻjaliklari yuksak rivojlangan, kuchli harbiy kuchlarga ega davlatni koʻradi. Chjan Syan Davanning qishloq xoʻjaligi haqida maʼlumot berib, shunday yozadi: “Oʻtroq aholi yer haydaydi, gʻalla va sholi ekadi, ularda musallas navli uzum, juda koʻplab yaxshi otlar bor. Davanning barcha joylarida uzum vinosi tayyorlaydilar. Boy xonadonlar uni katta miqdorda tayyorlaydi, bu ichimlik xumlarda bir necha oʻn yillarda ham buzilmay saqlanadi”. Shuningdek, bu elchi bu davlat aholisi juda xushmuomala, mehmondoʻst, koʻngli ochiq odamlar ekanligi haqida maʼlumot beradi.

Xitoy manbalari qadimgi Fargʻonada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Xitoyliklarni, ayniqsa, oʻzlari uchun notanish boʻlgan beda va uzum hayratga solgan. Manbalarda yana shunday maʼlumot bor: “Xitoy elchisi urugʻ keltirdi, shunda osmon

⁵⁴ Eshov B. Oʻzbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T.: “Oʻzbekiston Milliy Universitet”, 2012. –B. 93-94.

farzandi (Xitoy imperatori) unumdor yerga beda va uzum ekdi”. Davanliklarning bog‘larida uzumdan tashqari anor, o‘rik va boshqa mevali daraxtlar ko‘p bo‘lgan. Xitoy tarixchilari bu mevalarning Xitoyda paydo bo‘lishini Davan bilan bog‘laydilar.

Xitoy manbalari, shuningdek, qadimgi Farg‘ona chorvachiligining o‘ziga xos tomoni bo‘lgan yilqichilikning yuqori darajada rivojlanganligi haqida ham ma’lumotlar beradi. Davan davlati antik davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, ularni yetishtirish bilan o‘troq aholi shug‘ullangan. “Davanda yaxshi otlar bo‘lib, ular Ershi shahridadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi bo‘lmaydilar”. Davanning mashhur “samoviy otlari” tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Davan davlati ma’lum bir siyosiy uyushmani tashkil etgan bo‘lib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda “Van” (podsho) unvoni bilan ish yuritgani eslatiladi. Manbalarda “Van” unvoniga ega bo‘lgan Motsay, Chan Fin, Mug‘ua, Yanlyu kabi hukmdorlarning nomlari saqlanib qolgan. Yagona hukmdor bo‘lgan podsho, ya’ni “Van” davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan ishlarni oqsoqollar kengashiga suyangon holda olib borgan. Manbalarning ma’lumot berishicha, podshoga yaqin kishilar (odatda uning qarindoshlari) orasidan yordamchilar-bitta katta yordamchi (Fu van) va bitta kichik yordamchi (Fu-go-van), tayinlangan. Davlat hukmdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Davan davlati hududlari shaharlar va vohalarga bo‘lingan holda idora etilgan bo‘lishi mumkin. Chunki, manbalarning ma’lumot berishicha, Yuchen shahrining hokimi Xitoy qo‘shiniga oziq-ovqat etkazib berishdan bosh tortgan. Tadqiqotchi N. Gorbunova har bir shaharning, ehtimol, vohaning o‘z hokimi bo‘lganligi haqidagi tahminni ilgari suradi. Olimaning fikricha, aynan mana shu hokimlar oqsoqollar kengashi tarkibiga kirgan va unda hal qiluvchi mavqega ega bo‘lgan. A. Asqarovning fikricha, oqsoqollar kengashi oldida podsho-hukmdorning

huquqlari cheklangan edi. Ayniqsa, urush va tinchlik, diplomatik masalalarda hal etuvchi kuch va huquq oqsoqollar kengashi qo‘lida edi⁵⁵.

O‘zining butun tarixi davomida Davan davlati yirik imperatorlar va kuchli davlatlar ta’siri ostiga tushmasdan o‘z siyosiy erkinligini saqlab qolgan. Arxeologik topilmalar ham qadimgi Davanning o‘ziga xos rivojlanish yo‘liga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Misol uchun, Farg‘ona vodiysi mil.avv. VI-IV asrlarda Eron Ahamoniylari va Aleksandr Makedonskiy bosqinlaridan chetga qolgan. Aleksandr faqat Xo‘jand shahrigacha kelganligi taxmin qilinadi. Salavkiylarning ham Farg‘ona vodiysiga kirib borganlari haqida ma’lumotlar yo‘q.

Milodning I-II asrlariga kelib qadimgi Farg‘ona aholisining o‘troq dehqonchilik madaniyati yuqori darajaga ko‘tariladi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg‘ona vodiysida bu davrga oid ko‘p sonli aholi manzilgohlari, qal’alar, qo‘rg‘onlar, ko‘hna shaharlar xarobalari aniqlangan. Aholi manzilgohlarini vodiyniing turli hududlarida keng yoyilishi sug‘orma dehqonchilik va irrigatsiya ishlarining yuqori darajada rivojlanishi natijasi edi. Davlatning siyosiy va madaniy rivojlanishida hunarmandchilikning markazi bo‘lgan qadimgi shaharlar, ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Hunarmandchilikning rivojlanishi va qadimgi yo‘llarning mavjudligi tufayli Farg‘ona vodiysida Sharqiy Turkiston bilan olib borilgan tashqi savdo bilan bir qatorda, atrofdagi tog‘ vodiylarda yashovchi chorvador– ko‘chmanchi aholi bilan ham o‘zaro almashinuv rivojlanadi. Antik davr Farg‘ona yodgorliklarining ayrimlarida Xitoy tangalari uchrasa ham mahalliy tangalar uchramaydi. Bu hol natural xo‘jalik (mahsulot ayirboshlash) ustunlik qilganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Davan davlati mil.avv. III va milodiy III asrlarda mavjud bo‘lgan bo‘lib, boshqaruv tizimiga ko‘ra podsholik hisoblangan. Aholining ko‘pchiligi shaharlarda istiqomat qilgan. Buyuk Ipak yo‘lining paydo bo‘lishi ham ushbu davlatning gullab-yashnagan davriga to‘g‘ri keladi. Xitoydan O‘rta er dengizigacha cho‘zilgan bu yo‘ldagi qit’alararo savdoda sharqiy Sug‘diyona chegaralaridan to Tan

⁵⁵ Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T.: “O‘zbekiston Milliy Universitet”, 2012. –B. 95.

davridagi Xitoy imperiyasigacha bo'lgan yo'lning xavfsizligini ta'minlashda, oziq-ovqat, yo'l ko'rsatuvchilar va tarjimonlar yetkazib berishda Davan davlati asosiy rol o'ynagan. Olimlarning aniqlashicha, milodning II asrida Farg'ona davlati barham topdi va uning yerlari Kushon podsholigiga qo'shib olindi.

Qadimgi Davan davlatini miloddan avvalgi dastlabki yuz yilliklari davomida mahalliy aslzodalar sulolasi boshqargan. Buni Xitoy manbalari tasdiqlaydi. Ushbu manbalarda ko'rsatilishicha, qadimgi Farg'onani 419 yilgacha bir sulola vakillari uzluksiz idora qilganlar. O'rta Osiyo hududlarida Eftalitlar davlati qaror topgach, qadimgi Farg'ona davlati ham o'z mustaqilligini yo'qotib, ana shu Eftalitlar davlati tarkibiga kirgan edi. Demak, podsholik boshqaruv tizimi va oqsoqollar kengashiga asoslangan Davan davlati - o'z davrida qadimgi o'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyoti an'analarini davom ettirgan davlat bo'lib, davlatchiligimiz tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Keyingi olib borilajak tadqiqotlar Davan davlati tarixi muammolari bilan bog'liq ko'pgina masalalarga aniqlik kiritishi shubhasizdir.

Maruza mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Insert”** interfaol usulidan foydalaniladi.

INSERT JADVALI

A	M	—	?

Mashg'ulot uchun topshiriqlar

Qadimgi Qang' va Davon davlatlarida ijtimoiy-siyosiy holat:

◆ Xitoy manbalarida qang'arlarda davlat bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar miloddan avvalgi III asr oxiri va II asr boshlariga to'g'ri keladi.

◆ Mil. avv. 104-101-yillarda Xitoy qo'shinlari Dovonga yurishlar qilgan.

◆ Chjan Syan bu davrda hammasi bo'lib 70 ta obod shaharlar bo'lganligini qayd etgan.

◆ Qang' davlati aholisining ko'pchilik qismi tarqoq holda kichik-kichik qishloqlarda, yerto'lalarda, kapa uylarda va o'tovlarda yashab, yarim o'troq va ko'chmanchi turmush tarzi yuritganlar.

◆ III asr o'rtalarida Qang' davlati zaiflasha boshladi.

◆ Qang' davlatidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqdi.

Mavzu mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri "Insert" interfaol usuli haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim

- Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar yaxshi o'zlashtirilishi kerak

-Yuqorida berilgan matn jiddiy o'qiladi

- Maxsus belgilar yordamida ("A"- tanish ma'lumot; "M"- yangi ma'lumot; "?"- bu ma'lumot men uchun tushunarsiz) munosabat bildiriladi

-Maxsus belgilar orqali o'z bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi

- "A"-tanish ma'lumot bo'lsa, qaysi manbadan qachon o'rganilganligi qayd etiladi

"M"- yangi ma'lumot, "?"-bu ma'lumot men uchun tushunarsiz" bo'lsa, fikrlarga munosabat o'rganilishi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Qang' va Davon davlatlarining tashkil topishi haqida so'zlab bering?

2. Qang' va Dovon davlatlarida davlat boshqaruvi tizimi qanday tashkil etilgan edi?
3. Ushbu davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayot qanday ko'rinishda ekanligini gapirib bering?
4. Qang' va Dovon davlatlariga tegishli arxeologik qazishma ishlari davomida qanday madaniy yodgorliklar topilganligini bilasiz?
5. Dovon davlati haqidagi ma'lumotlarni o'rganishda muhim manbalar?
6. Dovondagi samoviy otlar haqida ma'lumot bering?
7. Dovon davlatida nechita shahar bo'lgan?
8. Qang' va Dovon davlatlari ittifoq tuzib qaysi davlatning harbiylariga qarshi kurash olib borganlar?
9. Qang' va Dovon davlatlarida savdo-sotiqning o'rni haqida so'zlab bering?
10. Qang' va Dovon davlatlarining tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. T., "O'zbekiston", 2021-yil.
2. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T., "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012-yil.
3. Alimova D.A, Rtveladze E.V. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari.- T., "Sharq", 2001-yil.
4. Abdurahimova N.A, Isakova M.S, Suleymanova Z.M. Davlat muassasalari tarixi.-T., "Sharq", 2007-yil.
5. Murtazayeva R.H. O'zbekiston tarixi.- T., "Yangi asr avlodi", 2003-yil.
6. Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar.- T., "Fan", 1990-yil.
7. Бичурин. Н. Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии и древние времена. Т. II. М-Л, 1950.
8. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. - T., "Sharq", 2000-yil.
9. Orziyev M.Z, Ergashyev J. Yu. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Buxoro. "Durdona". 2021-yil.

Axborot manbalari

10. www.ziynet.net
11. www.history.ru

6-Mavzu: Kushon davlatida davlat muassasalari tizimi.

Reja:

- 1. Kushonlar davlatining tashkil topishi**
- 2. Kushonlarda davlat boshqaruv tuzilmasi**
- 3. Kushonlar davlatida harbiy soha, jinoyat va jazo organlari faoliyati**
- 4. Kushonlar davlatida soliq tizimi.**

Tayanch iboralar: Kushon, Xyumi, Shaunmi, Guyshuan, Xise, Dumi, Da-yuechji, Mode, Shansuy Lyaoshan, Geray, Kudzulla Kadviz, Vima Kadviz, Kanishka, Avrelin, Palmir, Vasishka, Xuvishka, Vasudeva, Shopur I, Xormuzd II Puli-Xumri, Surx-Kotal, Dalvarzintepa, Xolchayon, Ayritom, Qora-tepa, Fayoz-tepa.

Qadimgi Xitoy manbalari Baqtriyani yuechji qabilalari bosib olganligi haqida ma'lumot beradi. Mil.avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani mil. avv. 172-161 yillar oralig'ida deb belgilaydilar) yuechjilar xunlardan mag'lubiyatga uchraganidan so'ng O'rta Osiyoning shimoliy hududlarida ko'chib yuradilar. Bu qabilalar Xitoy manbalarida "Da-yuechji"–"Buyuk" yoki "Katta yuechji" deb eslatiladi⁵⁶. Xitoy manbalarida aytilishicha, miloddan avvalgi III asrda Mo'g'ulistonda katta yuechjilar qabilalari ittifoqi hukmronlik qilgan. Hatto, xunlar ham ularga o'lpon to'lagan. Mil. Avv. 206 yilda yuechjilar qo'lida garovda bo'lgan Mode xunlarga sardorlik qila boshlagan. U hokimyatni mustahkamlab, qo'shinni qayta tuzib 206-204 yillar yuechjilarga birinchi bo'lib zarba beradi. Mil. avv. 165-yili xunlar O'z sardorlari Shansuy Lyaoshan boshchiligida ikkinchi marotaba yuechjilarni tor-mor etadilar natijada yuechjilar g'arbga-O'rta Osiyoga siljiydilar. Yapon olimi Kovabarinning yozishicha, yuechjilar O'rta Osiyoning shimolida mil. avv. 172-161 yillarda bo'lgan. Amudaryo janubiga esa 139-129 yillarda kelishgan. Arxeologik ma'lumotlar yuechjilarning Samarqandda 130-121 yillarda bo'lganini ko'rsatadi. Yuechjilar Sug'dga Farg'ona orqali o'tdan degan fikrlar ham mavjud. O'rta Osiyoga kelgan yuechjilar buyuk yoki katta yuechjilar Sharqiy Turkistond bo'lib, qolgani

⁵⁶ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. –B. 97.

esa kichik yuechjilar deyilgan. Rus olimi S.S. Tolstov fikricha, yuechjilar bu-massagetlar, aniqrog‘i, massagetlar konfederatsiyasi tarkibiga kirgan toxarlardir. S.S. Tolstov fikricha, ko‘chmanchilarning janubga siljishiga sabab - massagetlar konfederatsiyasi bilan xun va Baqtriya greklari o‘rtasida kechgan kurashning yakuni (ya’ni massaget (yuechjilar) parfiyalik bilan ittifoqda Salavkiy-Baqtriya greklari ustidan g‘alaba qozongan). Shuningdek, S.S. Tolstov ko‘chmanchilarning janub tomon yurishlarini qandaydir stixiyali tarzda emas, balki O‘rta Osiyolik erksevar xalqlarning grek-makedon bosqinchilariga qarshi kurashi sifatida baholaydi.

Yunonlar hukmronligining qulashi va ko‘chmanchilar tomonidan zabt etilishidan so‘ng (ya’ni er.av. II asrning 40-yillarida) Baqtriya tarixi shartli ravishda ikkita bosqichga bo‘linadi. Dastlab uning hududida bir nechta ko‘chmanchi qabilalar boshliqlari tomonidan yaratilgan mayda davlatlar mavjud bo‘lgan. Bu kechagi ko‘chmanchilar tez orada o‘troq madaniyat an‘analarini o‘zlashtirib, o‘zlarini ishbilarmon yer egalari sifatida ko‘rsatishdi. Ular tomonidan er.av.I asrda yangi kanallar o‘tkaziladi, dehqonchilik vohalari yaratiladi, shaharlar barpo qilinadi. Tez orada Geray ismli hukmdor yirik kumush tangalar zarb ettirib, unda o‘zining qurollangan suvoriy shaklidagi tasvirini joylashtiradi va bu tasvir tagida yunoncha alifbodagi yozuv yozdiradi. Bu bilan u ko‘chmanchilar dashti va ellinistik davlatchilik an‘analari kabi ikkita bosh mezonni tasdiqlamoqchi bo‘ladi. Bu hukmdor o‘zini kushonlik deb ataydi. Geray davlatining keyingi yuksalishi oxir-oqibatda Kushonlar saltanatining tashkil topishiga olib keladi. Shu tariqa Baqtriya tarixidagi ikkinchi bosqichga asos solinadi. Bu bosqichda Baqtriya Kushonlar podsholigi tarkibiga kiradi.

Kushonlar podsholigining asoschisi Kadfiz I bo‘lib, u o‘ziga Baqtriya hududida joylashgan to‘rtta katta bo‘lmagan knyazliklarni bo‘ysundiradi. Natijada butun Baqtriya yangi hukmdor hokimiyati ostida birlashtirilgan bo‘lib, bu hukmdor “podsholar podshosi” unvonini qabul qiladi. Bu voqealar hozirgi eraning I asriga to‘g‘ri keladi. Yangi saltanat o‘z nazarini janubdagi an‘naviy yo‘nalishlarga

qaratib, Hindukush tog'lari ortidagi bir qator viloyatlarda ham Kadfiz I o'z hukmronligini o'rnatishga muvaffaq bo'ladi.

Xitoy yilnomalarida aytilishicha, yuechjilar Baqtriyaga kelgandan keyin 100 yil 5ta xonadonga bo'linib yashagan. Milodiy I-II asrning 2-yarmida Guyshuan sulolasi qolgan 4 ta sulola ustidan nazorat qilgan. U paytda hukmdor Kiosyukko bo'lgan. Uning nomi tangalarda Kudzula Kadfiz deb kelgan. U Sug'diyona, Marg'iyona va Hindistonni egallagan. Undan keyingi hukmdor Yangaochjan (Vima Kadfiz) bo'lib, u Kadfiz II nomi bilan mashhur. Uning davrida Hind va Gang daryosi hududlari ham egallangan. Har biri 8 grammligina tangalar zarb ettirgan. Kushonlar kuchayishi Kanishka davriga to'g'ri keladi. Uning hukmronligi davri 23 yil davom etgan⁵⁷.

Chjan Szyan ma'lumotlariga ko'ra, yuechjilar xunn qabilalaridan mag'lubiyatga uchragach O'rta Osiyoning janubiga tomon harakat qilib, Dahya (Baqtriya)ni bosib oladilar va Guyshuy (Amudaryo)ning shimoliy tomonida joylashadilar. Katta Xan uyi tarixida ham yuechjilar Guyshuy daryosining shimoliy tomonidan o'z poytaxtlariga asos solganliklari ta'kidlanadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, yuechjilar mil. avv. 140-130 yillar oralig'ida Baqtriyaga bostirib kirganlar. Oradan ko'p o'tmay Baqtriyada Katta yuechji davlati tashkil topadi. Kichik Xan uyi tarixi ma'lumotlariga ko'ra, Katta yuechji hukmdorlari qo'l ostida beshta xokimlik (Xi-xeu) bor bo'lib, ular Xyumi, Shaunmi, Guyshuan, Xise va Dumilardan iborat edi. Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan ko'pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun yuechji davrini uch bosqichga bo'ladilar:

1. Mil.avv. 139-125 yillar-Katta yuechji Dahya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan shimol tomonda edi.

2. Mil.avv. 25 yilga qadar-Katta yuechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Davlatning poytaxti Amudaryodan shimol tomonda bo'lib, janubiy chegarasi Gibin atroflarida (Kashmir yoki Qandahor) edi. Yuechjilar bo'ysundirgan hududlar Xise, Shaunmi,

⁵⁷ Qudratov S.S. O'rta Osiyoning ilk shahar va davlatlarining paydo bo'lishi.-Termiz., 1998. –B. 68.

Guysuan, Xyumi, Dumi mulklaridan iborat bo'lib, ular xi-xou (yabg'u) tomonidan birlashtirilgan.

3. Mil. avv. 25 yildan keyin katta yuechji davlatining inqirozi va yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo'lishi.

Kushon (Guysuan) yabg'usi Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to'rtta mulkni birlashtirib Kushon davlatiga asos soldi⁵⁸. Ta'kidlash lozimki, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixga nisbatan Kushon davlatining siyosiy tarixi kam o'rganilgan masala hisoblanadi. Kushonlarning hokimiyat tepasiga kelish sanasi, ushbu davlat tarixini davrlashtirish ayrim kushon yozuvlari, tangashunoslik ma'lumotlari, qisman Xitoy manbalari, buddaviy ma'lumotlar va ilk o'rta asrlar manbalariga asoslanadi. Tadqiqotchilar Kushon davlati tarixini quyidagi uchta bosqichga ajratadilar:

1. Yunon-Baqtriya podsholari hukmronligining tugatilishi hamda O'rta Osiyo va Shimoliy Afg'oniston hududlarida bir nechta alohida davlat uyushmalarining tashkil topishi (mil.avv. II asrning oxiri-I asr).

2. Buyuk Kushon davlatining paydo bo'lishi va gullab yashnashi (milodiy I-III asrlar).

3. Ko'chmanchilarning tinimsiz urushlari natijasida Kushon davlatining inqirozi va qulashi (III asr oxiri-IV asr)⁵⁹.

Kushon davlatining paydo bo'lishi haqida ko'proq Xitoy manbalari va tangashunoslik ma'lumotlari xabar beradi. Umuman, Kushonlar saltanatining paydo bo'lishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida bahslarga sabab bo'lgan bo'lsada, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu masalaga juda ko'plab aniqliklar kiritish imkonini bergan tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, 1961 yil Londonda o'tkazilgan xalqaro simpozium, 1968 yil Dushanbeda YUNESKOning konferensiyasi, 1970 yil Qobuldagi xalqaro anjuman Kushon davlati masalalariga bag'ishlangan bo'lib, undan keyin ham bu masala bo'yicha ko'plab xalqaro anjumanlar bo'lib o'tdi.

⁵⁸ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. –B. 97.

⁵⁹ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. –B. 98.

Mil. avv. I asrning oxiri-mil. I asrning boshlariga kelib, Guyshuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib Qobuliston va Qandahorni zabt etadi. Natijada bu davrga kelib dastlabki poytaxti Surxon vohasidagi Dalvarzin koʻhna shahri xarobalari boʻlgan Kushon davlati oʻz ahamiyatiga koʻra antik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim saltanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy manbalaridagi “Guyshuan hokimi Kiotszyukyu” ilk Kushon davriga oid topilma tangalarda aks ettirilgan “Kushon podshosi Kujula Kadfiz” ga aynan mos tushadi⁶⁰.

Tangashunoslik maʼlumotlariga tayangan tadqiqotchilarning fikricha, Kujula Kadfiz yoki Kadfiz I 80 yildan ziyodroq umr koʻrib 50-60 yil davlatni boshqarib, taxminan milodiy 35 yilda vafot etadi. Oʻzining hukmronligi davrida Kadfiz I Baqtriyadagi uncha katta boʻlmagan yuechji mulklari hukmdoridan Baqtriyadan tashqari Gʻarbiy va Janubiy Afgʻoniston va Shimoliy Hindistonni oʻz tarkibiga olgan qudratli davlatning podshosi darajasiga koʻtariladi. Ammo, manbalarning guvohlik berishicha Kadfiz I davrida Kushon davlati toʻla shakllanib boʻlmagan edi. Har holda, bu davrda Kushonlar oʻz tangalariga ega boʻlmay, Kadfiz I Rim imperatorlariga (Avgust va Tiberiyga) taqlid qilib tanga zarb ettirgan.

Manbalarning dalolat berishicha, Kujuladan keyin taxtga uning oʻgʻli Vima (Gima) Kadfiz (Kadfiz II) oʻtiradi. Xitoy mualliflari Kadfiz II taxtga oʻtirganidan soʻng “Tyanchju (Markaziy Hindiston)ni zabt etdi va u yerga oʻz sarkardalaridan birini boshqarish uchun qoldirdi. Shu davrdan boshlab yuechji kuchli va boy davlatga aylandi”, deb xabar beradilar. Bu xabarni tangashunoslik maʼlumotlari ham taʼkidlaydi. Kadfiz II zarb ettirgan tangalarning oʻng qirgʻoq Baqtriyadan, Tojikiston va Oʻzbekistonning janubiy tumanlaridan topilishi bu hududlarning Kushon davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. Tangashunoslarning soʻnggi yillardagi tadqiqotlariga koʻra, Kadfiz II zarb ettirgan “Shohlar shohi-buyuk xaloskor” degan yozuv bor tangalar Hindiston, Afgʻoniston va Oʻrta Osiyoda keng tarqalgan. Bunday tangalar Ashxobod, Xorazm, Toshkent

⁶⁰ Eshov B. Oʻzbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: “Oʻzbekiston Milliy Universitet”, 2012. -B. 98.

vohasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Panjikent hududlaridan ham topilgan. Kadfiz II ning Rim saltanati bilan aloqalar oʻrnatganligi haqida maʼlumotlar bor⁶¹.

Kushonlar dastlab hokimiyatga kelganlarida oʻz nomlarini “shoh” yoki “podsho” nomi bilan bogʻlamaganlar. Ammo Kushon davlati hududi kengayishi va siyosiy hokimiyatning va harbiy hokimiyatning kuchayishidan soʻng tanga pullarga “shoh” va “podsho” soʻzlari ishlatiladigan boʻlgan. Bunday oʻzgarishlar kushonlar davlatining hokimiyati kuchayganligini bildiradi va boshqa mamlakatlar tomonidan ham tan olinganini bildiradi. Podsho Kanishka oʻzidan oldingi davlat boshqaruvi anʼanalarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Maʼlum viloyat va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noibi tomonidan boshqarilar edi. Bunday noiblar podsho tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan edi. Ular oliy hukmdorga, yaʼni podshoga soʻzsiz boʻysunar edi. Ular doimiy ravishda soliq toʻlab yurganlar. Kushonlar davlatida hokimiyat ruhoniylar qoʻlidagi davlat boʻlib, bu davlatda podsho hokimyatni boshqarish bilan birga, bosh kohin ham hisoblangan⁶². Kushonlar yabgʻu unvonida oʻz sulolari doirasida faoliyat koʻrsatganlar. Saltanatga asos solinganidan soʻng mintaqa uchun anʼanaviy satrapiyalar tizimidan keng foydalana boshlangan. Satraplar oliy hukmdor tomonidan uning ishonchini qozongan, oʻz doirasi namoyondalaridan tanlangan. Shu bilan birga satraplik lavozimiga harbiy yurishlarda jonbozlik koʻrsatgan lashkarboshilar ham tayinlangan. Satraplar baqtriyaliklar orasidan boʻlgan⁶³. Satraplar noiblari ham podsho tomonidan tayinlangan. Kushon podsholigi markazlashgan davlat hisoblanib, davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati nihoyatda katta boʻlgan. Podsho dunyoviy rahbar boʻlishi bilan birga kohin ham edi. Baqtriyaga kelgan yuechjilar bu yerni 5 ga boʻlishgan.

1. Vaxan(Syunmi) markazi-Moʻcheng
2. Shuanmi(Suamaka) markazi-Shuangmi
3. Kushon(Guyshuan)

⁶¹ Eshov B Oʻzbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: “Oʻzbekiston Milliy Universitet”, 2012. -B. 99.

⁶² Eshov B. Oʻzbekiston tarixi yangi asr avlodi. -T.: 2014. -B. 184-190.

⁶³ Azamat Ziyov. Oʻzbek davlatchiligi tarixi. -T.: “Sharq”, 2000. -B. 67.

4.Kandat(Xusuo) Parvar(Sidan) markazi- Uchju

5. Dumi yabg‘uligi edi⁶⁴.

Kushonlar qo‘shini otliq va piyoda askarlardan iborat bo‘lib, otliqlar zirhga chulg‘angan holda jangga kirganlar. Jang qurollariga quyidagilar kirgan: uzunligi 1 m dan ortiqroq bo‘lgan har ikki tomoni o‘tkir qilich, xanjar, nayza, jangovar oybolta, sopqon. Kushon harbiylari uzoqdan turib jang qilishda asqotadigan kamonni takomillashtirish borasida ham ma‘lum ishlarni qilganlar. Suyak yoki shox bilan qoplangan murakkab qo‘sh kamon kushonlar davrida yaratilgan. Bu kamon turi Uraloldi yerlari orqali Shotlandiya, Sharqda Eron, Hindiston va Xitoygacha tarqab borgan⁶⁵.

Qurol-yarog‘ ustaxonalarida harbiy qurollar yasash rivojlangan. Nayzalar yog‘ochdan yasalgan. O‘qlar va nayza uchlari temirdan yasalib bir necha ko‘rinishdan iborat edi. Uchi uchburchakli o‘qlar kengroq yoyilgan edi. Harbiylar xanjar va qilichlar bilan qurollangan edi. Qurol-aslahalardan qalqon, jang boltasi ham taqib yurganlar⁶⁶.

Jamiyatning asosini dehqonchilik qilib kelgan urug‘ yoki qishloq jamoasi tashkil etgan. Har bir jamoa hukumatga o‘z xo‘jaligidan soliq to‘lash bilan birga askarlikka hamda ariq qazish, qal’a va yo‘l qurilishi uchun ham odam ajratishi lozim bo‘lgan. Ta’kidlash lozimki, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixga nisbatan Kushon davlatining siyosiy tarixi kam o‘rganilgan masala hisoblanadi. Kushonlarning hokimiyat tepasiga kelishi sanasi, ushbu davlat tarixini davrlashtirish, ayrim kushon yozuvlari, tangashunoslik ma’lumotlari qisman Xitoy manbalari, buddaviy ma’lumotlar va ilk o‘rta asrlar manbalariga asoslanadi⁶⁷.

Kushon davridagi g‘oyat muhim bo‘lgan buddaviylik markazi Surxondaryoning o‘ng sohilidagi Sho‘rchi shahrining shimoli-sharqidan 10 km masofada joylashgan Dalvarzintepa yodgorligidir. Bu yerda ikkita buddaviylik yodgorligi, shahar tashqarisidagi va shahar markazida joylashgan ibodatxonalar topilgan va qazib o‘rganilgan.

⁶⁴ O‘zbekiston milliy ensiklepediyasi. -B. 823.

⁶⁵ Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. -T.: “Sharq”, 2000. -B. 67.

⁶⁶ Sagdullayev S.S. O‘zbekiston tarixi. -T.: “Universitet”, 1997. -B. 87.

⁶⁷ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2012. -B. 104-105.

Yanada qiziqroq topilma- Kushon shahzodasining ma'noli va ulug'vor yuz-qiyofasi aks ettirilgan oltin bezaklar tikilgan baland, konnussimon bosh kiyim kiygan boshidir. Bu haykal Ayritom frizi va Fayoztepadan topilgan. Budda va rohiblar tasvirlangan yodgorliklar gantxara san'ati an'analari ko'ra yasalgan Baqtriya haykaltaroshlik maktabining eng noyob na'munalari sirasiga kiradi. Belbog'li, to'n kiygan, ko'rinishidan donotor, devatlar boshlig'i va din arkoniga o'xshash mo'ylovli qiyofa haykali ham katta qiziqish uyg'otadi⁶⁸.

Kushonlar davrida nafaqat ibodatxonalar, balki avvalgi davrlardagidek ichki otish yo'l aklari bo'lgan qal'a devorlari qurilgan, ularda burjlar, peshdarvoza inshootlari, shinaklar konstruksiyalari va boshqalar saqlanib qolingan⁶⁹.

Kushon davri shaharlarining kelib chiqishi va shakllanishi jarayonini Dalvarzintepa nisbatan yaxshi aks ettiradi. Uning dastlabki asosi mil.avv. III asrda ko'hna shaharning janubi-sharqiy qismida, ikki tomondan qadimgi irmoq o'tib turgan, baland tepalikda paydo bo'ladi. Bu irmoqlardan xandaq sifatida foydalanilgan.

Turli xalqlarning ajdodlari haqidagi turli xil fikrlashdan yuechji xalqi ham benasib qolmagan. Xitoy tilidagi "Yuechji" atamasi qanday o'girilsa, to'g'ri bo'lar ekan degan muommo hali-hanuz tarixchi olimlar tomonidan aniq yechimini topmayapti. Ayrim olimlar "barcha aytilgan xulosaviy fikrlar va to'plangan materiallar yetarli bo'l maganidan aytilgan e'tiroflarni qabul qilib bo'lmaydi. Shuning uchun "yuechji" atamasi ko'chmanchi davlatning nomi" deyishdan nariga o'tishmayapti. Biri "yuechji" atamasi bilan yuritilgan xalq massagetlar bo'lishgan deyishsa, boshqa birlari ularni skiflarning ajdodlari sanashadi. Boshqalari yuechji xalqini xunlar bilan bog'lasa, boshqa birlari usunlarga bog'lashadi. Xullaski, tarix fanida "yuechji" etnonimi nisbatan ko'p turli xillikdagi etnonimlar qatoridan joy oldi⁷⁰.

So'nggi yillarda olib borilgan ko'plab arxeologik tadqiqotlar Kushon davri O'rta Osiyo xalqlarining moddiy madaniyatini o'rganish

⁶⁸ Қадимги Ўзбекистонда буддавийлик ва буддавий мерос. -Т.: "Ўзбекистон". 2011. -В. 38-40.

⁶⁹ Ходжаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. -Т.: "Ўзбекистон". 2007. -В.72.

⁷⁰ Носиров Ў. Ўзбеклар шажараси.- Т.: "Extremum Press". 2012. -В. 222.

bo'yicha boy materiallar berib, keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil.avv. I ming yillikning oxiri-milodning dastlabki asrlari O'rta Osiyoda xo'jalik va madaniy hayot darajasining ko'tarilgan davri bo'ldi. Janubiy Turkmaniston va Xorazm, Buxoro va Samarqand, Surxon vohasi, Vaxsh, Qashqadaryo va Farg'ona vodiysidan topilgan shu davrga oid arxeologik topilmalar sug'orma dehqonchilikning anchagina rivojlanganligidan dalolat beradi. Dehqonchilikning rivoji tufayli keng hududlar o'troq aholi tomonidan jadallik bilan o'zlashtiriladi. Misol uchun, E.V Rtveladzening tadqiqotlariga ko'ra, faqatgina Shimoliy Baqtriyada 120 dan ziyod kushon davriga oid aholi shahar va qishloqlari aniqlangan. Bu davrda dehqonchilik nafaqat tekisliklarda, balki tog'li hududlarga ham yoyiladi. Zarafshon va Qashqadaryoning yuqori oqimidagi tog'li hududlardan dehqonchilik manzilgohlari topib o'rganilgan. Bu davrda, shuningdek, Xorazmda, Zarafshonda, Surxon vohasida ilgarigi davrdagiga nisbatan anchagina murakkablashgan sug'orish inshootlari barpo etiladi. Dehqonchilik qurollarida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi.

O'z gullab yashnagan davrida kushon davlati ko'plab xalqlar va elatlar yashab turgan hududlarni egallagan edi. Ushbu xalqlar va elatlar turli tillarda gaplashganlar, yozuvning turli tartibidan foydalanganlar hamda turli diniy e'tiqodlarda bo'lganlar. Moddiy madaniyat buyumlarida ham ayrim farqlar kuzatiladi. Shunga qaramasdan kushonlar davri madaniyatida ko'pgina umumiylik seziladi. Ammo, butun Kushon davlatiga yagona madaniyat hukm surganligi haqida fikr aytib bo'lmaydi. Bu ulkan davlatning har bir viloyati qaysidir tomonlari bilan o'ziga xos bo'lgan madaniyatga ega bo'lgan.

Umuman, Kushonlar davrida madaniy hayotning yanada yuksalganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan budda dini davlat diniga aylanadi. Oromiy va yunon yozuvlari asosida kushon yozuvi mavjud bo'lgan. Shuningdek, bu davrda sug'dcha va xorazmiycha yozuvlar ham bor edi. Ushbu yozuvlar yodgorliklarida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni aks ettiruvchi ayrim ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shuningdek, Kushonlar davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining quruvchilik,

haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik kabi sohalarida ham katta yutuqlarga erishilgan. Xorazm, Sug‘diyona, Baqtriya, Farg‘ona, Choch, Sharqiy Turkiston va Shimoliy Hindistondan ochilgan ko‘plab madaniy yodgorliklar yuqoridagi hududlardagi madaniy hayot o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqqanligidan dalolat beradi.

Kushon davlatining inqirozga uchrashi Yunon-Baqtriya va Rim saltanati tarixiy taqdiriga ancha o‘xshab ketadi. Bu davlatlarning barchasi qulash arafasida tinimsiz yurishlar olib borishga majbur bo‘lganlar. Tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniish uchun ichki va tashqi sabablarga ko‘ra, zaiflashgan yirik davlatlarda yetarli harbiy imkoniyat topilmadi. Milodiy IV asrga kelib kushon podsholigi o‘zining asosiy hududlaridan mahrum bo‘la boshlaydi⁷¹.

Kushon podsholigi o‘z hududlaridan mahrum bo‘lishining asosiy sabablaridan biri yuqorida qayd etilganidek, IV asrning o‘rtalariga kelib kushonlar bilan sosoniylar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashib ketishidir. Bu davrda Shopur II kushonlarga zarba berib, Shimoliy Baqtriya yerlarini bosib oladi. Kushonlar bu zarbaga ham bardosh beradilar. Maydonga yangi kuchlar chiqadi. Bu kuchlar o‘z vaqtida kushonlar saltanatining tarix sahnasidan o‘chishiga olib keldi.

Kushon podsholigi va kushonlar davri O‘zbekiston, Tojikiston, Afg‘oniston, Pokiston va Hindiston tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu podsholik o‘z tarkibiga ko‘pgina hududlar va ko‘plab xalqlar va elatlarni birlashtirgan bo‘lsa-da, uning tarixi o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixida Kushon davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ayniqsa, madaniy hayot va tashqi aloqalar sohasida ulkan yutuqlarga erishilgan davr bo‘lib kirdi. Shunday qilib, kushonlar saltanati tarix maydonida o‘z o‘rnini boshqa, o‘zidan kuchliroq siyosiy uyushmalarga bo‘shatib berdi. Bu davrda yaratilgan noyob san‘at asarlari, madaniyat yodgorliklari uning o‘tmishdagi qudratidan dalolatdir⁷².

Hind yozuvlari mavjud bo‘lgan tangalarning zarb etilishi shuni ko‘rsatadiki, bu davlat tarkibiga hind aholisi ham kirgan. Kadfiz I

⁷¹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. -Т.: “Янги аср авлоди”. 2012. -В.110.

⁷² Шамсутдинов Р., Ш.Каримов. Ватан тарихи. -Т.: “Шарк”, 2010. -В. 87.

davrida Kushon davlatining markazini Baqtriya tashkil etardi, Baqtra shahri esa poytaxt bo'lgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik Kushon podsholigi chegaralarining kengayishi davlat asoschisining o'g'li va merosxo'ri bo'lgan Kadfiz II davrida sodir bo'ladi. U Kushon saltanatining tarkibiga shimoli-g'arbiy Hindistonning katta qismini birlashtiradi.

Kushon hukmdorlaridan eng mashhuri Kanishka bo'lgan. Biroq uning hukmronlik qilgan davri to'g'risida tadqiqotchilar o'rtasida hamisha tortishuvlar bo'lmoqda. Kushon saltanatining asosiy markazi hind yerlari tomoniga siljiydi. Endilikda davlatning poytaxti Purushapura (hozirgi Peshovar) shahri bo'ladi.

Keyinchalik kushonlar Sosoniylar davlati bilan to'qnashuvlarda mag'lubiyatga uchraydilar. Sosoniylar davlati Parfiyada hukmronlik qila boshlagan edi. Ayniqsa, hozirgi eraning IV asr o'rtalarida bo'lib o'tgan voqealar muhim bo'lib, bunda sosoniylar qo'shinlari Baqtriya hududlariga bostirib kirdilar, Sharqdagi sosoniylar noiblari esa "kushonlarning podshosi" hatto "kushonlarning buyuk podshosi" unvoniga ega bo'lganlar. Kushonlar podsholigi kabi qudratli imperiyaning botishi shunday edi. Kushonlarning alohida hukmronlik qilayotgan yerlari hanuz mustaqilligini saqlab qolgan bo'lsa-da, Gangdan Amudaryogacha o'z chegaralarini yoygan yagona Kushonlar davlati mavjud emas edi.

Kushonlar Baqtriya madaniyatining, jumladan, moddiy madaniyatning ko'plab an'alarini meros sifatida qabul qildilar. Iqtisodiyotning asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etardi. Savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivoji shahar hayotining yuksalishiga imkon yaratdi. Savdo-sotiqda pul muomalasi katta ahamiyat kasb eta bordi.

Kushon davlatlari butun bir tizimni tashkil etib, yo'llar va karvon yo'llari bilan bog'langan edi. Oldi o'rinlarning birida g'arbiy mamlakatlar-Rim imperiyasi, avvalambor uning sharqiy provinsiyalari bilan savdo aloqalari turgan edi. Bu savdo ham quruqlikda, ham dengiz orqali-Hindistonning g'arbiy bandargohlari orqali olib borilgan.

Quruqlikdagi yo‘l esa Farg‘ona vodiysi oralab shimolga - Xitoyga olib borgan. Ushbu savdo yo‘llari orqali turli-tuman savdo mollari olib borilgan. Rimga ziravorlar, qimmatbaho toshlar, fil suyagi, shakar olib borilgan. Guruch va paxta mahsulotlari ayniqsa katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Xitoydan tranzit bilan shoyi, teri va boshqa buyumlar keltirilgan. O‘sha davrdagi yirik xalqaro savdo yo‘lini Buyuk ipak yo‘li deb atashgan. Rimdan mahalliy ehtiyojlarni qondiradigan matolar va kiyim-kechaklar, shisha va qimmatbaho metaldan ishlangan buyumlar, haykallar va sharoblar keltirishgan. Rimning oltin va kumush tangalari ham ko‘plab keltirilgan.

Kushonlar davrining eng katta yutuqlaridan biri-madaniyatning yuqori darajasi hisoblanadi. Kushonlar madaniyatida (uning barcha lokal va davriy farqlari bilan) ijodiy birlikda qadimgi Sharq turidagi mahalliy sivilizatsiya yutuqlari, ellinizm madaniyatining eng yaxshi an‘analari, Hindiston san‘atining nozikligi hamda Osiyo hududlaridagi ko‘chmanchi qabilalar olib kelgan o‘ziga xos madaniyat bir-biri bilan qorishgan edi. Ushbu sintetik kushonlar san‘atining boshlang‘ich bosqichi Janubiy Baqtriyada arxeologlar tomonidan ochilgan zodagonlar qabrlaridagi topilmalarda o‘z aksini topgan. Bu yodgorlik hozirgi Afg‘oniston hududidagi Tillatepa qarorgohi bo‘lib, bu yerda ko‘plab oltin buyumlar topilgan.

Tillatepada ilk kushonlar madaniyatiga ta’sir ko‘rsatgan bir nechta badiiy an‘analar kuzatiladi. Masalan, hayvonlarning dahshatli kurashi sahnalarining syujetlari va tasvirlash shakli, harakatdagi hayvonlar figuralari, qanotli ajdarholarning bari sarmatlar san‘ati asarlariga o‘xshash bo‘lib, Osiyodagi ko‘chmanchi qabilalarining badiiy madaniyatidan darak beradi. Boshqa bir guruh syujetlar esa toza antik yo‘nalishda bo‘lib, ko‘plab tasvirlar juda mukammaldir. Bu tasvirlarga mahalliy, baqtriy obrazlar, ellinistik va hind an‘analari ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Alohida haykallarda individual portret belgilari kuzatiladi, biroq ular personajning ichki dunyosini ochib bermaydi. Bu madaniy intergratsiyaning ilk bosqichi bo‘lib, kushonlar madaniyatining negizlari hisoblanadi. Yangi madaniy etalon tashuvchilari kushon

shaharlari bo'lib, ularda uy-ro'zg'ordagi idishlardan to sig'inish buyumlarigacha bor. Ularda shakllanayotgan urbanizatsiyalashgan madaniyat, pul muomalasi qishloqlarga ham tarqaladi.

Kushonlar davrida Baqtriyada buddizm keng yoyiladi. Bu davr yodgorliklari haykallar, relyeflar va rasmlar bilan bezatilgan. Termiz shahri yonida buddaviy g'or ibodatxonasi-Qoratepa (B.Ya.Staviskiy qazishmalari) qazilgan. Bu yerda butun bir qator ochiq turdagi inshootlar va g'or xonaqohlari mavjud bo'lgan. Termiz atrofidagi yana bir ibodatxona Fayoztepa bo'lib (unda L.I.Albaum izlanishlar olib borgan), u aksincha, to'laligicha yer ustida joylashgan. Uning markaziy qismini hovli tashkil etib, uning parametri bo'yicha xonaqohlar va topinish xonalari qurilgan, markazida esa umumiy yig'ilishlar zali bo'lgan. Fayoztepa bo'yalgan sopol haykallar va rasmlar bilan bezatilgan. Ularda donatorlar (tuhfa beruvchilar) figuralari ellinistik portret ta'siri ostida bajarilgan. Gipsdan yasalgan haykallari mavjud bo'lgan budda ibodatxonasi Dalvarzin shahar atrofida ochilgan.

Qoratepa va Fayoztepadagi yozuvlar olimlar o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi. Bu yozuvlar braxmi va kxaroshtxi yozuvlarida bajarilgan bo'lib, o'rta hind tiliga mansub deb hisoblangan praktik tilida yozilgan. Bu yozuvlarning tadqiqoti sovet olimlari va venger olimi Ya.Xarmatta tomonidan olib borilgan bo'lib, ularda turli buddaviy maktablarning nomlari keltirilganini ko'rsatdi.

Kushon hukmdorlari buddizmga xayrixoh bo'lib, shu bilan birga dunyoviy hokimiyat obro'sini ham tasdiqlashga intildilar. Bunday sulolaviy topinish yodgorliklari jumlasiga Shimoliy Afg'onistonda, Puli-Xumri shahridan janubda joylashgan Surx-Kotal ibodatxonalari kiradi. Olov altari bo'lgan bosh ibodatxona qal'a devorlari bilan o'ralgan tepalikda joylashgan. Yuqoriga ko'pzinali zinapoya olib borgan. Bu yerda topilgan yozuvda butun majmua nomi ham keltirilgan- Kanishka-G'olib ibodatxonasi. Taxminlarga ko'ra, Shimoliy Baqtriya hududida bunga o'xshash yodgorliklardan biri Ayritom bo'lgan bo'lishi mumkin. Ayritomda XX asr 30-yillaridayoq Gandxara haykaltaroshligiga yaqin bo'lgan tosh releflar topilgan edi. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida bu yerda yozuvli tosh plitasi topildi.

Rasmiy madaniyatlar va dinlar bilan bir qatorda Kushonlar davlatida mahalliy xalq e'tiqodlari ham mavjud edi. Ushbu tasavvurlar bilan bog'liq qiziqarli yodgorliklarga ko'psonli terrakota haykalchalarini kiritish mumkin. Bu haykalchalar shaharlarda ham, qishloq joylarda ham topilgan. Ommaviy xalq madaniyatining boshqa bir xarakterli belgisi-suvoriylar, egarlangan otlarning terrakota (sopol) haykalchalaridir. Bu haykalchalar Kushonlar saltanati asoschilari haqidagi o'ziga xos xotira va uning qurolli qo'shinlarining asoslaridan birining timsoli sanaladi.

Kushonlarning madaniy etalonlari qo'shni mamlakatlar va xalqlarga katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, bu O'rta Osiyoning boshqa bir muhim viloyati bo'lgan Sug'dda kuzatiladi. Sug'd tarkibiga o'sha davrda Qashqadaryo va Zarafshon vodiylaridagi hosildor vohalar kirgan. Sug'd Salavkiylar davlati hamda Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kiritilgan edi. Uning poytaxti Marakanda shahri bo'lib, bu shahar xarobalari fanda Afrosiyob nomi bilan mashhur va hozirgi Samarqand shahrining chekkasida joylashgan. Bu xarobalarda qal'a devorlari va boshqa inshootlar qazib chiqarilgan. Madaniyatda yunon obrazlarining ta'siri ko'rinadi.

Sug'ddagi hayotning turli tomonlari to'g'risida fikr yuritish uchun "eski sug'd xatlari" katta qiziqish uyg'otadi. Bu xatlar Sharqiy Turkistondagi sug'd mustamlakalaridagi hujjatlar bo'lib, ular aramey grafikasi yordamida sug'd tilida yozilgan. Bu hujjatlar yomon saqlangan bo'lib, ularni o'qish juda qiyin bo'ldi. Ushbu hujjatlarda sug'd jamiyatining ijtimoiy madaniyati (masalan, ularda "ozodlar-oqsuyaklar" eslatiladi), ayolning jamiyatdagi o'rni, xo'jalik faoliyati va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar bor. XX asrning ikkinchi yarmida olimlar tomonidan hozirgi eraning dastlabki yillaridagi sug'd madaniyati har tomonlama o'rganildi. Yerqo'rg'on shahristonida katta hajmdagi hukmdor saroyi qazib ochildi (120x90 m). Bu saroy xom g'ishtdan qurilgan mustahkam poydevorga qurilgan.

Kadfiz I davrida zarb etilgan tangalarda "Kujula Kadfiz Yabg'u" degan so'zlar uchraydi. Uning o'g'li Vima Kadfiz davri ham muhim o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu davrga kelib, Shimoliy Hindistonning bir

qator muhim hududlari egallanadi. Vima Kadfiz mamlakatda pul islohoti o'tkazib, vazni 8 gr og'irlikdagi oltin tangalarni zarb qildirib muomalaga chiqartiradi. Bu esa xalqaro savdoda davlat obro'sining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Xuddi shu vaqtda Rim imperiyasi bilan savdo-sotiq aloqalari kuchayadi. Kushonlar mavqeyining kuchayishi Kanishka davriga to'g'ri keladi. Bu paytga kelib Hindistonning Peshovor, Panjop, Kashmir va boshqa markaziy hududlari, shuningdek, Sharqiy Turkistonning ancha qismi saltant tarkibiga kiritiladi. Bu davrda mamlakat poytaxti ham Peshovorga ko'chirilgan. Usta siyosatchi, yetuk sarkarda bo'lgan Kanishka mamlakat ichki hayotida muhim ijtimoiy -siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni amalga oshirish barobarida tashqi siyosatda ham g'oyatda uddaburonlik bilan faoliyat yuritadi. Uning din sohasida o'tkazgan siyosati muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Garchand uning davrida Budda dini davlatning rasmiy dini darajasiga ko'tarilsada, biroq mamlakatning turli hududlarida mahalliy aholi oldindan e'tiqod qilib kelgan boshqa dinlar erkinligi va daxlsizligi saqlanib qoldi. Hatto, zarb etilgan oltin va kumush tanga pullarda budda xudosi bilan bir qatorda mahalliy xalqlar e'tiqod qo'yib kelgan xudolar-Anaxita, Mitra, Veretragna, Vaxsh va boshqalarning ham tasvirlari tushirilganligi bunga yorqin dalildir. Bu davrda zarb etilgan tangalar avvalgidek yunon tilida emas, balki mahalliy Kushon-Baqtriy tilida chiqarilganligi alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday uzoqni ko'zlab oqilona yuritilgan siyosat turli aholi qavmlari, ijtimoiy guruhlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Biroq Kanishkadan so'ng hokimiyatga kelgan Vasishka, Xuvishka, Vasudevalar davriga kelib Kushonlar sulolasi bir qator obyektiv va subyektiv sabablar orqasida asta-sekin inqirozga uchray boshlagan. Ayniqsa, III asr o'rtalariga kelib qo'shni davlat-Parfiya o'rnida yangidan vujudga kelib, tobora kuchayib borgan Eron Sosoniylari hukmdorlarining to'xtovsiz olib borgan urush harakatlari natijasida Kushonlar mavqei zaiflashib, hududlari kichrayib bordi. Janubda Hind yerlarining Kushonlar tasarrufidan mustaqil bo'lib ajralib chiqish jarayoni kuchaydi. Keyinchalik Xorazm, So'g'diyona sarhadlari ham o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritadi. Buning oqibatida Kushonlar sulolasi oxir-oqibatda halokatga uchradi.

Spitamen qo'zg'oloni mag'lubiyatidan so'ng, miloddan avvalgi IV asr oxirlarida xitoy manbalarida keltirilishicha, yuechjilar deb atalgan qabilalar Sharqiy Turkistondan to Mo'g'uliston chegaralarigacha bo'lgan hududlarga borib o'rinishganlar. Xitoyning shimolida esa xun qabilalari yashardi. Yuechjilar xunnlarga janubiy qo'shni bo'lganlar. Ular Sharqiy Turkistonda joylashib olib, xunnlarni o'z ta'sirlariga olish niyatida bo'lganlar. Ularning bu niyati, ayniqsa, miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmida to'la namoyon bo'la boshlaydi. Sababi xuddi shu davrda O'rta Osiyoning janubi-sharqiy viloyatlarida Yunon Baqtriya davlati tarkib topib, yuechjilarni bezovta qilmoqda edi. Yunon-Baqtriyaga qarshi O'rta Osiyo qabilalarining birlashgan mustaqil qo'shinini tuzish zaruriyati kelib chiqqan edi. Yunon-Baqtriya podshosi Yevtidem massaget qabilalarining bu harakatlarini barbod etish maqsadida xunnlardan mohirona foydalanadi. Yevtidem mil. avv. 206 yilda salavkiylar hukmdori Antiox III shimol ko'chmanchilariga qarshi harbiy ittifoq tuzadi. Bundan xabardor bo'lgan xun shahzodasi Mode yuechjilar qo'lidan garovlikdan qochadi, o'z otasini hokimiyatdan ag'darib tashlab, yuechjilar ustiga lashkar tortib boradi. Mil. avv. 176 yilda xunnlar yuechjilar ustiga ikkinchi marta hujum uyushtiradilar. Oqibatda xunnlar 165 yilda yuechjilarni g'arbga uloqtirib tashlaydilar. Rivoyatlarga qaraganda, xun hukmdorlari mag'lub bo'lgan yuechjilar podshosining bosh suyagidan kosa yasab, g'alaba sharafiga unda sharob ichib yurgan ekanlar. Yuechji qabilalari qadimgi Farg'ona yerlariga chekinadilar va o'sha yerda istiqomat qila boshlaydilar. Xitoy manbalarida yozilishicha, qadimgi Farg'onaning shimoliy tumanlarida yuechjilar qishloq va shaharlar barpo qiladilar. Bu davrda yagona bir podsho bo'lmagan, balki qabila va urug' yabg'ulari qabila oqsoqollari qo'li ostida birlashganlar. Jumladan, hozirgi Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumani hududida Kushon qishlog'i va Kosonsoyda Koson shahrini yuechjilar barpo qilgan edilar. Yuechjilar Baqtriyada 100 yil mobaynida 5 ta qabilaga bo'linib yashaganlar. Guyshuan (Kushon) qabilasi yabg'usi (Kudzula Kadfiz) qo'shinini tezda chaqirib oladi. Qashg'ar hokimligi esa xitoyliklarga taslim bo'ladi. Shundan so'ng kushonlar Xitoyga

Turfonni bosib olishda yordam ko'rsatadi. Oradan 2-3 yil o'tgach, ikki o'rtadagi munosabat buziladi. Buning sababi Kushon elchisi Katta sovg'alar bilan Xitoy hukmdorining qizini kushonlar podshosiga unashtirish maqsadida Xitoyga borgan edi. Xitoy hukmdori uni hibsga oladi. Natijada ikki o'rtaga sovuqchilik tushadi. O'zini haqoratlangan deb hisoblagan Kushon hukmdori 70 ming kishilik qo'shin bilan Xitoyga qarshi yurish qiladi. O'zaro kurashda u yengilib, Sharqiy Turkistondan qochishga majbur bo'ladi. 102 yilda Xitoyning nomdor va yengilmas lashkarboshisi Ban Chao vafot etadi. Bundan foydalangan Sharqiy Turkiston viloyatlari xalqlari birin-ketin Xitoyga qarshi qo'zg'olonlar ko'taradilar. Bu qulay vaziyat tufayli kushonlar 107 yilda Sharqiy Turkistonga yana lashkar tortadilar. Kushonlar Sharqiy Turkistonda o'z hukmronliklarini o'rnatolmagan bo'lsalar-da, Hindiston yilnomalarida Kanishkaning Tarim havzasini bosib olganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Xullas, Kanishka podsholik qilgan 23 yillik davrda kushonlar davlati hududlari juda ham kengaygan. Soson podshosi Shopur I (241-242-yillar) yozdirgan "Zardusht Ka'basi"da kushonlar saltanatining hududi haqida: "Kushonlar mamlakati Peshovar, Qashg'ar, Sug'd va Chochgacha cho'zilgan"- deyiladi. Kanishka vafotidan keyin kushonlar taxtiga uning o'g'li Vasishka o'tirdi. U 4 yilgina podsholik qildi, xolos. Vasishkadan so'ng hokimiyat Xuvishka qo'lga o'tadi. U 32 yil hukmronlik qiladi. Undan so'ng Vasudeva podsholik qildi. Vasudeva 34 yil mamlakatni idora qildi. Bu davrga kelib Kushon podsholigi ikki qismga bo'linadi. Mamlakatning bir qismiga Vasudeva, ikkinchi qismiga Kanishka III hukmronlik qiladi. Buni ularning har ikkalasi nomidan zarb etilgan tanga pullar isbotlaydi.

Kushon davlatining xalqaro elchilik va savdo aloqalari keng rivoj topgan. 99 yilda Kushon davlatining elchisi Rimga borgan. Kushon va Rim saltanatlari o'rtasida yaqin elchilik aloqalari bo'lgan. Ehtimol, shu boisdan bo'lsa kerak, Rim podsholari II asr boshlarida Troyan kolonnalariga Rimga kelgan elchilar, savdogarlar, hunarmandlarning tasvirlarini tushirganlar. Ana shu haykal-tasvirlarda O'rta Osiyo vakillarining tasvirlari ham uchraydi. Baqtriya hududida rim tangalari va

san'at asarlarining namunalari ko'plab topilgan. Yuqorida Vima Kadfiz tomonidan haykallar o'rnatilgan. Haykallarda yaxshi kiyingan va marjonlar taqqan ayollarning do'mbira, rubob, chang, nay kabi cholg'u asboblari chalayotgani tasvirlangan. Peshtoqning bir tomonida qo'lida gul, meva va boshqa narsalardan iborat dahyalar ko'targan odam haykallari o'rnatilgan. Bino ichida g'ishtdan ishlangan budda haykalining siniqlari topilgan. Bu yerdagi haykallarning ishlanish uslubi, kiyim-kechagi, musiqa asboblari Hindiston, O'rta Osiyo, Yunoniston madaniyatlari hamda bu xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning rivoji madaniy hayotda juda ravshan aks etganini ko'rsatadi.

242-243 yillarda bo'lib o'tgan ikki o'rtadagi jangda sosoniy Shopur I ning qo'shini kushonlarni mag'lubiyatga uchratdi. Shundan so'ng sosoniylar hukmdorlari Sharqiy Xuroson hududlarida "Kushonshoh" unvoniga ega bo'ldilar. 252 yilda esa ular yana "Kushon shohlarining ulug' shohi" degan unvonga ega bo'ldilar. Bu yillarga kelib kushonlar Hindistondagi yerlarining ham katta qismidan judo bo'ldilar. Buni bir budda matnida (III asr o'rtalariga oid) "dunyo uch qismga (Xitoy, Rim va Kushon) bo'lingan, ammo "osmon o'g'lonlari" (saltanatlari) to'rtta: Xitoy, Rim, Kushon va Hind", deb bergan xabaridan ham bilish mumkin. Hind manbalarida ko'rsatilishicha, III asr o'rtalariga kelib, Hindiston kushonlardan mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqqan. Xuddi shu yillarda Xorazm ham kushonlardan ajralib chiqadi. Ana shu tariqa III asr o'rtalaridan e'tiboran kushonlar saltanati chuqur iqtisodiy va siyosiy inqiroz sari yuzlanadi. Ammo shundan keyin ham Kushon davlati O'rta Sharqning yirik davlatlaridan biri sifatida yana 100 yildan ortiq vaqt tarix sahnasida turdi. Soson podsholarining kuchayishi kushonlarning Rim saltanati bilan aloqasini mustahkamlanishiga sabab bo'ldi. Kushon elchilari 274 yilda Rim saltanati hukmdori Avrelinning Palmir ustidan g'alabasiga bag'ishlangan tantanalarda qatnashganligi manbalarda ko'rsatililadi. Natijada sosoniylar Rim-Kushon do'stligidan xavfsirab, kushonlar bilan aloqani yaxshilash yo'lidan boradilar. Bu maqsadning ijobiy natijalanishiga erishish yo'lida sosoniylar shohi Xormuzd II (301-309) kushonlar malikasiga uylanadi. Biroq IV

asrning o'rtalariga kelib kushonlar bilan sosoniylar o'rtasidagi munosabatlar yana keskinlashdi. Bu davrda Shopur II (309-379) kushonlarga zarba berib, Shimoliy Baqtriya yerlarini bosib oladi. Kushonlar bu zarbaga ham bardosh berdilar. Maydonga yangi kuchlar chiqdi. Bu kuchlar o'z vaqtida kushonlar saltanatining tarix sahnasidan o'chishiga olib keldi.

Shunday qilib, Kushon podsholigi o'z tarkibiga ko'pgina hududlar va ko'plab xalqlar va elatlarni birlashtirgan bo'lsada, uning tarixi o'zbek xalqi davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. O'zbek xalqi davlatchiligi tarixida Kushon davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ayniqsa, madaniy hayot va tashqi aloqalar sohasida ulkan yutuqlarga erishilgan davr bo'lib kirdi.

Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“5 daqiqa” usuli** orqali mustahkamlash

Talabalarni shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko'rmasin. O'qituvchi vazifa beradi, masalan: mavzuga doir sanalarni yozish. Talabalar yozishni bir vaqtda tugatishi shart. Ko'p sanalarni yozgan va to'g'ri izohlab bergan talabalar g'olib hisoblanadi.

Misol : 206-yil

- 165-yil.....
- 176- yil.....
- 274-yil
- 1968-yil
- 1970-yil
- 242-yil
- 261-yil

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Kushonlar davlatining tashkil topishi haqida gapirib bering?
2. Kushonlar davrida markaziy va mahalliy boshqaruv qanday yo'sinda olib borilgan?
3. Kushonlar davrida sud, jazo organlari haqida gapirib bering?
4. Bu davlatda olib borilgan soliq siyosati nimalardan iboratligi haqida gapiring?

5. Kushonlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Qachon Shopur I ning qo‘shini kushonlar qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratdi?
7. Kushonlar boshqaruvi davrida Sug‘d tarkibiga qayerlari kirgan?
8. Kushonlar davrida tanga pullarning zarb qilinishi ichki va tashqi savdoning jonlanishga olib keldimi?
9. Kushonlar davrida buddaviylik dini qaysi hududdan kirib keldi?
10. Davlatning inqiroziga sabab bo‘lgan omillar?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qudratov S.S. O‘rta Osiyoning ilk shahar va davlatlarining paydo bo‘lishi.-Termiz., 1998-yil.
2. Eshov B. O‘zbekiston tarixi.- T., “Yangi asr avlodi”, 2014-yil.
3. Azamat Ziyoy. O‘zbek davlatchiligi tarixi.- “Sharq”, T., 2000-yil.
4. Azamat Ziyoy. O‘zbek davlatchiligi tarixi. “Sharq”. T., 2000-yil.
5. Sagdullayev S. O‘zbekiston tarixi.- T., “Universitet”, 1997-yil.
6. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T., “O‘zbekiston Milliy Universitet”, 2012-yil.
7. Qadimgi O‘zbekistonda buddaviylik va buddaviy meros.- T., “O‘zbekiston”, 2011-yil.
8. Xodjaniyozov G‘. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari.- T., “O‘zbekiston”, 2007-yil.
9. Shamsiddinov R, Shoniyoov K. Vatan tarixi. T., “Sharq”, 2010-yil.
10. Orziyev M.Z, Ergashyev J. Yu. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Buxoro. “Durdona”. 2021-yil.

Axborot manbalari

11. www.ziyonet.net
12. www.history.ru

7-Mavzu: Turk xoqonligida davlat boshqaruvi tuzimi.

Reja:

- 1. Turk xoqonligining tashkil topishidagi tarixiy shart-sharoit.**
- 2. Turk xoqonligida davlat boshqaruvi.**
- 3. Turk xoqonligida yer egaligi, ijtimoiy jazo turlari.**
- 4. Turk xoqonligida iqtisodiy-siyosiy, madaniy hayot.**

Tayanch tushunchalar: Turk, turkiy, Ashina, Muqonxon, Topu, Tung yabg‘u, “Vey-shu”, “Suy-shu”, Istemi, yabg‘u, Xusrav I Anushervon, Muqanxon, Ishbara Elterish Sher, teginlar, qora budun, “o‘n o‘q el”, shod, tudunlar, tarxon, Syuan Tsan, chabish, eltabir, “barluq”, damochi, “ixshid”, “malikshoh”, “xorazmshoh”, “ixrid”, “xudot”, “afshin”, “budun”, “suboshi”, Exu, Dele, Silifa, Tutunfa, Oltoy, Manjuriya, Bolaliktepa, Panjikent, Varaxsha, Afrosiyob, Quva.

VI asr o‘rtalarida Oltoyda (Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya) O‘rta Osiyo tarixida muhim rol o‘ynagan ko‘chmanchilar davlati -Turk xoqonligi (551-744) tashkil topdi. Turk so‘zini birinchi marta tilga olinishi 542 yilga to‘g‘ri keladi. Yozma manbalarda u turlicha atalgan: Xitoy manbalarida “tutsdus”, forsiy tildagi manbalarda “turk”, bitiktoshlarda saqlanib qolgan yozuvlarga qaraganda bu xalq o‘zini turk deb atagan. “Turk” atamasi (kuchli, baquvvat) dastlab etnik ma’noga emas, ijtimoiy ma’noga ega bo‘lgan. Ashina urug‘i, unga bo‘ysungan va yaqin qarindosh bo‘lgan hamda yangi davlat birlashmasining o‘zagini tashkil etgan qabilalarning harbiy zodagonlari shunday atalar edi. Keyinchalik, ulkan qabilalar ittifoqini va unga itoat qilgan xalqlarni turk deb atay boshlaganlar. Qabilaning eski nomi ashina hukmronlik qiluvchi sulola nomi bo‘lib qolgan⁷³.

Xalqlarimiz davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Turk xoqonligi xususida talaygina manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning ayrimlari bir-birini inkor etadi. Ushbu manbalar VI asrning oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efessiylarning tarixiy asarlari, epigrafik yodgorliklar - Urxo‘n-Yenisey, runiy yozuvlari,

⁷³ Alimova D.A., Rtveladze E.V. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -T.: “Sharq”, 2001. -B. 44.

Xitoyning “Tan xonadoni tarixi” kabilardir. Undan tashqari oʻrta asrlar mualliflari at-Tabariy, Denovariy, Beruniy, Narshaxiylar asarlarida ham Turk xoqonligi toʻgʻrisida maʼlumotlar uchraydi⁷⁴.

V asrning ikkinchi va VI asrning birinchi yarmida Oltoy va Janubiy Sibirda Ashina qabilasining yabgʻulari Asanshod, Tuu va Buminlar (460-553) boshchiligida turkiy qabilalarning ittifoqi vujudga keladi. Qadimgi turk manbalarida bu ittifoq “tyurk”, “tyurk el”, “turk boʻdun” kabi nomlar bilan tilga olinadi. VI asr oʻrtalarida Bumin boshliq bu turk ittifoqi tele qabilasini oʻziga boʻysundirgach, Markaziy Osiyodagi eng kuchli Jujan xoqonligiga qaqshatqich zarba beradi. 551 yilda Bumin “xoqon”, yaʼni hukmdor unvoniga muyassar boʻlib, Markaziy Osiyoda yangi imperiya “Turk xoqonligi” ga asos soladi. Oltoy xoqonlikning markazi boʻlib qoladi. Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda hukmronlikni mustahkamlab olgach, Bumin va uning ukasi Istemi xoqonlik chegaralarini kengaytirishga kirishadilar. Qisqa vaqt ichida Enasoy (Enisey) daryosi boʻylarida yashovchi qirgʻizlar, Janubi-Gʻarbiy Manjuriyaning moʻgʻul qabilasi-kidanlar boʻysundiriladi. Shimoliy Xitoy viloyatlari bosib olinib, Xitoy imperatori turklar bilan sulh tuzishga, keyinchalik esa, hatto, u yiliga yuz ming toʻp ipak mato hisobida xoqonlikka oʻlpon toʻlab turishga majbur boʻladi. Turklar gʻarbga tomon muvaffaqiyatli yurishlar olib boradilar. Harbiy harakatlarga Istemi boshchilik qiladi. Unga “Yabgʻu xoqon” degan unvon beriladi. Tez orada Yettisuv va Sharqiy Turkistonga tutashgan yurtlarda yashovchi nushibi, dulu va turkash kabi turkiy qabilalar boʻysundiriladi. 555 yildayoq turklar Sharqiy Turkistonning obod dehqonchilik viloyatlarining kattagina qismini, boy hunarmandchilik shaharlarini hamda Sirdaryo va Orol dengizi boʻylarigacha choʻzilgan keng dashtliklarini butunlay egallab oladilar. Turklar hokimligi shu paytlarda shubhasiz Xorazmga ham yoyilib, xoqonlik chegarasi eftallar hududlariga borib yondashadi.

VI asr 50 yillarining oxirlarida Istemi xoqonga eftalitlarga qarshi harbiy harakatlar olib borish uchun qulay imkoniyat paydo boʻladi. Eron shohi Xusrav I Anushervon (531-579) eftalitlarga oʻlpon toʻlashni toʻxtatib

⁷⁴ Eshov B. Oʻzbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T.: “Oʻzbekiston Milliy Universitet”, 2012, -B.142.

qo'yadi va ularga qarshi urushga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi hamda Vizantiya bilan aloqalarni yo'lga qo'yadi. Xusrav I siyosiy jihatdan biroz o'nglanib olgach Turk xoqonligiga eftalitlarga qarshi ittifoq taklif etadi. Ayni vaqtda Vizantiyadan foydalangan Eron eftalitlardan Tohariston, Chag'aniyon, Qobul atrofidagi yerlarni tortib oladi⁷⁵.

563 yilda eftalitlarga qarshi shimoldan turklar Choch vodiysiga bostirib kiradilar. Tez orada ular tomonidan Samarqand, Kesh, Naxshab egallanadi. "Shohnoma"da ma'lumot berilishicha, hal qiluvchi jang Buxoro atroflarida bo'lib o'tadi va eftalitlarning Gatifar boshchiligidagi qo'shinlari tor-mor etiladi. Shundan so'ng, turklar tezlik bilan harakat qilib iloji boricha eftalitlarning ko'proq yerlarini o'z qo'l lariga olishga harakat qiladilar. Amudaryoning janubiy sohiligacha bo'lgan yerlar, Eron, uning shimolidan Kaspiy sohillarigacha bo'lgan yerlar turklar qo'lga o'tadi. Eftalitlarning mag'lubiyatidan so'ng bevosita ittifoqchilar o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'la boshlaydiki, bu holat savdo yo'li nazorati bilan bog'liq edi⁷⁶.

Turklar tazyiqi oqibatida bu davrda yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib sosoniylar Toxariston, Zabuliston, Qobuliston va Chag'aniyonni eftallardan tortib oladi. Bunday vaziyat, shubhasiz, o'z-o'zidan turklarni avval Eron, so'ngra Vizantiya bilan yaqinlashtiradi. Bojdorlikdan qutulgan Eron ham, o'z navbatida, eftallarga qarshi kurashda turklar bilan harbiy ittifoq tuzish ilinjida bo'ladi. Chunki uzoq vaqt eftallar tazyiqida yashagan sosoniylar bu davlatning tamomila barbod bo'lishidan manfaatdor edi. Xusrav I Anushervon (531-579) tashabbusi bilan yuzaga kelgan o'zaro harbiy ittifoq Eron shohining Yabg'uxoqon Istemiga kuyov bo'lishi orqali yanada mustahkamlandi. Vizantiyaning avarlarga homiyligini to'xtatishga imperatorni ko'ndirish maqsadida 563 yilda Turk xoqonligi elchilari Konstantinopol shahriga yetib boradilar. Elchilikka nushubi qabilasining boshlig'i Eskil rahbarlik qiladi. O'sha yili Eron askarlarining Balxga hujumi ko'magida turklar eftallar davlati yerlariga bostirib kiradilar. Parak (Chirchiq) vodiysi va uning markazi Choch shahri olinadi. Sirdaryodan o'tib, Zarafshon vodiysiga kirib boradilar. Ular

⁷⁵ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012, -B.143

⁷⁶ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012, -B.143

Samarqand, Kesh va Naxshabni egallab, Buxoroga yaqinlashadilar. Balx, Termiz, Omul va Zam shaharlaridan katta kuch to'plab, eftallar Buxoro yaqinida jangga tayyorgarlik ko'radilar. Sakkiz kun davom etgan shidatli jangda eftallar qo'shini turklardan yengiladi. Shunday qilib, janubdan Eron sosoniylaridan, shimoldan esa Turk xoqonligidan qaqshatqich zarbaga uchragan Eftallar davlati bir asrdan oshiqroq hukmronlikdan so'ng, tamomila barbod bo'ladi. Natijada mag'lub davlatning merosi o'zaro bo'linib, Amudaryoning janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan viloyatlar Eron, uning shimoliy sohillari bo'ylab Xarkon dengizigacha cho'zilgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga o'tadi.

Shunday qilib, VI asrning 70-80 yillarida Yeniseyning yuqori oqimidan to Amudaryo bo'ylarigacha, Manjuriyadan to Kimmeriy Bosforigacha cho'zilgan ulkan maydonda ko'chmanchi chorvadorlarning buyuk turk xoqonligi tashkil topadi. Bu ulkan saltanat Xitoy, Eron va Vizantiya kabi zamonasining yirik davlatlari bilan bog'lovchi Buyuk Ipak yo'li ustidan o'z nazoratini o'rnatishga harakat qiladi. Bu yo'lning O'rta Osiyo hududlaridan o'tuvchi qismida asosan Sug'diylar ipak bilan savdo qilishni nazorat qilar edilar. Ipak matolarning asosiy xaridori Vizantiya bo'lib, ipak savdosi Sug'd savdogarlari va turk xoqonlariga katta daromad keltirar edi.

Shuni ta'kidlash joizki, turk xoqonligi qanchalik buyuk bo'lmasin, lekin u chinakam markazlashgan davlat emas edi. Uning asosi turkiy qabilalar ittifoqidan iborat bo'lgan. Bu ittifoqni xoqon boshqarar edi. Hukmdorning hokimiyati urug'-aymoq udumlariga tayangan harbiy-ma'muriy boshqaruvga asoslangan. Mamlakat chorvador ko'chmanchi va o'troq dehqon aholiga bo'lingan. Ko'chmanchi chorvador aholisi "bo'dun" yoki "qora bo'dun" nomlari bilan yuritilgan. Bo'dun, o'z navbatida, qabilalar ittifoqi birlashmasini tashkil etgan. U "o'n o'q bo'dun" yoki "o'n o'q el" deb yuritilgan. O'n o'q bo'dun yoki elning hokimi "yabg'u" nom bilan atalgan. Yabg'u darajasiga faqat xoqon urug'iga qon-qarindosh bo'lganlarga ko'tarilgan. Shu boisdan ba'zan u "yabg'u xoqon" deb ulug'langan. Har bir o'n o'q el sardori bir tuman, ya'ni o'n ming suvoriyni safga tortar edi. Bunday harbiy bo'linmaning tumanboshisi "shod" deb yuritilardi. O'n o'q bo'dun, o'z navbatida, "besh o'q"

birlashmasi asosida sharqiy va g'arbiy ikki qanotga bo'linardi. Sharqiy qanot o'qlari "cho'r", g'arbiy qanot o'qlari esa "erkin" deb atalgan qabila sardorlari tomonidan boshqarilardi. Xullas, elni qabilaviy asosda tarkib topgan harbiy bo'linmalaridan iborat ikki qanotga bo'lib boshqarish o'tmishda ko'pgina yirik turkiy qabilaviy ittifoqlarga xos edi. Harbiy yurishlar vaqtida ular o'ta jangovar qo'shinni tashkil etardi. Qo'shin "su" deb yuritilardi. U ikki turdagi askariy qismlar: piyoda - "yadag'" va otliq - "su" lardan tashkil topar edi. Qo'shinning bosh sarkardasi "suboshi" unvoni bilan ulug'langan. Bunday jangovar qo'shin, shubhasiz, katta kuch va an'anaviy puxta boshqaruv tartiblariga ega bo'lgan har qanday yirik davlatni ham dahshatga solar edi. O'rta Osiyoda hukmronlik o'rnatilgan dastlabki davrda turk xoqonlari mamlakatning o'troq aholi yashaydigan obod viloyatlarini ko'chmanchilar ixtiyoriga topshirsalar-da, ammo eftallar kabi aholisining ichki hayotiga deyarli aralashmaydilar.

Turk xoqonligida davlatning oliy hukmdori "xoqon" unvoniga ega bo'lgan. Xitoy manbalari ma'lumotlariga ko'ra, turkiylar xonni taxtga o'tqazishda maxsus marosim o'tkazishgan. Ya'ni, amaldorlar bo'lajak xonni kigizga o'tqazib, quyosh yurishi bo'ylab 9 marotaba aylantirganlar, ishtirokchilar esa uni qutlab va ulug'lab turganlar. So'ngra xonni otga o'tqazib, bo'yniga ipak mato bog'laganlar va undan "Siz necha yil xon bo'lmoqchisiz?" deb so'raganlar. U necha yil xon bo'lishini aytgan va shu muddat tugagach taxtdan ketgan⁷⁷.

Qadimgi turkiy afsonalarda berilishicha, turklarning tasavvuriga ko'ra, davlatchilikning markazi, davlatni o'z qo'lida birlashtiruvchi shaxs xoqon hisoblangan. Boshqaruvda xoqonlarning hukmron sulolasi uchta kuch-osmon (tangri), yer-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyati tufayli yuzaga keltiriladi.

Xoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor "Yabg'u" (Bahodir) bo'lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo, yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Turk xoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo'lgan uluslarga bo'linish tizimiga asoslanib belgilanar edi. Ushbu tizimga ko'ra taxt aksariyat hollarda otadan o'g'ilga

⁷⁷ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012, -B.146.

emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Taxt merosxo'ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan. Shahzodalar to taxtga o'tirgunlariga qadar o'zlariga berilgan uluslarni boshqarib turganlar. O'rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, xoqonning nazoratchisi -"tudun" deb atalgan. Turk hoqonligi konfederativ davlat bo'lgan. Turkiylar o'z yurti va davlatini "el" deb atashgan. Birinchi turk xoqoni Buminxon "elxon" unvoniga ega bo'lganligi bejiz emas⁷⁸.

Xoqonlik tarkibidagi ko'plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarib turish, ulardan ma'lum miqdordagi soliqlar va o'lponlarni o'z vaqtida yig'ib olish maqsadida xoqonlikda maxsus ma'muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan edi.

Davlatni boshqarishda xoqonga uning yaqin qarindoshlari, eng avvalo, hukmron sulola a'zolari va ular tomonidan barpo etilgan boshqaruv tizimi yordam berar edi. Qadimgi turkiy bitiklarga ko'ra u 4 ga bo'lingan: qarindoshlar; xoqonga ittifoqdosh bo'lgan qabila va xalqlar; xoqonning o'ng tomonida o'tiruvchi amaldorlar va ma'muriy xodimlar, xoqonning chap tomonidan joy olgan amaldorlar va ma'muriy xodimlar⁷⁹. Xoqonning qarindoshlari-o'g'illari, amakisi, jiyanlari va og'a-inilariga tegin unvoni berilgan. Xitoy manbalarining ma'lumot berishicha, qadimgi turk davlatidagi mansablarning asosiy shtati 28 ta bo'lgan, bunda ularning faqat 5 tasi oliy mansabdor hisoblangan: Exu (yabg'u), She (shad), Dele (teginlar), Silifa (eltabarlar) va Tutunfa (tudunlar). Qolgan 23 tasi kichik amaldorlardan iborat bo'lgan. Barcha mansablar meros qilib qoldirilar edi⁸⁰.

Turk xoqonligi davlatining asosini yer bilan birga xalq tashkil etar edi. O'z davrida O'rta Osiyoda davlatchilikning mustaqil va an'anaviy shakllarini rivojlantirgan turkiylar davlati mavjud jamiyatning muayyan ijtimoiy tuzilmalariga va qadimgi turklarning davlat tomonidan tashkil etilgan hamda nazorat qilinadigan xo'jalik faoliyatiga tayanar edi. Tarixiy adabiyotlarda berilishicha, bu faoliyatning asosini ko'chmanchi chorvachilik tashkil etgan. Chorvador turklarda urug'-qabilachilik

⁷⁸ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.-T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012, -B. 148.

⁷⁹ Abdurahimova N.A., Isakova M.S., Suleymanova Z.M. Davlat muassasalari tarixi.- T.: "Sharq", 2007, -B. 11.

⁸⁰ Alimova D.A., Rtveladze E.V. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari.-T.: "Sharq", 2001, -B. 51-52.

an'analari nihoyatda kuchli bo'lib, qabila va urug' jamoalarining asosi katta oilalardan iborat bo'lgan. Ko'chmanchi chorvador xalq ommasini turklar "budun" yoki "qora budun" deb atashgan⁸¹.

Turklardagi qabila va urug' jamoalarining katta oilalarida uy qullari ham mavjud bo'lar edi. Qullarning ko'payishi bilan sinfiy munosabatlar tarkib topa boshlagan. Lekin qulchilik ijtimoiy hayotga keng kirib kelmagan. Shu bois bo'lsa kerakki, manbalarda xoqonlikda qullar mehnatidan keng foydalanish haqida amalda hech qanday ma'lumot bermaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ko'proq ayollar mehnatidan foydalanilgan va qullar, asosan, uy ishlari bilan shug'ullanishgan. Ko'pincha jamoada ayollar qul qilib olib ketilar edi. Lekin, qul ayollardan ham og'ir ishlarda foydalanilmay, balki uy-ro'zgor ishlarida ishlatilinar edi. Qul erkakmi, ayolmi baribir qochib ketavergan. Qochgan qul ta'qib qilinmagan va uning uchun hech kim tovon to'lamagan. Turk xoqonligining markaziy boshqaruv tizimi, asosan, yirik siyosiy davlat tadbirlari (davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va bosh.) bilan mashg'ul bo'lib o'zlari zabt etgan hududlardagi boshqaruv tizimiga ma'lum darajada erkinlik berilgan. Shuning uchun ham Farg'ona, Sug'd, Shosh, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo'lida bo'lgan. Misol uchun, Sug'd va Farg'onada oliy hukmdor - "ixshid", Toxaristonda - "malikshoh", Xorazmda - "xorazmshoh", Keshda - "ixrid", Buxoroda - "xudot", Ustrushonada - "afshin", Choch va Iloqda - "budun" deb atalgan⁸².

Turk xoqonligi davrida Sug'd hududlariga hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo'lgan yerlar kirgan. Buxoro esa, VII asrdan boshlab mustaqil mulklar ittifoqidan iborat bo'lgan. Sug'dning mahalliy hokimlari ayrim vaqtlarda Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari birlashar edilar. Bunday yirik siyosiy birlashmalar ma'lum muddatlarda yirik shaharlarda o'z qurultoylarini o'tkazib turganlar.

Farg'ona Sug'd siyosiy ittifoqiga kirmagan bo'lib, u alohida mustaqil davlat bo'lgan. Uni afshin boshqargan bo'lib, farg'onaliklar

⁸¹ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012, -B. 148.

⁸² Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", -B. 2012, -B. 149.

Tyanshan xalqlari bilan o'zaro aloqada qilganlar. Xorazm boshqa mulklarga nisbatan ancha mustaqil bo'lib, mamlakatni Afrig'iylar sulolasiga mansub podshohlar boshqarib turgan.

Ta'kidlash lozimki, Turk xoqonligi ma'lum darajada to'liq ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega bo'lgan. Sodir etilgan jinoyat uchun jazoning asosiy turlari-qatl etish, odam a'zolarini kesib tashlash, zararni to'lash, mol-mulk tarzida tovon to'lashdan iborat edi. Misol uchun, manbalarning ma'lumot berishicha, o'lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon ko'tarish, sotqinlik) hamda nohaq yoki qasddan odam o'ldirganlik uchun berilgan. O'g'irlik qilgan yoki buzuqlik qilgan shaxsning qo'li yoki oyog'i kesilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar yetkazilgan zararni o'n barobar qilib to'lash, jarohat yetkazgani yoxud mayib qilgani uchun mol-mulk tarzida tovon to'lash, qizi, xotinini qullikka berish, suyagini sindirganlik uchun esa ot berish yo'li bilan jazolanardi.

O'rta Osiyoni ma'lum hududini o'z ichiga olgan G'arbiy Turk xoqonligi ilk feodal monarxiya shaklida idora etiluvchi davlat sifatida tashkil topgan. Bu davlat nisbatan yagona hisoblangan, lekin uning hududi bir necha podshohliklarga bo'linib ketgan, ularning orasidagi aloqalar unchalik mustahkam bo'lmagan. Shu sababli G'arbiy Turk hoqonligini qat'iy markazlashgan davlat deya olmaymiz. G'arbiy Turk xoqonligi monarxiya shaklidagi davlat bo'lib, uning tepasida xoqon turgan. Xoqonga oliy qonun chiqarish hokimiyati tegishli bo'lgan. Mahalliy mayda hukmdorlar xoqonga bo'ysunib, unga soliqlar to'lab turar va hadyalar yuborar edilar. Bunday soliqlarning, bojlarning miqdori va boshqalar haqida xoqonning amr-farmonlari bo'lganligi tabiiy. Lekin bular bizgacha yetib kelgan emas. Ijro etuvchi hokimiyat ham xoqon qo'lida bo'lgan. Uning o'zi ma'muriyat boshlig'i edi. Xoqon harbiy kuchlar tepasida turib, urushlarda u shaxsan o'zi qo'shinlarni boshqarib turgan.

Xoqon monarx hisoblansa ham davlat ishlarini o'ziga yaqin maslahatchilarsiz yakka o'zi hal qila olmagan. Uning atrofini qarindosh-urug'lardan iborat bir guruh oqsuyaklar o'rab turgan va unga maslahatlar berib turgan. Bu o'ziga xos kengash bo'lib, u hech qanday huquqiy hujjat bilan rasmiylashtirilmagan edi. Bundan tashqari G'arbiy Turk xoqonligida

Sharqiy Turk xoqonligidagi singari xoqon tomonidan qurultoylar-zadogonlar yig'ilishlari chaqirilib turgan. Ularda eng muhim davlat masalalari-urush va tinchlik, o'zaro nizo-adovatlarga oid va boshqa shu kabi masalalar muhokama qilingan. Qurultoylar xoqon faoliyatini yo'naltirib turgan. Mahalliy joylarda hokimiyat qabila boshliqlari qo'lida bo'lgan. G'arbiy Turk hoqonligida 10 ta qabila yashab, ular 2 ta raqobatchi guruhga bo'linganlar. Har birining o'z qabila oqsoqoli bo'lgan edi. VI asrda Zarafshon, Qashqadaryo, Amudaryo havzalarida 9 ta alohida o'lka mavjud bo'lgan. Bular: Samarqand, Kesh, (Shaxrisabz, Naxshab, Qarshi yaqinida) Ishtixon, Kushoniya, Buxoro, Amul va Andxoy edi. Ularning tepasida podsholar turgan. Eng katta podsholik Samarqand podsholigi hisoblangan. Manbalar shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo knazliklarining qurultoyi Xorazmda chaqirilib, unda ular o'rtasida o'zaro ittifoq tuzilgan. Bu ittifoqqa faqat Termiz, Toxariston va Farg'ona kirmagan. Ularning o'z knyazlari bo'lib, mustaqil davlat bo'lganlar.

Shunday qilib, Turk xoqonligi tarkibida O'zbekiston hududidan juda ko'p katta-kichik davlatlar bo'lib, ularni mahalliy sulolarning vakillari idora etar edilar.

Turk xonligi qo'shini otliqlaridan va piyoda askarlardan iborat bo'lib, otliqlarni oqsuyaklarning vakillari, piyodalarni esa oddiy xalq tashkil etgan. Xoqon va mahalliy boshliqlar o'zlarining shaxsiy gvardiyasiga ham ega bo'lganlar. Turk xoqonligining huquq tizimi haqida biror ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Faqat shuni aytish kerakki, davlatda, asosan, odat huquqi amal qilib kelgan. Umumdavlat qonunchiligi bo'lmagan. Chunki Turk xoqonligi markazlashgan davlat emas edi. U bir necha mayda knazliklarga bo'linib ketgan va ular orasidagi aloqalar juda zaif bo'lgan. (Shu sababli butun xoqonlikda yagona huquqiy tizim bo'lishi ham mumkin emas edi).

Xoqon-Turk xoqonligida ushbu unvon oliy unvon hisoblanib bu unvonda shaxs oliy hokimiyatni markazdan boshqarganini ko'rishimiz mumkin. Avvalo "xoqon" unvoni Sharqiy Turk xoqonligida ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik G'arbiy Turk xoqonligida ham qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. G'arbiy Turk xoqonligida "xoqonlikka" o'tish davri uch bosqichda amalga oshiriladi:

I-bosqich: “Yabg‘ulik” VI asr 60 yillarning boshi va so‘ngi choragi davrida bo‘lgan;

II- bosqich: “Yabg‘u-xoqonlik” (cpyv xy’n) VI asr oxiri - VII asr 30 yillari davomida shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin.

III-bosqich: “Xoqonlik” (x’y’n) VII asrning 30- yillaridan to VIII asrning 2-choragigacha davom etib kelgan.

Teginlar-“shahzoda” (xoqonlik xonadoniga mansub) kishilarga va “Ashina” qabilasi va urug‘idan bo‘lgan shahzodalarga berilgan, ular voha ustidan nazoratni o‘rnatgan.

Tudunlar-“noib” (biror elning yoki vassallar ustidan nazorat qilish va soliq yig‘imlarini amalga oshirishni tashkil etishga mas‘ul).

Tarxon-“imtiyozli harbiy amaldor” (xoqonlarning joylardagi mas‘ul vakili) Tun yabg‘u-xoqon (618-630) davrida kelgan Xitoy sayyohi Syuan Szuan hayratlangan voqealardan birida shunday deydi: “Xoqonning atrofida ipak chakmon kiygan va sochlari o‘rilgan 200 ga yaqin “da-gan” (tarxon) deb ataluvchi sarkardalar joy olishgandi”.

Chabish-“lashkarboshi” (qo‘shin noziri) hisoblangan.

Eltabir-“noib” bir elning boshqaruvchisi yoki harbiy unvon.

Barluq-“sud” ishlari va fuqarolarning ustidan qonunning bajarilishi ustidan nazoratni o‘rnatgan.

Damochi-“tamg‘achi” Xitoy sayyohi Syuan Szuan Sharqiy Turkistonning vassal hukmdorlar xatlarini xoqonga bergan paytda xoqon xatlarni diqqat bilan kuzatgan va ko‘zdan kechirib ularni “damochi” (tamg‘achi) deb ataluvchi kishiga saqlash uchun topshirganini yozadi. Bu ma‘lumot xoqonlikda konsileriya-devon xizmati mavjud bo‘lganidan darak beradi.

To‘n yabg‘u hukmronligi davrida amalda mustaqil bo‘lgan, O‘rta Osiyo davlatlari ustidan nisbatan qattiq siyosiy nazorat o‘rnatiladi. Chunki, bu davlatlarning vassalligi faqat o‘lpon to‘lash bilan chegaralanar edi. Isfijobdan Toshkent vohasigacha, shimolda Janubiy Afg‘oniston va shimoli-g‘arbiy Pokistongacha bo‘lgan hududlarga xoqon To‘n yabg‘uning ishonchli vakillari - tudunlar yuborilib, ular soliqlar yig‘ish va xoqon qarorgohiga yuboriladigan o‘lponlarni qattiq nazoratga oldilar.

Mahalliy hokimlarga ularning xoqonlik ma'muriy boshqaruviga qo'shilganligi ramzi sifatida turk unvonlari berildi. Shu bilan birgalikda, To'n yabg'u nisbatan kuchli bo'lgan mahalliy hukmdorlar bilan shaxsiy munosabatlarini mustahkamlashga harakat qildi. Manbalarda To'n yabg'uning Samarqand hokimiga o'z qizini xotinlikka berganligi haqida ma'lumot bor. Xitoy manbasi To'n yabg'u haqida ma'lumot berar ekan shunday xabar beradi: -"G'arb varvarlari hali hech qachon bunchalik qudratli bo'lgan emas"⁸³.

O'ta yakkahokimlik xususiyatiga ega bo'lgan To'n yabg'u boshqaruvi talon-tarojchilik urushlari natijasida boyib ketgan qabila zodagonlari orasida norozilik harakatlarini kuchaytirib yubordi. Boshlanib ketgan o'zaro kurashlarni bartaraf etishga harakat qilgan To'n yabg'uning tog'asi Qo'l Bahodir jiyanini o'ldirib o'zini Qo'l Elbilga xoqon deb e'lon qiladi. Ammo, qabila boshliqlarining ayrimlari boshqa da'vogarni qo'llab-quvvatlaganlari tufayli yana qabilalararo kurashlar boshlanib ketadi. 630-634 yillarga kelib xoqonlik o'zining Sirdaryoning g'arbidagi O'rta Osiyo mulklaridan mahrum bo'ldi. G'arbiy turk xoqonligining asosi bo'lgan dulu va nushibi qabilalari o'rtasida o'zaro kurashlar avj olib ketdi.

634 yilda nushibi qabilasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Ishbara Elterish Sher xoqon hokimiyat tepasiga keldi. U harbiy ma'muriy tartib bo'lgan "o'n o'q eli" boshqaruvini qayta tiklashga harakat qilib, qabila boshliqlarini o'ziga shaxsan tobe qilish maqsadida islohotlar o'tkazdi. Undan tashqari, amaldagi nazoratni amalga oshirish maqsadida Ishbara har bir mulkka xoqon urug'i a'zosi-shodni jo'natadi. Shodlar qabila zodagonlari bilan hech qanday aloqada bo'lmay, ularning markaziy hokimiyatga intilishini kuzatib borgan. Bu mahalliy hokimlarning siyosiy tashabbuslarini nihoyatda chegaralab qo'yar edi. Ammo, Ishbara Elterish Sher boshchiligidagi xoqonlik hokimiyatining harbiy-siyosiy layoqati qaram mulklar va qabilalarni ushlab turishga qodir emas edi. 638-yilda dulu qabilasi o'zlariga jo'natilgan shodni xoqon deb e'lon qildilar. Shundan so'ng dulu va nushibi qabilalari o'rtasida og'ir va qonli urushlar

⁸³ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012, -B. 145.

bo'lib o'tib g'arbiy xoqonlik ikki qismga bo'linib ketdi. Shunday bo'lsada, xoqonlikdagi qabilalararo va sulolalararo urushlar 17 yil (640-657) davom etdi⁸⁴.

Shunday qilib, VII asrning o'rtalarida G'arbiy turk xoqonligi zaiflashib bir necha qismlarga bo'linib ketdi. Vaziyatdan foydalangan Xitoyning Tan imperiyasi qo'shinlari 657-659 yillarda Yettisuvga bostirib kirdilar. Xitoy bosqinchilariga qarshi kurashlar uzoq yillar davom etdi. Faqatgina VII asrning oxirlariga kelib xoqonlik o'z mustaqilligini tiklashga muvaffaq bo'ldi va xitoyliklar vakili Xusrav Bo'rishod mamlakatdan haydab yuborildi.

O'z davrida Turk hoqonligidagi madaniy jarayonlar Buyuk ipak yo'lidagi keng ko'lamli, xalqaro aloqalar tufayli jamiyatdagi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy voqealar bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanib bordi. O'troq dehqonchilik vohalari aholisi va dasht qabilalari o'rtasidagi madaniy aloqalar, ayniqsa, kuchaydi. Bu davrdagi madaniy hayot moddiy madaniyat buyumlari, me'morchilik va san'at, din va yozuv kabilarda o'z ifodasini topdi.

Dehqonlar mavjud suv resurslari hamda lalmikor yerlar imkoniyatlaridan foydalanib, asosan, don ekinlari hamda qovun, tarvuz, beda, uzumchilik, paxtachilik sohalaridan yuqori hosil yetishtirganlar. Mevali daraxtlardan bog'-rog'lar yetishtirishga alohida ahamiyat berilgan. Shahar aholisi, asosan, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul edi. Dehqonchilik va konchilikdagi taraqqiyot ko'lami va sifati o'zidan keyingi uch tarmoq hunarmandchilik, qurilish, savdo-sotiq ravnaqi uchun katta turtki bo'ladi. Shuning uchun bu vaqtda metalsozlik, zargarlik, kulolchilik, duradgorlik, shishasozlik keng rivoj topgan. Hunarmandchilik rivojiga turkiy aholi katta ta'sir ko'rsatdilar. Chunki ularda qadimdan ko'pchilik kasb-hunarlar juda rivojlangan edi. Turkiy xoqonlik ulkan hudud ichida zarur tinchlikni ta'minlaganligi natijasida "Buyuk ipak yo'li" samarali ishlashda davom etdi. O'lkaning asosiy savdo hamkorlari Eron, Xitoy, Hindiston va Vizantiya edi. Bu mamlakatlarga to'qimachilik, ipakchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlar va ulardan ishlangan

⁸⁴ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012, -B. 146.

buyumlar, taqinchoqlar, dorivorlar, nasldor arg‘umoqlar, bir necha xil tuz, sharob, bog‘dorchilik mahsulotlari, qazilma boylik va hokazolar olib borilgan. Ayniqsa, Sug‘d savdogarlarining mavqei kuchli bo‘lgan. Shu ma’noda xitoylik muallifning quyidagi guvohligi e’tiborga sazovordir: “(Sug‘diyonalik) erkaklar yigirma yoshga to‘lishlari bilan qo‘shni mamlakatga oshiqadilar va qayerda qulaylik va manfaat bo‘lsa u yerga ham qadam ranjida etadilar”. O‘rta Osiyoning shu davrdagi Marv, Poykand, Buxoro, Samarqand, Shosh, Isfijob, Suyob kabi shaharlari savdo-sotiqning markazlari edi. Xitoy bilan savdo munosabatlari, ayniqsa, rivojlanib, 627-647 yillar mobaynida Xitoyga 9 marotaba savdo elchilari yuborildi. O‘rta Osiyoda shu paytda 15 taga yaqin mayda davlatlar bo‘lib, Buxoroda buxorxudotlar, Xorazmda xorazmshohlar, Shosh va Iloqda bo‘dun va dehqonlar, Farg‘onada ixshidlar hukmronlik qilishgan. Ularning hammasi Turkiy xoqonlikka qaram bo‘lsa-da, amalda yarim mustaqil edilar. Ta’kidlash joizki, O‘rta Osiyoning turk xoqonligi tarkibiga kirgan davridagi moddiy madaniyati o‘zida mahalliy o‘troq xalqlar va ko‘chmanchi turklarning mushtarakligini aks ettiradi. Ularning umumiyligi qurol-aslaha, zeb-ziynat buyumlarining o‘xshashligida, qimmatbaho metallardan ishlangan buyumlar ko‘rinishida o‘z aksini topgan. Tadqiqotchilarning fikricha, moddiy madaniyatdagi umumiylik, avvalo, O‘rta Osiyo shahar va qishloqlari hamda turk xoqonlari manfaatlarining umumiyligi bilan bog‘liq edi.

Turkiylarning dini haqida “Vey-shu” va “Suy-shu” Xitoy yilnomalarida qayd etilgan. Unda turkiylar dini odatlari haqida shunday ma’lumotlar bor:

1. Xoqon o‘z qarorgohiga Sharq tomonidan kiritilgan, bu bilan kun chiqish tarafga hurmat ma’nosi ifodalangan, ayni paytda quyoshga sig‘inishni ham bildirgan.

2. Xoqon o‘z amaldorlari bilan maxsus g‘orga borib, ota-bobolari ruhiga qurbonlik keltirgan.

3. Har 5-marotaba oy chiqishida va o'sha oyning o'rtasida xoqon yaqinlarini yig'ib, daryo bo'yiga borgan osmon ruhi (tangri) ga qurbonlik keltirganlar⁸⁵.

Qabilalar o'rtasida ham turli xudolarga e'tiqod qilish bo'lgan. Tangri (osmon ruhi) barcha qabilalar uchun yagona asosiy xudo bo'lgan. Unga doimiy qurbonliklar keltirganlar. Ular ruh abadiyligi, narigi dunyo borligiga ishonganlar⁸⁶. Biror kishi qazo qilsa, yoniga boshqa kishilar, buyumlarni ham qo'shib ko'mganlar. Masalan, 576 yil Istemi-yabg'a vafot etganida u bilan birga 4 ta harbiy asir o'ldirilib ko'milgan. Muqanxon vafot etganida unga oxiratda xizmat qilish uchun 20.000 kishi o'ldirilib, birga ko'milgan. Qiyomat kunini turkiylar "Qoldirilgan kun" deb ataganlar. Turkiylar qabr toshlari, ya'ni bitigtoshlar yoniga odamlarining tosh haykalchalarini qo'yishgan. Ular "Balballar" deyilgan. Bu balballar o'lgan odamning ruhiga bag'ishlangan yodgorlikdir. Shamanizm o'sha davrda turkiylarning asosiy dini bo'lib, keyinchalik ular ichida buddizim, xristianlik va boshqa dinlar ham tarqalgan. Tosh bitiglarida o'lgan odamga madhiyadan tashqari, ko'plab tarixiy xodisa va voqealar ham bitilgan. Bunday bitiglar ichida eng ma'lumlari Kultigin bitigtoshi, Bilgaxoqon bitigtoshi, To'nyuquq bitigtoshi va boshqalar mashhurdir. Bular birgalikda O'rxun-Yenisey yozuvlari deb ataladi. Shuningdek, qog'ozga yozilib, Xitoydan topilgan 104 satrlik "Ta'birnoma" asarida ham turkiylar hayotining sahifalari bor.

Ko'k-turklar idorasi ostida yashayotgan turk arvoniy xalqlari orasida ham budda dini keng yoyilgandi. Buddaviy rohiblar dinlarini turk xoqonlariga va xalqiga qabul qildirmoq uchun jonlarini jabborga berishar edi. Chunonchi, Muqonxonning xalafi Topu (topo)xon (572-581) bir rohibning ta'sirida budda diniga kiradi va bundan keyin hukmdorlik mavqeini o'sishiga ishonadi. Biroq, ushbu hodisa dinning yoyilishiga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi. Ko'k-turklarning xoqoni Tung yabg'u 626 yilda ziyoratga kelgan bir rohibni hurmat bilan kutib olib, uning sharafiga bazm beradi. Biroq barcha g'ayrat va tashviqotga qaramay, turklar o'z shomoniy dinlariga sodiq qolganlar⁸⁷.

⁸⁵ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. - T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. -B. 150.

⁸⁶ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. - T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. -B. 151.

⁸⁷ Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. -T.: "Cho'lpon", 1995. -B. 64.

Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyoda ko'plab yirik shaharlar mavjud edi. Katta va kichik shaharlarda hunarmandchilik, me'morchilik, rassomlik, haykaltaroshlik kabilar rivojlanadi. Ularning ayrim namunalari o'sha davrda bunyod etilgan qasr va saroylarni bezagan devoriy suratlar va ganchkor naqshlar, haykallar va haykalchalar, tangalarda zarb etilgan ramzlar sifatida bizning kunlarimizgacha saqlanib kelgan. Ularda o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o'zgarishlar o'z aksini topgan. Surxon vohasidagi Bolaliktepa, Zarafshon vodiysidagi Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg'onadagi Quva xarobalaridan topilgan devoriy suratlar manzaralari shular jumlasidandir.

Bu davrda ulkan hududlarda yashagan turli xalqlarning til va yozuvlari bir-birlariga ta'sir o'tkazgan edi. Arab yozuviga qadar turk-runiy, uyg'ur, moniy, sug'd, braxma, kxaroshtiy, xorazmiy va suryoniy yozuvlari mavjud edi. Sug'd, Xorazm va Toxariston aholisining alohida-alohida yozuvlari bor edi. Sug'd va Xorazm yozuvlari oromiy yozuvi asosida paydo bo'lgan bo'lsa, bu yozuvlar asosida Toxariston yozuvi paydo bo'ladi. Sug'd yozuvlari keng hududlarga tarqalgan bo'lib, bu jarayon Sug'diylarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoliyati va savdogarlarning ipak yo'lidagi sa'y-xarakatlari bilan bog'liq edi. Shu bois bo'lsa kerakki, Sug'd tilidagi yozma yodgorliklar O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'uliston hududlaridan topib tekshirilgan. Sug'd yozuvi ish yuritishda, savdo va madaniy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi uyg'ur, mo'g'ul va manjurlar yozuvlari paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Bu davrda Xorazmda mahalliy yozuv keng tarqalgan va amalda bo'lgan. Tuproqqal'adan shoh arxivlarining topilishi bunga misol bo'la oladi. Boy bezaklar, sopol, metall idishlar, devoriy sur'atlar, kiyimlardagi tasvirlar bu yerda tasviriy san'atning rivojidan dalolat beradi.

Turklar sarrojlik, ruda qazib olish va undan qurol-yarog' yasashda, ayniqsa, mohir edilar. Turklar yasagan qurol-yarog' va zeb-ziynat buyumlari o'zining xilma-xilligi va pishiqligi bilan ajralib turgan.

Bu davrda konchilik ishlari ham ancha rivojlangan. Oltin, temir, kumush, mis, qimmatbaho toshlar, turli ma'danlar Sug'd, Shosh, Farg'ona, Qashg'ar, Tohariston kabi viloyatlardan qazib olinganligi manbalarda aniq ko'rsatilgan.

Oʻrta Osiyoning Turk xoqonligi tarkibida boʻlishi oʻsha davr davlatchilik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot uchun muhim ahamiyatga ega boʻldi. Avvalo, Turk xoqonligi juda katta hududlardagi turkiy qabilalarning birlashuvi va jipslashuviga keng imkoniyatlar yaratib, Oʻrta Osiyodagi ayrim turkiy xalqlar shakllanishiga asos soldi. Yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, avval Turk xoqonligi, keyin esa Gʻarbiy turk xoqonligining qudratli va koʻchmanchilarga xos shiddatli harbiy tashkiloti, Sugʻdiylarning bevosita aralashuvi tufayli olib borgan diplomatik siyosati Xitoy, Vizantiya va Eronning Oʻrta Osiyo ilk oʻrta asrlar davri xalqlari va elatlariga nisbatan olib borayotgan tajovuzkorlik siyosati yoʻliga mustahkam toʻsiq qoʻydi.

Bepoyon dasht va choʻl hududlarida, serhosil va sersuv vohalarda tashkil topgan ulkan davlat birlashmalari kattagina hududlardagi shaharlar, hunarmandchilik, madaniyat, savdo-sotiq va oʻzaro aloqalarning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Masalaning yana bir eng muhim tomoni shundaki, Turk xoqonligi mavjud boʻlgan davr-koʻchmanchilar madaniyati insoniyat sivilizatsiyasining oʻz yoʻnalishi va jihatlariga ega boʻlgan, oʻziga xos va betakror tarmogʻi boʻlib, oʻtroq aholi madaniyati bilan aralashib, uygʻunlashgan madaniyat paydo boʻlishi davri boʻldi.

Mashgʻulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “Aqliy hujum” interfaol usulidan foydalaniladi.

Mashgʻulot uchun topshiriqlar:

1. Turk soʻzi birinchi marta qachon tilga olingan?
2. Soʻgʻd yozuvining ahamiyati?
3. Turk xoqonligi bu-...
4. Bitik bu-...
5. Tovar munosabatlari bu- ...
6. Turk xoqonligida buyuk ipak yoʻl ining oʻrni, ahamiyati qanday boʻlgan?
7. Gʻarbiy turk xoqonligining hududlari bu-...
8. Turk xoqonligining ikkiga boʻl inish sabablari?
9. Tarxon bu -...

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Turk xoqonligining tashkil topishidagi shart-sharoitlar nimalardan iborat edi?
2. Turk xoqonligi tarkibiga kirgan hududlarni ayting?

3. Turk xoqonligida buyuk ipak yo'lining o'rni, ahamiyati qanday bo'lgan?
4. Yer egaligi haqida so'zlab bering?
5. Ushbu xoqonlikning boshqaruv siyosati qanday tashkil etilganligini gapirib bering?
6. Turk xoqonligi davrida sud, jazo organlari faoliyati nimalardan iborat bo'lgan?
7. Turk xoqonligining ikkiga bo'linish sabablari?
8. Turk xoqonlarining yurtimizga kirib kelishi va G'arbiy turk xoqonligining tutgan o'rni qanday bo'lgan?
9. Turk xoqonligining O'rta Osiyoga hukmronligi davrida O'rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar haqida gapirib bering?
10. Turk xoqonligining qo'shni davlatlar bilan hamkorlik qilganmi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimova D.A, Rtveladze E.V. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. - T., "Sharq", 2001-yil.
2. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi.- T., "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012-yil,
3. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi.- T., "G'afur G'ulom", 2004-yil.
4. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi.- T., "Cho'l pon", 1995-yil.
5. Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi.- T., "Sharq", 2000-yil.
6. Abdurahimova N.A, Isakova M.S, Suleymanova Z.M. Davlat muassasalari tarixi.- T., "Sharq", 2007-yil.
7. Abulg'ozixon. Shajarayi Turk.- T., "Cho'l pon", 1990-yil.
8. Gumilyov L.N. Qadimgi turklar.-T., "Fan", 2007-yil.
9. Nasimxon Raxmon. Turk xoqonligi.-T., 1990-yil.
10. Orziyev M.Z, Ergashyev J. Yu. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Buxoro. "Durdona". 2021-yil.

Axborot manbalari

11. www.ziyonet.net
12. www.history.ru

8-Mavzu: O‘rta Osiyoda arab xalifaligi davlat boshqaruvi.

Reja:

- 1. Arab xalifaligining tashkil topishi.**
- 2. Arablar hukumronligi davrida yer egaligi va soliq tizimi.**
- 3. Arablar davrida boshqaruv tizimlari va huquqiy munosabatlar.**
- 4. Arablar hukumronligi davrida iqtisodiy- ijtimoiy va madaniy hayot.**

Tayanch tushunchalar. Xalifa, xalifalik, ijtimoiy, payg‘ambar, fiqh, jabariylar, shialik, Ali avlodlari, Devon ad-dar, qavonin, maqosima, misoxa, renta, “amir al-mo‘minin”, “Amara”, amir, quraysh, zimmiylar, Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Asvad, Sajjoh, Tulayxa, Ibn Sayyod, “ashob al-hadis”, Al-Muvatta, xiroj, zakot, jizya, Yaman, Hijoz, Makka, Madina, “xulafo ar-roshidin”, choryorlar, shayxlar, ummaviylar, abbosiylar, jabariylar.

VI asrning oxiri va VII asr boshlarida, ya’ni islom dinining vujudga kelishi arafasida Somiy qavmiga mansub arab qabilalari o‘rtasidagi mavjud ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Yamanda savdo-sotiq rivojlanib ilk davlatchilik belgilari shakllanayotgan bir paytda, yarim orolning shimoliy qismida joylashgan shaharlarda hali ham ibtidoiy turmush tarzi saqlanib qolgan edi, sahrolarda ko‘chmanchi chorvachilik bilan hayot kechirayotgan arab qabilalari esa, hatto, patriarxal urug‘chilik tuzumining ilk bora yemirilish bosqichida turardilar. Aytmoqchimizki, Arabiston yarim orolida yashagan qabilalarning asosiy ko‘pchiligi ularga qo‘shni yashagan Misr, Vizantiya, Eron, Mesopotamiya kabi qadimiy madaniyat markazlariga qaraganda tarixiy taraqqiyotning ancha quyi bosqichida bo‘lib, orqada qolgan edi.

Arabiston yarim orolining g‘arbiy qismida - Qizil dengiz sohillarida geografik qulay bir hududda joylashgan va Xijoz deb nom olgan tumanda bu davrda iqtisodiy taraqqiyot birmuncha ilgarilab ketgandi. Karvon savdo yo‘llari bu hududni janubda Yaman orqali Habashiston va Hindiston, shimolda Shom yurti (Suriya) orqali Misr, Vizantiya va Sosoniylar Eroni bilan bog‘lar edi. O‘z davrida katta, iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan bu hududning markazi Makka shahri

bo'lib, bu yerda yoz va qish fasllarida katta karvonlar tashkil etilgan (tarixchi Tabariy bergan ma'lumotlarga qaraganda ba'zan bu karvonlar 2000 tuyagacha yetgan). Bu karvonlarning shimolga va janubga yuborilib turgani haqida Qur'oni Karimning 106-“Quraysh” surasida qayd etiladi⁸⁸.

Savdo karvoni yo'lida joylashgan Makkadan tashqari yana Yasrib (keyinchalik Madina), Toif, Xaybar kabi shaharlar ham rivojlanib, kengayib ahamiyati oshib bordi va VI asrlarga kelib gavjum savdo markazlariga aylandilar. Albatta, bu davrda Makka shahri bilan biror-bir sohada bo'lsin raqobatlashadigan savdo markazi hali yo'q edi⁸⁹.

Makka shahri arab qabilalarini birlashtirishda markaziy o'rinni tuta bordi. Chunki, V-VI asrlarda arab qabilalari ittifoqi mustahkam emas edi. Ular goh birlashar, goh tarqalib parchalanib ketar, qabilalar o'rtasida tez-tez nizolar kelib chiqardi va shu asnoda urushlar bo'lib turardi. Negaki, har bir urug' qabila turli dinlarga-xristianlik, otashparastlik kabilarga sig'inar, ularning har qaysi birining o'z xudosi, o'z payg'ambari bo'lardi. Ko'p xudolilik va ko'p payg'ambarlik negizida tez-tez kelib chiqadigan va sodir bo'ladigan urug'lar va qabilalar o'rtasidagi urushlar xalq ommasining noroziligini kuchaytirib borar, arab qabilalari o'rtasida borgan sayin birlashishga intilish ishtiyoqi kuchayardi. Kuchli urug' jamoalar ibodatxonasi va ular sig'anadigan, topinadigan qadamjolarining ahamiyati osha borardi. Ojiz urug'-qabilalar topinishi va xudolari haqidagi ta'limotlar tobora o'rtadan surib chiqarila boradi⁹⁰.

Muhammad(s.a.v.) g'oyaviy ta'limotlarining asosini tashkil etgan yakkaxudolik islom diniga qadar ham bo'lgan, Muhammad(s.a.v) davrlarida ham bu g'oyani bayroq qilib ko'rganlar bor edi. Jumladan A. Hasanov “Makka va Madina tarixi”da payg'ambarlikni da'vo qilganlar jumlasiga: “Yamomada-Musaylima, Yamanda-Asvad, Markaziy Arabistonda-Sajjah ismli bir ayol va Tulayxa, Madina (Yasrib)da Ibn Sayyod...”⁹¹ ni kiritadi. Muhammad (s.a.v) yo'llari g'alaba qozongach, faqat u kishining nabiyligi (payg'ambarligi) e'tirof etilib, boshqalari esa

⁸⁸ Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. -T.: “Cho'lpon”, 1992-yil, -B. 524.

⁸⁹ Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi.- T.: “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi”, 2009-yil. -B. 50.

⁹⁰ Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi.- T.: “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi”, 2009-yil. B. 50.

⁹¹ Hasanov A. Makka va Madina tarixi T.: “Mehnat”, 1992, -B. 65.

musulmon tarixchiligida, muta-nabbiylar (ya'ni soxta payg'ambarlar) deb nom oladilar⁹².

630 yilda Muhammad (s.a.v) Arabistonning ayrim mintaqalarida paydo bo'lgan, soxta payg'ambarlar ustiga yurishlar qilib, butun boshli Arabiston yarim orolini egallab kuchli davlatga asos soladi. Bu davlat Yamandan Sino yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy Qizilqum sahrosigacha cho'zilgan yerlarni o'z ichiga olar edi.

Mudammad(s.a.v) nasroniy yil hisobida 632 yil (hijriy yil hisobida 10-yili) 25-mayda o'z uylarida vafot etadilar. Payg'ambarimiz vafotidan so'ng u kishining ishonchli noiblari yoki o'rinbosarlari davlatni boshqarganlar. Ana shu tariqa tarixda "arab xalifaligi" paydo bo'lgan. Islom musulmonlarida, asosan, ilk to'rt xalifa alohida ahamiyatga ega. Bular - Abu Bakr(r.a) (632-634), Umar(r.a) (634-644), Usmon(r.a) (644-656) va Hazrat Ali (r.a) (656-661). So'ng xalifalik 661-750 yillarda ummaviylar sulolasiga o'tgan. Bu sulolaga Muoviya bin Abu Sufyon (661-680) asos solgan. Ummaviylardan so'ng xalifalik taxti Abbosiylar (750-1258) sulolasi qo'lga o'tgan. Bu sulolaning asoschisi Muhammad alayhissalomning amakilari avlodlaridan Abul Abbos As-Saffoh (749-754) edi.

Xalifalar ham dunyoviy, ham diniy hokimiyat boshlig'i edi. Qonun chiqarish, ijro etish, sud hokimiyati ham ularga tegishli edi. Ushbu to'rt xalifalar islomda "xulafo ar-roshidin" ("to'g'ri yo'l dan borgan xalifalar"), dindorlar o'rtasida choryorlar deb atalgan⁹³.

Arablar O'rta Osiyoni bosib olgach, bu hududdagi hamma shahar va aholi joylarida o'z qo'shinlarini joylashtirdilar. Bu harbiy kuchlar o'z vaqtida mahalliy aholi ustidan nazorat qilib turardi. Arab xalifaligi tasarrufiga o'tgan Movaraunnahr hududida ko'pgina yirik yer egalari-dehqonlarning mavqei avvalgi holaticha saqlanib qoldi. Ular siyosiy jihatdan xalifa va uning noibiga bo'ysunar edilar.

Butun VIII asr davomida arab zodagonlarining dehqonlar bilan til topishuv hollari kuchayadi va aynan mana shu davrda yirik dehqon urug'-

⁹² Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi.- T.: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi", 2009-yil, -B. 50.

⁹³ Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. -T.: "Toshkent Davlat yuridik instituti", 2005-yil, -B. 343.

aymoqlari qo‘li ostidagi yer-mulklarning yuqori arab harbiy mulkdoriga o‘tishi ro‘y beradi. Arab qo‘shini tarkibiga mahalliy aholi ichidan ko‘plab erkaklar majburan safarbar qilindi. Harbiy harakatlar natijasida aholining bir qismi halok bo‘ldi, bir qismi asirga olindi. Barcha shahar va qishloqlarda o‘z harbiy garnizonlarini joylashtirgan arablar, shu harbiy kuchlarga tayanib aholidan turli soliqlar undirishar, ularni turli jamoa ishlariga safarbar qilishar edi.

Yirik yer egalari o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik arablarning aralashuviga sabab bo‘lar yoki mulkning bir shaxsdan ikkinchisiga o‘tishini ta‘minlar edi. O‘rta asr mualliflari ma‘lumotlariga ko‘ra, dehqonlar qo‘li ostida qishloq jamoalari bo‘lib, bu jamoadan yer olgan kishilar xiroj to‘laganlar. Dehqonlar mustaqil qo‘rg‘onlarda hayot kechirib, ularning yaxshi qurollangan harbiy bo‘linmalari bo‘lgan. Bunday bo‘linmalarning askarlari chokarlar deb atalgan. Dehqonlar xalifa noibining mahalliy aholi orasidan bo‘lgan vakiliga bo‘ysunadilar. Mehnatkash aholi, asosan, kadivarlar, kashovarzarlar hamda qullar dehqonlarda mavjud bo‘lgan yer-mulklarning ma‘lum ulushini ijaraga olib ishlashgan va buning evaziga soliq to‘laganlar. Dehqonlar orasida yer-mulk, shaxsiy uy-joy va qo‘rg‘onlar masalasida nizo va janjallar chiqib qolsa, muammoni xalifa hal qilgan. Har bir huquqiy muammo islom qonun-qoidalariga binoan ko‘rib chiqilgan⁹⁴.

VIII asr o‘rtalariga kelib Movaraunnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Viloyatlardagi hokimlar va boshqa hukmdorlarning qo‘li ostidagi ma‘muriy-idora usuli o‘z shaklini saqlab qolgan bo‘lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko‘pchiligi o‘z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabul qilgan edilar. Islom dinini qabul qilmagan zodagonlar o‘z mol-mulklaridan mahrum etilar yoki katta miqdordagi tovon to‘lar edilar.

⁹⁴ Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T.: “O‘zbekiston Milliy Universitet”, 2012. -B. 57.

Arablar iqtisodiy hayotni o'z qo'llaridan chiqarmaslik maqsadida bosib olingan hududlarda sosoniylar tartibidagi soliq tizimini joriy qildilar. Bular, asosan, quyidagilar edi:

1. Qavonin yoki mukati'a-mayda viloyatlar va tumanlardan xazinaga tushib turgan yig'in.
2. Maqrsima-hosilning ma'lum ulushi miqdorida to'lgan. Uning hajmi sug'orishga bog'liq holda belgilangan.
3. Misoxa yer hajmiga qarab miqdori belgilanadigan soliq bo'lib, o'nta ekin ekilishi yoki ekilmasligiga e'tibor berilmagan⁹⁵.

Bu soliq tizimiga yer solig'i-xiroj (hosilning o'ndan bir yoki o'ndan ikki qismi miqdorida), chorva, hunarmandchilik, savdo-sotiqdan zakot (qirقدan bir miqdorda) hamda islomni qabul qilmagan shaxslardan olinadigan-jizya solig'i ham qo'shilgan.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, arablarning O'rta Osiyonining bosib olingan hududlarini boshqarish markazi Marv shahri bo'lib, bu yerdan turib xalifaning noibi Movaraunnahr hamda Xurosonni idora qilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, VIII asrning o'rtalari va oxirlariga kelib Movaraunnahr va Xuroson hududlarida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirib bo'lingan edi. Bu davrda Movarounnahrda Sug'd, Shosh, Farg'ona, Xorazm, Ustrushona, Toxariston kabilardagi mahalliy hokimlar zimmasiga aholidan belgilangan soliqlarni yig'ish, ma'muriy boshqaruvni amalga oshirish asosida islom dini g'oyalarini aholi o'rtasida yoyish asosiy vazifa qilib belgilangan edi. Mahalliy hokimlar faoliyati xalifa tomonidan tayinlanadigan maxsus amirlar tomonidan katta nazorat ostiga olingan bo'lib, bundan tashqari ular xalifaning Xurosondagi noibiga itoat etishi shart bo'lgan.

Arablar istilosidan keyin Movaraunnahrda musulmon qonunchilik tizimi ham joriy etildi. Islom huquqshunosligining asosini tashkil etuvchi shariat muqaddas kitob - Qur'oni karim va Hadisi sharifga hamda fiqhshunos olimlarning turli savollarga javoblari va qarorlariga tayanar edi. Masalaning yana bir jihati shundaki, Islom dinining ko'p jihatdan afzalligi, ahloq va intizom nuqtai nazaridan ommaviyligi xususiyati arablar

⁹⁵ Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T.: "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012. -B. 57.

bosib olgan mamlakatlar aholisi tomonidan uning tez orada qabul etilishiga sabab bo'ladi. Qutayba singari uni bosqinchilik va zo'ravonlik bilan olib kelish mumkin emas edi. Qachonki islom mohiyatiga yetilgachgina unga rag'bat va e'tiqod kuchayib ketadi.

VIII asr o'rtalariga kelib, Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. So'g'diyonada buxorxudotlar va boshqa hukmdorlarning qo'li ostidagi ma'muriy idora usuli o'z shaklini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko'pchiligi o'z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabul qilgan edilar. Islomni qabul qilmagan zodagonlar o'z yerlaridan mahrum etilar yoki tovon to'lar edilar.

Xalifa davlatni boshqarishda vazir ul vuzaro (ulug' vazir)ga tayangan. Harbiy ishlar, harbiy qo'shinlar amir ul-umaro qo'li ostida edi. Xalifa turli masalalarni devon ad-dar, ya'ni kengashda ko'rib chiqar edi. Devon ad-dar uchta asosiy devonga bo'lingan, ular devon al-mashriq, devon al-mag'rib va devon al-xarajdan iborat bo'lgan. Movarounnahrda tegishli masalalar devon al-mashriqda hal etilar edi⁹⁶.

Xalifa viloyat noiblarini lavozimiga tayinlash yoki bo'shata olish huquqiga ega edi. Xalifalikning huquqiy masalalari Qur'oni karim va Payg'ambar ko'rsatmalari, nasihatlariga asoslangan holda ko'rib chiqilgan.

Dehqonlarning arab zodagonlari bilan qon-qarindoshlik rishtalarini bog'lashi, ularga katta imtiyoz berar edi.

Birinchidan, ular o'z hukmronlik mavqelarini saqlab qoldilar, ikkinchidan, ma'lum miqdorda xalifa xazinasiga soliq berish bilan o'z yerlarini ixtiyorlarida qoldiradilar. Ijaraga berishni kuchaytirishi bilan ularning ijtimoiy nufuzi kadivarlarga nisbatan ancha yuqori pog'onaga ko'tarildi. Dehqonlarning qaramog'idagi kam sonli qullar ham ozodlikka chiqib ijarachilarga aylandilar. Yirik yer egalari-dehqonlar arab xalifaligi davrida ham o'z yerlarining egalari bo'lib qoldilar, biroq ular endilikda ijaradorlarga aylanib, daromadning ma'lum qismini xalifalik xazinasiga

⁹⁶ Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. -T.: "Toshkent Davlat yuridik instituti", 2005. -B. 345.

jo‘natish majburiyatini olgan edilar. Islomni qabul qilmaganlar soliq to‘lovchilar sanalar va ular zilmmiylar deb atalar edi.

O‘zbekiston hududi arablar tomonidan bosib olinganidan so‘ng Arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Arab xalifaligi feodal teokratik davlat bo‘lib, uning tepasida xalifa turgan. Xalifaga davlatdagi barcha dunyoviy hamda diniy hokimiyat tegishli bo‘lgan. Arab xalifaligi tomonidan bosib olingan viloyatlar tepasida xalifa tomonidan tayinlanadigan amirlar turgan. O‘zbekiston hududini xalifaning Xuroson va Movarounnahr bo‘yicha noibi idora etgan. Noib alohida shaharlar va aholi punktlarining hokimlarini, shayxlarini tayinlagan. Ular mahalliy aholidan o‘lponlar yig‘ish hamda jamoat tartibini saqlab turish kabi vazifalarni bajarib turgan. Ba’zi shaharlarning hokimlari ma’muriy-moliyaviy huquqlardan tashqari, hatto, harbiy kuchlarni ham boshqarganlar. Ko‘p joylarga arablar o‘z harbiy qismlarini joylashtirgan edilar. Ular mahalliy aholini tutqunlikda ushlab turganlar. Arablarning ma’muriy apparati va mirshablari bo‘lgan, hokimlarning esa shaxsiy qo‘riqchilari mavjud edi⁹⁷.

Arab xalifaligining birinchi davrida xalifa saylanib qo‘yilardi. Ummaviylar va Abbosiylar davrida xalifa lavozimi nasldan naslga meros bo‘lib o‘tadigan bo‘lgan. Xalifa cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan despot bo‘lib qolgan. Arab xalifaligining birinchi davrida xalifalar xalqdan alohida bo‘lishga intilmagan hamda kamtarona hayot tarzida yashagan bo‘lsalar, Umaviylar va Abbosiylar juda boy-badavlat turmush kechirganlar. Umaviylar va Abbosiylar davrida ancha keng va nisbatan markazlashgan byurokratik apparat tashkil etilgan.

Xalifa huzurida kengash (shuura) mavjud bo‘lib, muhim ishlarni hal etgan. Xalifaning bevosita maslahatchisi va o‘rinbosari, davlatda oliy mansabdor shaxs buyuk ministr bo‘lgan. Ministr so‘zi arabcha “og‘irliklarni ko‘taruvchi” degan ma’noni bildiradi. Buyuk ministr juda katta vakolatlarga ega edi. U xalifa nomidan davlatning daromad va xarajatlarini nazorat qilardi, amirlar va sultonlarni tayinlardi. U xalifa devonxonasi boshlig‘i hisoblangan. Saroydagi muhim mansablar:

⁹⁷ Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. -T.: “Toshkent Davlat yuridik instituti”, 2005. -B. 346.

xalifaning shaxsiy qo‘riqchilari boshlig‘i; politsiya boshlig‘i; boshqa mansabdor shaxslarni nazorat qiluvchi maxsus chinovnik edi.

Davlat boshqaruvining markaziy organlari devonlar deb atalardi. Arab xalifaligida quyidagicha devonlar bo‘lgan:

Al-Xiroj-ichki ishlar devoni - moliyaviy ishlarga rahbarlik qilgan;

Al-Xatim-xalifa kotibiyati hisoblangan, yashirin politsiya funksiyasini ham bajargan;

Al-Rasoil-pochta va aloqa devoni bo‘lgan. U pochталarni va davlat yuklarini yetkazib bergan. Yo‘llarni, karvonsaroylarni, quduqlarni qurilishiga rahbarlik qilgan;

Al-Mustaqilot-harbiylarni hisobga olish, armiyani ta‘minlab turish vazifasini bajargan.

Ushbu ko‘rsatilgan to‘rtta devon Umaviylar davrida tashkil topgan bo‘lsa, Abbosiylar davrida devonlarning soni 10 taga yetadi. Devonlarning boshida xalifa tomonidan tayinlanadigan ministr, ya‘ni rais-ud-devon turardi. Yuqoridagilardan tashqari, davlat xazinası-bayt-al-mol ham bo‘lib, u zakot solig‘ini undirish ishlarini yuritgan⁹⁸.

Dastlab armiya, asosan, arab qabilalaridan va ko‘ngillilardan iborat edi. Xalifa oliy bosh qo‘mondon hisoblangan. U armiyadagi oliy va o‘rta darajadagi zobitlar tarkibini tayinlagan va almashtirib turgan. Umaviylar davrida har bir viloyatning o‘z qurolli kuchlari (otryadlari) mavjud edi. Ularga tegishlicha viloyat hukmdorlari boshchilik qilgan. Abbosiylar davrida ulkan harbiy dengiz floti tashkil etiladi.

Sud hokimiyati ma‘muriy hokimiyatdan ajratilgan edi. Mahalliy hokimiyatlar sudyalarning qaroriga aralashish huquqiga ega bo‘lmaganlar.

Musulmon huquqi-shariat o‘rta asrlardagi Sharq sivilizatsiyasining juda katta hodisasi hisoblanadi. Bu huquqiy tizim Arab xalifaligi doirasida vujudga kelib, rasmiylashgan va asta-sekin xalqaro ahamiyat kasb etib borgan. Uning rivojlanish jarayoni arab davlatchiligining VII asr boshida (Muhammad sollollohu alayhi vassallam davrida) kichik patriarxal diniy

⁹⁸ Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. -T.: “Toshkent Davlat yuridik instituti”, 2005. -B. 346.

jamoadan VIII-X asrlarda (Umaviylar va Abbosiylar davrida) yirik imperiyalardan biriga o'sib o'tishi jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

Arab xalifaligi qulagandan so'ng musulmon huquqi o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qotmadi, balki yanada taraqqiy etdi, xuddi o'rta asrlarda Yevropadagi rim huquqi singari "ikkinchi marotaba dunyoga keldi" hamda o'rta asrlardagi Osiyo va Afrikaning u yoki bu darajada islomni qabul qilgan qator mamlakatlari (Misr, Hindiston, Usmoniylar imperiyasi va boshqa ko'pgina davlatlar)ning amaldagi huquqida ham musulmon huquqi arab istilosidan boshlab to "qizil imperiya" hukmronligi o'rnatilgunga qadar muhim o'zgarishlarsiz harakatda bo'ldi. Musulmon huquqi o'zidan oldingi Sharq huquqiy madaniyatining ko'pgina elementlarini, jumladan, islomga qadar Arabistonda va arablar tomonidan bosib olingan hududlarda harakatda bo'lgan huquqiy odatlar va an'analarni ham o'zida aks ettirdi. Masalan, Umaviylar davrida ancha vaqtgacha sosoniylar, Eron, Vizantiya huquqi, shuningdek, qisman rim huquqi ham ahyon-ahyon qo'llanib turilgan. Ushbu manbalar tashqi jihatdan va kam ahamiyatli bo'lsa-da, shariatning vujudga kelishida ma'lum o'rin tutgan. Lekin ularning oqibatda shariatning betakror va o'ziga xos, mustaqil va original huquqiy tizim sifatida shakllanishiga hech qanday aloqasi yo'q. Shariatning vujudga kelishida Muhammad (s.a.v) va dastlabki to'rtta xalifaning o'рни juda katta. Aynan ularning hukmronligi davrida musulmonlarning muqaddas kitoblari-Qur'oni Karim va Sunna tuzilgan.

Shariat eng boshidan (hech bo'l maganda dastlabki ikki asr mobaynida) qat'iy diniy huquq sifatida vujudga keldi va rivojlandi. U islom ilohiyoti bilan uzviy qo'shib ketdi, uning diniy axloqiy tasavvurlarini mujassam etdi. Islom ta'limoti bo'yicha diniy qoidalar o'rnatilgan bo'lib, ular bilan butun dunyo boshqarilgan. Ayniqsa, dastlabki vaqtlarda umuman shariat va xususan fiqh⁹⁹ o'zida faqat huquqiy qoidalarni aks ettiribgina qolmay, diniy ta'limot va axloqni ham mujassam etgan. Shariatda din, axloq va huquqning bunday qo'shib ketganligi, bir-biridan ajralmaganligi, bo'linmaganligi o'ziga xos ifodasini shundan topgan ediki, uning normalari (qoidalari, ko'rsatmalari) bir tomondan

⁹⁹ Fiqh (arabcha-tushunish)-musulmon huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi islom ilohiyotining bir sohasi.

ijtimoiy munosabatlarni tartibga solgan, ikkinchi tomondan esa-musulmonlarning bilan munosabalarini (ibodat qilishlarini) belgilagan. Shariatning ilohiy tadbiiq etilishi va diniy-axloqiy asoslari huquqni tushunishning, shuningdek, qonuniy va noqonuniy xatti-harakatga baho berishning o'ziga xosligida o'z aksini topgan. Masalan, huquqning islom ilohiyoti bilan chambarchas bog'liqligi shariatda har bir musulmon tomonidan sodir etilishi lozim bo'lgan yoki mumkin bo'lmagan xatti-harakatlarning aniq ko'rsatib qo'yilganligida o'z ifodasini topgan. Shariatda barcha xatti-harakatlar dastlab ikki turga-harom va halolga ajratilgan. Keyinchalik shariat shakllanib tugallangan davrda beshta toifa vujudga kelgan. Bular: farz- bajarilishi qat'iy majburiy hisoblangan xatti-harakatlar; mandub (sunnat)- majburiy emas, lekin ma'qul, lozim deb hisoblangan normalar; muboh-ixtiyoriy normalar; makruh-noma'qul normalar; harom-qat'iy ravishda taqiqlangan xatti-harakatlar. Bular ham huquqiy, ham axloqiy-diniy mazmunga ega bo'lib, majburlovchi, tavsiya qiluvchi, yo'l qo'yuvchi, lekin jazo qo'llanilmaydigan, taqiqlovchi va jazoga loyiq (mustahiq) xarakterdadir. Shariat me'yorlarining ilohiyligi, oldindan belgilab qo'yilganligi musulmonlar irodasining shariat doirasidagi erkinligi haqidagi masalaning juda katta ahamiyatini belgilaydi. Bu masalaga duch kelgan diniy-falsafiy maktablar turli mavqeni egallagan. Masalan, shunday maktablardan biri-jabariylar¹⁰⁰ inson irodasi erkinligini butunlay inkor etgan. Ular inson taqdirini xudo mutlaq oldindan belgilab qo'ygan, hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo'q, bular faqat xudoda mavjud, inson esa ana shu faoliyatni o'zlashtirib olish imkoniyatigagina ega, degan ta'limotni ilgari surganlar¹⁰¹.

Shariat uchun, ayniqsa uning rivojlanishidagi dastlabki bosqichlarda, musulmonning huquqlariga emas, balki uning oldidagi burchlariga e'tibor berish xarakterlidir. Shariatda musulmonlarning bunday majburiyatlarini o'rnatuvchi normalar juda ko'p bo'lib, ular musulmonning butun hayotini (har kuni besh vaqt namoz o'qishi, ro'za tutishi, dafn maorsimlariga rioya qilishi va hokazo faoliyatini) belgilaydi.

¹⁰⁰ Jabariylar (arabcha jabr qilish, majburlash degani) - VII asr oxiri va VIII asr boshida islom ilohiyotida paydo bo'lgan ilk oqim tarafdorlari.

¹⁰¹ Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. -T.: "Toshkent Davlat yuridik instituti", 2005. -B. 353.

Shariat normalarining o'ziga xos xususiyati aynan ushbu normalarning faqat musulmonlarga va musulmonlar o'rtasidagi munosabatlarga tadbiq qilinishida ekanligi ham tasodifiy emas. Ilk islom va shariatga jamoa tuzumidan o'sib chiqqan normalar, qoidalar xosdir. Bunday normalarda kollektivchilik, rahmdillik, mayib-majruh va boshqa nochor kishilar haqida g'amxo'rlik elementlari saqlanib qolgan edi. Biroq, albatta, shariatda insonning xudo oldida ojizligi haqidagi, unga so'zsiz itoat etishi haqidagi tasavvurlar ham o'z ifodasini topgan. Qur'oni Karimda musulmon uchun sabr-toqat va mo'minlik zarurligi alohida ta'kidlanadi: "Sabr qiling, sabr qiluvchilar bilan". Shu tariqa shariatda musulmonning xalifaga va davlat hokimiyatiga bo'ysunish majburiyati mustahkamlangan: "ga bo'ysuning va uning elchisiga va oralaringizdagi hokimiyat egalari itoat eting".

Shariatning dastlab o'ta ilohiy-diniy xarakterda bo'lganligi uning huquqiy tuzilishi va tushunchalarining o'ziga xosligini belgilagan, aql-idrokka asoslangan huquq ijodkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilgan. Biroq, VIII-IX asrlarda shariat patriarxal jamoa va qabilaviy idrok qilish doirasidan tashqari chiqib, feodallashayotgan ijtimoiy munosabatlar bilan to'qnash kelgan va juda ko'p musulmon ilohiyotchi huquqshunolarining faol sa'y-harakatlari sharofati bilan tobora ko'proq darajada aql-idrokka asoslangan huquq sifatida namoyon bo'la boshlagan. Musulmon huquqshunos olimlari shariatning asosiy va an'anaviy qoidalarini saqlab qolgan holda sof yuridik tabiatga ega bo'lgan ko'pdan-ko'p huquqiy ta'limotlar va normalar ishlab chiqdilar. Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit (699-767 yillar), Malik ibn Anas Abu Abdulloh (721-795-yillar), Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ash-Shofi'iy (767-820-yillar), Ahmad Abu Abdulloh ash-Shayboniy ibn Hanbal (tug'ilgan yili ma'lum emas 825 yillar) va boshqalar musulmon dunyosida juda mashhur va nufuzli bo'lganlar¹⁰².

Abu Hanifa sunniylikdagi hanafiya mazhabining asoschisi va imomi, ilohiyotchi fiqhshunoslardan biri bo'lib, shariat huquqini tartibga solgan, qiyosni tadbiq etgan, istihon (manbalar asosida chiqarish mumkin

¹⁰² Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. -T.: "Toshkent Davlat yuridik instituti", 2005. -B. 354.

bo'lgan xulosa yoki hukmlardan musulmonlar jamoasi uchun maqbulrog'i va foydalirog'ini qabul qilish) prinsipini ishlab chiqqan, mahalliy huquq normalarini (odatni) shariat bilan kelishtirib qo'llashni joriy etgan, huquqshunoslikka ratsionalizm elementlarini kiritgan. Undan yozma asarlar qolmagan, lekin ayrim manbalarga ko'ra, u "Buyuk huquqshunoslik" ("Al-fiqh al-akbar") nomli mashhur kitobning muallifi hisoblanadi.

Malik ibn Anas molikiya mazhabining asoschisi, ilohiyotchi faqihlardan biri bo'lib, islom diniy huquq tizimini ishlab chiqishda konservativ mavqeda turgan, Muhammad (s.a.v) davridagi an'analarni yoqlab chiqqan, ya'ni "ashob al-hadis" ("hadis tarafdorlari") oqimining yirik namoyondasi bo'lgan. Uning yagona asari - "Al-Muvatta" ("Ommaviy", "Barchaga tushunarli" ma'nosida) bo'lib, ilk hadis to'plamlaridan biri hisoblanadi.

Muhammad ibn Idris ash-Shofiy sunniylikdagi shofi'iya mazhabining asoschisi va imomi, ilohiyotchi faqihlardan biri bo'lib, Makkada ya-shagan, hadislar va fiqhni o'rgangan, 810 yildan Bog'dodda o'z ta'limotini targ'ib qilgan. Shofi'iy o'z asarlarida islom huquqini an'anaviy normalar bilan bog'lashga intilgan. U fiqh asoslariga to'la ta'rif bergan, ijmo'dan foydalanishga e'tibor qilgan. Uning asosiy asarlari shogirdlari tomonidan "Kitob al-umma" to'plami shakliga keltirilgan.

O'rta asrlardagi, ayniqsa, dastlabki paytlardagi, musulmon huquqini tavsiflovchi muhim belgilardan biri uning nisbatan yaxlitligi, butunligida edi. Unda yakkaxudo haqidagi tasavvurlar bilan birga universal xarakterga ega bo'lgan yagona huquqiy tartibot haqidagi g'oya ham o'rnatilgan. Darhaqiqat, dastlab Arabiston yarim orolida vujudga kelgan musulmon huquqi xalifalikning chegaralari kengaya borishi bilan ko'pdan-ko'p yangi hududlarga tarqalgan.

Biroq, musulmon huquqi, avvalo, hududiy emas, diniy, masjidlarga oid prinsip asosida maydonga chiqqan. Har bir musulmon u qayerda, qaysi mamlakatda bo'lishidan qat'i nazar, shariatga rioya qilishi, islomga sodiq qolishi lozim. Islomning asta-sekin keng tarqala borishi va jahon dinlaridan biriga aylanishi bilan shariat o'ziga xos jahon huquqiy tizimi

bo‘lib qolgan. Shariatning ana shunday yaxlit, bir butun huquqiy tizim sifatida maydonga chiqishi uning g‘arbiy Yevropa mamlakatlari huquqidan farq qiluvchi muhim jihatlaridandir. Ma’lumki, g‘arbiy Yevropa mamlakatlarida huquq xilma-xilligi, bir butun, yaxlit emasligi, harakat doirasining cheklanib qolganligi, ichki qarama-qarshiliklari va boshqa jihatlar bilan tavsiflanadi.

Shariat diniy huquq sifatida Yevropa mamlakatlaridagi kanonik (diniy, muqaddas, qat’iylashgan, o‘rnak bo‘lib qolgan) huquqdan ham farq qilib, ijtimoiy va cherkov hayotining faqat aniq ko‘rinib turgan sohalarinigina emas, balki keng qamrovli va juda ko‘p masalalarini o‘z ichiga olgan huquqiy tizim sifatida maydonga chiqadi. Musulmon huquqi-shariat, dastlab, Osiyo va Afrikaning bir qator mamlakatlarida o‘rnatilgan bo‘lsa, so‘ngra vaqt o‘tishi bilan uning harakat doirasi O‘rta Osiyo, Kavkaz orti, Shimoliy, shuningdek, qisman Sharqiy va G‘arbiy Afrikaga, Janubiy-Sharqiy Osiyodagi qator mamlakatlarga ham tarqaladi. Biroq islom va shariatning bunchalik shiddat bilan va keng tarqalishi unda tobora mahalliy xususiyatlarning namoyon bo‘lishiga olib kelgan. Buning natijasida alohida huquqiy institutlarni sharhlash va muayyan huquqiy nizolarni hal qilishda shariatda turli qarama-qarshiliklar, turli xil yondoshuvlar yuzaga kelgan. Oqibatda esa islomda turli oqimlar, yo‘nalishlar va mazhablar paydo bo‘lgan¹⁰³.

Arab xalifaligi ijtimoiy munosabatlarining o‘ziga xos tomoni shunda ediki, unda Yevropa mamlakatlaridagi singari tabaqaviy tuzum o‘rnatilmadi. Bu yerda aholi turli guruhlar huquqiy holatidagi o‘ziga xos belgi, avvalo, musulmonlar va nomusulmonlar, arablar va boshqa xalqlarning huquqlari noteng va har xil ekanligida edi.

Shariat bo‘yicha kishining huquqiy layoqati va muomala layoqati islomga e’tiqod qilishiga qarab belgilanadi. Musulmonlar musulmon bo‘lmaganlar oldida imtiyozli hisoblanadilar. Hatto qul musulmonlar erkin nomusulmonlarga nisbatan imtiyozli huquqlaridan foydalanadilar. Shariat bo‘yicha faqat musulmonlar to‘la huquqiy layoqatga ega. Boshqa dindagilar - zimmiylar to‘la huquqiy layoqatga ega emas, deb

¹⁰³ Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. -T.: “Toshkent Davlat yuridik instituti”, 2005. -B. 355.

hisoblanganlar. Ular islom davlatida musulmon hukmdorlarga tobe bo‘lib yashayotgan hamda o‘zlarining jon va mol-mulklarini musulmonlar omon saqlamoqlari uchun har yili juz‘ya solig‘i (jon solig‘i) to‘lab turmoqni o‘z zimmalariga olgan g‘ayridinlar hisoblanadi. Bu haqda Qur‘oni karimning 10-pora 9-Tavba surasining 29-oyatida shunday deyiladi: “ga va oxirat kuniga ishonmaydigan, va rasuli harom qilgan narsalarni harom sanamaydigan, haq din (Islom)ni din qilib olmaydigan ahli kitoblardan iborat kishilarga qarshi to ular o‘zlarini past tutib, jiz‘ya (soliq)ni naqd bermagunlaricha - jang qilingiz!”. Juz‘ya solig‘ini to‘lab turgan zimmiylar va musulmon hukmdorlar o‘rtasidagi ahdga qat‘iy rioya qilmoqlari haqida Payg‘ambarimiz hadislarini Imom Al-Buxoriy ham o‘z kitobida ta’kidlab o‘tgan¹⁰⁴.

Zimmiylarga nisbatan shariat normalari faqat ular musulmonlar bilan bitimlar tuzganlarida yoki jinoyat sodir etganlarida qo‘llanilgan. Boshqa hollarda, ular o‘z fuqarolik-huquqiy aloqalariga amal qilganlar va o‘z oqsoqollari tomonidan idora etilganlar. Zimmiylarning musulmonlar bilan nikohga kirishi, musulmonlardan qullarga ega bo‘lishi ta’qiqlangan. Ular ot minib yura olmaganlar, faqat xachir va kichkina eshaklarda yurishlari mumkin edi. Ular uchun yana boshqa bir qancha ta’qiq va cheklovlar mavjud edi¹⁰⁵.

Arab xalifaligida ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi qullarning huquqiy holatiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Musulmon huquqi bo‘yicha qullar huquq subyekti bo‘lmagan, lekin ular o‘z xo‘jayinlarining roziligi asosida erkin kishilar bilan shartnoma tuzishlari va mulkka egalik qilishlari mumkin edi. Musulmon qulni erkinlikka qo‘yib yuborish savobli ish hisoblangan.

Erkinlikni qo‘lga kiritgan qullar mavalilar deb yuritilgan. Lekin ularning erkinligi to‘liq bo‘lmagan. Ularning ahvoli xuddi Rim imperiyasidagi erkinlikka chiqarilgan qullarning ahvoliga o‘xshash edi. Mavalining mol-mulki u o‘lgandan so‘ng merosxo‘ri bo‘lmasa,

¹⁰⁴ Imom al-Buxoriy. “Hadis”., 2-jild, 1997. -B. 346.

¹⁰⁵ Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. -T.: “Toshkent Davlat yuridik instituti”, 2005. -B. 356.

xo‘jayiniga o‘tgan. Arablar tomonidan bosib olingan xalqlarning aholisi ham mavalilar deb atalgan.

Muhammad (s.a.v.) oliy sudya, cheklanmagan ijroiya va harbiy hokimiyatga ham ega edi. Zabt etilgan qabilalar unga itoat etishardi; u bilan shaxsan ittifoqlar tuzilardi. U aholining butun-butun guruhlarini quvg‘in qilish yoki ularni jazolash to‘g‘risida qaror qabul qilar, soliqlar va ularni undirib olish usulini belgilar, qo‘lga kiritilgan o‘ljalarini erkin tasarruf etardi. Muhammad (s.a.v) ning obro‘sig‘a doir mutlaq va shaxsiy o‘ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, u hech qanday kengash, hech qanday majlis o‘tkazishni joriy etmagandi. Aytilishicha, garchi u o‘z tevarak-atrofidagilardan tez-tez maslahat so‘rab tursa-da, lekin ularda hamisha tasodifiy va aslo majburiy bo‘lmagan tavsiyalar haqida gap borardi.

Butun ijtimoiy hayot masjid qonunlari doirasida borardi. Bu yerda barcha muhim davlat va jamoa masalalari hal etilardi, ommaviy ibodatlar o‘tkazilardi, hukmlar e‘lon qilinar va ijro etilardi. Masjidga tirkab qurilgan suffa deb ataluvchi zal o‘quv xonasi, masjid hovlisi esa harbiy o‘quv maydoni hisoblanardi.

Payg‘ambar (s.a.v) ning Madinada barpo etilgan davlatdagi davlat-huquq vaziyati o‘ziga xos darajada noyob va betakror edi, chunki Muhammad (s.a.v) Qur‘on bo‘yicha “ning payg‘ambari va payg‘ambarning so‘nggisidir”. Shu tariqa payg‘ambar lavozimini meros qilib olishga avval boshdanoq barham berilgan edi: Muhammadning (s.a.v) vakili sifatidagi mavqei faqat uning shaxsi bilan cheklangan bo‘lib, uning izdoshlariga meros bo‘lib o‘tishi mumkin emas edi. Lekin musulmon dinshunoslarining fikricha, Muhammad (s.a.v) yerdagi noib, ya‘ni musulmonlar jamoasi-ummaning yo‘lboshchisi sifatida bevosita o‘zi tomonidan e‘lon qilingan bo‘lib, uni faqat xalifalar meros qilib olishlari mumkin edi.

Arabcha-“xalifa” so‘zi merosxo‘r yoki o‘rinbosar ma‘nosini bildiradi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, xalifalar (arabcha “xillaafa”) diniy vazifalar bilan birga dunyoviy vazifalarni ham bajarardilar. Shu tariqa ular davlat va hukumat boshlig‘i, shuningdek, musulmonlar

ommaviy ibodatlarining ma'naviy rahbari ham edilar. Xalifa hokimiyatining manbai quyidagilar edi:

Birinchidan: uning musulmon jamoasi tomonidan saylanishi;

Ikkinchidan: xalifaning vasiyat tariqasidagi farmoyishi.

Vaqt o'tishi bilan haqiqiy real hokimiyatni qo'lga kiritish usuli odatdagi usulga aylandi. Xalifa o'z talabini qondirgan har qanday kishini o'ziga voris qilib tayinlashi mumkin edi. Xalifalar xalifa oilasining a'zolaridan biri bo'lishi yoki hech bo'lmasa Muhammad (s.a.v) payg'ambarning urug'idan, ya'ni qurayshlar qabilasidan chiqqan bo'lishi, kamolatga yetgan va tanasida kamchiliklar bo'lmasligi lozim edi. Bundan tashqari muayyan axloqiy sifatlarga va ma'lumot darajasiga ham ega bo'lishi talab qilinardi¹⁰⁶.

Muhammad (s.a.v) va uning to'rt bevosita merosxo'rlari davrida musulmon davlati vujudga kelishi tongotarida hukumatning shakli va vazifalari o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega bo'ldiki, ular keyinroq musulmon davlati huquqiy tizimining yanada rivojlanishini belgilab berdi. Keyinchalik tashqi ko'rinishi jihatidan bu davlatga Eron va Vizantiya ta'sir ko'rsatgan bo'lsa ham, ular muhim o'zgarishlarga olib kelmadi. Lekin musulmon davlatining aniq ifodasi: monarxiya shakli, hukmdorning shaxsiy obro'si va davlat boshqaruvining teokratik xarakterda bo'lishi namoyon bo'lib qoldi.

Xalifaning nufuzi muayyan hududga egalik qilishga yoki hukmronlikka emas, balki ishonch, umumiy manfaatlar kabi shaxsiy xislatlarga, o'zining yagona va noyob asoschi bilan aloqasiga asoslanardi: xalifa xudoning marhamati bilan hukmron bo'lgan edi. U o'sha vaqtda odat tusiga kirib qolgan va mavhum davlat obro'siga asoslangan dunyoviy unvonlardan birortasiga ega emasdi. Xalifa, demak, payg'ambarning noibi ediki, bu narsa favqulodda shaxsiy unurni anglatardi. Xalifa so'ngra tom ma'nodagi imom, ya'ni diniy marosimlar o'tkazilayotgan vaqtda ummaning yo'l boshchisi, nihoyat "dindorlarning boshlig'i" ("amir al-mo'minin" degan rasmiy unvonga ega bo'ldi, u birinchi navbatda harbiy-

¹⁰⁶ Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. -T.: "Toshkent Davlat yuridik instituti", 2005. -B. 358.

siyosiy ishlarga, ikkinchi navbatdagina xalifalikning diniy ishlariga e'tibor qilardi.

Amir unvoni aslida maxsus yoki favqulodda xususiyatga ega emas. "Amara"- buyurmoq so'zining ildizi va "amir" iborasi buyruq berishga, ayniqsa, harbiy ishda buyurish huquqiga ega bo'lgan har qanday shaxsni bildiradi. Masalan, har bir harbiy boshliq amir bo'lgan. Musulmon davlatidagi harbiy boshliq faqat dindorlarga qo'mondonlik qilganligi sababli uni ko'pincha amir al-mo'minin deb atashgan. Tez orada bu unvon, chamasi, ikkinchi xalifa Umar davridan boshlab musulmonlar jamoasi-ummaning oliy rahbariga berilgan. Demak, bu hol yuz bergach, u tezda rasmiy tus olgan va bu unvonga faqat xalifa haqli bo'lgan. Xalifa klassik musulmon davlati nazariyasiga ko'ra sof diktatorlik vazifasiga ega deb qabul qilinsa ham, o'z hukmronligini umma nomidan emas, balki bevosita olloh nomidan olib borgan.

Xalifa Umar dastlabki mustaqil sudyalarni tayinlaydi, harbiy nafaqalar uchun harbiy-qabila ro'yxatlarini joriy etadi. Harbiylarning bunday ro'yxatini tuzish xalifa tomonidan qaror qabul qilinganidan keyin zarur bo'lib qoldi. Mazkur qarorga binoan bosib olingan barcha yer-mulklar harbiylar o'rtasida taqsimlanishi kerak bo'lsa ham, muayyan yer soliq to'lash yo'li bilan avvalgi egalari mulki bo'lib qoladi. Davlat bu pullarni olib, o'z jangchilariga nafaqa to'laydi. Bu xuddi yer maydonlaridan olinadigan tovon-rentadan iborat edi. Bu arablarda katta yangilik bo'lib, ular boshqarishdagi rasmiyatchilik usullariga unchalik o'rganmagan edilar. So'ngra soliq tizimi hisoblash va hisobot tuzish ishlarini talab qilardi. Shu sababli bosib olingan yerlarda ularni joriy etishda ma'lum darajada Vizantiya va Eron tajribalaridan foydalanildi. Davlat yerlari va egalari tashlab ketgan yerlar bundan mustasno bo'lib, ular bevosita davlat mulki bo'lib qolardi.

Ma'ruza *mashg'ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri - "Kichik guruhlarda ishlash" interfaol usulidan foydalaniladi.*

Kichik guruhlarda ishlash-o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun talabalarni kichik guruhlarga

ajratib, berilgan topshiriqning yechish yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metoddir. Ushbu metod qo‘llanilganda talabalar kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. Kichik guruhlarda ishlash metodi qo‘llanilganda o‘qituvchi boshqa noan‘anaviy metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki, o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha talabalarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

Masalan,

1-guruh uchun savollar:

1. V-VI asrlarda Arabiston yarim orolida aholining e‘tiqod qilgan dinlari?
2. Aholi birlashib, uyushqoqlik bilan harakat qilishda islom dinining o‘rni bo‘lganmi?
3. Saroydagi lavozimlarni aytib bering ?

2-guruh uchun savollar:

1. Xalifa Umar davrida sud va harbiy sohalarda qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
2. Viloyatlarni boshqargan hokimlarni vazifa va majburiyatlari nimalardan iborat bo‘lgan?
3. Shariyat qonunlariga ko‘ra jazolar qo‘llanilganmi?

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Arablarning O‘rta Osiyoga bostirib kelishi va islom dinini mahalliy xalq ongiga singdirilishi haqida gapirib bering?
2. Islom dinining ma‘nosi haqida so‘zlab bering
3. Arablar davrida mahalliy va markaziy hokimiyatning roli qanday edi?
4. Aynan bu davrda soliq siyosatining mohiyati nimalardan iborat bo‘lgan?
5. Musulmon huquqining vujudga kelishi va uni amalda qanday darajada tadbiq etilganligini gapirib bering?
6. Arablar davrida ijtimoiy sohada qanday yangiliklar qilinganligini aytib o‘ting?

7. Arab xalifaligi tasarufiga kirgan hududlar?
8. Xalifa qandan vakolatlarga ega bo'lgan?
9. Arab xalifasi va unga bo'y sunuvchi noib o'rtasidagi munosabatlar haqida ma'lumot bering?
10. Xalifa so'zi qanday ma'noni anglatadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahbuba Xamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi (o'quv qo'llanma). Toshkent, "Sharq", 2005-yil.
2. Shamsuddinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. -T., "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi", 2009-yil.
3. Hasanov A. Makka va Madina tarixi. T., "Mehnat", 1992-yil.
4. Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. - T., "Toshkent Davlat yuridik instituti", 2005-yil.
5. Abdirahimova N.A, Isakova M.S, Sulaymonova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T., "Sharq", 2007-yil.
6. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. -T., Sharq, 2000-yil.
7. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T., "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012-yil,
8. Sagdullayev A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T., Akademiya, 2000-yil.
9. Alimova D.A, Rtveladze E.V. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., "Sharq", 2001-yil.
10. Sagdullayev A.S, Eshov B. O'zbekiston tarixi. II-nashr. -T., "Universitet", 1999-yil.

Axborot manbalari

11. www.ziynet.net
12. www.history.ru

9-Mavzu: Tohiriylar, Somoniylar davrida davlat boshqaruv tartiblari va harbiy qo'shin.

Reja:

1. Tohiriylar davlati tashkil topishidagi tarixiy shart-sharoit.
2. Tohiriylar davlatining davlat boshqaruvidagi unvon va mansablar.
3. Somoniylar davlatida davlat boshqaruv tizimi.
4. Mahalliy boshqaruv tartiblari.
5. Somoniylar davlatida harbiylarga berilgan e'tibor.

Tayanch tushunchalar: Ma'mun, Hirot, Horun ar-Rashid, Tohir ibn Husayn, sohibi xaros, hokim, garnizon, Seyiston, Ko'histon, qozi, Somon, Nasr, Ismoil, Devon, sohibi-ash shurot, Istaxriy, hojib, hojib ul-hojib, visoqboshi, Amir ibn Lays, Isfirjob, sharbatdor, dasturxonchi, Devoni ar-rasoyil, mirshab.

———Tohiriylar sulolasining ilk vakili bo'lmish Rozilik ibn Sayqal xalifa Horun ar-Rashid davrida Seyiston hokimi Abumuhammad Talx ibn Abdulloh qo'lida xizmat qilgan. Uning Musab, Husayn va Tohir degan o'g'illari bo'lib, keyinroq Tohir Hirotidagi Bo'shang shahrining hokimi bo'ladi. Ma'lumki, Horun ar-Rashid vafotidan so'ng uning katta o'g'li Amin xalifa bo'ladi. Ammo Horun ar-Rashidning kichik o'g'li Ma'mun (Ma'mun-laqabi, asli ismi Abdulloh) ham taxtga da'vogar edi. Shu bois 811 yildan boshlab aka-ukalar o'rtasida toj-u taxt uchun kurash boshlandi¹⁰⁷. Ushbu kurashda Tohir ibn Husayn Ma'mun qo'shinlariga boshchilik qilib 813 yilda Bag'dod shahrini egallaydi va Ma'mun xalifalik taxtiga o'tiradi. Ma'mun xalifa bo'lib olgach (813-833) Tohir ibn Husayn tez orada xalifalikning eng nufuzli kishilaridan biriga aylanadi va 815 yildan boshlab xalifalik qo'shinlarining bosh sarkardasi lavozimida ishlaydi¹⁰⁸.

821 yilda xalifa Ma'mun Tohir ibn Husaynni Xuroson viloyatiga noib etib tayinlaydi. Tohir Xuroson noibligining poytaxti qilib Nishopur shahrini tanladi. U Xuroson va O'rta Osiyo viloyatlarini (Tabariston, Jurjon, Ray, Kirmon, Xuroson, Seyiston, Movarounnahr janubi) mustaqil

¹⁰⁷ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.158.

¹⁰⁸ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.158-159

hokim sifatida boshqarib, 822 yilda xalifa nomini xutba namoziga qo‘shib o‘qishni taqiqladi. Bu esa ochiqdan ochiq xalifadan o‘zini mustaqil deb e’lon qilishni anglatardi.

Yuqoridagi voqeadan qat’i nazar, xalifa Ma’mun Tohirning o‘g‘li Talxa ibn Tohirni Xuroson noibi etib tayinlaydi. Zamonaviy adabiyotlarda berilishicha, mahalliy sulola vakillarini noib bo‘lib qolganligining sababi, xalifalikning aynan mahalliy hukmdorlarning kuchidan arablarga qarshi qo‘zg‘olonlarni bostirishida foydalanishi edi. Shuningdek, Xuroson noibining muhim vazifalaridan yana biri o‘ziga qarashli hududlarga ayrim viloyat hokimlarini saylash bo‘lgan. Jumladan, Tohir ibn Husaynning o‘zi Somoniylarni Samarqand, Farg‘ona va Shoshga hokim bo‘lishlarini rasman tasdiqlagan. O‘sha davrda Xuroson noibligiga quyidagi viloyatlar kirgan edi: Movarounnahr, Xorazm, Seyiston, Ko‘histon, Kermon, Ko‘mis, Tabariston va Jurjon. Ular hajmiga ko‘ra katta va kichik tumanlardan iborat bo‘lgan.

Tohiriylar mustahkam hokimiyat yaratish va qishloq xo‘jaligini tartibga solish borasida jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirdilar. Ular yangi kanallar bunyod etib suvdan foydalanishni yaxshilash choralari ko‘rdilar. Abdulloh ibn Tohirning buyrug‘i bilan o‘lkadagi yirik qonunshunoslar sug‘orish uchun foydalaniladigan suv taqsimoti qonunlari to‘plami Kitob al-kuniyni tuzdilar. Ushbu qonunlar yuzlab yillar mobaynida Movarounnahrda suvdan foydalanishdagi bahs-munozaralarni hal etishda asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tohiriylar shunday ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritganlarki, bu siyosat, asosan, aholining hukmron tabaqalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Misol uchun, bizga qadar saqlangan Tohir ibn Husaynning o‘g‘li Abdullohga yozgan xatida shunday deyiladi: “Shuni bilginki, boylik ko‘payib xazina to‘lib toshganda ham u daromad keltirmaydi. U fuqaro zarurati, ular haq-huquqlarini ado etishga, ularni tashvish va qarzlardan ozod etish uchun sarflangan taqdirdagina ko‘payadi, ortib boradi. Bu bilan xalq ommasining e’tibori qozoniladi shu bilan xalq farovonligi ta’minlansa, bu hokimlarga zeb beradi, davronning emin-erkinligi shu bo‘ladi, u shuhrat va qudrat bag‘ishlaydi, shu bilan birga agar shunday ish yuritsang, yer solig‘ini katta miqdorda undirish imoniyatiga ega bo‘lasan

va boyliging ortadi, kuch-qudrat egasi bo'lasan, qo'shin saqlaysan va hammani o'zingga maftun etasan". Tohir o'z o'g'lini mana shunday "mohirona" siyosat yurgizishga chaqiradi hamda Abdulloh ibn Tohir qaysidir ma'noda otasining maslahatlariga amal qilgan edi.

O'z davrida Abdulloh yirik yer egalari va davlat amaldorlari tomonidan ayrim yerlardagi dehqonlarga nisbatan bo'layotgan nohaqliklarni imkoniyat darajasida cheklashga harakat qildi. U dehqonlarning ahvolini birmuncha tartibga soluvchi maxsus farmon e'lon qildi. Manbalarning guvohlik berishicha, bu farmonda, jumladan shunday deyiladi: "Oллоh bizni ularning qo'li bilan boshqaradi, bizni ularning og'zi bilan olqishlaydi va ularga ozor berishni ta'qiqlaydi". Albatta, bu bilan Abdulloh butunlay ziroatkor-dehqonlarning manfaatlarini himoya qiluvchi hukmdor bo'lgan, deb bo'lmaydi. U "dehqonlarga ozor bermaslikni" talab qilishiga sabab, busiz davlat xazinasiga yetarli soliq kelib tushmas edi.

Ahvolni yaxshilash uchun ayrim harakatlar qilishgan bo'lishiga qaramay, Tohiriylar davrida aholi ko'pgina qatlamlarining, ayniqsa, ziroatkor-dehqonlarning ahvoli og'ir bo'lib qolaverdi. Misol uchun, 844 yilda Abdulloh ibn Tohir ziroatkor-dehqonlardan olingan xirojdan 48 mln. dirham to'plagan edi. Soliqlarning ko'pligi dehqonlarning qo'zg'olon ko'tarishiga olib kelgan, Tohiriylar bu qo'zg'olonlarni shafqatsizlarcha bostirib turganlar. Bu hol ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar bir qadar saqlanib qolganligini ko'rsatadi¹⁰⁹.

Manbalarda Tohiriylarning islomlashtirish siyosatida mustahkam turganliklari qayd etiladi. Ular huquqiy munosabatlarni islom peshvolariga tayangan holda rivojlantirganlar. Shuning uchun ham Tohiriylar islom dinini xalq orasida keng yoyish siyosatini davom ettirib, islom ruhoniylarini asosiy tayanch deb bilganlar. Talxa ibn Tohir davrida zardushtiylik dini saqlanib qolgan Usturushonada ham islom dini qabul qildirilgan.

O'z hukmdorlik yerlarida mustahkam tartib saqlanishini xohlagan Abdulloh ibn Tohir o'ziga qarshi har qanday harakat yoki qo'zg'olonning oldini olishning eng muhim usuli-soliq yig'uvchilarning

¹⁰⁹ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.159.

suiste'molliklariga yo'l qo'ymaslikda deb hisoblar edi. U turli soliqlarning miqdorini kamaytirmagan bo'lsa-da, soliqlar yig'ishda turli jinoiy ishga qo'l urganlarni jazolar edi. Amal va mansab egalarining o'zboshimchaligining oldini olish va davlat xazinasiga ziyon yetkazmaslik maqsadida Abdulloh o'z qo'l ostidagi o'ziga sodiq kishilar orasidan ayg'oqchilar tanlab, ularning xizmatidan foydalanar edi. Bunday maxfiy shaxslar joylarda hukmdorlarning yurish-turishi, har bir mansabdorning Abdulloh oldidagi majburiyatlarini qay darajada bajarishlari xususida noibga xabar yetkazib turishgan. Demak, amaldor xoh viloyat hokimi bo'lsin, xoh yirik dehqon bo'lsin, Abdullohning nazorati ostida bo'lgan.

Tohiriylar davlati ko'p sonli bilimdon amaldorlarga muhtoj edi. Shu bois Abdulloh ibn Tohir aholining barcha qatlamlari ma'lumot olishini ta'minlashga harakat qiladi. Manbalarning ma'lumot berishicha, Abdulloh otasi Tohir singari shoir bo'lgan. Abdullohning Marv, Amul va Xorazmni boshqarib turgan jiyani Mansur o'zining falsafiy asarlari bilan mashhur bo'lgan. Abdullohning o'g'li Tohir II ham otasidan o'rnak olishga harakat qilgan.

Umuman, Abdulloh va Tohir II hukmronliklari davri mahalliy madaniyatning qayta tiklanish davri bo'ldi. Ammo, bu o'ta murakkab va qiyin jarayon edi. Gap shundaki, Tohiriylar sulolasi vakillarining o'zlari, xususan, Abdulloh ibn Tohir o'zining arab madaniyatiga xayrixohligini ta'kidlar edi. Shunga qaramasdan bizga qadar yetib kelgan ayrim yozma manbalar va moddiy ashyolar mahalliy madaniyat rivojidan dalolat beradi.

Tohiriylar sulolasi hukmronligi davrida davlat boshqaruvidagi lavozimlar quydagicha bo'lgan:

Sohibi xaros-xalifaning buyruq va farmonlarini bajaruvchilar, unga tobe hukmdorlar. Xalifalikning sodiq noibi sifatida tohiriylar ham davlatni Sohibi xaros sifatida boshqarganlar.

Hokim-tohiriylar davlatida viloyat rahbarlari.

Qozi –mayda mulk egasi, bir hududda uy qurgan yirik zamindor o'rtasidagi nizo-janjalni yoki suv inshootlaridan foydalanishdagi munozarali masalalarni shariat qoidalari asosida hal qilgan.

Said- payg'ambarimiz avlodlari hisoblanib shahar yoki qabilalar ittifoqining rahbari bo'lgan.

Iqtodor-tohiriylar davrida xalifalik oldida alohida xizmatlari uchun beriladigan yer-mulkdir. Asosan harbiy shaxslar va amaldorlarga berilgan.

Tohiriylar sulolasi (821-873 yy) hukumdorlari.

- Tohir ibn Husayn (821-822)
- Talxa ibn Tohir (822-828)
- Abdulloh ibn Tohir (830-844)
- Tohir II ibn Abdulloh (844-862)
- Muhammad ibn Tohir (862-873)

IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar sulolasi hukmronligi o'rnatilgan. Bu sulolaga Somon qishlog'i (manbalarda-Balx yaqinida, Samarqand atroflarida, Termiz yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos soladilar¹¹⁰. Yirik yer egasi bo'lgan Somonxudot Ma'mun ibn Horun ar-Rashidning Xuroson noibligi davrida uning xizmatiga o'tib tez orada e'tiborga tushadi. Somonxudotning o'g'li Asad hamda nabiralari ham Ma'mun saroyida xizmat qilishgan. Shaxsan Ma'munning buyrug'i bilan Xuroson noibi Asadning o'g'illarini 819-820 yilda turli viloyatlarga noib etib tayinlanadi. Xususan, Nuh Samarqandni, Ahmad Farg'onani, Yahyo Shosh va Ustrushonani, Ilyos Hirotni boshqara boshlaydilar¹¹¹.

Dastavval, Asadning katta o'g'li Nuh ukalari mulklarini birlashtirib, xalifalikdan mustaqil davlat barpo etish harakatini boshladi. Chunki Nuhning nomidan tangalar zarb etilgani ma'lum. Nuh vafotidan so'ng ukasi Ahmad uning ishlarini davom ettirib asta-sekin Movarounnahrni Somoniylar sulolasi boshchiligida birlashtirishga kirishadi. Tohiriylar Ahmadning bu harakatlariga qarshilik ko'rsata olmadilar. 865 yilda Ahmad vafot etgach ko'pchilik Somoniylar tomonidan sulola boshlig'i sifatida Ahmadning o'g'li Nasr tan olinadi.

¹¹⁰ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.163.

¹¹¹ Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Х. Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тарихи I-Қисм. -Т.: "Академия", 2000. -Б.87.

873-yilda Buxoro shahri va uning atroflarini Tohiriylarning so‘nggi vakili Muhammad ibn Tohir bosib oldi va hududlarga soliqlar soldi. Bundan g‘azablangan xalq Muhammadga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardilar. 874 yilda Muhammad ibn Tohir Xorazm shaharlarni talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari Nasrdan Buxoroga noib yuborishni iltimos qiladilar¹¹². Nasr Buxoroga Ismoil ibn Ahmadni hokim qilib jo‘natadi. Nasr Ismoilni o‘z noibi deb hisoblar edi. Ismoil ibn Ahmad Buxoroda o‘z hokimyatini mustahkamlab olgach, Samarqandga yuboriladigan soliqni yubormay qo‘ydi hamda akasiga tobe bo‘lishni istamadi. Natijada 886-yilda aka-ukalar o‘rtasida birinchi to‘qnashuv bo‘lib, Ismoil yengildi va u vaqtincha Buxoro noibligidan tushurildi. 888-yildagi ikkinchi jangda Ismoil Nasr qo‘shinlarini tor-mor etishga muvaffaq bo‘ldi¹¹³. 892 yilda Nasr vafot etgach Ismoil Movarounnahrning yagona hukmdori bo‘lib qoldi. Poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko‘chirildi. Ismoil Somoniy 893 yilda ko‘chmanchi turk qabilalari ustiga yurish qildi. Dastlab Tarozni (hozirgi Jambul) ni egalladi va turklarning 10 ming askari bilan birga asir oldi. Ismoil Taroz shahridagi xristan qasrini musulmon masjidiga aylantirdi¹¹⁴. Keyin esa Ustrushonani egallashga muvaffaq bo‘ldi.

Bag‘dod xalifasi al-Mutadis (892-902 yillar) Ismoilning qudrati oshib ketayotganidan sarosimaga tushib 898 yilda Movarounnahr noibligidan Ismoilni tushirib uning o‘rniga safforiy Amir ibn Laysni hokim etib tayinlash haqida yorliq jo‘natadi¹¹⁵. Movarounnahr noibligi to‘g‘risidagi yorliqni olgach Amir ibn Lays Ismoilga qarshi qo‘shin tortadi. 900 yilda Balx atroflarida Ismoil Safforiylar qo‘shinlarini tor-mor etdi. Manbalar ma’lumotlariga ko‘ra Ismoilni nafaqat Buxorodan, balki Xorazm va Farg‘onadan ham kelgan harbiy kuchlar qo‘llab- quvvatlagan edilar. Narshaxiyning ma’lumot berishicha, Ismoil bu jangda Buxoro hunarmadlarining va oddiy xalqning qo‘liga qurol berib o‘z ozodligini saqlab qolishga chaqirgan. Keng xalq ommasining qo‘llab-quvvatlashi

¹¹² Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob. -T.: “Sharq”, 2010. -B.162.

¹¹³ Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Х. Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тарихи I-Қисм. - Т.: “Академия”, 2000. -Б.88.

¹¹⁴ Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob. -T.: “Sharq”, 2010. -B.170.

¹¹⁵ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.163.

natijasida Ismoil Somoniy arab bosqinidan keyin birinchi bo'lib o'zaro janglarga botgan, bosqinchilar tomonidan talangan o'lkani qudratli va mustaqil davlatga aylantirishga erishdi. Shu tariqa Ismoil Movarounnahr va Xuroson, Eronning sharqiy va shimoliy viloyatlarini o'z ichiga oluvchi yirik davlatga asos soldi va hududlarda Arab xalifaligi hukmronligiga barham berildi.

Shunday qilib, Farg'ona, Isfirjob (Sayram), Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chag'aniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, G'azna kabi qator viloyatlar Somoniylar hokimyatini tan olishga majbur bo'lgan edilar. Ismoil somoniy yirik yer egasi bo'lib, mahalliy zodagonlar va savdogarlarga tayanib davlatni idora qilgan. Lekin Ismoil ham, boshqa somoniylar ham ichki ijtimoiy ziddiyatlarni yo'qota olmadilar. Buning natijasida dehqonlarning yer egalariga qarshi chiqishlari bo'lib turgan. Bundan tashqari ayrim chekka viloyatlar hokimlari markazlashtirish siyosatiga qarshilik qilib turganlar.

907 yilda Ismoil Somoniy vafot etib taxtni uning o'g'li Ahmad ibn Ismoil egalladi. Ahmad uzoq vaqt hukumronlik qilmadi (907-914 yillar)¹¹⁶. Uning davrida davlatni idora etishda arab tilini qayta tiklanishi ko'pgina mahalliy zodagonlar va turk g'ulomlarining noroziligini uyg'otdi. Natijada u 914 yilda turk g'ulomlari tomonidan o'ldirilib, taxtga uning 8 yoshli o'g'li Nasr ibn Ahmad o'tirdi va u balog'atga yetguncha davlat ishlarini vazir Abdulloh Jayhoni boshqarib turdi.

914 yil oxirida Samarqandda yana qo'zg'olon ko'tarildi. Davlatning janubiy hududlarida bo'lgan Husayn ibn Ali Marvoziy rahbarligidagi qo'zg'olon, ayniqsa, keskin tus oldi. Bu qo'zg'olon qarmatlar g'oyasi bayrog'i ostida bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olon 918 yilda bostirilib Marvoziy asir olindi. Ko'p o'tmay Nasrning qarindoshi Ahmad ibn Nuh hokimiyatga qarshi bosh ko'tardi. Qo'zg'olon va isyonlar Somoniylar davlatining qudratiga ta'sir ko'rsatib, u asta-sekinlik bilan inqirozga yuz tuta boshladi.

¹¹⁶ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.164.

Nasr II davrida Registon maydoni atrofida devonlar uchun maxsus 10 ta devon bino qilingan edi¹¹⁷.

Ta'kidlash lozimki, Nasr ibn Ahmad hukumronligi davrida Somoniylar davlati hududlarida qarmatlar harakati ancha keskin tus oldi. Qarmatlar islomni yoyilishiga, yer egaligi munosabatlarini kuchayishiga qarshi chiqdilar va ilgarigi an'analarni, qishloq jamoalarni qayta tiklashni yoqlab chiqqan edilar. Shuning uchun ham bu harakatni keng xalq ommasi qo'llab-quvvatladi. 943 yilda taxtga o'tirgan Nasrning o'g'li Nuh qarmatlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. Ularning mol-mulklarini musodara qildi. Bu voqealar X asr o'rtalarida Somoniylar davlatining siyosiy qudratiga putur yetkazdi¹¹⁸. Nuh hukmdorligi davrida Somoniylar davlatining inqirozi yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Bo'shab qolgan xazinani to'ldirish maqsadida Nuh soliqlar miqdorini ko'paytirdi. Bu xalq noroziligini yanada oshirdi. Xalq norozolidan foydalangan Nuhning amakisi Ibrohim ibn Ahmad Xuroson noibi Abu Ali Chag'oniy yordamida vaqtincha Buxoro taxtini egallab olishga muvaffaq bo'ldi. Abu Ali Chag'oniy Xurosonga qaytgach Nuh yana Buxoro taxtiga qaytdi va isyonkor qarindoshlarini qattiq jazoladi. Lekin somoniylarning Abu Ali Chag'oniy bilan kurashi keyingi yillarda ham davom etdi.

Soliqlarning yil sayin ko'payib borishi, zodagonlarning o'zaro janjallari, noiblarning markazga bo'ysunmay qo'yishi va saroyda bo'layotgan taxt uchun kurashlar somoniylar davlatini juda zaiflashtirib yubordi.

Bu kurashlar ayniqsa Amir Mansur ibn Nuh II (976-997 yillarda) hukmronligi davrida keskin tus oldi¹¹⁹. Ichki nizolar oqibatida Nuh II Yettisuv va Qoshg'arda vujudga kelgan Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrda qilgan yurishlariga keskin qarshilik qilolmadi. Somoniylar davlatidagi beqarorlikdan foydalangan Qoraxoniy Horun Bug'roxon 990 yilda G'arb tomon qo'shin tortdi va ikki yil davomida Somoniylarga qarashli bir qancha viloyatlarni bosib oldi. Shundan so'ng somoniylar davlati o'zini tiklay olmadi. 997-yili Nuh II ham Sobuqtegin

¹¹⁷ Асқаров А. Ўзбекистон халқлари тарихи. -Т.: "Фан", 1992. -Б. 98.

¹¹⁸ Асқаров А. Ўзбекистон халқлари тарихи. -Т.: "Фан", 1992. -Б. 99.

¹¹⁹ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б. 168.

ham vafot etadi. Nuh II ning o'gli Mansur ibn Nuh (997-999 y) ga qarshi Nishopur hokimlari Bektuzin va Foyiq isyon ko'tardilar¹²⁰. Buxoroda Somoniylar hokimiyatini ag'darib tashlash uchun 999-yilda qoraxoniylardan bo'lgan Nasrxon o'z qo'shinlari bilan shaharga bostirib kiradi¹²¹.² Somoniylarning so'nggi hukmdori Abu Ibrohim Muntasir 1005-yilda o'l diriladi hamda Movarounnahr va Xurosondagi somoniylarga tegishli bo'lgan hududlar qoraxoniylar va g'aznaviylar tomonidan bo'lib olinadi.

Dargohdagi mansab va unvonlar tartibi:

Amir-davlatni boshqaruvchi oliy hukmdor.

Xojibi buzrug (ulug' hojib)-saroydagi eng ulug' mansabdor bo'lib, unga saroy ahliga ko'z-quloq bo'lib turish vazifasi yuklatilgan edi.

Sohibi xaros (saroy soqchilari boshlig'i)-amiri xaros oliy hukmdor farmonlarini ijro etuvchi bo'lganligi sababli, odamlar undan hukmdordan ko'ra ko'proq qo'rqar edilar.

Bosh hojib-dargoh hamda boshqa muhim davlat idoralarining xafsizligini amalga oshirish xizmatini olib borgan.

Vakil-saroydagi barcha xo'jalik ishlarini boshqargan. Bu lavozim saroydagi eng e'tiborli kishilardan biri hisoblangan.

Sharbatdor- amir sharobxonasining boshlig'i.

Dasturxonchi-amirning oziq-ovqatiga javobgar shaxs bo'lgan.

Tashtadorlar-amir hammomlari va hovuzlarining boshlig'i. Uning qo'l ostida bir necha mulozimlar bo'lgan. Tashtadorlar amirga juda yaqin odamlar bo'lgan.

Ot boqarlar- amir otxonalari boshlig'i. U amirga qarashli minib yuriladigan otlarga egalik qilgan.

Xo'jalik bekasi-saroydagi xo'jalik ishlarini bajargan.

¹²⁰ Муртазаев Р.Х. Ўзбекистон тарихи. -Т.: 2005. -Б.138.

¹²¹ Баракаев Ж., Хайдаров Й. Бухоро тарихи. -Т.: "Ўқитувчи", 1991. -Б. 43.

Devondagi mansab va unvonlar:

Vazir yoki Xo‘jayi kalon-davlatdagi barcha ma‘muriy, siyosiy va xo‘jalik muassasalarini nazorat qilgan. Bundan tashqari barcha harbiy kuchlarni ham boshqargan.

Mustavfi-moliyaviy ishlar ustidan nazorat olib borgan. U xazinani ham boshqargan.

Amid al-mulk-elchilik ishlari va muhim davlat ishlarini boshqargan.

Sohibi ash-shurot-sipohiylar va shoh saroyining moddiy ta‘minoti bilan shug‘ullangan. Lashkar va sipohiylarga maosh bergan va ayni vaqtda harbiy intizomni ham bevosita kuzatib borgan.

Xazinador-devon mustavfini boshqargan bo‘lib uning ixtiyorida hisobchilar, munshiy va kotiblar, daftardorlar bo‘lgan.

Sohibi al-barid-davlatda elchilik va hokimlar ustidan maxfiy nazorat ishlarini bajargan.

Muxtasib-bozorlarda tosh-tarozi va narx-navolarni, ayni vaqtda aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilinishini nazorat qiluvchi shaxs bo‘lgan. Aniqlangan har qanday holat bo‘yicha jinoyatchilar va tartibbuzarlar o‘sha joyning o‘zidayoq jazoga tortilgan.

Mushrif-xazina kirim-chiqimi va boshqa muhim davlat ishlarini nazorat qilgan.

Shayxulislom-davlatdagi barcha din bilan bog‘liq masalalarni rahbari hisoblangan.

Ustod-davlatdagi barcha ruhoniylar rahbari. Keyinchalik shayxulislom nomi bilan tilga olingan.

Xatib-ustoddan so‘ng o‘z lavozimi bo‘yicha turadigan diniy lavozim. U jome’ masjidlarida juma namozida xutba o‘qish huquqiga ega bo‘lgan.

Davlatda faoliyat yuritgan devonning nomlari va vazifalari:

Vazir devoni yoki xojayi kalon-eng muhim devon. Ushbu devon bosh boshqaruv mahkamasi ahamiyatiga ega edi, ya‘ni davlatning barcha siyosiy va xo‘jalik muassasalari ustidan nazorat qilgan, devonlar boshliqlariga rahbarlik qilgan.

Mustavfiy devoni-davlatdagi moliya va davlat xazinasini ustidan nazorat qilgan.

Devoni ar-rasoyil-hujjatlarni rasmiylashtirish devoni. Ushbu devon davlat hujjatlarini ishlab chiqish va diplomatik aloqalar bilan shugʻullangan.

Devoni sohibi al-ushrot-ushbu devon maxsus saralangan harbiy qismlarga boshchilik qilish, ularning tayyorligi, tartib-intizomi, oziq-ovqat, xoʻjalik va moliyaviy taʼminoti ishlari bilan shugʻullangan.

Devoni sohib al-barid-xat-xabar devoni. Ushbu devon markazda qabul qilingan qarorlar, rasmiy hujjatlarni viloyat, shaharlarga yetkazish va joylardan markazga yetkazish bilan shugʻullangan. Mazkur devonning joylardagi boʻlimlari mahalliy davlat idoralari, hukmdorlar faoliyati haqida maʼlumotlar toʻplab, bevosita dargohga yuborish imkoniga ega edi^{122, 1}.

Devoni muhtasib-ushbu devon shahar va qishloqlarda, koʻcha va bozorlarda tartibni nazorat qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslikni taʼminlagan.

Devoni mushrif-ushbu devon dargoh taʼminoti bilan bogʻliq xazina sarf- xarajatlari ustidan nazorat olib borish bilan shugʻullangan.

Devoni az-ziyo- davlat mulklari devoni. Mazkur devon hukmdor sulolasiga tegishli mol-mulk, davlat yerlarini boshqarish, nazorat qilish va hisob-kitob olib borishi bilan shugʻullangan.

Devoni vaqf-ushbu devon bir shaxs yoki davlat tomonidan ehson maqsadida musulmon ulamolari ixtiyoriga berilgan mol-mulk, yer-suv, yaʼni vaqf ishlari bilan shugʻullangan.

Devoni qozi-mazkur devon qozilarning faoliyatini nazorat qilish bilan shugʻullangan.

Mahalliy boshqaruv tartiblari.

Hokim-viloyat boshligʻi. Oliy hukmdor tomonidan tayinlangan va vazifasidan olib tashlangan.

¹²² Abdurahimova N.A., Isakova M.I., Suleymanova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T.: "Sharq", 2007. -B. 15.

Rais-shaharlar boshlig'i. Hokim tomonidan tayinlangan va vazifasidan olib tashlangan.

Mirshab-shaharlardagi tartib-intizomga mas'ul shaxs hisoblangan.

Mirshabboshi-mirshablar rahbari. Shahardagi tartib-intizomning bevosita rahbari hisoblangan.

Ilk o'rta asrlar davrida natural xo'jalik va mulkdorlarning bosh-boshdoqligi katta muntazam qo'shin saqlash imkonini bermagan. Bu davrdagi harbiy hokimiyat bevosita yer-mulk bilan bog'liq edi. Yirik mulkdorlar o'zlarining kichik harbiy qismlariga ega bo'lib, faqat harbiy harakat vaqtidagina bir qadar yirik lashkarlar qo'shini tuzilgan. Bu holni Movarounnahrning o'rta asrlardagi barcha mayda mulklarida ham uchratish mumkin edi. Faqatgina Somoniylar davrida mulkchilikning rivojlanishi, shaharlarning o'sishi, davlat boshqaruvining markazlashuvi bilangina Somoniylar saroyidagi ko'p sonli xos qism (gvardiya) asosida muntazam yollanma qo'shin tashkil qilish imkoni tug'ilgan. Viloyat va tumanlardagi mahalliy hokimlarga tegishli lashkarlar ancha vaqtgacha mavjud bo'lgan¹²³.

Somoniylar qo'shini doimiy, muntazam, xos qism va muvaqqat lashkarlarga bo'lingan. Davlat va shoh saroyi hayotida turk g'ulomlaridan tuzilgan saroy gvardiyasi katta rol o'ynagan. Gvardiya tevarak atrofdagi Markaziy Osiyo viloyatlarining harbiy jihatdan yaxshi ta'lim olgan yoshlaridan tarkib topgan¹²⁴.

Somoniylar davrida saroy g'ulomlarining tartib-qoidalari quyidagicha bo'lgan: g'ulomlarning mansablari xizmatlarining katta-kichikligi, obro'-etiboriga qarab asta-sekin, darajama-daraja oshirib borilgan; g'ulomni sotib olgach, unga bir yil mobaynida piyoda askar bo'lib xizmat qilishni buyurishgan va u zandonichidan tayyorlangan qabo (ustki kiyim, chakmon) kiyib mulozimlar safida yurgan. Bu g'ulomlarga yashirin yoki oshkora suratda shu yil ichida otga minishga ruxsat etilmagan. Agarda otga minganliklari bilib qolinsa, ular jazolanganlar. Shunday suratda bir yil xizmatni o'tagach, visoqboshi hojib bilan

¹²³ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: "Давлат илмий нашриёти", 2018. -Б.238.

¹²⁴ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: "Давлат илмий нашриёти", 2018. -Б.239.

gaplashgan; hojib g'ulomga yugan va oddiy tasma berish haqida ko'rsatma bergan.

Qachonki u ot va qamchi bilan yana bir yil xizmat qilgach, kelgusi yili unga beliga o'rash uchun qorajo'r (qiyiqcha) berilgan. Beshinchi yilga kelib unga yaxshi egar, yulduzlar shakli bilan naqshlangan yugan, doroi qabo va gurzi berilgan, gurzini u halqaga ilib qo'ygan. Oltinchi yili u anvoi kiyim, yettinchi yili bir qubbali, 16 qoziqli chodir ilgan, uning ixtiyoriga uchta g'ulom berilgan va u visoqboshi deyilgan. U qora kigizga nuqra (kumush) bezaklar tikilgan qalpoq va ganja qabosi kiygan. Yil sayin uning obro'-e'tibori, bezagi, qo'shini, unvonlari oshib xaylboshi, so'ng hojib bo'lgan. Garchi uning fazilatlari va ulkan xizmatlari bo'lsaham, odamoxun va hojasiga muhabbatli bo'lsada, toki 37 yoshga yetgunga qadar unga amirlik mansabi hamda yer-mulk ajratib berilmagan. Somoniylarning quli va tarbiyalanuvchisi bo'lgan Alptegin 35 yoshda Xurosondagi sipohsolorlikni olgan. U 2700 jangchi g'ulomga qo'mondonlik qilib, Movarounnahr va Xurosonda ulkan boylikka egalik qilgan¹²⁵. Xos qism bilan bir qatorda, lozim bo'lganda yana Movarounnahr va Xurosonning ayrim mahalliy viloyat hokimlaridan ko'p sonli lashkarlar to'plangan. Ishtaxriyning xabar berishiga qaraganda, mamlakat ayrim okruglarga (kulob) ajratilgan bo'lib ular lashkar uchun ma'lum miqdorda jangchilar ajratishgan. Lashkarlarning harbiy qobiliyati yuqori edi. Lashkar tashqi harbiy xavf tug'ilganda, ichki nizolar, isyonlar paytida va ko'chmanchilarga qarshi yurish tashkil etilayotganda to'plangan. Lashkarlar o'z hisobidan, mahalliy hokimlar hisoblaridan ta'minlangan va davlat qaramog'ida bo'lgan. Qurol-aslaha va oziq-ovqat bilan ta'minlash bevosita ma'lum vazifaga bog'liq edi.

Qo'shin tarkibida turkiy ko'chmanchi qabilalardan tuzilgan yollanma qismlar ham bo'lgan. Chegarani mahalliy hokimlar lashkarlari va g'oziyalar harbiy bo'linmalari himoya qilgan.

Davlat hokimiyatining asosiy tayanchini Somoniylarning ko'p sonli turkiy gvardiyasi tashkil qilgan. Zaruriyat tug'ilganda somoniy amirlari viloyat va tumanlardan ko'ngilli lashkarlardan katta qo'shin

¹²⁵ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: "Давлат илмий нашриёти", 2018. -Б.240.

to'plashgan. Biroq keyinchalik somoniylar mehnatkash xalq ommasining ko'magidan mahrum bo'la borishlari va mulkdorlar separatik harakatlarning kuchayishi bilan mahalliy lashkarlar markaziy hokimiyatga xavf tug'dira boshlagan, shu sababli hokimiyat endilikda to'liq ravishda jangovar turkiylardan olinadigan gvardiyaga tayana boshlagan. Gvardiyaning mahalliy aholi bilan umumiy manfaati o'xshash emasdi, ular maoshni markaziy xazinadan olardi, shuning uchun somoniylarning ancha ishonchli tayanchi edi.

Lashkarlar harbiy xizmatni o'tash chog'ida,-deb yozadi Ibn Havqal, oziq-ovqat bilan yaxshi ta'minlanadi, hukumat ularga g'amxo'rlik qilib turadi. Mamlakat urush xavfi ostida qolgan taqdirda yoki mamlakatda urush boshlanganida shu lashkarlar hukumat ta'minotidan tashqari ma'lum darajada o'z mablag'lari bilan ham o'zlarini ta'minlab turganlar. Maqdisiy somoniylar davlatining yarim mustaqil viloyati bo'lgan Chag'oniyon viloyatini tasvirlab, bu viloyat "o'n mingga yaqin lashkarni o'z kiyim-kechagi, ozig'i va o'z otlari bilan yetkazib berar edi",¹²⁶ deb yozadi. Lashkarlarning ta'minlanishi, aftidan, aniq vaziyatga bog'liq bo'lsa kerak: ba'zi viloyatlarda lashkarlar o'zlarini ko'proq, ba'zida kamroq ta'minlab turgan bo'lishlari mumkin. Harbiy yurishlar vaqtida esa ularni asosan hukumat ta'minlab turganlar.

Harbiy lavozimlar va mansablar:

Hojib ul-hojib-somoniyalarda bosh qo'mondonlik qilgan. Bu lavozimga turkiylardan tayinlangan.

Sipohsolor-amirlikda qo'shin qo'mondoni.

Ariz-somoniyalarda qo'shin ta'minoti bilan shug'ullanuvchi shaxs

Pushtig'bon- tan soqchilik qilgan. Faqat amirga bo'ysungan va amirni himoyalagan.

Hojib-harbiy boshliq yoki zobit.

Xaylboshi-o'nlik tizim zobiti.

Visoqboshi-to'rt nafarli askariy guruh boshlig'i, chodir boshlig'i. Bahodir Eshovning o'zbek davlatchiligi va boshqaruvi tarixi kitobida

¹²⁶ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: "Давлат илмий нашриёти", 2018. -Б.241.

shunday yozilgan. Nizomulmulkning Siyosatnoma asarida yozilishicha, unga uch nafar gʻulom berilgan. Bundan tashqari oʻn olti qoziqli chodir berilgan. U qora kigizga nuqra (kumush) bezaklar tikilgan qalpoq va ganja qabosi kiygan.

Sud-huquq organlaridagi mansab va unvonlar:

Qozikalon-davlatdagi barcha huquqiy masalalar bilan shugʻullangan.

Muftiy-diniy masalalar boʻyicha fatvo chiqaruvchi shaxs. Bundan tashqari sud ishlarida asosiy maslahatchi hisoblanadi.


Qozi –viloyatlardagi sud ishlarini amalga oshiradigan shaxs.

Rais-sud ishlarida qatnashadigan asosiy shaxslardan yana biri.

Somoniylar sulolasi vakillarining noibligi (819-875). Somoniylar davlat (875-1005 yy) hukumdorlari.

- *Nuh ibn Asad (819-842)
- *Ahmad ibn Asad (842-864)
- *Nasr I ibn Ahmad (865-892)
- *Ismoil ibn Ahmad (874-907)
- *Ahmad ibn Ismoil (907-914)
- *Nasr II ibn Ahmad (914-943)
- *Nuh I ibn Nasr (943-954)
- *Abdumalik ibn Nuh (954-961)
- *Mansur I ibn Nuh (961-976)
- *Nuh II ibn Mansur (976-997)
- *Mansur II ibn Nuh (997-999)
- *Abdulmalik II ibn Nuh (999-1000)
- *Ismoil II al-Muntasir (1000-1005)

Maruza mashgʻulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “**T - chizma**” interfaol usulidan foydalaniladi.



Mavzu mashg'uloti bo'yicha topshiriqlar:

1. Arab xalifaligi bilan Xuroson noiblari o'rtasidagi munosabatlar: +ijobiy, -salbiy
2. Samoniylar bilan Tohiriylar o'rtasidagi munosabatlar: +ijobiy, -salbiy
3. Xalifalik va Samoniylar o'rtasidagi munosabatlari: +ijobiy, -salbiy

Mavzu mashg'uloti uchun, topshiriqlarni bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

“T– sxema” o'tkazish bosqichlari quyidagicha olib boriladi:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “T–sxema” interfaol usuli haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim
- Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar yaxshi o'zlashtirilishi kerak
- “T–sxema” interfaol usuli masala mohiyatini to'liq tushunib olishga asoslangan bo'lib, bunda mavzuga oid bo'lgan tushuncha, ma'lumot, tarixiy shaxslar faoliyati kabilarning ijobiy+, salbiy–xususiyatlari ochib beriladi.

Mavzu bo'yicha savollar.

1. Tohiriylar davlati vujudga kelishi haqida ma'lumot bering?
2. Tohiriylar davridagi boshqaruv tizimi qay tarzda amalga oshirilgan?
3. Tohiriylar davrida islom diniga bo'lgan e'tibor qanday bo'lgan?
4. Tohiriylar davlatining tugatilishi haqida ma'lumot bering?
5. Somoniylar davlati tashkil topishi va rivojlanishi haqida ma'lumot bering?
6. Somoniylar davlat hududi kengayishi haqida ayting?
7. Somoniylar davridagi unvon va mansablar ta'riflab bering?
8. Somoniylar davridagi devoni faoliyati haqida ma'lumot bering?
9. Somoniylar davridagi harbiy sa'nat va unvonlar haqida ma'lumot bering?
10. Somoniy hukmdorlarning hukmronlik yillarini ayting?
11. Somoniylar hukmronligida sud-huquq organlaridagi mansab va unvonlarga ta'rif bering?
12. Somoniylar hukmronligida mahalliy boshqaruv tartiblari haqida ma'lumot bering?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mahbuba Xamidova. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi (o‘quv qo‘llanma). Toshkent., “Sharq”, 2005-yil.
2. Shamsuddinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. -T., “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi”, 2009-yil.
3. Hasanov A. Makka va Madina tarixi. T., “Mehnat”, 1992-yil.
4. Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. - T., “Toshkent Davlat yuridik instituti”, 2005-yil.
5. Abdirahimova N.A, Isakova M.S, Sulaymonova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T., “Sharq”, 2007-yil.
6. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. -T., Sharq, 2000-yil.
7. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T., “O‘zbekiston Milliy Universitet”, 2012-yil,
8. Sagdullayev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T., Akademiya, 2000-yil.
9. Alimova D.A, Rtveladze E.V. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., “Sharq”, 2001-yil.
10. Sagdullayev A.S, Eshov B. O‘zbekiston tarixi. II-nashr. -T., “Universitet”, 1999-yil.

Axborot manbalari

11. www.ziynet.net
12. www.history.ru

10-Mavzu: Gʻaznaviylar davlatida boshqaruv tizimi, harbiy va siyosiy tarix.

Reja.

1. Gʻaznaviylar davlatining tashkil topishi.
2. Gʻaznaviylar davlatining hududi kengayishi.
3. Gʻaznaviylar davlatida davlat boshqaruvi.
4. Gʻaznaviylar davrida harbiy sanʼat.
5. Gʻaznaviy hukmdorlarning hukmronlik yillari.

Tayanch tushunchalar: Movarounnahr, Gʻoziy, “Majma al-ansob”, Xorazm, Xuroson, Seyiston, Qobul, Gʻazna, Kaspiy dengizi, saroy gʻulomi, viloyat noibi.

Gʻaznaviylar davlati hukmronligi davri Movarounnahrda bosib olingan hududlarning cheklanganligi va nisbatan tarixiy qisqa davrda (Movarounnahrda bor yoʻgʻi 40 yilga yaqin) hukmdorlik qilgan boʻlsa-da, Oʻzbekiston davlatchiligi tarixidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Chunki, Gʻaznaviylar paydo boʻlishi davri X asr oxiri - XI asr boshlarida paydo boʻlgan boshqa davlatlar Saljuqiylar va Qoraxoniylar kabi oʻta muhim tarixiy ahamiyat kasb etgan. Bu nafaqat Movarounnahr balki butun Oʻrta Osiyoda turkiy davlatchilikning uzil-kesil qaror topganligini koʻrsatadi. Demak, Gʻaznaning siyosiy markaz sifatida yuksalishi X asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Gʻaznaviylar sulolasining asoschisi Amir Nasiriddin ud-Davla Sabuqtegin Gʻoziy kelib chiqishiga koʻra turkiy qavmga mansub edi. Ayrim oʻrta asrlar manbalarida, xususan, XIV asrda yashab oʻtgan Muhammad Shabangaroyning “Majma al-ansob” nomli asarida berilishicha, Sabuqtegin Issiqkoʻl boʻyidagi hukmdori qarluq boʻlgan Barsxon degan joyda tugʻulgan. Yoshligida Sabuqtegin asir olinadi va toʻrt yil Tuxsi qabilasida tutqunda boʻlgach, uni Movarounnahrlik savdogarlarga sotib yuboradilar. V.V. Bartoldning fikriga koʻra, Sabuqteginni Somoniylar davlatining mansablar pogʻonasida koʻzga koʻringan vakillaridan biri

Alptegin sotib oladi. Gʻaznaviylar davlatiga 962 yilda Alptegin tomonidan asos solingan¹²⁷.

Alptegin 963-yilda vafot etgan paytda u sotib olgan qul Sobuqtegin katta nufuzga ega edi. Uning vafotidan soʻng Gʻaznada navbati bilan Amir Isʻhoq ibn Alptegin, Amir Bilgategin, Amir Piri, Amir Sabuqteginlar hukumronlik qiladilar. 997 yilning boshida Sabuqtegin Somoniylar tomonidan Gʻazna va uning atroflariga hokim etib tayinlandi. Tarixiy manbalarda Sabuqtegin Gʻaznaviylar davlatining asoschisi sifatida taʼriflanadi. 997 yilning oxirida Amir Sabuqtegin vafot etadi va uning kichik oʻgʻli Ismoil taxtga oʻtirib bor yogʻi 7 oy hukmdorlik qiladi. 998-yilda oʻzining harbiy jasoratlari uchun “Saif ud-davla” – “saltanat qilichi” degan faxrli nomga sazovor boʻlgan, Sabuqteginning ikkinchi oʻgʻli Mahmud Gʻaznaviylar taxtiga oʻtiradi.

Koʻpchilik tarixiy-ilmiy adabiyotlarda Mahmud Gʻaznaviy deb yuritilgan Abulqosim Mahmud hukmdorligi davrida (998-1030 yil) Gʻaznaviylarning qudrati va shuhrati ortib buyuk Gʻaznaviylar davlati barpo etildi. Mahmud hukmdorligi davrida Xorazm, Xuroson, Seyiston, Qobul, Gʻazna, Shimoliy Hindiston kabi viloyatlar Gʻaznaviylar qoʻli ostida edi. Mahmud Gʻaznaviy Hindistonga 17 marta bosqinchilik yurishlari uyushtirgan edi. Aholining qonini daryo qilib oqizdi¹²⁸. Abulqosim Mahmud taxtga oʻtirgan yili xalifa Muqaddirdan Xurosonni boshqarish uchun yorliq hamda “Yamin ad-davla va amin al-milla”- “Saltanat tayanchi va musulmonlar jamiyatining ishonchli vakili” faxriy unvoni bilan taqdirlanadi¹²⁹.

Mahmud taxtga oʻtirgan paytidan boshlab oʻz davlati chegaralarini kengaytirish siyosatini olib bordi. U oʻsha yiliyoq janubiy Toxaristonni (hozirgi shimoliy Afgʻonistonni) bosib olgan boʻlsa, 999 yilda Marv yaqinidagi boʻlgan jangdan soʻng butun Xuroson Mahmud Gʻaznaviy izmiga boʻysunadi. Manbalarning maʼlumot berishicha, Amudaryo vohasidagi strategik jihatdan juda muhim ahamiyatga ega boʻlgan Termiz shahri ham Mahmud qoʻl ostida boʻlgan. Abulfazl Bayhaqiy “Tarixi

¹²⁷ Хасанов Ф. Турон халклари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018. -Б. 243.

¹²⁸ Машарипов О. Хоразмнома, Хоразм. 2007. -Б. 96.

¹²⁹ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б. 181.

Ma'sud" asarida ma'lumot berishicha, Termizda noib va qal'a qutvoli bevosita G'aznaviylar tomonidan tayinlangan. Bu G'aznaviylarga Amudaryo orqali Markaziy Osiyodan Hindistonga olib boradigan muhim savdo yo'lini nazorat qilish imkonini bergan.

1001 yili Mahmud Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlatlari o'rtasidagi chegarani belgilashda Nasr bilan shartnoma tuzdi¹³⁰.

1002 yilda Bag'dod xalifasi Mahmud G'aznaviy hokimiyatini tan olib unga yorliq yuborgach, Mahmud siyosiy jihatdan ancha mustahkamlanib oldi va o'sha yili Seyistonni bosib oldi. G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasida, dastavval Amudaryo chegara qilib belgilanadi. Ammo Qoraxoniylar bu chegarani tez-tez buzib turardilar. 1008 yilda Balx atroflarida G'aznaviylar va Qoraxoniylar o'rtasida jang bo'lib o'tadi va bu jangda Mahmudning to'la g'alaba qozonishi Xurosonda uning ahvolini yanada yaxshiladi. O'sha yili Mahmud Chag'aniyon va Xuttalonni ham bosib olib o'zining noiblari sifatida mahalliy hukmdorlarni hokimiyatda qoldiradi.

Manbalarning ma'lumot berishicha, 1024 yilda Mahmud G'aznaviy markaziy Movarounnahr aholisini Alptegin zulmidan ozod qilish bahonasi bilan Amudaryoni kechib o'tdi va Temir darvoza orqali Samarqandgacha borib Sug'dga hujum qiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, bu yurishdan so'ng Chag'aniyon, Xuttalon va Qo'badiyonda Mahmudning hokimiyati yanada mustahkamlandi. Ammo, numizmatik manbalar ma'lumotlariga asoslangan E.V. Ritveladzening fikricha, Xuttalon, Qo'badiyon va Vaxshning Mahmud G'aznaviy davlatiga nisbatan tutgan siyosiy mavqei haqida esa fanda hali unchalik ishonchli ma'lumotlar mavjud emas. Yana shu olimning fikricha, qat'iy dalillar asosida Omul (Chorjo'y) gacha bo'lgan butun Amudaryo vohasi Mahmud G'aznaviyga bo'ysungan deb hisoblash mumkin. Xorazm yurishi oldidan Mahmud G'aznaviy vaziri tomonidan Termiz, Qo'badiyon va Xuttalonda kemalarni jangga tayyorlash, Omulda esa qo'shin uchun oziq-ovqat to'plashga buyruq berilganligi ma'lum.

¹³⁰ Аскарлов А. Ўзбекистон халқлари тарихи. -Т.: "Фан", 1992. -Б.116.

1017 yilda Mahmud Gʻaznaviyning ittifoqchisi boʻlgan xorazmshoh Abulabbos Maʼmunning oʻl dirilishi va isyonchilar tomonidan taxtga Maʼmunning jiyani Abulhoris Muhammad Aminning oʻtqazilishi Mahmudning Xorazmga yurishiga sabab boʻlgan edi. 1017 yilning yoz oyida Mahmud Gʻaznaviy qoʻshinlari Xorazmni egallab, gʻalayonni bostiradilar. Mahmud Xorazm taxtiga oʻzining bosh hojibi, kelib chiqishi turkiy boʻlgan Oltintoshni xorazmshoh unvoni bilan hukmdor qilib tayinladi¹³¹. Mahmud Oltintosh koʻp jihatdan mustaqil siyosat yurgizishga harakat qilgan boʻlsa-da, oʻzining butun hukmdorligi davrida Gʻaznaviy sultonlar, avval Mahmud, keyin esa Maʼsudning vassali hisoblangan hamda harbiy yurishlar davrida Gʻaznaviylar qoʻshinini Xorazm qoʻshinlari bilan toʻldirib turgan. Xorazmning qoʻlga kiritilishi Mahmud Gʻaznaviyning Movarounnahrdagi mavqeini yanada mustahkamlanishiga olib keldi.

Abulqosim Mahmud davrida Gʻaznaviylar davlati musulmon olamining eng kuchli davlatiga aylandi. Bu davlatning hududi Mahmud Gʻaznaviyning harbiy yurishlari tufayli shimoliy va shimoli-gʻarbiy Hindistondan, Chagʻaniyon va Xorazmgacha choʻzilgan boʻlib, unga Eronning katta qismi ham kirgan edi¹³². Oʻz davrining iqtidorli sarkardasi va qattiqqoʻl hukmdori boʻlgan Sulton Mahmud Gʻaznaviy 1030-yilda vafot etadi. Shundan soʻng Mahmudning vasiyati bilan ulugʻ hojib Ali Qaroʻgʻli ibn Muhammad boshchiligidagi bir guruh amaldorlar hukumdorning kichik oʻgʻli Muhammadni taxtga oʻtqazadilar. Ammo oʻsha yilning oʻzidayoq Mahmudning katta oʻgʻli Maʼsud taxtni ukasidan tortib olishga muvaffaq boʻldi.

Maʼsud Gʻaznaviy otasi tuzgan davlatni butunligicha saqlab qololmadi. Uning hukmdorligi davrida (1030-1041-yy) Gʻaznaviylar davlati oʻz qoʻl ostidagi hududlarni birin-ketin qoʻldan chiqara borib, inqirozga yuz tuta boshladi. Gʻaznaviylar davlatidan birinchi boʻlib Xorazm ajralib chiqdi. Uning hukmdori Mahmud Oltintosh rasman mustaqil ichki va tashqi siyosat yurgizgan boʻlsada, amalda Mahmud

¹³¹ Аскарлов.А. Ўзбекистон халқлари тарихи. -Т.: “Фан”, 1992. -Б. 119.

¹³² Эшов.Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б. 181.

Gʻaznaviyga tobe boʻlib, unga ochiqdan ochiq qarshi chiqishga jurʻat qila olmagan edi. 1032 yilda Xorazm hukmdori Mahmud Oltintosh vafot etadi. Shundan soʻng Maʼsud Gʻaznaviy Oltintosh vorislarining hokimiyatini cheklash choralarini koʻradi. Yaʼni, Xorazmshoh unvoni Maʼsud Gʻaznaviyning oʻgʻli Sulton Saidga berilib, Mahmud Oltintoshning oʻgʻli Horun esa Sulton Saidning Xorazmdagi vakili boʻlib qoldi. Bunday siyosat, albatta, Horunning jiddiy noroziligiga sabab boʻlgan edi.

1034 yilda Horun ibn Oltintosh Gʻaznaviylarga qarshi isyon koʻtardi. U oʻzini Gʻaznaviylardan mustaqil deb eʼlon qildi va Qoraxoniylar bilan doʻstona munosabat oʻrnatib, Xorazmni Gʻaznaviylardan mustaqil deb eʼlon qildi va Sulton Maʼsud nomiga xutba oʻqishni bekor qilish toʻgʻrisida farmon berdi. Horun ibn Oltintosh oʻsha yili katta qoʻshin bilan Xurosonga yurish qildi. Lekin Sulton Maʼsud tomonidan sotib olingan kishilar Horun ibn Oltintoshni oʻldiradilar. Uni qoʻllab-quvvatlagan Qoraxoniylar yana Samarqandga qaytib ketadi. Shundan soʻng Sulton Maʼsud Gʻaznaviy Qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi va shu yoʻl bilan Gʻaznaviylar hokimiyatiga boʻlgan xavfni biroz kamaytiradi.

Ammo, Gʻaznaviylarning kelajakdagi yirik raqibi boʻlgan yangi sulola-Saljuqiylarning siyosat maydoniga chiqishi ham aynan Maʼsud Gʻaznaviy davriga toʻgʻri keladi. Mahmud Gʻaznaviyning ruxsati bilan shimoliy Xurosonga joylashib olgan Saljuqiylar bu davrga kelib Gʻaznaviylar uchun katta xavf tugʻdira boshlagan edilar. 1035 yilda Saljuqiylarning Xurosonga yangi hujumi boshlandi.

Bu oʻrinda taʼkidlash joizki, Sulton Mahmud Gʻaznaviy umrining oxirlarida u tomonidan barpo etilgan va poytaxti Gʻazna boʻlgan davlat gʻarbda Isfaxon va Kaspiy dengizidan sharqda shimoliy Hindiston, shimolda Xorazmdan, janubda Baljustongacha boʻlgan ulkan hududni oʻz ichiga olib oʻz davrining yirik musulmon davlatiga aylangan edi.

Ammo, Sulton Maʼsud ibn Mahmud davlat boshqaruvi va harbiy harakatlarda otasi kabi qobiliyatlarga ega emas edi. Shuningdek, oʻsha davrdagi siyosiy vaziyat, sulolalar oʻrtasidagi hududlar uchun oʻzaro kurashlar ham Sulton Maʼsudga mamlakatni bir butunlikda saqlab qolish imkonini bermadi. Shu bois uning hukmdorligi davrida (1030-1041 yy)

Gʻaznaviylar davlati oʻz qoʻl ostidagi hududlarni birin-ketin qoʻldan chiqara boshladi.

Gʻaznaviylarning asosiy raqibi Saljuqiylar boʻldi. 1035-yilda Niso shahrini egallagan boʻlsalar, 1037 yilda ular Mari viloyatini egallab, Bagʻdod xalifasiga hokimiyatni boshqarish uchun yorliq berishini soʻrab elchi joʻnatdilar¹³³.

Keyingi yillarda Saljuqiylar Toʻgʻrul boshchiligida Gʻaznaviylarga bir qancha zarbalar berib Xurosonning katta qismini egallab olishga muvaffaq boʻldilar. Shundan soʻng Sulton Maʼsud katta qoʻshin bilan Saljuqiylar ustiga yurish qiladi. 1040 yilning may oyida Mari yaqinidagi Dandanakon degan joyda boʻlgan jangda Sulton Maʼsud qoʻshini Saljuqiylar tomonidan tor-mor etildi. Magʻlubiyatga uchragan Maʼsud zoʻrgʻa qochib Gʻaznaga keldi va koʻp oʻtmay fitnachilar tomonidan oʻldirildi. Taxtga Maʼsudning ukasi Muhammad oʻtirdi. Lekin Maʼsudning oʻgʻli Mavdud (1041-1049) oʻz xonadonining ilgarigi mavqeini tiklashga uringan boʻlsada, buning uddasidan chiqolmagan¹³⁴. Asta-sekin oʻz qudratini yoʻqota boshlagan Gʻaznaviylar davlati XII asrning oxirlarida Afgʻoniston hududlarida tashkil boʻlgan yangi davlat-Gʻuriylar tomonidan butunlay tugatildi. Aniqrogʻi 1186 yilda Gʻuriylar sulolasidan boʻlgan Gʻiyosiddin Muhammad qoʻshini bu paytga kelib Panjob viloyati bilan cheklanib qolgan Gʻaznaviylar hokimiyatini uzil-kesil tor-mor qildi.

Dargohdagi mansab va unvonlar tartibi:

Amir-davlatning oliy hukmdori.

Ulugʻ hojib-mavqeyi davlat miqyosida katta boʻlgan. Rasmiy marosimlarda u oliy hukmdorga eng yaqin joyni egallagan, jiddiy harbiy yurishlarda qoʻshinning masʼuliyatli qismiga boshchilik qilgan, yaʼni qoʻshinning chap qanotini boshqargan, maxsus saralangan qismlar tayyorgarligini tekshirib turgan. Hojiblar bir vaqtning oʻzida shixna yoki sipohsalor mansabiga ega boʻlganlarini ham eslatib oʻtish joizdir. Ular odatda qora chakmon va ikki uchli kuloh kiyib yurganlar.

Sipohdor-dargohda saroy xizmatchisidir.

¹³³ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б. 186.

¹³⁴ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: "Шарқ", 2000. -Б. 116.

Da'voddor-oliy hukmdorning shaxsiy hujjat, xat ishlari bilan shug'ullangan.

Pardador-amirning pinhona vazifalarini bajaruvchi shaxsdir.

Xazinachi-amir xazinasichisi hisoblangan.

Chartdor - sulton bazmalarini tashkil qilgan.

Alamdor- sulton bazmalarini tashkil qilgan.

Xadim- saroyda hukmdorning shaxsiy xizmatchisi bo'lib, ular sultonga sadoqat bilan xizmat qilishgan.

Ustod-o'qituvchi, g'aznaviylar davlatida olimlarga boshchilik qilgan.

Sadr-musulmon ruhoniylar vakillarning yuqori vakili.

Mustahrij-aybdorni tayoqlar yordamida kaltaklab gunohlarini, aybini ochib beruvchi.

Murtabador-saroydagi o'rta darajadagi amaldor.

Jomaxon-amir kiyim-kechaklarini saqlovchi xona boshlig'i.

Farrosh-saroydagi kichik xizmatchilar.

Devon tuzilishi va undagi mansab hamda unvonlar:

Bosh vazir-u barcha ma'muriy, siyosiy va xo'jalik muassasalarini nazorat qilgan.

Mushrif-davlatdagi kirim-chiqimi va boshqa muhim davlat ishlarini nazorat qilgan.

Muxtasib-bozorlarda tosh-tarozi va narx-navolarni, ayni vaqtda aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilinishini nazorat qiluvchi shaxs bo'lgan.

Zayl-yetakchi hisoblangan.

Qozi- mamlakatda sud qilish huquqiga ega bo'lgan sudyadir.

Mahalliy boshqaruv tartiblari:

Voliy-viloyat boshlig'i.

Amid-viloyatda ijroiya boshqaruv ishlari bilan shug'ullangan.

Nadim-maslahatchi va hukumronlik qiluvchi shaxs.

Viloyat mushrifi-viloyatdagi kirim-chiqimlarni hisobga olgan.

Rais-shahar boshlig'i hisoblanadi. Hukmdorning birinchi vakili hisoblanib, hukmdor xohish-istagini u orqali yetkazgan.

Shahar mushrifi-shahardagi kirim-chiqim ishlarini hisobga olgan.

Ukatxudo-mayda feodallarning vazirini shunday deb ataydilar.

Shixna-qal'a boshlig'i

Kutvol-qal'a yoki qo'rg'on soqchisi boshlig'i.

Sulton toj-taxti va markaziy hokimiyatining asosiy tayanchi turli qabilalarga mansub doimiy qo'shin edi. Bu, asosan, otliqlardan iborat bo'lib, uning tarkibiga piyoda qismlar, tig'iz hollarda esa shaharliklar va dehqonlardan tuzilgan lashkarlar ham kirgan. G'aznaviylarda qo'shinida turkiylar, seyistonliklar, hindlar, tojiklar, kurdlar, arablardan tashkil topgan harbiy qismlar bo'lgan. Bu holni qo'shinni tarqoq holda qat'iy tobelikda tutib turishga intilish bilan izohlash mumkin. "Barcha qo'shin bir urug'dan bo'lsa,- deb yozgan edi Nizomulmulk,-undan xavf-xatar tug'ilishi mumkin, zero, tirishqoqlik ko'rsatilmaydi, tartibsizliklar sodir bo'ladi. Qo'shinni turli qabilalardan tuzmoq lozimdir"¹³⁵.

G'aznaviylar qo'shinida sharqiy chegara viloyatlaridan-Movarounnahr, Tarozi, Qoshg'ar va Xo'tandan keltirilgan qullar, g'ulomlardan tashkil topgan maxsus harbiy qismlar ham bo'lgan. Ular maxsus ta'lim va harbiy tayyorgarlikni xususiy va saroy maktablarida olishgan. G'ulomlar bir necha toifaga bo'lingan. Ularning orasida eng ko'pchilikni-4 mingtasini saroy g'ulomlari tashkil qilgan. Ulardan tashqari yana 300 g'ulom-sulton tanmahramlari va yaxshi kiyingan bayroqdorlar bo'lgan.

G'ulomlarning asosiy qismi oddiy jangchilik va soqchilik vazifasini o'tashgan, lekin ularning bir qismidan xizmatkor, soqiy, to'shakchi va boshqalar sifatida ham foydalanilgan. G'ulomlar, shu jumladan, sulton g'ulomlari xazinadan har yil maosh va oziq-ovqat olishgan. Huquqiy mavqelari va mol-mulklariga ko'ra ular bir xil emas edilar. Ularning ayrimlari yuqori mansablarga-hojib, viloyat noibi, sipohsolor kabilarga erishganlar. G'ulomlar aholining boshqa ijtimoiy va etnik qatlamlari bilan aralashmaganlar, shu tufayli ular mulkdorlar tabaqasining hukmronligini amalga oshirish uchun qulay qurol rolini o'tagan. O'rta asr Sharqida keng tarqalgan "Sodiq xizmatkor (g'ulom)

¹³⁵ Низомулмулк. Сиёсатнома. -Т.: 2012. -Б. 107.

yuzta farzanddan a'lo; farzand otaga o'lim tilaydi; g'ulom esa–uzoq umr tilaydi” kabi maqollar aynan mana shunday holatni aks ettirar edi.

G'aznaviylar qo'shini uch yirik qo'shilmaga ajralib, uchta yirik sarkarda (sipohsolor) boshchiligida Hindiston, Iroq va Xurosonda joylashgan. Barcha qo'shin tepasida katta hojiblar turgan, unga maxsus belgi sifatida nog'ora, tug', katta yoki kichik nog'ora topshirilgan. Bosh qo'mondon oltin kamar taqilgan qora chakmon va ikki shohli qalpoq kiygan¹³⁶.

Mahmud G'aznaviy mamlakatning barcha aholisini ikki toifaga ajratgan: harbiylar va fuqarolar. U jangchilarga maosh to'l agan va ulardan o'zining amr-u-farmonlarini so'zsiz ijro etishlarini talab qilgan.¹³⁷

Mahmud G'aznaviy yaxshi tashkil qilingan va qurollangan katta qo'shinga tayangan. Uning ko'plab jangovar fillari bo'lgan, qal'alarni qamal etish uchun otuvchi mashinalar qo'llanilgan, daryodan kechib o'tish paytida suzuvchi ko'priklar qurilgan. Sultonning ko'p sonli qo'shinining aksariyatini sotib olingan va maxsus harbiy ta'lim olgan qullar-g'ulomlar tashkil etgan. G'ulomlarning otryadlari turklar va boshqa xalqlarning jangchilaridan tarkib topib, ular orasida tojiklar ham ancha bo'lgan.

Harbiy boshqaruv tizimidagi mansab va unvonlar:

Sipohsolor-amirlikda bosh qo'mondon shunday unvonni olgan. U sulolaning eng ishonchli kishisi bo'lib, asosan, shu xonadon namoyondasi tayinlangan.

Hojib ul-buzrug-Bayhaqiyning yozishicha, g'aznaviylar davlatida bosh qo'mondon unvoni hisoblangan.

Salar-i G'ulomon-bosh sarkarda hojib ul-buzrugdan keyingi maqomda turgan. Bayhaqiyning yozishicha, Salar-i G'ulomon saroy mahkamasining yetakchisi bo'lib, lekin Ma'sud hukmronligi davrida Salar-i G'ulomon bosh sarkarda bilan bir xil mavqeda turgan.

Aridlar-g'aznaviylar davlatida qo'mondonlardan biri.

Katxudolar- g'aznaviylar davlatida qo'mondonlardan biri.

¹³⁶ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018. -Б.248.

¹³⁷ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018. -Б.249.

Hojib-gʻaznaviylar davrida oliy harbiy unvonlardan biri.

Salor-amirlikdagi yuqori darajadagi harbiy lashkarboshi.

Sarxang-amirlikdagi oʻrta darajadagi harbiy lashkarboshi.

Muqatila- ular erkin arablardan tuzilgan arab harbiy guruhi.

Silohdor-qurol-yarogʻ taʼminotchisi.

Naqib-asosan qoʻshinni qay holatda tuzilishi va joylashtirilishi haqida buyruq bergan, qachonki jang boshlanganda ular oʻsha buyruq ostida saflanishgan.

Xayl-amirlikdagi bir necha oʻn otliqlar boshligʻi.

Xayltoshi-oʻn harbiy boʻlinmani yetakchisi hisoblangan. Biroq bu bizga harbiy unvon emas, balki tuzilmadek tuyuladi (tarixchi Muhammad Nozimning fikriga koʻra).

Naqib-i xayltoshin-beshyuz xayltoshlar yetakchisi.

Gʻaznaviylar sulolasi hukumdorlarning davlatni boshqargan (962-1186) yillari.

- Alptegin (962-963)
- Isʻhoq (963-966)
- Bilgategin (966-972)
- Piritegin (972-977)
- Sabuqtegin (977-997)
- Ismoil (997-998)
- Mahmud Gʻaznaviy (998-1030)
- Muhammad (1030)
- Maʼsud Gʻaznaviy (1030-1041)
- Mavdud (1041-1048)
- Maʼsud II (1048)
- Ali Abul Hasan (1048-1049)
- Abdur Rashid (1049-1053)
- Toʻgʻrul (1053)
- Farruxzod (1053-1059)
- Ibrohim (1059-1099)

- Ma'sud III (1099-1114)
- Sherzod (1114-1115)
- Arslon (1115-1118)
- Bahromshoh (1118-1152)
- Xusravshoh (1152-1160)
- Xusrav Malik (1160-1186)

Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri-“**BBB**” uslubi orqali mustahkamlash.

Bilaman	Bilib oldim	Bilishni xohlayman

Mavzuni “BBB” uslubi orqali mustahkamlash uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

1. Mavzuni mustahkamlash uchun talabalardan qanday ma'lumotlarga ega bo'lganliklari so'raladi.
2. Talabalar tomonidan bildirilayotgan fikrlar inkor etilmasligi lozim.
3. So'nggi bosqichda talabalardan qanday ma'lumotlarni bilish istagida ekanliklari so'raladi.

Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “**Qarorlar shajarasi**” uslubi orqali mustahkamlash.

"Qarorlar shajarasi" metodi			
Muammo: <i>G'aznaviylar davlatida boshqaruv tartibi bo'l inishining o'ziga xos xususiyatlarini qandaybaholaysiz ?</i>			
1-qaror variantlari		2-qaror variantlari	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

Qaror			

Mavzuni “Qarorlar shajarasi” uslubi orqali mustahkamlash uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

1. Guruh ishtirokida qo‘llaniladigan “Qarorlar shajarasi” bir necha o‘n nafar talabalarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi.

2. Ta’lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan qaror yuzasidan oqilona qaror qabul qilish, talabalar tomonidan bildirilayotgan har bir variantning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkonini yaratadi.

Mavzu bo‘yicha savollar.

1. G‘aznaviylar davlati tashkil topishi haqida ma’lumot bering?
2. G‘aznaviylar qaysi hududlarga bosqinchilik yurishlari olib borganlar?
3. G‘aznaviylar tasarufiga kirgan hududlar?
4. G‘aznaviylar davlat boshqaruvi tartibi qay tarzda olib borilgan?
5. G‘aznaviylar davlatining harbiy san’ati haqida ma’lumot bering?
6. Mahmud G‘aznaviy tamonidan olib borilgan siyosat qanday bo‘lgan?
7. G‘aznaviy hukmdorlarning hukmronlik yillarini ayting?

8. Gʻaznaviylar davlatidagi harbiy boshqaruv tizimidagi mansab va unvonlarning taʼrifini yozing?
9. Mahmud Gʻaznaviyning vorislari tomonidan oʻtkazilgan islohatlar?
10. Davlatni inqirozga olib kelgan sabablar haqida soʻzlab bering?

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Mahbuba Xamidova. Oʻzbekiston davlati va huquqi tarixi (oʻquv qoʻllanma). Toshkent, “Sharq”, 2005-yil.
2. Shamsuddinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. -T., “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi”, 2009-yil.
3. Hasanov A. Makka va Madina tarixi. T., “Mehnat”, 1992-yil.
4. Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. -T., “Toshkent Davlat yuridik instituti”, 2005-yil.
5. Abdirahimova N.A, Isakova M.S, Sulaymonova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T., “Sharq”, 2007-yil.
6. Azamat Ziyov. Oʻzbek davlatchiligi tarixi. -T., Sharq, 2000-yil.
7. Eshov B. Oʻzbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T., “Oʻzbekiston Milliy Universitet”, 2012-yil,
8. Sagdullayev A. va boshqalar. Oʻzbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T., Akademiya, 2000-yil.
9. Alimova D.A, Rtveladze E.V. Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., “Sharq”, 2001-yil.
10. Sagdullayev A.S, Eshov B. Oʻzbekiston tarixi. II-nashr. -T., “Universitet”, 1999-yil.

Axborot manbalari

11. www.ziyonet.net
12. www.history.ru

11-Mavzu. Saljuqiylar davlatining boshqaruv tizmi va harbiy san'at.

Reja:

1. Saljuqiylar davlatining vujudga kelishi.
2. Saljuqiylar davlatining davlat boshqaruv tizimi.
3. Saljuqiylar davlatining harbiy san'ati.
4. Saljuqiylar davlatida harbiy unvon va mansablar.
5. Saljuqiy hukmdorlarning hukmronlik yillari.

Tayanch tushunchalar: Saljuq, suboshi, Tugʻrulbek, Malikshoh, manglay, avangard, otabek, amiri xoris, javshan tenure, Chugʻrul, omil, Devoni istifo, Gʻiyosiddin Muhammad.

Saljuqiylar sulolasi turkiy oʻgʻuz qavmining qiniq urugʻi yoki qabilasidan chiqqan boʻlib, hozirgi Janubiy Qozogʻiston hududlariga toʻgʻri keluvchi Sirdaryoning oʻrta oqimidan Talas vodiysigacha, Sirdaryoning quyi oqimlarida koʻchib yuruvchi etnik guruhlar boʻlgan. Manbalarning maʼlumot berishicha, bu sulolaning paydo boʻlishi qiniq qabilasi vakili boʻlgan Saljuq nomi bilan bogʻliq edi. X asrning oʻratalarida oʻgʻuzlar Yabgʻusining xizmatida boʻlib, yirik harbiy unvon-“Suboshi” unvoniga savozor boʻladi. Bu haqida Mahmud Qoshgʻariy “Saljuq Su-boshi” deya maʼlumot beradi¹³⁸. X asrning ikkinchi yarmida koʻplab oʻgʻuz qabilalari oʻz davlatlarini tuzdilar¹³⁹. Saljuqiylar X asr oxirlarida dastlab Nurota togʻlari hududlariga koʻchib keladilar. Bu oʻgʻuzlarning boshligʻi Saljuqbekning nabiralari aka-uka Toʻgʻrulbek Muhammad va Chugʻrulbek Dovud edilar.

Qoraxoniylar turklar XI asrning 20-yillariga borib oʻgʻuzlarni siqib qoʻyishdi, natijada ular boshqa yerga koʻchib ketishga majbur boʻldilar. Oʻgʻuzlarning rahbari Mahmud Gʻaznaviyga murojaat qilib Xuroson hududiga oʻrnashishga ijozat soʻraydilar. Buning evaziga Mahmud qoʻshiniga yordam berish majburiyatini oladilar. Mahmud ularga Shimoliy Xurosondagi Saraxs va Obivard oraligʻidagi hududga joylashishga ruxsat

¹³⁸ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.185.

¹³⁹ Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машҳур сулолалари. -Т.: 2013. -Б.154.

beradi. Vohada 4000 oila kelib joylashdi. Ular ortidan o'g'uzlarning boshqa guruhlari kelib o'rtnashdilar, ushbu jarayon, ayniqsa, Mahmud vafotidan so'ng kuchaydi. Ma'sud hukmronligining dastlabki yillarida Xurosonda turk aholisi ancha ko'paydi.

Natijada jangovar ko'chmanchilar va o'troq aholi o'rtasida to'qnashuvlar yuz berdi. Yildan yilga saljuqiy sarkardalar Ma'suddan yangi hudud talab qila boshladilar.

1035 yili Xurosonda vaziyat keskinlashdi. Saljuqiy o'g'uzlarga qarshi Ma'sudning o'zi saralangan qo'shin bilan yurish boshladi. Lekin o'g'uzlarning qo'li baland keldi. Ma'sud ularga Niso, Farova va Dehistonni berishga majbur bo'ldi. Yuqoridagi hududlar ham saljuqiylarni qoniqtira olmadi, ko'p o'tmay Marvni talab qilishdi. Bunga javoban Ma'sud ularga qarshi qo'shin jo'natdi. Bu safar ham G'aznaviylar qo'shini tor-mor bo'ldi, shundan so'ng Saljuqiylar Nishopurni jangsiz egallashdi va o'sha yerda To'g'rulbek nomiga xutba o'qildi.

1038 yil Saljuqiylar davlati tashkil topgan sana bo'lib hisoblanadi. To'g'rulbek 1038 yilda 3 ming kishilik qo'shin bilan deyarli hech qanday qarshiliksiz Nishopurni egallaydi¹⁴⁰. Lekin G'aznaviylarga qarshi kurash davom etadi. Ma'sud ularni Nishopurdan quvib chiqarishga erishdi. Keyin Ma'sud o'zi katta qo'shin bilan yurish boshladi. Qo'shinda fillar bo'lishiga qaramay askarlar orasida yakdillik yo'q edi. 1040 yil may oyida bo'lgan Dandanakon jangida G'aznaviylar qo'shini qaqshatqich zarbaga uchradi. Ma'sudning o'zi bir amallab qochib qutuldi. Dandanakon jangidan so'ng Xuroson Saljuqiylar qo'liga o'tdi. To'g'rulbek Nishopur taxtiga chiqdi. Chug'rulbek esa Marvda taxtga o'tirdi. G'aznaviylar takibida esa G'azna va Panjob qoldi. To'g'rulbek 1055 yilda Bag'dodni oldi. Endi Abbosiylar Saljuqiylarga tobe bo'lib qoldi, shundan so'ng u Xuzustonni egalladi. Natijada butun Eron Saljuqiylar qo'li ostiga o'tdi. 1054 yilda Ozarbayjon va Eronni egallagan Ravvodiylar To'g'rulbek hukmdorligini tan oldi. 1056 yil Iroqdan Movounnahrgacha bo'lgan hududda vabo tarqaldi. 1058 yili Kare va Malatyani egallashdi. 1059 yil Chug'rul vafot etdi. To'g'rulbek umrining oxirigacha butun mamlakat hukmdoriga aylandi. 1062 yilda Fors

¹⁴⁰ Shamsuddinov R, Karimov Sh. Vatan Tarixi, -T.: "Sharq", 2010. -B.202. 54

va Sheroz egallandi. Saljuqiylar davlati hududi Amudaryodan Frotgacha bo'lgan hududlar bilan chegaralandi¹⁴¹. To'g'ulbek vafot etgach uning o'g'il farzandi bo'lmaganligi tufayli uning jiyani Alparslon (1061-1072) davrida g'olibona yurishlar davom etdi. Ammo mamlakatning eng kuchaygan davri Alparslonning o'g'li Sulton Malikshoh (1072-1092) nomi bilan bog'liq. 1089 yil Malikshoh qo'shinlari Farg'ona vodiysini egallab Sharqiy Turkistonga bordi. Davlatning inqirozi esa Sulton Sanjar nomi bilan bog'liq. To'g'ulbek davridayoq Kermonda Saljuqiylar davlati (1041-1187) tashkil topdi, keyinroq Kichik Osiyo ham Saljuqiylar davlati tarkibiga qo'shib olindi.

1092 yil Malikshoh vafot etgach toj-u taxt uchun kurash avj oldi. Malikshohning xotini Turkon xotun ko'plab sarkardalarni o'z tomoniga og'dirib to'rt yashar o'g'li Mahmudni hukmdor bo'lishiga erishdi. Biroq, Malikshohning boshqa xotinidan tug'ilgan o'g'li Barqiyog'rug' taxtga chiqdi. Uni vazir Nizomulmuk tarafdorlari qo'llab-quvatlagandi. Shu tariqa Saljuqiylar davlatida ikki hukmdor paydo bo'ldi: Mahmud Isfahonda, Barqiyog'rug' Rayda hukmdorlik qildilar va o'z nomlaridan tanga zarb qildirdilar. 1094 yil Mahmud tarafdorlari qirib tashlandi. Barqiyog'rug' vafot etgach (1118) Malikshohning tirik o'g'illari Sanjar va Muhammad davlatni ikki qismga bo'lib oldilar. Saljuqiylar davlatida isyon va g'alayonlar boshlanib ketdi. Bu isyon va g'alayonlar hokimiyat tepasiga 1118 yilda- "Ulug' saljuqiylar" ning eng so'nggi vakili Sulton Sanjar (1118-1157) kelgach tinchidi¹⁴². 1117 yili G'aznaviylar bo'ysundirildi va o'lpon To'lashga majbur qilindi. Saljuqiylar davlati ikki qismga bo'lindi. Sharqiy: Movarounnahr, Xorazm, Xuroson; G'arbiy: Iroq va Ko'niyo (Kichik Osiyo) sultonliklariga bo'linib ketdi. 1122 yil Gruzin shohi Dovud IV Saljuqiylar qo'shinini yengib Tbilisini egalladi. 1131 yili Mahmud vafot etgach taxt uchun kurash avj oldi.

1134 yilda To'g'ul o'ldirilgach, taxtga ukasi Ma'sud (1134-1152) o'tirdi. 1137 yilda Qoraxoniylar Eloqxoni Mahmud Qoraxitoylardan yengilgach o'zining oliy hukmdori bo'lgan Sulton Sanjarni yordamga chaqirdi. Nihoyat ittifoqchilar qo'shini 1141 yili sentabr oyida Samarqand

¹⁴¹ Боҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машхур сулолалари. -Т.: "Академия", 2013. -Б.156.

¹⁴² Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan Tarixi, -Т.: "Sharq", 2010. -Б.204.

yaqiniga kelib birlashdilar, ammo Qoraxitoylarning hujumi natijasida Sulton Sanjar boshchiligidagi qo'shinlar mag'lubiyatga uchraydilar. Natijada sultonlar sultoni deb ulug'langan Sulton Sanjarning obro'siga o'nglanmas putur yetdi. 1153 yilda Balx shahri atroflarida yashovchi o'g'uzlar qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olonga sabab qilib soliqlarning oshirilgani aytiladi. Saljuqiylarning so'nggi yirik vakili Sulton Sanjar Balx o'g'uzlaridan yengilib asir olinadi. Uch yillik asirlikdan so'ng 1156 yili taxtga qaytadi. Ammo biroz vaqt o'tgach 1157 yilda xastalik bilan vafot etdi.

1194 yilda Xorazmshohlar hukmdori bo'lgan Takash sharqiy va g'arbiy Saljuqiylar davlatini tugatdi¹⁴³. Faqatgina Ko'niyoda (Kichik Osiyoda) Saljuqiylar davlatining bir qismi saqlab qolindi. 1308 yilda Saljuqiylar davlati butunlay tugatildi. Ushbu davlat o'rnida butun g'arb olamida mashur bo'lgan Usmoniylar imperiyasi tashkil topdi.

Saljuqiylar davridagi davlat boshqaruvidagi lavozimlar:

Sulton ul-a'zam-davlat boshlig'i, oliy hukmdor. Sultonlikda yer-mulk taqsimlash faqatgina sulton ixtiyorida bo'lgan.

Bosh vazir-rais ur-ruaso yoki said ur-ruaso (boshliqlarning kattasi)-u barcha devonlar faoliyatiga rahbarlik qilgan holda xazina, moliya, soliq, davlatga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish muassasalari ishlarini nazorat qilgan. U sulton nomidan xorijiy davlatlar namoyondalari bilan muloqot va muzokarada bo'lish huquqiga ega edi. Faqatgina bir sohada, yer-mulk taqsimlash ishlarida huquqsiz edi.

Ulug' hojib-oliy hukmdorning eng yaqin kishisi, dargoh bilan devonlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib turuvchi, rasmiy qabullarni uyushtiruvchi amaldor.

Amiri xoris-oliy hukmdor chiqargan jazolar hukmlarini ijro etish bilan shug'ullanuvchi amaldor.

Mustafiy-Devoni Istifo xizmatchisi hisoblangan. Davlatdagi moliyaviy masalalar bilan shug'ullangan. Davlat xazinasini kirim-chiqimlari, davlatning xarajatlari uning qo'lida bo'lgan va naqd pullarni

¹⁴³ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.187.

hisob kitoblarini olib borgan. Davlat lavozim va mansablarining maoshi berilishi bilan shugʻullangan.

Mushrif- davlat kotiblari shunday atalgan.

Saloxdor-saroydagi qurol-aslaha, ayniqsa, oliy hukmdorga tegishli narsalarni saqlash bilan shugʻullanuvchi amaldor.

Xos vakil-dargoh ishlarini boshqaruvchi amaldor.

Janddor-sulton va dargoh xavfsizligini ta'minlovchi amaldor.

Sharobdor- sulton sharobxonasining boshligʻi. Sharobxonada turli sharoblar tayyorlash bilan birga shirin ichimliklar tayyorlash uchun shakar ham saqlangan. Sharobdorlar amirlar orasidan tayinlanib, uning qoʻl ostida bir nechta gʻulomlar boʻlgan.

Amir-qoʻshin rahbari va bosqinchilik paytida hukmdorning ma'lum hududdagi rahbari.

Chashnegir-sultonning ovqatlanishiga mas'ul shaxs hisoblanadi. U dasturxon yozilganda sulton taomlaridan zaharlanmasligi uchun o'zi birinchi boʻlib tatib koʻrar edi.

Miroxur-sulton otxonalari boshligʻining lavozimi. U sultonga qarashli minib yuriladigan otlarga egalik qilgan. Miroxurlar harbiy yurishlarda ham faol ishtirok etganlar.

Tashtdor-sulton hammomlari va hovuzlarining boshligʻi. Uning qoʻl ostida bir necha gʻulom boʻlgan. Tashtdorlar sultonga juda yaqin odamlar boʻlgan.

A'lamdor-sulton bayrogʻini tutuvchi.

Otabek-bu unvon bosib olingan davlatlarda vazirlik mansabiga teng boʻlgan. Otabek mansabi, dastlab, Alp Arslon davridan boshlab joriy qilingan. Keyingi sultonlar davrida ham bu unvon yetakchilik qildi. Shahzodalarni tarbiyalovchi inson hisoblangan va keyinchalik bosh vazir lavozimiga teng yuritilib kelingan. Otabeklar turkiy qullardan chiqqan sarkardalar boʻlib, dastlabki paytlarda ular shahzodalarga tarbiyachilik qilganlar. Eron, al-Jazira va Suriyada sultonlarning harakat koʻl amini

mahlalliy otabelklar cheklab turdilar. O'sha paytdagi musulmon Yaqin Sharqining tarixida otabelklar katta kuch edilar¹⁴⁴.

Voliy-viloyat boshqaruvi qo'lida bo'lgan. Ular o'z hududiga tegishli barcha sohalarga boshchilik qilganlar. Ular huzurida alohida idoralar bo'lgan. Voliylar hukmdor orqali lavozimga tayinlanganlar. Shahar boshliqlari ham shaharga tegishli barcha masalalarga, harbiy sohadan tashqari, boshchilik qilganlar.

Shihna- "Harbiy hokim" deb yuritilgan. Shahardagi tartib va nazoratni tartibga olish bilan shug'ullangan.

Noib-shihna yordamchisi bo'lgan. Ularning vazifalari: tartibni buzganlarni imomlardan maslahat olib jazolash. Yana bir vazifasi joylardagi tartibni nazorat qilganlar.

Omil-joylarda soliq yig'ish bilan shug'ullanganlar.

So'boshi-qo'shin sarkardalaridan biri hisoblangan.

Davlatda faoliyat yuritgan vazirliklar va ularning vazifalari:

Devoni tug'ro- eng muhim devon, uning boshlig'i bosh vazir o'rinbosari mavqeyiga ega bo'lgan. Devoni tug'ro sulton farmoni, qarorlari, rasmiy hujjatlarini tayyorlash, ularni tasdiqlash uchun taqdim etish, markazdan joylarga rasmiy hujjatlarni yuborish, joylardan markazda qabul qilish, chet ellarga maktublar yuborish, davlat hujjatlarida maxfiylikni ta'minlash ishlariga rahbarlik qilgan.

Devoni istifo-moliya devoni. Davlat kirim-chiqimlari, soliqlar bilan shug'ullangan, ularni ro'yxatga olishga mas'ul devon.

Devoni ishrof-davlat nazorati devoni. Ushbu devon moliya-soliq ishlarini, hisoblarni tekshirish, vaqf mulklari ustidan nazorat qilish, sulolaga tegishli yer-suv, qimmatbaho moliya qog'ozlari, zarbxonalar, bozorlar mutasaddilari, soliqchilar, amaldorlar ustidan nazorat olib borgan.

Saljuqiylarga ulkan davlat tuzish yo'lida cheksiz muvaffaqiyatlar keltirgan omil bu, shubhasiz, ularning harbiy texnikasi va mahoratidir. Albatta, o'g'uz-turkman qabilalarining o'z raqiblari ustidan qozongan g'alabalarida ularning jangovar sifatlari rolini inkor etib bo'lmaydi. Bundan tashqari, XI asr o'rtalariga kelib istilolar jarayonida saljuqiylar

¹⁴⁴ Босворт К.Е. Мусулмон сулолалари. -Т.: "Fan", 2007. -Б. 90.

harbiy tashkiloti yuksalib boradi. Ularning harbiy quvvati va hukmronligi asosini nisbatan oz muddat ichida muntazam qo'shin tashkil etilib, ko'chmanchilarning, urug'-qabila lashkarlarining endilikda mavqelari ancha pasayib qolgan edi¹⁴⁵.

Saljuqiylar harbiy tuzilmasi o'sha davrda "lashkari ijaraxo'r" va "jaridayi iqtaat"ga bo'lingan. Ulardan birichisining ma'nosi "maosh oluvchi lashkar" va ikkinchisi "iqto ro'yxatlarida turuvchi lashkarlar" deb atalgan.

Qo'shinning o'zi bir necha qismlardan tashkil topgan: sulton gvardiyasi (xos), saroy, qo'shinlari(mufridot), shahzodalar va sulolaning boshqa a'zolari qo'shini, shuningdek, vassallar lashkarlaridan iborat edi. Xazinadan maosh oluvchi lashkar boshliqlari va oddiy jangchilar devoni jaysh ro'yxatlarida qayd etilgan.

Professional qo'shin turkiylar, eroniylar, arab, kurd, arman va boshqa millatlarda tashkil topgan edi. Davlat qo'shinidan iqto olgan amaldorlar ham davlat ro'yxatida turgan va boshqaruv tarkibiga kiritilganlar. Malikshoh hukmronligi davrida 40 mingdan 47 mingga o'tliqlar soliqlardan ozod qilinganlar. Ular tinch davrlarda favqulodda soliqlar va nafaqa hisobidan kun kechirganlar.

Saljuqiylar qo'shini, asosan, kamon bilan jang qilishni yaxshi ko'rishgan. Bo'ri uvullashini eslatadigan jangovar hayqiriq bilan dushmanga qo'qqisdan hujum qilib, ular odatda dushmanga, asosan, kamon o'qi yog'dirib yolg'ondan chekinganlar. Ko'chmanchilarning ko'ngilli lashkarlari qo'shni yerlarga tez-tez bosqinchilik hujumlari qilib asirlar, otlar, xachirlarni o'lja olishgan. Nikita Xoniya ta'kidlashicha, jangdan so'ng kamanchilar o'l gan dushmanlarini bosh terisini shilib olishgan.

Sulton Sanjar hukmronligi davrida o'g'uz harbiy an'analari qayta tiklana boshlandi. Esiji o'gli Alining guvohlik berishicha, uning vaqtida "o'g'uz to'ra" rasmiga rioya qilingan. Unga ko'ra qo'shinning o'ng qanotiga an'ana sifatida qayi va bayot qabilasining beklarbegi, so'l

¹⁴⁵ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: "Давлат илмий нашриёти", 2018. -

qanotga esa bayundur va bijanak qabilasidan beklarbegi tayinlangan. Ibn al-Asir va Hofizi Abro‘l arning qayd qilishlaricha, ikki katta guruhga-Nosiriddin Abu Shujo To‘tibek rahbarligidagi uchuqlar va Ko‘rduq ibn Abdon Hamid boshchiligidagi buzuqlarga bo‘lingan. Uchuqlar “katta” va buzuqlar- “kichik” qabilalar ro‘yxatiga kiritilganlar va ular qo‘shinning o‘ng qanotini tashkil qilganlar. O‘g‘uz qo‘shini qo‘shinning ikki qanotidan tashqari markaz (manglay), shuningdek, avangard va qo‘riqchi qo‘shinlar, kuzatuvchi harbiy qismlardan iborat bo‘lgan.

Saljuqiylar qo‘shini tarkibida mamluklardan tuzilgan qismlar, ko‘chmanchilardan tashkil topgan ko‘ngilli lashkarlar, shuningdek, yollanma vassallar qo‘shini ham bor edi. Har bir qo‘shinning alohida qurol-yarog‘i, kiyim-boshi, harbiy tug‘ va bayrog‘i bo‘lgan¹⁴⁶.

XI-XII asrlarda Xuroson sultonligida Yaqin va O‘rta Sharqning ko‘pchilik boshqa regionlari kabi qurol-yarog‘lar og‘irlashadi. Shamshirning roli oshadi, sovut va zirhlarni chopib tashlovchi ikki dastalik shamshirlar paydo bo‘ladi. Og‘ir qurollangan otliqlarning asosiy roli dastalik 6-8 mil uzun nayza edi. Yengil qurollangan otliq jangchilar esa kalta nayzalardan foydalanishgan. Asosan dehqonlardan olingan piyoda askarlar esa sepoya va shohalardan qurollanganlar. Ko‘chmanchi jangchilarda esa qilich, pichoq, qalqon, cho‘qmor, so‘yil, tig‘i torayib boruvchi yengil jang boltalari mavjud edi. Ular shaharlarni qamal qilishda maxsus arqonlardan ham foydalanishgan. Astariga yirik metall halqalar o‘rnatilgan zirhlar, tangasimon, qat-qat, asosi charm teri bo‘lgan jang sovutlari (javshan tanure) bo‘lgan¹⁴⁷.

Saljuqiy sulola hukmdorlar:

Ruknuddunyo vaddin To‘g‘rul I (1038-1063)

Azudu-davla Alp Arslon (1063-1072)

Jalolu-davla Malikshoh I (1072-1092)

Nosiruddin Mahmud I (1092-1094)

Ruknuddin Berk Barkyoruk (1094-1105)

Muizzuddin Malikshoh II (1105)

¹⁴⁶ Хасанов Ф. Турон халклари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018. -Б. 258.

¹⁴⁷ Хасанов Ф. Турон халклари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018 -Б. 261.

G'iyosiddin Muhammad I (1105-1118)

Muizzuddin Sanjar (1118-1157)

Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Tarixiy shaxslar sharhi”** uslubi orqali mustahkamlash.

.r.	Shaxslar	Kim bo'lgan	Tarixda qanday iz qoldirgan
	Malikshoh		
	G'iyosiddin Muhammad I		
	Sulton Sanjar		
	Dovud IV		
	Azudu-davla Alp Arslon		
	Nizomulmuk		

Mavzuni “Tarixiy shaxslar sharhi” uslubi orqali mustahkamlash uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

1. Mazkur jadval talabalarga taqdim etiladi
2. Mazkur jadvalni talabalar to'ldirishi uchun 6 daqiqa vaqt beriladi
3. Mazkur jadval asosida talabalarga mustaqil fikr yuritishlariga imkon yaratiladi

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Saljuqiylar davlatining tashkil topishi haqida ma'lumot bering?
2. Saljuqiylar davlatining siyosiy tarixi haqida ma'lumot bering?
3. Saljuqiy hukmdorlar qaysi davlatlar hududlariga harbiy yurish uyushtirgan?
4. Saljuqiylar davlat boshqaruvi tizimi qay tarzda amalga oshirilgan?
5. Saljuqiylar davlatining harbiy san'ati haqida ma'lumot bering?
6. Saljuqiy hukmdorlarning hukmronlik yillarini ayting?

7. Saljuqiylar davlatidagi faoliyat yuritgan devonning nomlari va vazifalarini ayting?

8. Sulton Sanjar hukumronligi davridagi islohatlar haqida soʻzlab bering?

9. Saljuqiylar davlatni boshqarishda nimalarga ahamiyat bergan?

10. Davlatni inqiroziga sabab boʻlgan omillar?

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Hasanov A. Makka va Madina tarixi. T., “Mehnat”, 1992-yil.
2. Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. - T., “Toshkent Davlat yuridik instituti”, 2005-yil.
3. Abdirahimova N.A, Isakova M.S, Sulaymonova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T., “Sharq”, 2007-yil.
4. Azamat Ziyoy. Oʻzbek davlatchiligi tarixi. -T., Sharq, 2000-yil.
5. Eshov B. Oʻzbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T., “Oʻzbekiston Milliy Universitet”, 2012-yil,
6. Sagdullayev A. va boshqalar. Oʻzbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T., Akademiya, 2000-yil.
7. Alimova D.A, Rtveladze E.V. Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., “Sharq”, 2001-yil.
8. Sagdullayev A.S, Eshov B. Oʻzbekiston tarixi. II-nashr. -T., “Universitet”, 1999-yil.

Axborot manbalari

11. www.ziynet.net

12. www.history.ru

12-Mavzu: Qoraxoniylar davlatining davlat boshqaruv tizimi.

Reja:

1. Qoraxoniylar davlatining davlat sifatida shakllanish tarixi.
2. Qoraxoniylarning boshqaruv tizimi.
3. Qoraxoniylar harbiy san'ati tarixi.
4. Qoraxoniylar xoqonlarning hukmronlik yillari.

Tayanch iboralar: Qoraxon, Bug'roxon, kichik xoqon, eloqxon, agichi, jantdor, ulkan cherik, yatan, soqim, cho'ram, bek, tekin, imom, Kitob al-kamin fi-tarix, Yalavoch.

X asrning ikkinchi yarmiga kelib ichki ziddiyatlarning ko'payishi va keskinlashuvi natijasida Somoniylar davlati kuchsizlana boshladi. Somoniylarga tobe bo'lgan viloyatlarda, ayniqsa, Xurosonda ular hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan isyonlar, toju-taxt uchun uzluksiz olib borilgan kurashlar Somoniylar davlati inqirozini yaqinlashtirgan edi¹⁴⁸. Bunday vaziyatdan Yettisuv va Qoshg'arda yashovchi turkiy qabilalar unumli foydalandilar. Chunki, X asrning ikkinchi yarmiga kelib bu hududlardagi turkiy qabilalar-qarluqlar, chigillar, yag'molar va boshqalar o'zlarining kuchli feodal davlatlarini tuzishga muvaffaq bo'lgan edilar.

Qoraxoniylar turkiy qavmlar ekanligi aniq bo'lsada, ularning kelib chiqishi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ammo, ular o'z sulolalarini "Afrosiyob avlodi" deb ataganlari hamda Qoraxoniylar chigillar yoki qarluqlar qavmiga mansubligi haqidagi nuqtai nazar o'rta asrlar davri tarixining ko'pchilik tadqiqotchilari tomonidan e'tirof etiladi¹⁴⁹.

Qoraxoniylar islom dinini Horun Bug'roxon davrida qabul qilgan. Ayrim yozma manbalarda u Bug'roxon at-Turkiy deb nomlanadi. Misol uchun, Ibn al-Asir o'zining "Kitob al-kamin fi-tarix" asarida ma'lumot berishicha Qoshg'ar, Bolasog'undan to Chan (Xitoy) chegarasigacha bo'lgan yerlar Bug'roxon at-turkiy hukmronligida bo'lgan.

Butun Tyanshan va Yettisuvni egallab bo'lganidan so'ng Qoraxoniylar somoniylar davlati tarkibida bo'lgan Movounnahrğa ham

¹⁴⁸ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.171.

¹⁴⁹ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.172.

harbiy yurishlar uyushtira boshladilar va tez orada Fargʻona va Isfijob (Sayram)ni bosib olishga erishadilar. 990-992 yillarda Qoraxoniylar Horun (Hasan) Bugʻroxon Somoniylarga tegishli boʻlgan Oʻrta Osiyodagi mulklarning kattagina qismini bosib oldi. Qoraxoniylar Buxoroga bir necha bor yurishlar olib bordilar. Mazkur maqsad yoʻlidagi birinchi urinish 992 yili roʻy beradi¹⁵⁰. Bugʻroxon Buxoroni egallaydi. Shu yilning oʻzida Bugʻroxon dardga chalinib vafot etadi, uning qoʻshinlari esa Buxoroni tashlab ketadi¹⁵¹. Manbalarning maʼlumot berishicha, Somoniylar davlatida katta taʼsirga ega boʻlgan turk lashkarboshisi, Xuroson hokimi Abu Ali Sinjuriy va yana bir lashkarboshi Balx hokimi ochiqdan ochiq Qoraxoniylarga yon bosadilar. Yaʼni, Sinjuriy Hasan Bugʻroxon bilan muzokara olib borgan boʻlsa, Foyiq Raboti Malik yaqinidagi Bugʻroxonga qarshi jangda, har tomonlama ustunlikka ega boʻlishiga qaramay taslim boʻladi. Hasan Bugʻroxon Samarqand va Buxoroni egallagach, kasalligi tufayli urushni davom ettira olmasdan Qoshgʻarga qaytishda, yoʻlda Qoʻchqorboshi degan joyda 993 yilda vafot etadi.

Hasan Bugʻroxon vafotidan soʻng ulugʻ xon (Qoraxon) lavozimini, uning jiyani Ali ibn Muso egallaydi. Ammo u uzoq vaqt taxtga oʻtira olmadi. Taxtni Qoraxoniylar Nasr Eloxon egalladi. Somoniylar davlatidagi ichki nizolarni, somoniy hukmdorlari va Turk lashkarboshilari oʻrtasidagi kelishmovchiliklarni diqqat bilan kuzatib turgan Qoraxoniylar 996 yilda Nasr Eloxon boshchiligida Buxoroga yangi yurishlar uyushtirdilar¹⁵². Somoniy hukmdori Nuh II Gʻazna hokimi Sabuqteginni yordamga chaqiradi. Balxda katta qoʻshin bilan yetib kelgan Sabuqtegin Kesh va Nasaf oraligʻida joylashib, oʻz qoʻshinlari bilan kelib qoʻshilishini soʻrab Nuh II ga elchi yuboradi. Lekin oʻz “vassali” ga uncha ishonmagan Buxoro hukmdori oʻz vaziri Oʻzayrining fikriga qoʻshilib bu taklifni rad etadi va Sabuqteginning oʻzini Buxoroga chaqiradi. Bundan ranjigan Sabuqtegin oʻgʻli Mahmudni 20 minglik qoʻshin bilan Buxoroga joʻnatadi. oʻzi esa Nasr Eloxon bilan muzokaralar olib borib, Qoraxoniylarga Somoniylarga tegishli boʻlgan shimoliy hududlarni taqdim etadi.

¹⁵⁰ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: “Шарқ”, 2000. -Б.104.

¹⁵¹ Баракаев Ж., Ҳайдаров Й. Бухоро тарихи. -Т.: “Ўқитувчи”, 1991. -Б.43.

¹⁵² Асқаров А. Ўзбекистон халқлари тарихи. -Т.: “Фан”, 1992. -Б.117.

Shunday qilib, 1005 yilga qadar Somoniylar va Qoraxoniylar o'rtasida ko'plab urushlar bo'lib o'tdi va o'sha yili so'nggi Abu Ibrohim Ismoil Muntasirning Buxoroni ozod etishdagi harakatlari muvaffaqiyatsiz yakunlandi va Somoniylar siyosiy tarix sahnasidan tushib ketdilar. Xullas, XI asr boshlarida Qoraxoniylar davlati Amudaryoning yuqori va o'rta oqimlaridan to Yettisuv, sharqda esa Tarim daryosigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan edi. Ayrim olimlarning fikricha, shu vaqtdan boshlab Qoraxoniylar Buxoro, Samarqand va umuman, Amudaryogacha bo'lgan hududlarni ham boshqara boshlaganlar. Siyosiy jihatdan olib qaraganda, XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. Sharqiy Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Chag'aniyon, Xuttalon viloyatlari Qoraxoniylar, Amudaryoning chap qirg'oq yerlari to G'aznagacha, Xuroson, Seyiston viloyatlari G'aznaviylar, Xorazm esa Xorazmshohlar, Orol dengizidan sharq va shimoldagi yerlar O'g'uzlar ittifoqi tomonidan boshqarilar edi.

Qoraxoniylarning Movarounnahrda hukmronligi 200 yil davom etadi. Somoniylarga tegishli bo'lgan yerlarni egallash jarayonida Qoraxoniylar boshqaruvchilari vaqtinchalik bo'lsada birlashib turkiylarning yirik Qoraxoniylar davlatini barpo etadilar. Shijoatli va mohir sarkarda Nasr Eloqxon do'stona munosabatlar o'rnatish tarafdori ekanligini bildirib qo'shnisi Mahmud G'aznaviy bilan elchilik munosabatlarini o'rnatadi. Ammo bunday munosabatlar uzoq cho'zilmadi. Mahmud G'aznaviy shimoliy Hindistonda urush olib borayotganidan foydalangan Nasr Eloqxon 1006-yilda katta qo'shin bilan Amudaryodan kechib o'tib Balx, Tus, Nishopur shaharlarini bosib oladi. Shunga qaramasdan, G'aznaviylar Qoraxoniylarni Xurosondan haydab chiqarishga muvaffaq bo'ldilar. 1008 yilda Qoraxoniylar yana Xurosonga hujum qildilar. Mahmud G'aznaviyning o'zi 500 ta jangga o'rgatilgan fillarga ega bo'lgan katta qo'shin bilan Qoraxoniylarga qarshi chiqdi va Balx atrofida bo'lgan jangda ularning qo'shinini tor-mor keltirdi¹⁵³. XI asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa qoraxoniylar shu yuz yillikning 40-yillaridan buyon kuchga kira boshlagan boshqa bir turkiy sulola-saljuqiylar bilan keskin

¹⁵³ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: "Шарқ", 2000. -Б.105.

munosabatda bo'la boshlaydilar. Ma'lumki, saljuqiylar XI asrning 40-yili g'aznaviylarni mag'lubiyatga uchratib, 50-yillardan esa Xurosondan Bag'dodgacha bo'lgan hududni o'zlariga bo'ysundirishga erishgan edilar¹⁵⁴.

Mintaqada hukmronlikka intilish borasidagi bu ikki sulola o'rtasida kurashning amaliy ko'rinishi sifatida 1089 yil voqealarini keltirish mumkin. Chunonchi, o'sha yili saljuqiy hukmdor Malikshoh Buxoro, Samarqand, O'zgan kabi shaharlarda o'z siyosiy hukmini o'rnatib, qoraxoniylarga qattiq zarba berishga muvaffaq bo'ladi.

Sharqiy Turkistonga bostirib kirgan kidanlarni (qoraxitoylar) 1128 yilda mag'lubiyatga uchratgan qoraxoniylar Ahmad Qoshg'ariy ham arslonxon deb atalgan¹⁵⁵. 1137 yil qoraxoniylar Xo'jand atrofida qoraxitoylardan yengiladi. Xususan, qoraxoniylar tarix sahnasidan ketishi 1213 yilda yuz berdi. Buni xorazmshoh Sulton Muhammad amalga oshiradi¹⁵⁶.

Qoraxoniylar davlatining boshqaruvidagi mansab va unvonlar:

Xoqon-ul-xoqon-Qoraxon yoki Tamg'achxon. Qoraxoniylar davlatining oliy boshlig'i. Xoqonlik taxti merosiy hisoblangan. Arab manbalarida mazkur unvon sulton ul salotin, fors manbalarida shahanshohga muvofiq keladi.

Eloqxon-xoqondan keyingi pog'onada turuvchi shaxs. U xoqon xonadoniga mansub bo'lib, viloyatning mulk sohibi hisoblangan. El-yurt hokimi hamdir.

Ulug' hojib (Tayangu)-davlat va fuqarolar ishlari bo'yicha xonning yaqin maslahatchisi deb hisoblangan. Uning vazifalari: qonun va odatlarga rioya etish, rasmiy tantanalarni tashkil etish, fuqarolarning iltimos va shikoyatlarini qabul qilish va oliy hukmdorga yetkazish, shuningdek, u elchilarni qabul qilish ishlariga ham ma'sul xodim bo'lgan.

Bosh Vazir-u barcha ma'muriy, siyosiy va xo'jalik muassasalarni nazorat qilgan

¹⁵⁴ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: "Шарқ", 2000. -Б.106.

¹⁵⁵ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: "Давлат илмий нашриёти", 2018 -Б.268.

¹⁵⁶ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: "Шарқ", 2000. -Б.106.

Sohibbarid-xoqonlikdagi barcha elchilik munosabatlari va viloyat hokimlari ustidan maxfiy nazorat ishlarini boshqargan.

Mustavfiy (Agichi)-barcha xoqonlikdagi moliyaviy ishlarni boshqargan. Bundan tashqari, xazinaga rahbarlik qilgan.

Mirza-qoraxoniylar davlatida fuqarolarning iltimos va shikoyatlarini eshitish va bu haqida hukmdorga axborot berish, elchilarni qabul qilish va kuzatib qo'yish ustidan nazorat qilishi kerak edi.

Munshiy-davlatdagi barcha kirim-chiqimlar hisob-kitobi bilan shug'ullanuvchi lavozim egasi hisoblanadi.

Jantdor-sultonning chiqargan jazolarini ijrochsi bilan shug'ullangan yoki sultonning jallodi.

Takin-viloyat noibi hisoblanadi.

Bek-qabila boshliqlari.

Rais-xoqonlikda shaharlarni boshqaruvchi shaxslar rais deb yuritilgan.

Muxtasib-bozorlarda tarozi va narx-navoni, aholi tomonidan shariat qonun-qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladigan shaxsdir.

Shayxulislom-xoqonlikdagi barcha diniy masalalar rahnamosi hisoblangan.

Qo'shchi-xoqon ovining tashkilotchisi hisoblanadi.

Imom-juma namozida oldinda turuvchi, musulmon jamoasi boshlig'i.

Said-payg'ambarimiz avlodlari hisoblanib shahar yoki qabilalar ittifoqining rahbari bo'lgan.

Mufti-diniy masalalar bo'yicha fatvo chiqaruvchi shaxs.

Oshchi(Bovarchi)-xoqon oshxonasi boshlig'i hisoblanadi.

Og'ichi-xoqonning shoyi kiyimlar xazinachisi.

Birin-mehmonlarni qabul qilish bo'yicha mutasaddi shaxsdir. Bundan tashqari, saroy ishlarini boshqargan.

Yalavoch(yalafar)-xoqonlikdagi elchilar shunday deb atalgan.

Qozi ul-quzzot -xoqonlikdagi sud-tartibot ishlarini boshqarish qo'lida bo'lgan.

Qozi -joylarda sud ishlari bilan shug'ullangan.

Qoraxoniylar davlatida gvardiya boshlig'i devoni muhim rol o'ynagan. Yusuf Bolasog'uniy "hukmdor o'z mavqeini mustahkamlash uchun jangchilarni rag'batlantirib turishi lozim" deb bejiz ta'kidlab o'tmagan. Asosiy harbiy lavozimlarni hukmdor xonadon vakillari, mahalliy hokimlarning vakillari va xizmat muddatini o'tab bo'lgan turk qullari egallashgan. Yusuf Bolasog'uniy qoraxoniylar qo'shinining bunday qismlarini cherik, yuz, ming deb atagan. Yusuf Bolasog'uniy qo'shinini "qo'shun" deb, otliq qo'shin va lashkarni - su, erekt va cherik deb atagan, jang maydonida bevosita jangchilar rahbarlik qiladigan kichik zobitni-chobush, otliqlar rahbarini-xaylboshi deb nomlagan. Qurollar va harbiy aslaha-anjomlardan qilich, baldu-oybolta, oq yariq-sovut, qamchilig'-qamchin va temirqalqon nomlari uchraydi. Yusuf Bolasog'uniy hukmdorga qo'shinga nisbatan hushyor bo'lishni, xususan, har bir qismda jangchilar miqdorini 4 mingdan oshirmaslikni, xalqlarni zabt etmoqlik uchun o'ng qo'lda boylik, so'l qo'lda-diplomatlar va qilich tutmoq zarurligini nasihat qilgan.

Qoraxoniylar bilan qo'shni davlatlar o'rtasida o'zaro ayg'oqchilik tizimi mavjud bo'lgan. "Qobusnoma" da buvayhiylar vaziri Sohib Ismoil ibn Abbod tilidan aytilgan aniq faktni bir eslab ko'raylik: "Mening xabarchimning Qoshg'ardan yozishicha, xoqon falonchi sipohsolor bilan maslahatlashgan, men esa uni unga nima deganini bila olmadim... Bugun boshqa xat keldi, u yerdagi ahvol haqida. Mana shuning uchun men mamnunman". Sulton Mahmudning ham O'zganda Nasr ibn Ali davrida shunday xabarchisi bo'lgan.

Qoraxoniylar davrida muntazam armiya tarkibi xoqonni, qal'ani himoya qiladigan, soqchilik qiluvchi, dushmanni kuzatuvchi kabi guruhlardan iborat bo'lgan. Qo'shindagi eng kichik birlik o'nlik tuzilma hisoblangan. Harbiy yurish davrida o'ng qo'l, chap qo'l, o'rta saf, orqa safga bo'lingan hamda 9 xil tug' ishlatilgan. O'q-yoy, bolta, xanjar, qilich turli shakllardagi sovutlardan foydalanilgan. Harbiy taktikaga, mudofaa inshootlarini barpo etishga va jangchilarni jangovar ruhda tarbiyalashga katta ahamiyat berilgan¹⁵⁷.

¹⁵⁷ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: "Давлат илмий нашриёти", 2018. -Б. 271.

Qoraxoniylar davridagi harbiy san'at haqida ma'lumotlar nihoyatda oz. Shuning uchun bu xususida bilimimizni biroz bo'lsada boyitish uchun shu davrda yashagan buyuk allomalar, xususan, Mahmud Qoshg'ariy va Yusuf Xos Hojib asarlariga murojaat qilishimizga va ulardan harbiy ishga aloqador bo'lgan joylarni olib, sinchiklab o'rganib chiqishimizga to'g'ri keladi. Qoraxoniylar atamasi xususida M. Qoshg'ariy bunday deydi: "Xoqoniya shohlari qora deb ataldi. Bug'ra qora xoqon deyilgani kabi".

Qoraxoniylar qo'shinida askarlarning nomi va ozig'i yozilgan maxsus daftar bo'lib, uni oy bitigi deyishgan. Bu davrda shahar, qal'a mudofasiga ham ancha e'tibor berilgan. Qoraxoniylar shahar devorini qurayotganlarida urush uchun tayyorlangan maxsus burjlar-o'lkaklar qurganlar. Qo'shinning safar paytida oldinda boradigan qismi yizak deb nomlangan. Qoraxoniylar qo'shini dushman bilan to'qnashganda "ulkan cherik" deb nomlangan bir hiylani ishlatgan. Unga ko'ra, askarlar chor atrofdan to'da-to'da bo'lib to'planishgan. Bir to'da ilgari ketgach, qolganlari ham unga ergashgan. Mana shu hiyla ishlatilganda yengilish juda kam bo'lgan.

Yog'ochdan yasalgan kamonlar "yatan" deb atalgan. Kamonchilarga katta e'tibor berilgan. Ularning hunnular davridan qolgan mashhur hushtakli o'qlar bilan qurollangan bo'lishlari ehtimoldan holi emas. Chunki, kamon o'qining ustiga kiygiziladigan moslamani "soqim" deb atashgan¹⁵⁸. Bunda yog'och archa bujuri shaklida qirqib olinib, ichi o'yiladi va uch tomondan teshib o'qlarning ustiga kiygiziladi, shunda o'q uchgan vaqtda hushtak chalinadi. Albatta, bunday hushtakli o'qlar dushman askarlari ko'ngliga g'ulg'ula solish, ruhiy ta'sir ko'rsatish maqsadida ishlatilgan. Qoraxoniylar yengil o'q bilan otishni "cho'ram" deb ataganlar. Bunday oddiy bir o'q otilishi uzoqroqdir. O'q uzoqroq borishi uchun jangchi uni chalqancha yotib otgan, bu holda otilgan o'q "cho'ram o'qi" deyilgan.

Mahmud Qoshg'ariy qoraxoniylarning "shovqin-suron bilan dushman ustiga hujum qilishlari, qalqon va nayza bilan zarba berilishlari, jangda matonat bilan qattiq olishishlari, sulh so'ralgan holatda darhol jangni to'xtatishlari haqida yozadi. Qoraxoniylar raqiblariga duch kelganlarida

¹⁵⁸ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: "Давлат илмий нашриёти", 2018. -Б.272

uni o‘rab olishga harakat qilib, dushmanning qochish yo‘llarini kesib qo‘yishga harakat qilganlar. So‘ngra otlardan tushib g‘azab bilan arslondek nara tortib dushmanga hamla qilganlar va bu bilan dushman kuchi kesilib, zaiflashishiga erishganlar. Qo‘shin oqar suvga qiyoslangan, shuning uchun “askar qo‘zg‘alsa suv yekti” deyilgan. Ehtimol, bu davrda keng tarqalgan suboshi atamasi qo‘shin boshlig‘i degan ma‘noni bildirishini e‘tiborga olsak, bu nom bejiz berilmagan bo‘lsa kerak. Urush harakatlari bo‘lmayotgan davrda qo‘shinlar doimiy suratda harbiy mashqlar o‘tkazib turishgan. Xonlar bu vaqtda qo‘shin tarkibidagi qullarga ot berganlar va harbiy mashq tugagach, uni qaytarib olganlar¹⁵⁹.”

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari qoraxoniylar davri harbiy san‘ati haqida birmuncha fikr yuritish imkonini beradi. Asarda sarkardaning mahorati, qo‘shin tuzish, yovga qarshi qo‘shin tortish, jang qilish usullari haqida qiziqarli ma‘lumotlarni uchratish mumkin. Chunonchi, Yusuf Xos Hojib harbiy ish, qo‘shinni tashkil etishda avvalambor lashkarboshilarni tanlashga katta e‘tibor beradi. Ko‘plab ijobiy xislatlarni o‘zida jamlagan jasur, uddaburon, tadbirkor lashkarboshi topish so‘ngra qo‘shinni yovga qarshi tayyorlash chora-tadbirlari haqida so‘z yuritadi. Uning ta‘kidlashicha, qo‘shin tuzishda uning soniga emas, sifatiga e‘tibor bermoq lozim. Chunki, qo‘shin ko‘p sonli bo‘lsa bebosh bo‘ladi. Sinalgan jangchilardan iborat oz sonli qo‘shin 12 minglik qo‘shinni ham pisand qilmaydi. Qo‘shin miqdori 4 ming kishidan oshmasligi kerak. Bu qo‘shin bilan yovga qarshi otlanganda, avvalo, oldindan ilg‘or saf va ayg‘oqchi saf yuboriladi. Umuman olganda asar mazmuni bo‘yicha qoraxoniylar qo‘shinining safardagi holati bizningcha, quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan: safar chog‘ida bayroqdor-yo‘lboshlovchilar o‘z rejalarini sir tutilishiga katta e‘tibor berganlar. Qo‘shin tabiiy jihatdan qulay bo‘lgan, atrofida o‘t-o‘lan, suv bo‘lgan mustahkam yerda joylashib qarorgoh qurgan. Uning atrofida soqchi saflar qo‘yilgan. So‘ngra lashkarboshi ilg‘or saf bilan yovga yaqinlashgan, bunda til oldirmaslikka va bu bilan o‘zlarining oz sonli ekanliklaridan yovni xabardor qilib qo‘ymaslikka e‘tiborlarini qaratishgan. Yaxshilab o‘rganib

¹⁵⁹ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018. -Б.275.

olgach, soʻngra yov tomonidan til olishga harakat qilingan. Odatda, bunday vaziyatda yovdan ustun chiqish uchun 2 xil usul ishlatilgan, yaʼni, birinchidan, yovga nisbatan hiyla-nayrang ishlatish va ikkinchidan, sogʻliq va hushyorlikni qoʻldan bermaslik kerak. Yov qoʻshini miqdor jihatdan ancha ustun boʻlgudek boʻlsa, u holda jangga birinchi boʻlib yov tashlanishini kutish yoki yov bilan sulh tuzishga harakat qilmoq joiz boʻlgan. Bordi-yu, sulh tuzishning imkoni boʻlmasa, u holda sovutlarni kiyib, qattiq jangga kirishish kerak. Markaziy Osiyoda moʻgʻullar bosqinigacha boʻlgan davrda “Quyaq” deb nomlangan sovut ishlatilgan. U yengsiz boʻlib, etagi uzun edi.

Jangchilarning jangovar kiyimboshlarining ogʻirlashuvi yangi qoʻshin turi-ogʻir qurollangan otliqlarning ajralib chiqishi va yangi hujum taktikasi-zich saf tortgan holda hujum qilish usulining paydo boʻlganligi bilan bogʻliqdir. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkistondan Movarounnahrda X-XI asrlarda kelgan qoraxoniylar qoʻshinida ogʻir qurollangan otliq qoʻshin boʻlgan, toʻsatdan hujum qilish qoʻllanilgan¹⁶⁰.

Jang oldidan xon qoʻshin safi oldidan oʻtib askarlarga inʼom ulashgan, jangchilarni maqtab, ularning koʻnglini koʻtargan, bir qism lashkarni pistirmaga joylashtirgan, soʻngra qolganlarni jangga boshlagan. Raqibga oʻzlarining oz ekanliklarini bildirmaslik maqsadida yovga juda shiddatli hamla qilib, tezda orqaga qaytishgan. Piyoda oʻqchilar hujumga madad berishgan, qoʻshinning oldingi saflarida jangovar, sinch, yoshi katta bahodir jangchilar jang qilgan. Qoʻshinda tartibni saqlash, parokandalikdan, atrofdan boʻladigan xavf-xatardan muhofaza qilish maqsadida oldinga va orqaga ishonchli kishilardan iborat qism qoʻyilgan, oʻng va soʻl tomonlarga ham shunday qism joylashtirilgan. Dushman hujumga tashlangudek boʻlsa, uni uzoq masofadan turib oʻqqa tutishgan, yaqinroq kelganida nayzabozlik jangiga, ikkinchi tomon aralashib ketgan taqdirda, qoʻl jangida qilich va oybolta bilan jang qilingan. Yov qoʻshini orasida sarosimalik, zaiflik, parokandalik alomatlari paydo boʻlishi bilan

¹⁶⁰ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018. -Б. 276.

butun kuch bilan uning ustiga tashlanilgan, yov qochsa uni uzoq ta'qib etmaganlar.

Shunisi e'tiborga loyiqki, jangda matonat ko'rsatganlarga unvonlar berilgan, yaradorlarni davolashgan, asir tushganlarni pul, mol evaziga qutqarib, qaytarib olishga harakat qilingan. Jangda halok bo'lganlarni hurmatlab dafn etib, ulardan qolgan farzdalarining haqi berilgan¹⁶¹.

Davlatdagi harbiy lavozimlari:

Sipohsolor (Su boshi)-qoraxoniylar davlatida bosh qo'mondon hisoblanadi. Qo'shin eng yirik lavozimi. Yurishlar vaqtida qo'shinni odatda hukmdorning o'zi boshqaradi, shu bilan birga sipohsolor ham birga boshqargan. Bu lavozimni quyi tabaqadan bo'lgan kishilar ham egallashi mumkin edi.

Solor-qoraxoniylar davlatida lashkarboshi hisoblangan.

Sarxayl-qoraxoniylar davlatida otliq otryad boshlig'i.

Suboshilar yoki isfaxsolar-qoraxoniylar davlatining tashqi va ichki hayotida muhim shaxslar ya'ni lashkarboshilardir.

Yashg'ak-harbiy yurishlar paytida xon o'z chodirida dam olayotgan paytda xonni qo'riqlovchi askarlar shunday atalgan.

Yuqtug'lar-Yusuf Xos Hojib ma'lumotiga ko'ra-jang kunlarida yoki biror yerga borishda xonning kuzatuvchi soqchilar shunday atalgan.

Chabush-jang maydonida bevosita jangchilarga rahbarlik qiladigan kichik zobit unvoni.

Xaylboshi-jang maydonida bevosita otliq qo'shinga rahbarlik qiladigan shaxsdir.

Chovush-xoqonlikda yuzlik bo'linma rahbari shunday unvon bilan taqdirlangan.

O'nboshi-xoqonlikda o'nlik bo'linma rahbari shunday unvon bilan taqdirlangan.

Sohibi jaysh-viloyatdagi qo'shinlar boshlig'i.

Sarboz-qoraxoniylar davrida askarlar shunday atalgan.

Yagona xoqonlikning ulug' xoqonlari.

¹⁶¹ Хасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018. -Б. 277.

Ali ibn Muso _____

Ahmad I Arslon Qoraxon yoki Tug'onxon. 998 yilda hukmronligi tugagan.

Mansur Arslonxon (998-1015)

Ahmad II Tug'onxon (1015-1024)

Yusuf I Qodirxon (1026-1032)

Mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri-“Aqliy hujum” interfaol usulidan foydalaniladi.

Mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Qoraxoniylarning davlat sifatida vujudga kelish tarixini ayting?
2. Qoraxoniylar davlatining siyosiy tarixi haqida ma'lumot bering?
3. Yalavoch(yalafar) bu-...
4. Qozi ul-quzzot bu-...
5. Bitik bu-...
6. “Qutadg'u bilig” asarini muallifini ayting?
7. Yuqtug'lar bu-...
8. Munshiy-...
9. Qoraxoniylar tarix sahnasidan ketishi haqida ma'lumot bering?
10. Chovush bu -...

Mavzu bo'yicha savollar.

1. Qoraxoniylarning davlat sifatida vujudga kelish tarixini ayting?
2. Qoraxoniylar davlatining siyosiy tarixi haqida ma'lumot bering?
3. Qoraxoniylarning qo'shni davlatlar bilan olib borilgan munosabatlari haqida ma'lumot bering?
4. Qoraxoniylarning davlat boshqaruv tizimi qay tarzda amalga oshirilgani haqida ma'lumot bering?
5. Qoraxoniylarning harbiy san'at va jang taktikalari haqida ma'lumot bering?
6. Qoraxoniylar tarix sahnasidan ketishi haqida ma'lumot bering?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsuddinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. -T., “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi”, 2009-yil.
2. Hasanov A. Makka va Madina tarixi. T., “Mehnat”, 1992-yil.

3. Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. - T., "Toshkent Davlat yuridik instituti", 2005-yil.
4. Abdirahimova N.A, Isakova M.S, Sulaymonova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T., "Sharq", 2007-yil.
5. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. -T., Sharq, 2000-yil.
6. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T., "O'zbekiston Milliy Universitet", 2012-yil,
7. Sagdullayev A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T., Akademiya, 2000-yil.
8. Alimova D.A, Rtveladze E.V. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., "Sharq", 2001-yil.

Axborot manbalari

9. www.ziynet.net
10. www.history.ru

13-Mavzu: Xorazmshohlar davlatining boshqaruv tartiblari.

Reja:

1. Xorazmshohlar davlatining vujudga kelishi.
2. Xorazmshohlarning bosqinchilik yurishlari.
3. Xorazmshohlarning boshqaruv tizimi.
4. Xorazmshohlarning harbiy san'ati.
5. Xorazmshohlarning hukmronlik yillari.

Tayanch iboralar: Xorazmshoh, Ma'mun I, "Podshoh Qutbid-dunyo vad-din Abul-fath Muin Amiral-mo'minin", mamluk, ustozdor, omil, hojib, Devoni nazr, Devoni arz, "g'ulomlar gvardiyasi", xon, malik, amir-ul-umaro.

Xorazm Somoniylar davrida tobe viloyat hisoblanardi. X asr oxiri XI asrning boshlariga kelib Xorazm hukmdori Ma'mun I va uning o'g'li Ali ibn Ma'mun Somoniylar davlati qulaganidan so'ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib ko'rdilar. Xususan, 996 yilda shimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Muhammad ikki qismga bo'linib ketgan davlatni birlashtirib xorazmshoh unvonini oladi va Urganchni o'z poytaxtiga aylantiradi¹⁶². Ammo, Movounnahrda Qoraxoniylar va Xurosondagi G'aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo'lib qoldi. Xorazm 1017 yilda Mahmud G'aznaviy tomonidan zabt etildi. Xorazmshoh Ma'mun esa qatl etildi, 1004 yili asos solingan "Bayt ul-hikma" faoliyatiga chek qo'yildi¹⁶³. Xorazmning mustaqil davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishi Anushteginiy Xorazmshohlar sulolasi davriga to'g'ri keladi. 1040 yili G'aznaviylar davlati quladi¹⁶⁴.

Ushbu sulolaning asoschisi yoki birinchi vakili Anushtegin kelib chiqishi jihatidan o'g'uz turklaridan bo'lib, yoshligida Garjiston (Gurjiston) da yashagan va yollanma jangchi (mamluk) bo'lgan. Saljuq sultoni Malikshoh I davrida Anushtegin Tashtdorlik mansabiga (sulton hovuzlari va hammomlari ashyolari xazinachisi) ko'tarilgan edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, tashtdorlik mansabiga sulton o'zining ishonchli odamlarini tayinlar edi va ko'p o'tmay Anushtegin sultonning

¹⁶² Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.189.

¹⁶³ Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машҳур сулолалари. -Т.: "Akademiya", 2013. -Б.188.

¹⁶⁴ Асқаров А. Ўзбекистон халқлари тарихи. -Т.: "Фан", 1992. -Б.120.

yaqinlaridan biriga aylanadi. Natijada 1076 yilda Sulton Malikshoh Anushteginni Xorazm hokimi etib tayinlaydi¹⁶⁵. Anushtegin Saljuqiylarga tobe bo‘lib hokimiyatni boshqaradi va 1097 yilda vafot etadi. O‘sha yili uning o‘g‘li Qutbiddin Muhammad (1097-1128) Xorazm voliysi qilib tayinlanadi. Qutbiddin Muhammad Marvda tarbiyalangan¹⁶⁶.

Qutbiddin Muhammad otasi davrida o‘z davrining yirik shaharlaridan biri bo‘lgan Marvda ilm olgan, xususan, din ilmlarini yaxshi o‘rgangan edi. U Xorazm voliysi bo‘lgach, qobiliyatli hukmdor sifatida ulamolarga va din arboblari homiylik qiladi. Qutbiddin Muhammad Xorazmda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun anchagina kuch-g‘ayrat sarflagan bo‘lsada, rasman Saljuqiylarga tobe bo‘lgani bois, Sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qildi. U Saljuqiylarning oliy hokimiyat uchun o‘zaro kurashlarida ham faol ishtirok etganligi ma’lum. Tarixiy manbalarda Xorazmshohning unvoni “Podshoh Qutbid-dunyo vad-din Abul-fath Muin Amiral-mo‘minin” (“Dunyo va din qutbi, g‘alabalar otasi Mo‘minlar amiri-xalifaning yordamchisi”) deb ulug‘lanishi Qutbiddin Muhammad Saljuqiylarga tobe bo‘lsada, mavqeyi ancha baland bo‘lganidan dalolat beradi. Shu sababli bo‘lsa kerakki, 1128 yilda Qutbiddin vafot etgach Sulton Sanjar Xorazm taxtini uning o‘g‘li Otsizga topshiradi. U o‘n yil davomida (1128-1138) ulug‘ saljuqiy Sulton Sanjarga sodiqlik bilan xizmat qildi. Bu yillar ichida hech o‘ylamasdan, unga tobelik burchiga sodiq qoldi. Shu bilan birga o‘z hokimiyatini ham mustahkamlab bordi¹⁶⁷. Ulug‘ sultonning o‘z vassaliga hurmat-ehtiromi, ayniqsa, 1130 yilda Otsiz Sulton Sanjarni o‘limdan qutqarib qolganidan so‘ng nihoyatda oshgan edi. Biroq vaqt o‘tib Otsiz va Sulton Sanjar o‘rtasida kurash boshlanadi. Sulton Sanjar 1038 yil oktabrda Xorazmga qarshi yurish qildi. Hazorasp qal’asidagi jangda Otsizning qo‘shinlari tor-mor keltirildi. Jangda Otsizning sevimli o‘g‘li Otliq halok bo‘ldi. Xorazmni egallach, Sulton Sanjar uni boshqarish ishini jiyan Sulaymonshohga topshiradi. So‘ngra o‘zi 1139 yilda fevral oyida Marvga qaytib ketadi. Mahalliy aholi va

¹⁶⁵ Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Х. Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тарихи I Қисм. - Т.: “Академия”, 2000. -Б.105.

¹⁶⁶ Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машхур сулолалари. -Т.: “Akademiya”, 2013. -Б.188.

¹⁶⁷ Машарипов О. Хоразмнома, Хоразм. 2007. -Б. 152.

feodallar Otsizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydilar¹⁶⁸. Natijada u Sulaymonshohni Xorazmdan haydab yuboradi va bu yerda o‘z hokimiyatini tiklaydi. Qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar qo‘shinlari o‘rtasidagi hal qiluvchi katta jang 1141 yil 9-sentabrda Samarqand yaqinida bo‘lib o‘tadi. Jang Sulton Sanjar qo‘shinlarining tamomila tormor keltirilish bilan tugaydi. Sulton Sanjar bir necha navkari bilan Termizga qarab qochadi. Saljuqiylar davlatining bu qiyin ahvolidan Xoramshoh Otsiz zudlik bilan mohirona foydalandi. 1141 yil 21-oktabrda saljuqiylar poytaxti Marv shahriga yurish qilib, uni egalladi. 1142 yil may oyida Nishopur shahriga yurish uyushtirdi va uni ham o‘z qaramog‘iga oldi. Deyarli butun Movarounnahrni egallagan qoraxitoylar Xorazmshoh Otsiz bilan bitim tuzib, bu bitimga muvofiq qoraxitoylar egallagan bir qancha yerlar, jumladan, Buxoro shahrini boshqarish ishini Xorazmshoh Otsiz va uning qarindoshlari qo‘liga berdilar¹⁶⁹.

Alouddin Otsiz Xorazmni mustaqil boshqarish maqsadida bir necha marta Sulton Sanjarga qarshi (1138, 1141-1142, 1147-1148-yillar) isyonlar qilgan bo‘lsada, butunlay mustaqil bo‘lish unga nasib etmadi¹⁷⁰. Shunga qaramasdan, ko‘pchilik odamlarning e’tirof etishlaricha, u Xorazmni mustaqil davlat bo‘lishi uchun asos yarata oldi. Ya’ni, Otsiz Anushtegin Xorazmshohlar sulolasi nafaqat bir viloyat, balki ulkan mintaqada ham siyosat yurgizishi va dongdor siyosiy kuchlar bilan raqobatlasha olishi mumkinligini amalda ko‘rsata oldi. Chunki, Otsizning asosiy maqsadi va siyosatining asosi Xorazmda o‘z hokimiyatini mustahkamlash edi. O‘zining uzoq yillik hukmronligi davrida (u 29 yil davlatni boshqargan) Otsiz Bag‘dod xalifalari bilan aloqalarini mustahkamlashga intilib, Sulton Sanjarga qarshi kurashda Bag‘dod xalifasini ittifoqchi qilishga ham harakat qilib ko‘rdi.

1156 yilda Otsiz qoqshol kasaliga uchrab vafot etadi. 23-avgust 1156-yil (3 rajab, 551) da rasman Xorazm taxtiga Elarslon (1156-1172) o‘tiradi. Elarslon otasiga qaraganda qulay vaziyatda taxtni boshqardi.

¹⁶⁸ Иброҳим Кафес ўғли. Хоразмшоҳлар давлати тарихи. -Т.: “Navro‘z”, 2016. -Б.53.

¹⁶⁹ Машарипов О. Хоразмнома, Хоразм. 2007. -Б. 156.

¹⁷⁰ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.190.

Chunki, 1157 yilda Sulton Sanjar vafot etganidan so'ng Saljuqiylar davlati mayda viloyatlarga bo'linib ketdi va Xorazmni mustaqil siyosat olib borishi uchun keng yo'l ochildi. Elarlon Xurosondagi Saljuqiylarning o'zaro kurashlaridan foydalanib Kaspiy bo'ylaridagi Dehistonni bosib oldi. Shuningdek u, otasi davrida Xorazmga bo'ysundirilgan ko'chmanchi turkman va qipchoq qabilalari yordamida Movounnahrning ichki ishlariga ham tez-tez aralasha boshlaydi. 1158-yilda u katta qo'shin bilan Movounnahrqa bostirib keldi. Bu vaqtda Qoraxitoylarga vassal bo'lgan Qoraxoniylar ko'chmanchi qarluq qabilalari bilan jang olib borayotgan edi. Elarlon qarluqlarga Buxoro va Samarqand uchun olib borilgan janglarida yordam beradi. Lekin Qoraxitoylar qo'shinlari yordamga yetib kelishi bilan Elarlon Xorazmga qaytishga majbur bo'ldi. U bir necha marotaba Xorazmga yurish qilgan bo'lsada, muvaffaqiyatga erisha olmadi.

1171-1172 yillarda Qoraxitoylarning katta qo'shini Xorazmshohning o'lponni o'z vaqtida to'lamayotganini bahona qilib Xorazm ustiga yurish qiladi. Elarlonning buyrug'i bilan Sirdaryodagi katta to'g'onlar ochtirilib, Xorazm poytaxti yaqinidagi yo'llar suvga bostirildi. Bu Qoraxoniylar qo'shini yurishini qiyinlashtirdi va Xorazmning poytaxti Gurganj (Urganch) talon-taroj qilishdan saqlab qolindi. Ammo, Qoraxitoylarning bu yurishi davrida Elarlon kasallikdan vafot etdi (1172-yil)¹⁷¹. Shundan so'ng uning o'g'illari Alouddin Takash va Sultonshoh Mahmud o'rtasida uzoq yillar toj-u-taxt uchun kurash bordi. Alouddin Takash 1172 yilning dekabrda qoraxitoy Chen Tion yordamida rasman taxtga o'tirgan bo'lsada, aka-ukalar o'rtasida kurash davom etdi. Chunonchi, 1174 yilda Sultonshoh Mahmudning onasi Turkon xotun Nishopur hukmdori Oy-Aboga qimmatli sovg'alar yuborib, Takashga qarshi ittifoq taklif qildi. O'sha yili Gurganjdan 20 farsax (masofa o'l chovi, Sharqning bir qancha mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda ham 9-12 ming qadamga teng bo'lgan qadimiy masofa o'lchovi) uzoqlikdagi Subvur shahri ostonasida Oy-Abo qo'shinlari Alouddin Takash qo'shinlari bilan to'qnashdi. Bu jangda Takashning qo'li baland kelib, Oy-Abo asir olindi va qatl qilindi.

¹⁷¹ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.191.

Turkon xotun va Sultonshoh Kaspiy dengizning sharqiy sohilidagi Dehistonga qochdilar.

Shundan so'ng, Alouddin Takash Xorazmda mustahkam o'rnashib Qoraxitoylarga va'da bergan o'lponni to'lashdan bosh tortadi. Bunga javoban Qoraxitoylar yana Xorazmga yurish qildilar, lekin muvaffaqiyatsizlikga uchrab, Sultonshoh ixtiyoriga kichik bir qo'shin qoldirib o'zlari orqaga qaytadilar. Bu davrga kelib Xurosonning anchagina qismi Xorazm davlatiga qo'shilgan bo'lsada, Marv va uning atroflarida, Sabzavorda Sultonshoh Mahmud hukmronlik qilardi. 1187 yilda aka-ukalar o'rtasida Nishopur ostonasida yana to'qnashuv bo'lib Takash g'olib bo'ldi. Sultonshoh Marvga chekinishga majbur bo'ldi.

1188 yilda Xurosonning ulamolari va taniqli amirlari vositachiligida Sultonshoh bilan Takash o'rtasida sulh bitimi tuzildi. Bu paytga kelib Takashning harbiy qudrati va obro'si oshib ketgan bo'lib, Sultonshoh uning barcha shartlarini qabul qilishga majbur edi. Ammo, bu uzoqqa cho'zilmay Sultonshoh G'o'r viloyati hukmdorlarini akasiga qarshi kurashda o'ziga ittifoqchi qilib oldi. 1193 yilning bahorida Takash yana Sultonshohga qarshi yurish boshladi¹⁷². Xorazmshoh qo'shinlari Obivardga yetganida har ikkala tomonning vakillari bo'lgan ulamo va din arboblari aka-ukalarni yana yarashtirib qo'yish uchun muzokaralar boshladilar. Bu orada Saraxs qal'asining boshlig'i Badriddin Chaqir xorazmshoh Takash tomonga o'tib ketib qal'a kaliti va Sultonshohning barcha xazinalarini unga topshirdi. Bu voqealarni ko'tara olmagan Sultonshoh 1193 yilning kuzida vafot etdi. Shu tariqa Xorazmshoh Elarlonning ikki o'g'li o'rtasida 20 yildan ziyodroq davom etgan kurashga yakun yasaldi.

Xorazmshoh Takash 1193 yilning dekabrda Marv shahrini fath etib shahar va uning atroflariga katta o'g'li Nosiriddin Malikshohni voliy etib tayinladi. Bag'dod xalifasi Nasr (1180-1225) va G'arbiy Saljuqiylar sultoni To'g'rul II o'rtasidagi nizolardan foydalanib Takash qo'shinlari 1194 yilning mart oyida To'g'rul II ga qarshi urush ochdi va uni mag'lub etib Hamadon shahrini egalladi.

¹⁷² Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: "Шарқ", 2000. -Б.137.

Xorazmshohning tobora kuchayib borayotganidan xavfsiragan xalifa Nasr qo'shinlari Takashga qarshi chiqdilar. 1196 yilning iyun oyida Takash qo'shinlari xalifa qo'shinlarini yengdi. Shu tariqa Afg'oniston va Eronning katta qismi Xorazmshohlar qo'liga o'tdi va Xorazm davlati hududlari birdaniga ikki baravar kengaydi. Xorazm davlati endi Bag'dod xalifasiga tegishli joylar va G'uriylar bilan chegaradosh bo'lib qoldi. Ammo ko'p o'tmasdan xalifa Nasr bilan Takash munosabatlari yana yomonlashganligi tufayli Xorazmshoh Iroqi Arab va xalifalik poytaxti Bag'dodni bosib olishga qaror qildi. Lekin bu yurish paytida Takash kasallanib, 1200 yil iyul oyida Xorazm bilan Nishopur orasidagi Shahrison shahrida vafot etdi¹⁷³.

O'rta asrlar mualliflar ma'lumotlari asosida tadqiqotlar olib borgan Z. Buniyatovning xulosalariga ko'ra, Xorazmshoh Takash o'z fuqarolariga nisbatan adolatli bo'lgan. U boshqa sultonlarga nisbatan qobiliyatli, yirik diplomat va zukko lashkarboshi edi. Shu bois bo'lsa kerakki, Xorazmshoh-Anushteginlar davlatining nisbatan kuchayishi Takash davriga to'g'ri keladi. Alouddin Takash faoliyatining ma'muriy idora boshqaruvi o'zining qat'iyatligi va tartib-intizomi bilan ajralib turadi. Lekin Takashning katta xatosi shunda ediki, u o'zining xotini Turkon xotun mansub bo'lgan qipchoqlar qabilasiga katta erkinliklar berdi, ularni doimo qo'llab-quvatladi. Turkon xotun (uning shaxsiy muhrida "Ismat ud-Dunyo vaddin Ulug' Turkon malika niso alolamiy"- "Dunyo va uning pokdomoni, Ulug' Turkon, olam ayollarining malikasi" degan yozuv bitilgan edi) ularga tayanib katta hokimiyatga ega bo'ldi, o'z homiyligidagi odamlarning yuqori lavozimlarni egallashini ta'minladi. Natijada bu alohida turk harbiy-feodal tabaqasi paydo bo'lishiga olib keldi va amalda Xorazmshohlar davlatining inqiroziga sabab bo'ldi.

1200 yilning avgust oyida Xorazmshohlar taxtiga Takashning o'g'li Qutbiddin Muhammad o'tirdi (1200-1221) va otasining Alouddin laqabini qabul qildi. U taxtga o'tirishi bilanoq ayrim muammolarga duch kelgan bo'lsada, ularni zudlik bilan bartaraf etib, 1203 yilda Qoraxitoylarning yordami bilan Xurosonni bosib oldi. Undan keyin esa Hirot va

¹⁷³ Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машҳур сулолалари. -Т.: "Akademiya", 2013. -Б.190.

Qoraxitoylar ustiga yurish qildi. Bu yurish Xorazmshoh g'alabasi bilan tugadi va u Qoraxitoylarning O'zgandagi boy xazinasini qo'lga kiritdi. Umuman, Alouddin Muhammad 1210 va 1212 yillarda Qoraxitoylarga ikki marta qaqshatqich zarba berib ularni butunlay tor-mor etdi. Buning natijasida uning obro'yi oshib ketdi.

Alouddin Muhammad 1207 yilda Movounnahrda yurish qilib Buxorodagi Sanjar qo'zg'olonini bostirdi va Buxoroni egalladi. Xorazmshoh 1210-yilda qarluqlar bilan ittifoq tuzib ikkinchi Iskandar, ikkinchi Sulton Sanjar laqablarini olishga musharraf bo'ldi. 1212 yili Samarqandda qo'zg'olon ko'tarildi¹⁷⁴.

Alouddin Muhammad sa'y-harakatlari tufayli 1217 yilga kelib butun Movorounnahr, Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar hukmdorligi o'rnatildi. Ammo, mamlakatning ichki siyosiy holati mustahkam emas edi. Bu holat Mo'g'ul bosqini paytida yaqqol namoyon bo'ldi.

Xorazmshohlar davlatida dargohdagi mansablar:

Sulton-davlatidagi oliy boshqaruvchi shaxs. Sultonlar "Xorazmshoh" unvoni bilan boshqarganlar.

Bosh hojib yoki ulug' hojib (hojibul-kabir)-oliy hukmdor shaxsi bilan bog'liq masalalar, marosimlar, marosimlarning nazorati bilan aloqador ishlarga javobgar bo'lgan. Ular sultonning eng zarur topshiriqlarini bajarganlar hamda hukmdorga doimiy ravishda hamrohlik qilganlar. Ular vazirlik devonining daftarlari, undagi yozuvlar, arxivlar, moliya sohasidagi kotiblar va amaldorlarining hatti-harakatini nazorat qilgan.

Ustozdor-dargohdagi barcha xo'jalik xizmatlarini boshqarish ustozdorga yuklatilgan. Oliy hukmdorning birinchi chorlashidayoq ustozdor yetib kelib, sulton topshiriqlarini boshqa xizmatkorlarga yetkazar edi va bu gapni ikki qilib bo'lmagan. Bundan tashqari bosh xazina mablag'laridan nonvoyxona, oshxona, otxona, saroy xizmatchilarining xarajatlarini qoplar edi. Dargohdagi barcha masalalar bilan shug'ullangan.

¹⁷⁴ Воҳидов Ш., Қодиров А. Шарқнинг машхур сулолалари. -Т.: "Akademiya", 2013. -Б.123.

Shuningdek u ushbu mablag‘dan maosh berish va boshqa xarajatlar uchun ham foydalangan. (Nasoviy)

Hojib-g‘oyatda muhim vazifalar, masalan, unga muzokaralar olib borish va hatto, vazirlar faoliyatini taftish etish kabilar topshirilgan¹⁷⁵. Hojib-eski islom davlatlaridan sadriazam, vazir kabi yuksak darajadagi mansabdorga berilgan unvondir¹⁷⁶.

Omil (Amilon yoki ummol)-devonda moliyaviy rahbarlar ichida eng kichik vazifa. Har bir tuman, shahar, aholi yashaydigan maskan, qishloqning soliq yig‘ish bo‘yicha rahbari bo‘lgan. Viloyatlarda vazirdan keyingi eng nuzufli mansab egasi omil bo‘lib, omil “voliy” ma’nosida ishlatilgan. Omil boshqaruvchi noib kabi vakolatga ega bo‘lgan. Voliy keyingi davrlarda yirik urug‘ beklari orasidan tayinlangan. Ularning qo‘l ostida ba’zan qullardan tarkib topgan xususiy harbiy qismlar ham bo‘lgan.

Amiri-oxur (miroxur)-sulton otxonalari boshlig‘ining lavozimi. U sultonga qarashli minib yuriladigan otlarga egalik qilgan. Miroxurlar harbiy yurishlarda ham faol ishtirok etganlar. Otlarning soni 30 mingga bo‘lgani ma’lum. An-Nasaviyning asarida sulton Alouddin Muhammadning miroxuri Ixtiyoriddin Qushlu ixtiyorida 30 ming ot bor edi deb bayon qilinadi.

Amiri-shikor-sulton ovlarini tashkil etuvchi va boshqaruvchisi lavozimi.

Tashtdor-sulton hammomlari va hovuzlarining boshlig‘i. Uning qo‘l ostida bir necha g‘ulom bo‘lgan. Tashtdorlar sultonga juda yaqin odamlar bo‘lgan. Ayrim sultonlar tashtdorlarga malik unvonini ham berishgan. Ayrim tashtdorlar hatto o‘n ming askarlarga boshchilik qilib, harbiy yurishlarga ishtirok etganlar, ba’zilari esa sultonning shaxsiy elchisi vazifasini ham bajargan deb A. Sagdullayevning “O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti” kitobida ko‘rsatib o‘tilgan. Hukmdor unga o‘zining eng maxfiy fikrlarini ham izhor qilishi mumkin edi. Tashtdor xizmat bilan bog‘liq barcha xarajatlar Xorazm viloyatidan tushadigan soliqlar bilan qoplangan¹⁷⁷.

¹⁷⁵ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.193.

¹⁷⁶ Иброҳим Кафес ўғли. Хоразмшоҳлар давлати тарихи. -Т.: “Navro‘z”, 2016. -Б.226.

¹⁷⁷ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.194.

Sharobdor-sulton sharobxonasining boshlig'i. Sharobxonada turli sharoblar tayyorlash bilan birga shirin ichimliklar tayyorlash uchun shakar ham saqlangan. Sharobdorlar amirlar orasidan tayinlanib, uning qo'l ostida bir nechta g'ulomlar bo'lgan.

Qissador-bir hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yig'ib payshanbadan jumaga o'tar kechasi sultonga topshirgan. Juma kuni esa sultonning javobini ariza egalariga yetkazgan. Xorazmshohlar saroyida qissador eng obro'li mansablardan biri hisoblangan.

Chashnegir(bakovul)-u dasturxon yozilganda sulton taomlaridan zaharlanmasligi uchun o'zi birinchi bo'lib tatib ko'rar edi. Bundan tashqari sulton sharobini tatib ko'ruvchi deb An-Nasoviyning asaridan keltirib o'tilgan.

Maliki Xavas-xos xizmatkorlar boshlig'i.

Da'votdor-sultonning xos kotibi, farmonlarini yozuvchi.

Mahramlar-Jaloliddinning saroyida mahramlari ham bo'lgan. Ularga "xodimoni xos" ham deyilgan. Mahramlar "malikul xos" unvoniga ega bo'lganlar.

Al-hojiblar-saroylarda odatda sulton yoki shohlarning, umuman hukmdorlarning ishlarini al-hojib, erkak odamlar qilishgan.

Otabek- "ota" va "bek" so'zlaridan tashkil topgan. Bu unvon, dastlab, saljuqiylar davrida joriy etildi. Dastlab, saljuqiylarning mashhur vaziri Nizomulmulkka shu unvon berilgan edi. Sultonlar imperiya hududlarini sulola a'zolariga taqsimlab bergan vaqtlarida kichik yoshdagi shahzodalarga vasiy va murabbiy sifatida otabek tayinlar edilar. Ular o'z xizmati, sadoqati va kuch-qudrati bilan tanilib, buyuk amir darajasiga ko'tarilgan qo'mondon orasidan tanlab olinardi.

Shihna-viloyatning jamoat tartibini saqlash bilan shug'ullangan. U xalqning tinchligi, osoyishtaligi va farovonligini ta'minlagan, omil soliq yig'ish masalalarida yordam bergan. Aftidan shihna harbiy toifaga mansub bo'lgan.

Voliy-viloyatni boshqargan noib.

Rais-har bir qal'a, shahar va tumanda bo'lgan. Bu lavozim egasi shaharning obro'li kishilari orasidan mahalliy aholi tomonidan saylangan va shahar miqyosida shihna vazifasini o'tagan. Raislar viloyat voliysiga bo'ysungan.

Mustaxdam-saroyning umumiy ishlari bilan shug'ullangan xizmatchilarga muqaddimi chovushon boshchilik qilardi. Uning qo'l ostida chovushlar va mustahdamlar xizmat qilgan. Binobarin, armiyada chovush unvonli kichik boshliqlar bo'lganidek, saroyda ham chovushlar xizmat qilgan. Ular safarda sultonga hamrohlik qilganlar, choparlik xizmatini o'taganlar.

Jomardor-hukmdorning liboslari bilan shug'ullanadi.

Amirul-a'lam (a'lamdor yoki yalovbardor)-sulton bayroqdori yoki sulton tug'ining sohibi.

Ibriqdor-hukmdor tahorat olgan vaqtda qo'lga suv qo'ygan.

Farrosh-sulton o'rin-to'shaklari saqlanadigan farroshxona boshlig'i. Uning ixtiyorida gilamlar, chodirlar, poyandozlar, ko'rpa-to'shaklar bo'lgan. Farrosh va maxsus o'rgatilgan g'ulomlar sulton atrofida doimo hozir turar edilar.

Xorazmshohlar davlatidagi devon faoliyatidagi lavozimlar va mansablar:

Vazir-mamlakatda sultondan keyingi eng yuqori mansabdor shaxs bo'lgan. Vazir sultonning bosh maslahatchisi bo'lib, bevosita unga bo'ysungan. Vazir rasmiy marosimlarda, davlatlararo aloqalarda, mustamlakalar bilan olib boriladigan muzokaralarda xorazmshoh nomidan ishtirok etib, sulton va raiyat (fuqarolar) o'rtasida vositachilik qigan. Barcha davlat amaldorlari, jumladan, amirlar, beklar va harbiy boshliqlar vazirga bo'ysungan.

Vazirning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan-devonxonalar amaldorlarining boshlig'i. Yuqori mansabli amaldorlarini ishga tayinlagan yoki ishdan bo'shatgan;

-davlat amaldorlariga nafaqalar (arzak) va moddiy yordam (mavajib) joriy etish ishlarini boshqargan;

-davlat amaldorlarini hayot uchun zaruriy ozuqa va ashyolar bilan ta'minlanishi belgilagan;

-bojxona va xazina faoliyatini nazorat qilgan;

-sultonga muntazam ravishda hamrohlik qilgan, ba'zi paytlarda qo'shin jo'natib ularga boshlilik qilgan. Xorazmshohlar davlatida vazir lavozimi dastlab Otsiz hukumatida paydo bo'lgan.

Nozir-moliyaviy ishlar bo'yicha amaldor.

Mustavfiy yoki sohibi devoni istifo (daftardor)-davlatdagi moliyaviy ishlariga rahbarlik qilgan.

Mushrif yoki Sohibi devoni ishraf-devoni ishraf rahbari, davlat idoralarini taftishlariga rahbarlik qilgan.

Mustavfiy-mamlakatning chekka o'lkalaridagi moliyaviy ishlar rahbariga moliyaviy maslahatchi.

Munshiy-devoni inshoni boshlig'i bo'lib, sultonning maktublarini ham yozib borgan. Davlatning tashqi va ichki ishlari yuzasidan vasiqalarni hozirlash, aloqani boshqarish uning qo'lida bo'lgan.

Manshur-devoni nazr ishlarini yuritishga ma'sul shaxs. U devondan chiqadigan har bir farmon, yorliqni nazorat qilgan.

Muhtasib-shaharning bozorlarini nazorat qilgan va shaharni boshqarish bilan bog'liq vazifalarni bajargan, aholining axloqiy ishlari bo'yicha kuzatuvchi bo'lgan. Bu mansabga aksariyat hollarda ma'rifatli odamlar, faqihlar, olimlar orasidan imom unvoniga ega bo'lganlar qo'yilgan.

Sohib devon-al arz (ariz-al jaysh)-devon-al arzni boshlig'i xisoblangan. Devon-al arz harbiylarga tegishli bo'lgan yer-suvlar, ularga beriladigan maosh va har xil to'lovlar, shuningdek, askarlarni ro'yxatga olish, ular va ular qo'lidagi qurol-aslahalarni tekshirib ko'rish ishlari bilan shug'ullanardi.

Nozir al-jaysh (Harbiy nozir)-xorazmshohlar qo'shinidagi ikkinchi lavozim bo'lib, u harbiy devonxona boshlig'ining nazorati ostida faoliyat ko'rsatar edi.

Vazirliklarga keladigan bo'lsak, **Buyuk devon yoki Devoni oliy**-hukumat idorasining eng oliy organi bo'lgan. Buyuk devon davlat ishlari

muhokama etiladigan va qarorlar chiqariladigan bir kengashdir. Biroq shunisi shubhasizki, uzil-kesil qarorni sultonning o'zi chiqargan. Viloyatlarning noib va vazirlari Buyuk devonga bog'liq bo'lgan. Sultonning amri bilan yuqorida nomlari tilga olingan maqom egalari ustidan Buyuk devonda taftish o'tkazilishi mumkin edi.

Devoni insho-davlatning tashqi va ichki ishlari yuzasidan vasiqalar hozirlash, aloqani boshqarib turish shu tashkilotning vazifasi edi. Bu devonning boshlig'i "munshiy" deyilgan. Shifrlangan maktublarni yozish va o'qish munshiyning vazifalaridan edi. Bundan tashqari, munshiy sultonning maktublarini ham yozib borgan. Munshiyga "sohibi devoni insho" ham deyilgan.

Devoni istifo-bu devon davlatning butun moliyaviy ishlarini yuritgan va boshqarib turgan.

Devoni ishraf-bu devon davlat idoralarini taftish qilib turgan. Boshlig'iga "sohibi devoni ishraf" yoki "mushrif" deyilgan.

Devoni arz-bu tashkilot qo'shin boshqaruvi, harbiylarning iqtolari, daromadlari, maoshlari va harbiy qismlar anjomlarining qaydi va nazorati bilan shug'ullangan. Bu devonning boshlig'iga "sohibi devoni arz" yoki "ariz" ham deyilgan.

Devoni nazr-moliyaviy masalalar bilan shug'ullangan. Devoni nazrning boshlig'iga "nozir" deyishgan.

X asrgacha Xorazmshohlar davlatining harbiy tayanchi bo'lib kelgan Xorazm og'ir qurollangan otliq qo'shini endilikda o'z ahamiyatini yo'qotgan edi. Agarda XI asrda Somoniylar va Saljuqiylar saltanati kabi Xorazm qo'shinida bir qancha muddat "g'ulomlar" gvardiyasi (qullar gvardiyasi) katta rol o'ynagan bo'lsa, XII-XIII asrlarga kelib xorazmshohlarning asosiy harbiy kuchini yollanma va ittifoqchi turkiy harbiy qismlar, asosan, xorazmshohlar saroyi bilan quda-andachilik munosabatlari o'rnatgan qabila boshliqlari va ular mansub bo'lgan qang'li va turkman qabilalari tashkil etadi¹⁷⁸.

¹⁷⁸ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: "Давлат илмий нашриёти", 2018. -Б.282.

Butun XII asr mobaynida Xorazmshohlar mana shu qabila aristokratiyasidan doimiy suratda o'zlariga xotin olganlar. Shunisi e'tiborga loyiqki, Xorazm hukmdori qadimgi xorazmiy unvoni bo'lgan "xorazmshoh" va arabcha- "sulton" deb atalsa, xorazmshohning birinchi xotini Turkiy unvon "xotun" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Saljuqiylardan mustaqil ajralib chiqish uchun kurashning boshlanishidan tortib to davlatning tanazzul topishiga qadar xorazmshohlar muntazam qo'shinga ega bo'lganlar va uni to'ldirish, qurol-aslaha bilan ta'minlash ularning asosiy tashvishi bo'lib kelgan. Xorazmshohlar qo'shini yaxshi ta'lim olgan, turli qurol-yarog'lar bilan qurollangan. Uning sarkardalari esa harbiy harakatlar paytida bir necha bor jasoratlari va tajribali ekanliklarini namoyish etganlar.

Davlat barpo etilayotgan davrda xorazmshohlar to'plagan qo'shin jangari turkiy qavmlardan tashkil topgan. Harbiy bo'linmalar va qismlar qabilaviy belgiga ko'ra shakllangan. Hatto davlat ravnaq topgan paytda ham, qachonki qo'shinga boshqa qabila va xalqlarning vakillari olinadigan bo'lganda ham turkiy qabilalar asosiy va bosh zarbdor kuchni tashkil qilganlar.

Manbalarning xabar berishicha, xorazmshohlar saltanatda umumiy majburiy harbiy ta'lim tizimini joriy etganlar. Zakariyo Al-Qazvinii davlatning poytaxti Gurganch shahri haqida bunday deb yozadi: "Bu ko'p sonli aholisi bo'lgan ulkan shahar va uning barcha aholisi, hatto ko'katchilar, qassoblar, nonvoylar va bazzozlar ham jangchilardir. Sulton Muhammad ibn Takash qoraxitoylar bilan bo'lgan janglardan birida qo'shini mag'lubiyatga uchragandan so'ng shaharga yashiringan. Sulton ozgina kishilar bilan ulardan qochgan. Uning jangchilari ozligini hech kim payqab qolmasligi uchun u shaharga kechasi kirgan. Tong otganda esa u shahardan 30 ming otliq hamkorligida chiqib dushmanga qarshi tashlangan".

Boshqa bir muallif Xorazmning eng mahobatli qo'rg'onlaridan bo'lgan Hazorasp qal'asi haqida "uning aholisi jang-u jadal yulduzi ostida tug'ilib, nayza va shamshir sutini emganlar", deydi.

Xorazmshohlarning muntazam qismlardan tashqari shaxsiy gvardiyasi (xaros) ham bo‘lib, u mamluklardan tarkib topgan. Bunday gvardiyani ilk bor xorazmshoh Takash joriy qilgan. Alouddin Muhammadning bunday qismi tarkibida 10 ming kishi bo‘lgan. Xarosdan xorazmshoh va uning xonadonini qo‘riqlash, jazo ekspeditsiyasi sifatida, savdo karvonlarini qo‘riqlash maqsadlarida foydalanilgan.

Jangovar harakatlar boshlanishi bilan xorazmshohlar xalq lashkarligiga aholi safarbarligini e‘lon qilganlar, lekin yurish paytida bu lashkarlar hech qanday maosh olmasdan, talonchilik hisobiga yashaganlar.

Davlat qo‘shin boshqaruvining oliy organi devon al-ard bo‘lib, bu devonga sohib devon al-ard rahbarlik qilgan. Manbalardan birida butun davlatning qo‘shin boshqaruvining bosh organi devonparzdor jumla-i mamolik deb nomlangan.

Eng yirik viloyatlarda, shuningdek, mahalliy qo‘shin boshqaruvi organlari ham mavjud bo‘lgan.

Oddiy qurol-yarog‘lar-shamshir, nayza, o‘q-yoy, cho‘qmor va kalta nayzalardan boshqa xorazmshohlar qo‘shinida katapulta (manjaniq), qamal mashinalar (dabbobat), “toshbaqalar”, ya’ni harakatchan minoralar, taranlar va shturm narvonlari (salolim) bo‘lgan¹⁷⁹.

Xorazmshohlar qo‘rg‘on va qal‘alar qurish va ularni mustahkamlashga katta e‘tibor berganlar. Ishtaxr, Ashkanavon va Ilol qal‘alari eng mustahkam qal‘alardan bo‘lgan. Qal‘adagi qo‘shinga mustahfizlar qo‘mondonlik qilganlar. Xorazmshohlar davlatida mirshablik va jazolash vazifalarini shihnalar o‘z harbiy qismlari bilan amalga oshirganlar. Odatda shihna lavozimiga turk lashkarboshilari-amirlar tayinlangan. Xorazmshohlar o‘z shihnalarini barcha zabt etgan viloyat, shahar va aholi punktlariga tayinlashgan. Jangovar harakatlar boshlanishi oldidan yoki urush e‘lon qilinishidan avval xorazmliklar bo‘lajak harakatlarni muhokama qilish uchun harbiy kengash chaqirganlar. Unga yirik lashkarboshilar, ulamolar, faqihlar va munajjimlar taklif qilingan. Biroq bu harbiy kengashlar doimo qarorning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligidan qat’i nazar, xorazmshohning yakka o‘zi qabul qilgan qaror bilan tugar edi.

¹⁷⁹ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018. -Б.287.

Xorazmshohlar qo'shinining harbiy harakatlar paytida hujum va mudofaadagi tuzilishi quyidagicha bo'lgan: avang'or-o'ng qanot, markaz, so'l qanot-arergard va pistirma. Har bir 10 ming kishilik qo'shin ortidan jangchilarning oilalari ergashib yurgan. Shu bilan birga ba'zi janglarda jangovar yarog'-aslahalar bilan qurollangan xotin-qizlar ham ishtirok etgan.

Turklarda qadimdan mavjud an'anaga ko'ra, qo'shin o'ng va so'l qanotlarga ajratilgan. Xorazmshohlar davrida qo'shinga oid boshqaruv ishlari bilan Buyuk devonning bo'limi-devoni arz shug'ullangan. Davlat xazinasidan olingan mablag'lar va ularning sarfi to'g'risida barcha yozuvlar shu devonda saqlangan. Saljuqiylarda bo'lgani kabi, Xorazmshohlar zamonida ham iqto tizimi bor edi. Qo'shinda xizmat qilgan harbiylarning hammasi ma'lum qiymatdagi iqtolarga ega bo'lishgan. Xususan, katta-kichik sarkardalar, qo'mondonlar va harbiy valiylarning boy iqtolari bor edi. Katta iqtolar hukmdorning marhamatiga muvofiq, kamayishi yoki yanada yiriklashishi mumkin edi. Kichik iqtolar bo'lsa o'zgarmaganlar. Ular ota meros edi. Iqto egalari chaqirilgan zahoti o'z amirlari qanoti ostiga to'planishar va yurish tugagach, yana o'z yerlariga qaytib ketishardi. Xorazmshohlar bir o'lkani zabt etgach, u yer darhol iqtolarga bo'linib, mansabdorlar o'rtasida taqsimlanar va devoni arz daftarida qayd qilinar edi. Iqto sohiblaridan tashkil topgan ulkan bir suvoriy quvvatlar Xorazmshohlar mamlakatining turli tomonlariga joylashgandi. Ular viloyat askarlarini tashkil etardi. Bundan tashqari hukmdorning gvardiyasi ham mavjud edi. Sulton Jaloliddin, shubhasiz, armiyaning bosh qo'mondoni edi. Jaloliddin doimo qo'shin boshida borardi. Sulton goho u yoki bu amirni biror-bir mintaqani fath etish uchun safarbar qilsada, ko'p o'tmay orqasidan yetib olib, qo'mondonlikni o'z qo'liga olardi. Jaloliddining bayrog'i qora rangda bo'lgan. Xorazmliklar bayrog'ining qora rangda bo'lishi Sulton Sanjarning qora bayrog'i bilan bog'liq¹⁸⁰. Sulton Sanjar o'limidan so'ng Xorazmshohlarning qora rangni rasmiy ramz tarzida olganligi ular o'zlarini Buyuk Saljuqiylar saltanatining qonuniy vorisi deb belgilaganliklarini ko'rsatadi.

¹⁸⁰ Бобоев Х., Хидиров З., Шодиев Ж., Ахмедова М. Ўзбек давлатчилиги тарихи. II китоб. - Т.: 2009. -Б.117.

Xorazmshohlar o'g'uzlarning bekdili urug'iga mansub bo'lgan. Shu bois ularning qora bayrog'ida ularning tamg'asi aks etgani va sultonning ism va laqablari yozilganligi tabiiydir.

Jang shakllari maydon jangi, qurshovga olish va muqobil to'qnashuv tarzida uch xil bo'lgan. Muqobil to'qnashuv kichikroq miqyosidagi maydon jangidir. Jaloliddin maydon va muqobil janglarda o'z qo'shinini an'anaviy bir shaklda, ya'ni o'ng, markaz va so'l qanotga saflagan. Markaz odatda gvardiya qo'shinlaridan iborat edi. O'ng va so'l qanotlar viloyat qo'shinlaridan tashkil topar edi. Aksariyat hollarda markaz suvoriylar, o'ng qanot kamonchilar, so'l qanot piyodalardan tashkil topgan. Jang vaqtida sulton atrofidagi xossi g'ulomon bilan oldingi safda turishardi. O'zaro ashaddiy dushman bo'lgan xorazmliklar va mo'g'ullar bir-birining jang tarzini qabul qilmaganlar. Xorazmshoh qo'shinlari mumtoz tartib va taktika asosida jang qilgan. Mo'g'ullar bo'lsa qismlarini o'zlarining maxsus jang usulubida ikki qatorga tizgan holda urushganlar. Jaloliddin maydon janglarida ham, muqobil janglarda ham pistirma qo'ygan. Masalan, Qush Temur qo'mondonligi ostidagi qo'shinlari bilan bo'lgan jangda Jaloliddin bir qancha hujumdan keyin go'yo qochgan, dushman esa quvlagan. Natijada dushman pistirmaga tushgan. Jaloliddin mo'g'ullar bilan bo'lgan janglarda ham pistirma qo'ygan.

Jaloliddin jangning bosqin shaklini ko'proq Hindistonda qo'llagan. Bunda har holda askarlarning soni kam bo'lganligi o'z rolini o'ynagan bo'lsakerak. Dushman qo'shini bilan ro'baro kelgan Sulton dushmanning kuch-quvvatini, uning armiyasi qanday kuchlarda tashkil topganini yaxshi o'rganar va bu quvvatni diplomatik yo'llar bilan parchalashga harakat qilar edi. Masalan, gurjilar bilan bo'lgan janglardan birida dushman safida qipchoqlar borligini bilgach, sulton ularga non-tuz yubordi. Natijada qipchoqlar jang maydonini tashlab ketdilar. Jaloliddin qamal paytlari manjaniq, devorteshar qurollar va neft moyi ishlatgan. Qamal uzoq davom etgudek bo'lsa, sulton o'z qo'shinlarini qal'a atrofiga doira shaklida joylashtirar, aldash uchun hiyla ham ishlatgan. Masalan, u mo'g'ullarning bayrog'iga o'xshash oq sanjoq bilan Isfahondan Rayga ketgani ma'lum¹⁸¹.

¹⁸¹ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018. -Б.324.

Harbiy unvonlar va lavozimlar:

Xon-agar jangda maliklardan birortasi alohida mardlik ko'rsatsa unga beriladigan unvon.

Malik-harbiy unvoni o'ninchi darajali unvon va uning qo'lida 10 ming kishilik suvoriylar guruhiga qo'mondonlik qilgan kishilarga beriladigan unvon. U bu unvonga favqulodda harbiy jasorati, qahramonligi bilan erishgan. Yoki bo'lmasa, Sulton Jaloliddining eng yaqin odamlaridan biri bo'lgan.

Amir-al umaro (amirlar amiri)-xorazmshohlar yangi zabt etilgan o'lka yoki viloyat yerlarini amirlarga iqto tariqasida taqsimlab berar, mahalliy amirlar orasidan eng qobiliyatlisini ularga boshliq qilib tayinlangan va u ularning rahbari hisoblangan.

Ispaxban-sipohiy-otliq qo'shin, qism qo'mondoni.

Qoid yoki **Muqaddam**-xorazmshohlar qo'shinlarining qo'mondonligiga tavsiya etilardi.

Pahlavon-mang'loy (avangard) qism qo'mondoni.

Sohibi Jaysh-viloyatdagi qo'shin boshlig'i hisoblanadi.

Sarhang-beshyuz lashkarga bosh bo'lgan lashkarboshi.

Nazoratchi-xorazmshohlar davlatida qo'shin ichidagi tartib nazoratga javobgar shaxs hisoblanadi.

Mustahfiz-qal'alardagi gornizonlar qo'mondoni.

Silohdor-xorazmshoh qo'shini devonidagi qurol-yarog' saqlanadigan bo'limning boshlig'i.

Josusiya- maxsus xufiya va ayg'oqchilar bo'l inmalari mavjud bo'lib, josuslar "dushmanning hol-ahvolidan xabardor bo'lib turar, ularning harakatini kuzatib borar, bu o'ta muhim ish edi."

Muqaddam chovushiya- chovushlar boshliqlari shunday deb atalgan.

Chovush-qo'shin choparlari bo'lgan.

Haras-shohlarning shaxsiy muhofaza qo'shini, ular mamluklardan tuzilgan bo'lgan. Bevosita ular shohga bo'ysungan edilar.

Mamluk- qul askar.

Aqza' al-quzot-adliya tashkilotining boshida turgan. U poytaxtning eng katta qozisi bo'lishi bilan bir qatorda davlatning butun sud ishlarini ham boshqargan. Bu maqomning egasi mamlakatdagi barcha qozilarni ishga tayinlagan yoki bo'shatgan, ular tomonidan chiqarilgan va e'tirozga uchragan hukmlarni qayta ko'rgan.

Qoziy hasham (qo'shin qozisi yoki qozi al-asokir)-Xorazmshohlar armiyasida bosh diniy hakam. Xorazmshohlar qo'shinida ham saljuqiylardagi singari qo'shin qozisi bo'lgan. Ular qo'shin ichidagi diniy-huquqiy ziddiyatlarga barham berganlar.

Harbiy darajalar quyidagicha bo'lgan:

- I.** Xon;
- II.** Malik;
- III.** Amir-ul-umaro;
- IV.** Ispaxban (sipohiy-otliq qo'shin, qism qo'mondoni);
- V.** Pahlavon (mang'loy (avangard) qism qo'mondoni) ;
- VI.** Sarxang;
- VII.** Chovushlar;

Anushteginiy-Xorazmshohlar (1097-1231) yillari.

- ❖ Qutbiddin Muhammad (1097-1128)
- ❖ Otsiz (1128-1156)
- ❖ El Arslon (1156-1172)
- ❖ Sultonshoh Mahmud (1172)
- ❖ Takash (1172-1200)
- ❖ Muhammad (1200-1220)
- Jaloliddin (1120-1231)

Maruza mashg'ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“T - chizma”** interfaol usulidan foydalaniladi.

Mavzu mashg'uloti uchun topshiriqlar:

1. Muhammad Xorazmshoh tamonidan harbiylarni viloyatlar bo'ylab tarqatilishi: +ijobiy, -salbiy
2. Jaloliddin va Turkon xotun o'rtasidagi munosabatlar: +ijobiy, -salbiy
3. Muhammad Xorazmshoh va Chingizxon o'rtasidagi munosabatlari: +ijobiy, -salbiy

Mavzu mashg'ulotida topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

“T–sxema” o'tkazish bosqichlari quyidagicha olib boriladi:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri **“T – sxema”** interfaol usuli haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim
- Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar yaxshi o'zlashtirilishi kerak
- **“T–sxema”** interfaol usuli masala mohiyatini to'liq tushunib olishga asoslangan bo'lib, bunda mavzuga oid bo'lgan tushuncha, ma'lumot, tarixiy shaxslar faoliyati kabilarning ijobiy+, salbiy – xususiyatlari ochib beriladi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Xorazmshohlar davlatining vujudga kelish tarixini ayting?
2. Xorazmshohlar davlati qaysi hududlarni o'z davlati tarkibiga qo'shib olgan edi?
3. Xorazmshohlar davlatida devon va undagi unvonlar haqida ma'lumot bering?
4. Xorazmshohlarda dargoh faoliyatini ayting?
5. Xorazmshohlar davlatining harbiy san'ati va jang taktikalarini ayting?
6. Xorazmshohlar davlatidagi devon faoliyati haqida ma'lumot bering?
7. Xorazmshohlar davlatining harbiy darajalarini ayting?
8. Xorazmshohlardan Jaloliddinning faoliyatiga baho bering?
9. Turklar onasi bu kim?
10. Xorazmshohlar davrida kengashning vakolatlari bo'lganmi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdirahimova N.A, Isakova M.S, Sulaymonova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T., “Sharq”, 2007-yil.
2. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. -T., Sharq, 2000-yil.
3. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T., “O‘zbekiston Milliy Universitet”, 2012-yil,
4. Sagdullayev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T., Akademiya, 2000-yil.
5. Alimova D.A, Rtveladze E.V. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., “Sharq”, 2001-yil.

Axborot manbalari

6. www.ziynet.net
7. www.history.ru

14-mavzu: Mo‘g‘ullar va Chig‘atoy ulusining siyosiy, harbiy boshqaruvi.

Reja.

1. Mo‘g‘ullar davlatining tashkil topishi.
2. Mo‘g‘ullarning bosqinchilik yurishlari.
3. Mo‘g‘ullar boshqaruv tizimi.
4. Mo‘g‘ullarning harbiy san’ati tarixi.
5. Chig‘atoy ulusining boshqaruv tizimi.

Tayanch tushunchalar: Yesugay bahodir, tavochi, o‘nlik, Okean hukmdori, “Yaso”, torg‘uvchi, jorg‘uvchi, viloyat, gvardiya, tarxon, qurultoy, tuman.

XII asrning oxiri XIII asrning boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning quyi bosqichlarida turgan mo‘g‘ul qavm va qabilalari katta, buyuk va qudratli mo‘g‘ul davlatini barpo qilish uchun kurash olib borar edilar.

Hokimiyat uchun qavm va qabilalar o‘rtasida olib borilgan kurashda Chingizxon g‘alaba qozonadi va 1204-1205 yillarda kuchli mo‘g‘ul davlatiga asos soladi. U 1155 yilda tug‘ilgan. Chingizxonning otasining ismi Yesugay bahodir, onasini esa O‘lun der bo‘lgan. Tug‘ilgan bolaga Temuchin deb ism berdadilar. Temuchinning asosiy ulusini tashkil etgan mo‘g‘ullar Toli, Kerulen va Onon daryolarining boshi va quyilish yerlarida ko‘chmanchi chorvadorlik bilan shug‘ullanganlar. Temuchin otadan 13 yoshdaligida yetim qolgan¹⁸². Bobosi va otasiga tobe bo‘lgan barcha qabilalar unga itoat qilmasdan tashlab ketganlar. Faqat katta bobosidan qolgan oilalargina Temuchinga sodiqlik bilan xizmat qilganlar. U bir necha bor o‘zaro qabilaviy urushlarda o‘limdan qolgan. Ma’lumotlarda berilishicha, dastlabki jang yurishlarida Temuchin atigi 13 000 kishilik lashkar to‘play olgan, xolos¹⁸³. Sekin-astalik bilan uning lashkarlari soni ortib borgan. Birin-ketin naymanlar, keroitlar, totorlar, unggutlar, uyg‘urlar va boshqalarni o‘ziga tobe etgan Temuchin 1205 yilga kelganda butun Mo‘g‘uliston hududlarining yagona hukmdoriga aylandi. 1206 yilda

¹⁸² Abulg‘oziy Shajarayi turk. -T. “Cho‘lpon”, 1992. -B.46-48.

¹⁸³ Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. -Т. “Фан”, 1994. -Б.7.

u o'zining davlat hukmronligini qonunlashtirish maqsadida Onon daryosining yuqori qismida qurultoy chaqiradi. Bu qurultoyda Temuchinga Chingizxon laqabi beriladi. Chingizxon laqabi turli yozma manbalarda turlicha talqin etiladi. Chingizxon so'zi ba'zi manbalarda "toza", "quvvatli", boshqa birlarida "kuchlilar xoqoni" ma'nolarini anglatadi deyilsa, "Mening jonajon tarixim" asarida esa qurultoyda "Temuchinga Dengizxon, ya'ni Okean hukmdori unvoni" berilganligi ta'kidlanadi.

Ana shu tariqa, Temuchin kichik bir xondan Manchjuriyadan Irtishgacha, Boyqul (Baykal)dan Tongg'utgacha bo'lgan hududlarga cho'zilib ketgan yerlarda ko'chib yuruvchi ko'p sonli jangari qabilalar saltanatining kuchli hukmdoriga aylanadi. Bu saltanat endi o'zining kuch va qudrati bilan qo'shni davlatlarga ham qo'rquv va dahshat sola boshlaydi. Mo'g'ullar saltanati kuchining o'zagini esa Chingizxon yurgizgan qattiqqo'l va huquqiy jihatdan asoslangan markazlashgan siyosat tashkil etadi. Diniy va ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarini o'z ichiga olgan bu huquqiy siyosat 1206 yildagi qurultoyda qabul qilingan "Yaso"¹⁸⁴ qonunida har taraflama asoslab berilgan edi. Bu qonun shaxsan Chingizxonning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Chingizxonning aytishicha, unga qadar o'g'rilik, vahshiylik, talonchiliklar, tartibsizliklar, xiyonat va jirkanch illatlar oddiy bir hol bo'lgan. Farzandlar ota-onalariga itoat etmas, yoshlar kattalarga quloq solmas, erlar o'z xotinlariga ishonmas, xotinlar erlariga bo'ysunmas, boylar kambag'allarga yordam bermas edi. Chingizxon qalbida bu ishlardan nafratlanadi, o'zi bosh bo'lgan mamlakatda qattiq tartib-intizom o'rnatishni maqsad qiladi. Shu boisdan ham "Yaso" qonunida bunday tartib-intizomning huquqiy qoidalari ishlab chiqilgan.

Birinchidan, har bir yangi saylangan xon birinchi navbatda o'zi "Yaso" ga qat'iy rioya qilish to'g'risida qasam ichishi lozim bo'lgan. Xalqqa "Yaso" ga xiyonat qilgan xonni taxtdan ag'darish va uni umrbod qamoq jazosiga solish huquqi beriladi.

¹⁸⁴ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.200.

Ikkinchidan, Osmon va Yerni yaratuvchi, hayot va o‘lim, boylik va kambag‘allik beruvchi ibodatlarimizni qabul qiladigan yoki qilmaydigan yagona Xudoni tan olish.

Uchinchidan, Islom dini boshliqlari qalandarlar, qorilar, darveshlar, so‘filar, yuvg‘ichlar, zohidlar, gadolar, qozilar, tabiblar soliq to‘lash, og‘ir ishlardan va jamoat ishlaridan ozod qilinadilar.

To‘rtinchidan, urushlar davrida ayollarning gunohlarini afv etish lozimligi belgilanadi.

Beshinchidan, o‘g‘rilarga nisbatan qattiq jazo tartiblari joriy qilindi. Agar o‘g‘ri chorvani o‘g‘irlasa, u chorvaning haqqini to‘qqiz barobar qilib to‘lashi lozim bo‘lgan. To‘lash imkoniyati bo‘lmasa, o‘g‘rining farzandlari asoratga solingan, farzandlari va mablag‘lari bo‘lmagan taqdirda esa u o‘lim jazosiga mahkum etilardi.

Oltinchidan, “Yaso” da mo‘g‘ullar ongiga urush olib borishning yalpi qirg‘in uslubini singdirish faxrli ish ekanligi alohida ta’kidlanadi. Umuman olganda, o‘lim jazosi mo‘g‘ul harbiy-feodal davlati tuzumini mustahkamlashning birdan bir samarali vositasi hisoblangan. Jumladan, fohishalar, poraxo‘rlar, yolg‘onchilar, suv va olovni haqoratlaganlar hamda sutni yerga to‘kkanlik kabi gunohlar uchun o‘lim jazosi berilgan.

Ayniqsa, qo‘shinni mustahkamlash va unda tartib-intizomni yo‘lga qo‘yish maqsadida o‘lim jazosi keng qo‘llanilgan. Xonning buyrug‘ini bajarmaslik eng oliy gunoh hisoblangan. Xon buyruqlari uning ixtiyoridagi amaldorlar tomonidan bevosita tumanbegilarga va qabila boshliqlariga yetkazilgan. Boshliqlarga boshqa boshliqqa tobe jangchilarni qabul qilish qat’iyan taqiqlangan. Belgilangan joyga qo‘yilgan har bir boshliq boshqalar yordamga muhtoj bo‘lgan taqdirda ham ruxsatsiz o‘z joyidan keta olmas, o‘z navbatida boshqalar ham undan yordam kutishga haqlari yo‘q edi. Bu qonunni buzish o‘lim bilan jazolangan. Maxsus buyruqsiz dushmani talon-taroj qilish ham o‘lim bilan jazolangan. U yoki bu mamlakatga urush ochish va qo‘shin tortib borish masalasini faqat qurultoy hal qilar edi.

Chingizxon qo‘shinlari bo‘linmalarga bo‘lingan. O‘n jangchiga bir boshliq o‘nboshi, yuzboshi, mingboshi va tumanboshilar qo‘yilgan.

Qo'shin tarkibida maxsus lavozimlar bo'lgan: Yurtchi (bosh shtabga tegishli ofitser misoli), Tevachi (tuyakash), Bo'lang'ozilar yoki Bularg'uvchi (qo'shin joyidan qo'zg'algach, joyni nazoratdan o'tkazib, qolib ketgan narsalarni yig'ishtirib boruvchi), Bakovul (qo'shinga maosh beruvchi), Torg'uvchi yoki Jorg'uvchi (qo'shin muhrini saqlovchi), Yasovullar (qo'shin urdugohdan chiqish paytida egallashi lozim bo'lgan joylarni ko'rsatuvchi) shular jumlasidandir.

Davlat unvonlari va mansablar: ulug', o'rta va kichik hokimlar, o'lka hokimlari, sarkardalar, to'ralar, shahar va viloyat hokimlari, dorug'alar, oliy yoki quyi harbiy hokimlardan iborat bo'lgan. Chingizxon davlatining poytaxti Qoraqurum edi. Yozuv va o'qishdan bexabar bo'lgan xon bu boradagi davlat ishlarida uyg'urlar va musulmon savdogarlar xizmatidan keng foydalanadi. Shu boisdan Chingizxonning davlat idora ishlarida uyg'urlarning mas'uliyatli ishlarni bajarganliklariga ajablanmasa ham bo'ladi.

Chingizxon o'zining eng ishonchli va fidoyi odamlarini davlatning asosiy va hal qiluvchi lavozimlariga qo'yadi. 95 kishi mingboshilikka tayinlanadi. Bir necha ming kishi tarxonlarga aylantiriladi. O'nta saroy lavozimini ta'sis etadi. 150 kishidan iborat gvardiya tuzadi hamda mingta dovyurak va ishonchli kuchlardan shaxsiy drujina tashkil etadi. Tez orada ularning soni 10 ming kishiga yetkaziladi. Bu drujina qo'shinlar sarasini tashkil etardi va eng og'ir, hal qiluvchi paytlardagina jangga kiritilar edi.

Chingizxon yer yuzi hukmronligini da'vo qiladi. Bu maqsadga yetishish yo'lida u o'z raqiblarini ma'naviy qo'rquvga tushirish va dahshatga solish uslubini qurol qilib oladi. Odatda, Chingizxon qaysi mamlakatga bosib bormoqchi bo'lsa, o'sha mamlakatning hukmdoriga quyidagicha noma yo'llardi: "Tangrim menga va mening farzandlarimga butun yer yuzini hukmronlik qilish uchun berdi. Kimki menga bo'ysunsa hayotini, boyliklarini, hokimiyati va oilasini saqlab qoladi. Ammo, kimki quloq solmay qarshilik qilsa, u nima kunlarga tushishini yolg'iz xudo biladi. Agar sen bo'ysunib mening qo'shinlarimni o'z yerlaringdan o'tkazib yuborsang, men senga do'st bo'laman, aks holda, mening ko'p sonli lashkarlarim yetib kelganidan so'ng davlating va boyliklaring nima bo'lishini men ayta olmayman".

Chingizxon o‘z zamonasi uchun kuchli va qudratli lashkar tuza oladi. Xitoy va Erondan keltirilgan mohir muhandislar yordamida harbiy mashinalar qurdirilgan edi. Suv va olovdan shaharlarni vayron qilishda bab-baravar foydalanilardi. Mo‘g‘ul qo‘shinlari neftdan, gregorian (yunon) olovidan, olovli o‘qlardan foydalanishni bilishar edi. Ular yordamida inshootlarga o‘t qo‘yishar, suv toshqinlari uyushtirishar, xandaqlar qazib yerosti yo‘llari qurishar edi. Devorlarni buzishda manjaniq (katapulta) mashinalari ishlatilardi. Rivoyat qilishlaricha, Chingizxonning buyrug‘iga asosan har yilning boshida qabila boshliqlari yoki tumanbegilar xonga sodiqlik belgisi sifatida har bir qabiladagi mingta o‘tovdan eng go‘zal va e‘tiborli bitta qizni sovg‘a qilishlari kerak bo‘lgan. Bu qizlar xonning o‘ziga yoki o‘g‘illariga xotinlikka yoki haramga olingan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, Ulug‘bek va Abulg‘oziyning bergan ma‘lumotlariga qaraganda, Chingizxonning “besh yuzdan ortiq xotini va zurriyodi bor edi”. Ammo bular orasida beshtasi go‘zallik va aql farosatda tengsiz bo‘lib, Chingizxon qalbining eng to‘ridan joy olgan. Bular Bo‘rta Ko‘chin (Qo‘ng‘irot podshosining qizi), Ganjur (Oltinxon xitoyning qizi), Go‘tari So‘zun (Nayman podoshosi Naymanxonning qizi), Besulun (Chovuktun qizi), Qulon (Toyir Usunning qizi) dir. “Tojli va saroyli bu besh xotindan,- deydi Mirzo Ulug‘bek,-mansabda Bo‘rta Ko‘chin ortiq edi. Shohdan ko‘p farzand ko‘rdi, besh qizdan tashqari yana to‘rt o‘g‘il” ham bo‘lgan.

Chingizxonning to‘rt o‘g‘li bo‘lgan. Xon ularning har qaysisining qobiliyati va saviyasini hisobga olib martabali davlat lavozimlariga qo‘ygan. Jumladan, katta o‘g‘li Jo‘jixon-bazmu shikorni tartib etishga, ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon-lashkar ishlariga, uchinchi o‘g‘li O‘qtoyxon-mamlakat tadbirlariga, Tulixon-saroy ahli va amaldorlarning muhofazasiga qo‘yilgan.

Chingizxon erishgan muvaffaqiyatlarini munosib yordamchilar tanlay bilganligi uchun qo‘lga kiritilganligini alohida ta’kidlar ekan, agar uning avlodlari ham shu yo‘l dan borsalar, u tuzgan saltanatning ming yillar hukm surishiga ishongan edi.

Chingizxon davlat ichki ishlarini mustahkam izga solib va qudratli qo‘shin tuzib o‘zining jahongirlik rejalarini amalga oshirishga kirishadi. 1206 yilda naymanlar bo‘ysundiriladi. 1207 yilda Chingizxon tongg‘utlar

boj to‘lamaganligi uchun ular ustiga yurish qilib, yer-mulklarini vayron etadi. 1207-1208 yillar davomida Enasoy (Yenisey) havzasi va Yettisuv viloyatining shimoliy qismi, uyg‘urlar yurti egallanadi. 1211-1215 yillarda Xitoyga qarshi bir necha bor hujumlar uyushtiriladi. Va nihoyat, 1215 yilda mo‘g‘ul lashkarlari Shimoliy Xitoyning markazi Chjundu (Pekin) ni bosib oladi¹⁸⁵. Biroq, mo‘g‘ullar Xitoyni to‘liq bosib olish uchun 70 yildan ziyod vaqt sarflaydi. Nihoyat, 1279 yili Xubilay Xitoyni to‘liq zabt etib “Yuan” sulolasiga asos soladi.

Xitoyning qo‘lga kiritilishi Chingizxon boshliq mo‘g‘ullar davlatining istilochilik istiqboli uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki, mo‘g‘ullar Xitoydek katta va boy mamlakatni bosib olgach, behisob har turli boyliklarning egasi bo‘ladilar. Bu davrda Xitoyda qadimiy an‘anaviy boyliklardan tashqari, zamonaviy harbiy texnika ham yuksak darajada rivoj topgan edi. Shu bois Chingizxon bu mamlakatdan juda ko‘plab miqdorda oltin, kumush buyumlar, shoyi, atlas matolar, cho‘ri-kanizaklardan tashqari har xil qurol-yarog‘ aslahalari, harbiy texnika moslamalari: manjaniq, palaxmon, naftandozlarni va ularni ishlata oladigan mohir ustalarni ham olib keladi. Bu hol Chingizxon lashkarlarining eng yaxshi qurol-aslahalar bilan ta‘minlangan qudratli kuchga ega bo‘lishini ta‘minlaydi.

Mo‘g‘ullar davrida boshqaruvdagi mansab va lavozimlar:

Xon-hukmdor urug‘ining boshlig‘i va qaram vassallar hukmdori sifatida butun mamlakat, uluslarga tegishli hududlar ustidan oliy huquqqa ega bo‘lib, uning asosiy vazifasi-mamlakatni tashqi dushmanlardan qurolli himoya qilish edi. Xon urush e‘lon qilish va sulh tuzish huquqiga ega bo‘lib, mamlakat qo‘shinlarining oliy boshlig‘i edi. Xon boshqa davlatlar bilan muzokaralar olib borish huquqiga ega bo‘lib, mamlakatning tashqi siyosiy aloqalarini ham boshqargan. Xon o‘z qaramog‘idagilarni qatl qilish va omon qoldirish huquqiga ega bo‘lib, mamlakatda bosh qozi vazifasini ham bajargan. Xon qonunlar chiqarish hamda jamiyatning barcha a‘zolari bajarishi lozim bo‘lgan farmonlar chiqarish huquqiga ega bo‘lib, jamoat tizimi va tartibni saqlash vazifasini bajargan.

¹⁸⁵ Аскарлов А. Ўзбекистон халқлари тарихи. -Т.: “Фан”, 1992. -Б.142. 97

Tarxon-ular turli soliqlardan ozod qilingan bo'lib, ov paytida va urushlarda qo'lga kiritilgan o'l jalar ularning shaxsiy mulki hisoblanadi. Chingizxonning o'zi ham undan keyingi mo'g'ul xonlari ham ularni xon va davlat oldidagi xizmatlari uchun taqdirlab turganlar.

Kobegun keyinchalik Tayju-Mo'g'ulistonning o'zida va Sharqiy qismlarida Chingiziylar xonadoni shahzodalari dastlab kobegun, keyinchalik tayju deb atalgan va ular uluslar yoki ma'lum bir hududni boshqargan.

Pisar-chingiziylar davlatining g'arbiy qismida shahzodalar boshqacha atalgan. XIII-XIV asrlar musulmon mualliflari asarlarida dastlabki shahzoda yoki forscha pisar (o'g'il) deb atalgan, ular ma'lum bir hududlarni boshqargan.

Bosqoqlar- mo'g'ullarning tayanchi bo'lgan soliq yig'uvchilar

Dorug'ullar- harbiy ma'murlar hisoblangan. Bundan tashqari mo'g'ul harbiy bo'linmalari bo'lgan.

Dorug'a- (mo'g'. "daraxtu" bosmoq, ezmoq) viloyat, tuman, shahar hokimi. Uning zimmasiga soliq to'lashi kerak bo'lgan aholining ro'yhatini tuzish, soliq yig'ish vazifasi yuklatilgan.

Yurtchi-bosh shtabga tegishli ofitser.

To'qsabo-polkovnik yoki brigada generali darajasida bo'lgan harbiy mansabdor.

Bo'l ang'ozilar yoki Bularg'uvchi-qo'shin joyidan qo'zg'algach, joyni nazoratdan o'tkazib qolib ketgan narsalarni yig'ishtirib boruvchi.

Bakovul-qo'shinga maosh beruvchi.

Tavochi-o'rta asr feodal xonliklarida nufuzli mansabdorlardan biri. Uning zimmasiga viloyatlarga borib qo'shin to'plash, harbiy yurish vaqtida qo'shnlarning to'xtash o'rnini belgilash, qo'shinni ko'rikka hozirlash, xavf-xatar vaqtida tevarak-atrof xalqini qal'a ichkarisiga ko'chirtirish, hukumatning maxsus inshootlari qurilishi ustidan nazorat qilish, jazo choralarini nazorat qilish kabi vazifalar yuklatilgan.

Torg'uvchi yoki Jorg'uvchi-qo'shin muhrini saqlovchi shaxs.

Yasovullar-qo'shin urdugohdan chiqish paytida egallashi lozim bo'lgan joylarni ko'rsatuvchi.

Malik-o‘n ming kishilik suvoriylar guruhiga qo‘mondonlik qilgan kishilarga beriladigan unvon. U bu unvonga favqulodda harbiy jasorati, qahramonligi bilan erishgan edi.

Yasuvur o‘g‘lon-Chingizxon qo‘shinining so‘l qanoti hazora (ming) amirlaridan.

Tumanboshi-o‘n minglik bo‘limaning rahbari.

Mingboshi-ming askar rahbari yoki o‘nta yuzboshi rahbari.

Yuzboshi-yuzta askar rahbari.

O‘nboshi-o‘nta askar rahbari.

Ajarchi-lashkarga yo‘l ko‘rsatib boruvchi.

Tevachi-qo‘shinda tuyakashlar shunday atalgan.

Mo‘g‘ullarda qo‘shin tuzilishi haqida manbalarda ancha batafsil ma’lumotlar saqlanib qolgan. Bu xususida Plano Karpini keltirgan ma’lumotlar boy va qimmatlidir. “Chingizxon amriga ko‘ra har bir o‘n kishi tepasiga bir kishi rahbar qilib qo‘yilgan. O‘nta o‘nboshi ustidan bir kishi qo‘yilib u yuzboshi deyilgan, o‘nta mingboshi ustidan bir kishi qo‘yilib u tumanboshi deyilgan. Barcha qo‘shin tepasiga esa ikki yoki uch kishini qo‘yib ular bir kishiga bo‘ysunganlar”.

Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, Chingizxon davrida mo‘g‘ullarda qo‘shin va xalqni taqsimlashning Osiyocha o‘nlik tizimi qabul qilingan. M.Ivaninning qayd etishicha, “har bir qabilaning ko‘chib yashashi uchun ma’lum maydon aniqlanib va mingliklarga birlashtirilgan bo‘lib, o‘nboshi, yuzboshi va mingboshilar tomonidan boshqarilib turilgan. Qo‘shin to‘planayotgan paytda har o‘nta o‘tovdan bitta, ikkita va hokazo jangchilar jalb qilingan, ular ,o‘z navbatida, jangga kerakli anjomlar va oziq-ovqatlar bilan ta’minlangan bo‘lishlari kerak edi.

Qo‘shinlar ham bo‘linmalarga bo‘linib, har o‘n jangchiga boshchilik qilish uchun o‘nboshi saylangan. To‘qqizta o‘nlik o‘z o‘nligiga ega bo‘lgan yuzboshiga bo‘ysungan. Mingliklar va tumanlar ham mana shu asosda tashkil topgan edi”.

Qo‘shinning o‘nlik tizimi asosida bo‘linishi barobarida mo‘g‘ullarda armiyani qanotlarga va markazga bo‘lish ham saqlangan. Ko‘chmanchi hayot tarzini harbiylashtirish urug‘chilik tuzumini buzmaganda keng

ko‘lamda o‘tkazildi. Harbiy qismlar ayrim qabila va urug‘lardan tuzilgan, ular ma‘lum miqdordagi otliq qo‘shin ajratib berishlari lozim edi¹⁸⁶. Qo‘shinlar va ularni ta‘minlovchi urug‘lar, baxrin Naya boshchiligidagi markazga yoki Muxali boshchiligidagi so‘l qanot (juvung‘or) va Bogurchi boshchiligidagi o‘ng qanot (burung‘or) ga bo‘lingan. Qo‘shin tarkibida alohida o‘rinni xon gvardiyasi (keshik) egallab, u eng jasur, a‘lo darajada qurollangan jangchilardan tarkib topgan. Gvardiyaga Chingizxonning o‘zi shaxsan qo‘mondonlik qilgan va shu tufayli u qo‘shin saflari bilan aloqani uzmagani. Mo‘g‘ul harbiy tashkiloti tizimida yordamchi harbiy xizmatlar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mo‘g‘ul qo‘shinida intendantlik xizmati joriy qilingan bo‘lib, yangi lavozim-cherbi yoki armiya intendantlari tayinlangan. Ular qo‘shinning ortidagi yordamchi xizmatlarni boshqarganlar. Oziq-ovqat zaxiralarini saqlash uchun do‘konlar qurilishiga katta e‘tibor berilgan. Qo‘shin o‘tadigan yo‘llarni nazorat qiluvchi maxsus qism, o‘ziga xos sapyorlar bo‘linmasi mavjud edi. Harbiy razvedka, raqib joylashgan yer, raqibning jangovarlik holatini bilishga katta e‘tibor berilgan. Bu faoliyat bilan maxsus elchilar va savdogarlar shug‘ullanishgan¹⁸⁷.

Yurishga ketayotgan mo‘g‘ullar o‘zlari bilan quroldan tashqari katta bo‘lmagan chodir ham olishlari kerak edi¹⁸⁸.

Qo‘mondonlar tayinlashning puxta o‘ylangan tizimi bo‘lib “mingboshi va yuzboshi tayinlashda Chingizxon ularni badavlat xonadonga mansub ekanligiga emas, balki ularning shaxsiy qobiliyati va kishilarni boshqara olishiga e‘tibor bergan. Chunonchi, qo‘ychivon Degeyga daydib yurgan qabilalardan biriga mingboshi bo‘lishni amr qilgan. Yana bir holatda yangi tashkil etilgan qabila boshlig‘i etib duradgor Guchugur qo‘yilgan”.

Qo‘shin boshlig‘iligiga munosib kishi o‘zi ochlik, chanqoqlikni his etadigan bo‘lishi va shu holati bilan boshqalarning holati haqida hukm qilishi, safarda qo‘shinni ochlik va chanqoqlikda, to‘rt oyoqli hayvonlarning ozib ketishiga yo‘l qo‘ymasligiga erishishi kerak edi.

¹⁸⁶ Хасанов Ф. Турон халклари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018. -Б.321.

¹⁸⁷ Хасанов Ф. Турон халклари ҳарбий санъати. -Т.: “Давлат илмий нашриёти”, 2018. -Б.324.

¹⁸⁸ Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. -Т. “Фан”. -Б.27.

Mo'g'ul qo'shinida harbiy intizomni buzganlarga nisbatan juda qattiq jazo choralari ko'rilgan. Plano Karpinining yozishiga ko'ra, qo'shinlar urushda bo'lgan chog'da, o'n kishidan bir yoki ikki, uch yoki ko'proq kishi qochgudek bo'lsa, hammasi o'ldirilgan, agarda o'n kishining hammasi qochsayu qolgan yuz kishi qochmasa, hammasi o'ldirilgan; qisqasi, agarda ular bahamjihat chekinmasalar, barcha qochganlar o'ldirilgan; xuddi shuningdek, bordiyu bir yoki bir necha kishi mardona jangga tashlansalar, qolgan o'n kishi ularga ergashmasa ular qatl etilgan. Bordiyu o'nlikdan bir yoki bir necha kishi asir tushib qolgudek bo'lsayu do'stlari ularni xalos etmasalar, ular ham qatl etilganlar. Albatta, mo'g'ul qo'shiniga g'alabani bunday beshafqat jazolardan qo'rqish tuyg'usi emas, balki sarkardalarning yuksak mahorati, harbiy ta'lim, jang hadisini yaxshi bilishi va o'zining yengilmas ekanligiga ishonchi keltirgan edi.

M.Ivaninning yozishicha, urush boshlashdan avval Chingizxon hujum qilmoqchi bo'lgan davlatning ichki holati va uning harbiy vositalari haqida aniq ma'lumotlar to'plar, u yerdagi hokimiyatdan norozi bo'lgan kishilar bilan mahfiy aloqalar o'rnatib, ularga yaxshi o'ljalar va katta lavozimlar va'da qilib, o'z xizmatiga olishga harakat qilar edi. Bunday maqsadli va har tomonlama tayyorgarlik bilan olib borilgan urush oxir-oqibatda muvaffaqiyat keltirgan. Yurishga qurultoyda qaror qilingandan so'ng kirishilgan. Qurultoyda qo'shinni yig'ish uchun zarur bo'lgan barcha tadbirlar, har o'nlikdan qanchadan kishi kerakligi, qo'shinning yig'ilish vaqti va joyi hal qilingan. Garchi qurultoy qatnashchilari hal qiluvchi ovozga ega bo'lmasalarda (qarorni shaxsan xon qabul qilgan), muhokama jarayonining o'zi, ya'ni urush olib borishdan maqsad va vazifalarni aniqlash, hujum yo'nalishi va qo'shin miqdorini belgilash, qo'mondon va uning yordamchilarini tayinlash marosimining o'zi ishning muvaffaqiyatli tugashining garovi edi.

Plano Karpini mo'g'ul qo'shinining safardagi jangovar tartibiga katta e'tibor bergan: "Ular urushga bormoqchi bo'lsalar, oldinga ilg'or qism yuboradilar, bu qismdagilar O'zlari bilan kigiz, otlar va qurol-aslahadan boshqa hech nima olmaganlar. Ular hech kimni talamaydilar, uylarni yoqmaydilar, hayvonlarni o'ldirmaydilar, faqat odamlarni yarador qiladilar

va o'ldiradilar, boshqa ish qo'llaridan kelmasa, ularni quvib yuboradilar. Har holda ular quvib yuborishdan ko'ra, o'ldirmoqni afzal ko'radilar".

Qo'shinning asosiy kuchi piyodalardan iborat bo'lib, sarkarda Dzining fikricha, 50.000 kishilik lashkarga jang paytidagi harakatlar uchun 3000 ta otliq va 500 arava yetarli edi¹⁸⁹.

Asosiy kuchlarning vazifasi qarshilik ko'rsatishning barcha o'choqlarini butkul yakson etish, bu bilan qo'shin ortidan faqat "tutun va kul" qoldirishdan iborat edi. Plano Karpini mo'g'ul qo'shini tomonidan daryo-suvlardan kechib o'tish usuliga ko'p e'tibor bergan, chunki suv g'ovlari o'rta asr lashkarlarning tezlik bilan yurishida jiddiy to'siq bo'lgan. Ular daryoga yetib kelgach, u har qancha katta bo'lmasin quyidagicha kechib o'tishgan: ko'pgina amaldorlarning dumaloq va tekis terilari bo'lib, uning ustki qismi aylanasi bir qancha dastalar qilingan, ularga arqon o'rnatib bog'lashgan va natijada xuddi dumaloq qopga o'xshash narsa hosil bo'lgan.

Mo'g'ullar hujumi strategiyasining asosi-raqib qo'shinini tor-mor etish bo'lgan. Dushman qo'shini o'rnashgan yer aniqlanishi bilan ular tezkorlikdagi ustunliklari tufayli sinash, razvedka maqsadida jang qilib ko'rganlar. "Shuni bilish zarurki, ular doimo dushmanlarini ko'rgan zahoti hujumga tashlanishadi, ularning har biri raqibi tomon uch-to'rt kamon o'q otadi; bordiyu g'alaba qilishga ko'zlari yetmasa, yana o'z qo'shinlari tomon chekinadilar; bu chekinish yolg'ondakam bo'lib, raqiblarni pistirma turgan yergacha ergashtirib kelish va shu yerda ularni o'rab olib, yanchib tashlashga mo'l jallagan"¹⁹⁰.

Kamondan o'qqa tutishning yuqori samaradorligiga kamonchilarning yaxshi ta'lim ko'rganliklari, o'qlarning katta tezlikdagi parvozi va beto'xtov o'q yog'dirilishi bilan erishilgan. O'qqa tutish paydar-pay bo'lmasdan, birvarakayiga juda qisqa vaqt oralig'ida otilganki, to'qnashuv paytida ularning o'qlari o'chmaydi, balki sharros quyulgan yomg'irdek yog'ilgan.

¹⁸⁹ Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. -Т. "Фан", 1994. -Б.14.

¹⁹⁰ Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. -Т.: "Давлат илмий нашриёти", 2018. -Б.328.

Mana shunday beto'xtov o'q yomg'iri oqibatida raqib tomon ko'plab talafot ko'rgan. Mo'g'ullar o'zlari iloji boricha kamroq talafot ko'rishlari uchun jang taqdirini jangning boshlang'ich pallasidayoq bir yoqlik qilishga intilganlar.

Y.H. Rerixning yozishiga qaraganda, suvoriyning orasi ochiq bo'lgan saflari ketma-ket hujum qilib, raqibni kamon o'qlari va o'tsiz qurol bilan unga shikast yetkazib, iloji boricha raqib qanotlarini kengroq qurshab olishga harakat qilishgan. Otliqlar jangi zirhli yoki taran tipidagi zarbdor og'ir otliq qo'shinni qilich va nayzalar bilan jangning birinchi bosqichida dushmanning jangovar saflarida aniqlangan zaif yeriga hujumga tashlanishi bilan yakunlangan. Birinchi bosqichda mo'g'ul suvoriylari safi doimiy harakatda bo'lgan, muttasil dushmanga hamla qilib uning safi yonidan ot choptirib o'tib, ya'ni dastlabki holatga qaytganlar. Bu dushman sarosimaga tushguncha davom etgan. Bunday taktikalar qo'shinni yaxshi boshqarishni, yaxshi ta'lim berish va intizomni talab qilgan.

Mo'g'ullarning og'ir qurollangan otliq qo'shinini yaqin masofadan olib borgan jangi zamondoshlari va keyingi davr tadqiqotchilari nazaridan chetda qolgan. Ehtimol, bu holat mo'g'ullarning zirhli otliq qo'shini jang taqdirini amalda hal bo'lgandan keyin jangga kirganligi oqibati bo'lsa kerak. Og'ir qurollangan otliq qo'shin sarosimaga tushgan, safi buzilgan raqibga hujum qilgan. Ularning asosiy vazifasi tashkiliy qarshilik ko'rsatishning qoldiqlarini tugatish, dushmanni qochishga majbur qilish edi. Qochgan dushmanni ta'qib etib uni batamom tor-mor qilishdagi bosh rolni harakatchan yengil otliq qo'shin o'ynagan. Mo'g'ul qo'shinlari xitoyliklarning otish texnikasini o'zlashtirib, aftidan ko'chmanchilar olamida birinchilardan bo'lib uni jang maydonida qo'llaganlar. Mo'g'ullarning otish qurollarini janglarda qo'llaganliklari haqida misollar bor. Chunonchi, 1241 yili Vengriyada Botu Sayo daryosidagi ko'prikn manjaniqlar vositasida egallagan.

Chingizxon o'z hukmronligining so'nggi davrlariga kelib, 1224 yilda o'z qo'lostiga kiritgan barcha hududlarni avlodlari o'rtasida taqsim qiladi. Chunonchi, Irtish daryosi sohillaridan g'arbgacha to "mo'g'ullar otining tuyog'i yetgan joygacha" bo'lgan yerlar, Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazmning shimoli-g'arbiy qismlari to'ng'ich o'g'li Jo'jiga, Sharqiy

Turkiston, Yettisuv va Movarounnahr yerlari Chingizning ikkinchi o'g'li Chig'atoyga berildi¹⁹¹. Uchinchi o'g'il O'qtoygga esa G'arbiy Mo'g'uliston va Tarbag'atoy yerlari ajratildi, Kenja o'g'il va voris Tuliga Mo'g'uliston, Xitoy va Qirg'iziston yerlari meros qilib berildi. Keyinchalik, Chingizxonning jahongirlik yurishlarini davom ettirib, Sharqiy Yevropaning katta qismini bosib olib, Oltin O'rdaga asos solgan uning nabirasi Botuxon hukmronligi davrida (1227-1255) Movarounnahrning qator hududlari ham uning ta'sirida bo'lgan¹⁹².

Shunday qilib, Chingizxon avlodlari o'rtasidagi meros taqsimlanishi natijasida Movarounnahr, Sharqiy Turkiston va Yettisuv o'lkalari Chig'atoy va uning vorislariga o'tib, u Chig'atoy ulusi nomi bilan atala boshlandi. Endilikda mo'g'ul hukmdorlari Movarounnahr o'lkasini boshqarishga kirishar ekanlar, ular qanday qilib bo'l masin, uning xalqini yanada itoatda tutish, bu yerdan mo'g'ul zodagonlari uchun ko'proq soliq va o'lponlar undirish, qo'shimcha majburiyatlar yuklash harakatida bo'ladilar. Mo'g'ullar Movarounnahrni idora etishda mahalliy amaldorlar xizmatidan ustamonlik bilan foydalandilar. Shu o'rinda Mahmud Yalavoch, Badriddin Amid, Hasan Xoja, Ali Xoja, Yusuf O'troriy, Qutbiddin Habash Amid singari mo'g'ul hukmdorlari bilan yaqindan hamkorlik qilgan mahalliy amaldorlar ismlarini keltirib o'tish joiz. Shu boisdan ham, Chig'atoy ulusi hukmdori Chig'atoy (1224-1242) davrida Movarounnahrni boshqarish mahalliy yirik savdogar, diplomat, sotqinlik evaziga mo'g'ullar ishonchini qozongan Mahmud Yalavochga berilgani tasodifiy emas. U xoqon nomidan raiyatni boshqaradi. Uning qarorgohi (poytaxti) Xo'jand edi¹⁹³. Harbiy hokimiyat, aholini ro'yxatdan o'tkazish, soliq yig'ish ishlari dorug'achi va tamg'ach deb ataluvchi mo'g'ul amaldorlari qo'lida bo'ladi. Mo'g'ul bosqoqlari ixtiyoridagi ko'p sonli jangchilar Mahmud izmiga bo'ysundirilgan. Aholidan markaziy hokimiyat xazinasini uchun ko'plab soliqlar undirilgan.

Bundan tashqari, aholi turli-tuman to'lovlar berishga majbur etilgan. Masalan, aholi savdo yo'llaridagi bekatlar (yomlar) uchun go'sht, un,

¹⁹¹ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.212.

¹⁹² Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Х. Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тарихи. I-Қисм. -Т.: "Академия", 2000. -Б.123.

¹⁹³ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.214.

guruch, ot-ulov berishga ham majbur etilgan. Bosib olingan mamlakat hunarmandlari “din tugun”, deb atalgan maxsus o‘lpon to‘lab turganlar.

Mo‘g‘ullarning Movarounnahr hududini bosib olib, ship-shiydon etib, talon-taroj qilishi, so‘ngra mahalliy aholini haddan ziyod soliq, o‘lpon va to‘lovlar yo‘li bilan zulm-asoratga duchor etishi, pirovard oqibatda xalqning ko‘tarilishiga, o‘z erki, mustaqilligi uchun qalqishiga sabab bo‘ladi. 1231 yilda Buxoro yaqinidagi Tarob qishlog‘ida boshlangan oddiy g‘alvir yasovchi hunarmand Mahmud Tarobiy boshchiligidagi xalq qo‘zg‘oloni shu tariqa yuz bergan edi¹⁹⁴. Kelgindi mo‘g‘ul zodagonlarining mahalliy yuqori tabaqa vakillari bilan til biriktirib, bechorahol xalqni talab, boylik orttirayotganligi, shohona aysh-u ishrat qurayotganligi, oddiy fuqaroning turmushi tobora nochorlashib borayotganligi Mahmud va uning maslakdoshlarini g‘azabga keltiradi va qo‘lga qurol olib, mo‘g‘ullar zulmini ag‘darib tashlash uchun kurashga undaydi. Uning tevaragiga ming-minglab alamzada oddiy mehnat kishilari to‘planadi. Buxoro atrofidagi qishloqlar aholisi bilan ko‘payib borgan qo‘zg‘olonchilar Buxoroga kelib, mo‘g‘ul amaldorlarini, shuningdek, mahalliy zodagonlar, sadrlarni yengib, shaharni egallaydilar. Buxoro sadrlari Mahmud Tarobiy hokimiyatini tan olib, uni xalifa deb e‘lon qilishga majbur bo‘ladilar.

Mahmud Tarobiy Buxoroni egallagach, hukmron kuchlar hokimiyatini cheklaydi va oddiy xalq manfaatlarini ko‘zlaydigan bir qator tadbirlar o‘tkazadi. Qo‘zg‘olonchilar zarbidan Karmanaga qochgan mo‘g‘ul bosqoqlari va mahalliy amaldorlar qo‘zg‘olonni bostirish uchun yangidan katta kuch to‘playdilar va Buxoroga yurish boshlaydilar. Ammo bu davrga kelib katta kuchga aylangan qo‘zg‘olonchilarning qo‘li baland keladi. 10 mingdan ziyod mo‘g‘ul askarlari qirib tashlanadi. Qo‘zg‘olonchilar mo‘g‘ullarni Karmanagacha quvib boradilar. Biroq, mana shu hal qiluvchi olishuvda qo‘zg‘olon rahnamolari Mahmud Tarobiy va Shamsiddin Mahbubiyalar halok bo‘ladi. Tez orada qo‘zg‘olonga qarshi yuborilgan Eldiz No‘yon va Chekan Qurchi boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Karmana yaqinidagi Malik rabotida qo‘zg‘olonni bostiradi. Bu jang-u

¹⁹⁴ Аскаров А. Ўзбекистон халқлари тарихи. -Т.: “Фан”, 1992. -Б.146.

jadal to'qnashuvda 20 mingdan ziyod qo'zg'olonchilar halok bo'ldi. Garchi bu xalq qo'zg'oloni mag'lub etilsada, biroq u Movarounnahr erksevar xalqining ozodlik va mustaqillik yo'lidagi mardonavor kurashi, qat'iyatini to'la namoyon etdi. Ayni chog'da, Tarobiy qo'zg'oloni mo'g'ul hukmdorlariga mahalliy xalq bilan munosabatlarini qayta ko'rib chiqish, siyosiy va taktik yo'llarni o'zgartirish uchun muhim saboq bo'ldi. Mahalliy xalq orasida ancha obro'sizlanib qolgan Mahmud Yalavochning mo'g'ul hukmdorlari tomonidan Movarounnahrdan olinib, Pekinga hokim etib tayinlanishi, uning o'rni katta o'g'li Ma'sudbekka berilishi ham qo'zg'olonning muhim saboqlaridan biri bo'ldi.

Ma'sudbek (1238-1289-yil) bir tomondan, hukmron mo'g'ul xonlari, aslzodalari bilan umumiy til topishga harakat etib, ularning manfaatlari, qiziqishlariga mos keladigan siyosat yuritgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mo'g'ul xonlari o'rtasidagi toj-u taxt, hukmronlik uchun yuz bergan o'zaro ixtiloflardan ustalik bilan foydalanib, o'lkada savdo-sotiqni jonlantirish, iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishga intildi. Movarounnahr hududlarida yuz bergan bu xildagi ijobiy o'zgarishlarda Chig'atoy ulusi xoni tashabbusi bilan mo'g'ul no'yonlari va shahzodalarining 1269-yilda Talos vodiysida bo'lib o'tgan qurultoyi va undagi tarixiy kelishuvning roli va ta'siri katta bo'ldi. Mazkur qurultoy barcha mo'g'ul xonlari, aslzodalariga qayerda yashashlaridan qat'i nazar mahalliy aholi hayoti, turmush tarziga aralashmaslik, belgilab qo'yilgan soliq, to'lovlar bilan qanoatlanish, ekin maydonlarini payhon qilmaslik majburiyatini yukladi. Ularni Movarounnahr yerlariga ko'chib, asta-sekin o'troq hayotga o'ta borishga da'vat etdi.

XIII asrning ikkinchi yarmiga kelib mo'g'ullarning mahalliy aholiga, ularning turli ijtimoiy qatlamlariga nisbatan munosabatlari ham keskin o'zgarib bordi. Mo'g'ul hukmron doiralarining bir qismi yerlik aholining yirik mulkdorlari, ruhoniylari, savdo-sotiq, hunarmand tabaqalari bilan umumiy til topib, o'z qarashlarini o'zgartirib, musulmon ruhoniylariga xayrixohlik va hurmat bilan munosabatda bo'la boshladilar. Chig'atoy ulusida islom rasmiy davlat dini maqomiga ega bo'ldi. Shuningdek, mo'g'ul qabilalari, elatlari bilan birga XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab turkiy urug'-qavmlar ham Movarounnahrga kelib

oʻrnasha boshladi. Jumladan, barloslar Qashqadaryoda, jaloiriylar Ohangaron vodiysida, arlotlar Afgʻoniston shimolida, qavchinlar Tojikiston janubida, turkiylashgan moʻgʻullar urugʻi-soʻfiylar Xorazmda joylashib, chuqur tomir otib bordi. Bu esa turkiy xalqlar, elatlarning oʻlkadagi mavqeyining yanada mustahkamlanishiga, turkiy til va uning shevalari taʼsirining ortib borishiga sabab boʻldi. XIV asrdan boshlab Chigʻatoy ulusida moʻgʻul xonlari boshqaruvi sohasida ham muhim oʻzgarishlar yuz beradi. Bu oʻzgarishlar, dastavval, Chigʻatoy xonlaridan Duvaxon (1274-1306), uning oʻgʻillari Kebekxon (1318-1326), Tarmashirin (1326-1334) nomlari bilan bogʻliqdir. Jumladan, Duvaxon davrida katta vakolatga ega boʻlgan Maʼsudbek saʼy-harakatlari bilan shaharsozlik rivojlanganligi, savdo-sotiq ahli katta naf topganligi, qishloq xoʻjaligi ancha yuksalganligi koʻzga tashlanadi. Kebekxon esa oʻz qarorgohini moʻgʻul hukmdorlari orasida birinchi boʻlib, Movarounnahrda koʻchirdi. Qashqadaryo vohasidagi Nasaf shahridan uncha uzoq boʻlmagan joyda uning buyrugʻi bilan saroy (moʻgʻulcha maʼnosi “qarshi”) bunyod etilib, Qarshi nomi bilan poytaxtga aylantirilishi oʻsha davrning muhim voqealaridan boʻlgan.

Kebekxonning muhim xizmatlaridan yana biri - bu uning pul va maʼmuriy-hududiy sohalarda oʻtkazgan islohotlaridir. Xususan, 1321 yilda oʻtkazilgan pul islohotida Xuroson, Eron va Oltin Oʻrdadagi amaldagi pul tizimi hisobga olingan edi. Ogʻirligi 8 grammlik katta kumush tanga va 1 grammlik kichik tanga zarb etildi. Katta tanga “dinor” deb, kichik tanga “dirham” deb atalgan. Yangi pul birligi “Kepaki” nomi bilan mashhur boʻlgan. Islohotning dastlabki yillarida Kebek nomi bilan mashhur boʻlgan bu tangalar koʻp miqdorda Samarqand va Buxoroda zarb qilinib, muomalaga chiqarilgan. Bu ikki xil qimmatga ega boʻlgan kumush tangalar keyinchalik boshqa hukmdorlar tomonidan ham chiqarilgan. Masalan, Tarmashirin davrida Oʻtrorda koʻplab kumush tangalar chiqaradigan zarbxona muntazam ishlab turgan. Kebekning pul islohoti tashqi va ichki savdoning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratishga xizmat qildi.

Maʼmuriy islohotga koʻra, Movarounnahr hududlari viloyatlarga, viloyatlar tumanlar (moʻgʻullar tartib qilgan 10 ming askar beradigan,

aholisi 40-50 ming nafar bo'lgan, hozirgi tumanlarimizga qiyos etsa bo'ladi - izoh) ga bo'lindi. Jumladan, Samarqand viloyatida 7 ta, Farg'ona viloyatida 9 ta tuman tarkib topgan. Kebekxonning o'lkada tinchlik, osoyishtalik va totuvlik o'rnatish borasidagi siyosatini Tarmashirin izchil davom ettirdi. U islomni qabul etib, uni davlatning rasmiy dini darajasiga ko'tardi. Kebekxon yo'nalishida siyosat yurgizgan mo'g'ul xonlarining navbatdagi vakili Qozonxon (1334-1346) ham Movarounnahr hududlari birligini saqlash, tubjoy aholi manfaatlarini himoya qilish uchun mahalliy mo'g'ul va turk amirlari, no'yonlarining olib borayotgan bir yoqlama kurashlarini bartaraf etishga intildi¹⁹⁵. U o'zi uchun qarorgoh sifatida Qarshi bilan Buxoro oralig'ida (hozirgi Muborak tumani hududida) mashhur Zanjirsaroy qal'asini qurdirtdi¹⁹⁶. Biroq markazdan qochuvchi kuchlarning, dastavval, ko'chmanchi mo'g'ul amirlarining kuchayib borayotgan ta'siri va fitnasi oqibatida 1346 yilda Qozonxon qatl etiladi. Shundan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan amir Qazog'on (1347-1358) mo'g'ul zodagonlari manfaatlarini yoqlab siyosat yurgizdi. Uning o'zi ham bir joyda muqim yashamasdan ko'p vaqtini bosqinchilik yurishlarida o'tkazardi. Buning oqibatida uning davrida mahalliy aholi tub manfaatlari bilan mo'g'ul hukmdorlari manfaatlari bir-biriga tobora zid kela bordi. Bu esa Movarounnahrda yana siyosiy vaziyatning keskinlashuviga, hokimiyatga intiluvchi kuchlarning faol harakatga kelishiga sabab bo'ldi. XIV asrning 40-yillarida Chig'atoy ulusi ikki qismga: Yettisuv, Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'ulistonga va Movarounnahrda bo'l inib ketdi. 1348-yilda Chig'atoy naslidan bo'lgan Tug'luq Temur Mo'g'uliston hokimi etib ko'tarildi. Movarounnahrda hokimiyatni egallagan amir Husayn 1358 yilda o'ldiriladi. Bunday sharoitda Movarounnahr yurtini birlashtirish, mahalliy hukmdorlarning o'zboshimchalik, boshboshdoqlik harakatlarga chek qo'yish, jafokash xalqni mo'g'ullar zulmi va istibdodidan butkul xalos etish va unda qudratli markazlashgan davlat barpo etishdan iborat yuksak vazifa tarixiy zaruriyat taqozosi bilan kun

¹⁹⁵ Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.218.

¹⁹⁶ Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan Tarixi, I kitobi, -Т.: "Sharq", 2010. -Б.153. 109

tartibiga qo'yildi. Uni muvaffaqiyatli uddalash esa ulug' bobokalonimiz Amir Temurga nasib etdi.

Chig'atoy ulusidagi lavozim va unvonlar:

Qoon yoki Xoqon- chig'atoy ulusida oliy hukmdor shunday deb yuritilgan.

Xon-chig'atoy ulusida viloyat hukmdori yoki boshqaruvchisi hisoblangan.

Bosqoqlar- mo'g'ullarning tayanchi bo'lgan soliq yig'uvchilar.

Dorug'alar-harbiy ma'murlar hisoblangan. Bundan tashqari mo'g'ul harbiy bo'l inmalari bo'lgan.

Amir-qo'shin yetakchisi harbiy yurishlar paytida ma'lum hududni boshqarish huquqi berilgan.

Sadr-turkiy-mo'g'ul urug' boshliqlari bo'lib ularni boshqargan oqsoqollar.

Maruza mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“Insert”** interfaol usulidan foydalaniladi.

INSERT JADVALI

A	M	—	?

Mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- ◆ Chingizxonning otasi Esugay Bahodir bo'lgan.
- ◆ Chingizxonning onasi O'linder bo'lgan.
- ◆ Kebekxonning muhim xizmatlaridan yana biri-bu uning pul va ma'muriy-hududiy sohalarda o'tkazgan islohotidir.
- ◆ Chingizxonning to'rt o'g'li bo'lgan.

♦ Chig‘atoyga berilgan hududlar Movarounnahr, Yettisuv, Sharkiy Turkiston (Qashqar) bo‘lgan.

♦ Yaso qonunini Chingizxon ishlab chiqqan.

♦ Qo‘shin o‘nlik qismlardan tashkil topgan.

♦ Qozonxon 1346 yil o‘ldirildi.

Mavzu mashg‘ulotida topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “Insert” interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim

- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak

-Yuqorida berilgan matn jiddiy o‘qiladi

- Maxsus belgilar yordamida (“A”- tanish ma’lumot; “M”- yangi ma’lumot; “?”- bu ma’lumot men uchun tushunarsiz) munosabat bildiriladi

-Maxsus belgilar orqali o‘z bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi

- “A”- tanish ma’lumot bo‘lsa, qaysi manbadan qachon o‘rganilganligi qayd etiladi

“M”- yangi ma’lumot, “?”- bu ma’lumot men uchun tushunarsiz” bo‘lsa, fikrlarga munosabat o‘rganilishi lozim.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Mo‘g‘ullar davlatining tashkil topish tarixini ayting?

2. Mo‘g‘ullar davlatining bosqinchilik yurishlari haqida ma’lumot bering?

3. Mo‘g‘ullar davlatining boshqaruv tizimini ayting?

4. Mo‘g‘ullar davlatining harbiy san’ati haqida ma’lumot bering?

5. Mo‘g‘ullar davlatining jang taktikalarining o‘ziga xosligi haqida ma’lumot bering?

6. Mo‘g‘ullar imperiyasining parchalanishi haqida aytib bering?

7. Chig‘atoy ulusining vujudga kelishi haqida ma’lumot bering?

8. Chig‘atoy ulusining boshqaruv tizimini ayting?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shamsuddinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. -T., “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi”, 2009-yil.

1. Hasanov A. Makka va Madina tarixi. T., “Mehnat”, 1992-yil.

2. Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. - T., “Toshkent Davlat yuridik instituti”, 2005-yil.
3. Abdirahimova N.A, Isakova M.S, Sulaymonova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T., “Sharq”, 2007-yil.
4. Azamat Ziyoy. O‘zbek davlatchiligi tarixi. -T., Sharq, 2000-yil.
5. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. -T., “O‘zbekiston Milliy Universitet”, 2012-yil,
6. Sagdullayev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T., Akademiya, 2000-yil.
7. Alimova D.A, Rtveladze E.V. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., “Sharq”, 2001-yil.

Axborot manbalari

9. www.ziynet.net
10. www.history.ru

15- Mavzu: Amir Temur hukmronligi davrida davlat boshqaruvi tartiblari.

Reja:

- 1. Amir Temurning hokimiyatga kelishi arafasida Movorounnahrda siyosiy vaziyat.**
- 2. Amir Temur davrida markaziy va mahalliy boshqaruv.**
- 3. Amir Temur markazlashgan hokimiyat tuzishida harbiy qo‘shinning o‘rni.**
- 4. Soliq va yer egaligi.**

Tayanch tushunchalar: Loy jangi, Sarbadorlar, soxta xon, dargoh, devon, 7 vazir, Temur tuzuklari, amir, tavochi, maxsus gvardiya, to‘p, 12 aymoq, qalb, qo‘l, burang‘ar, juvang‘ar, manglay, qoravul, qanbul, xiroj, shilon puli, sarishumor, xonashumor, tag‘ar.

Tarixdan bizga ma‘lumki, Sohibqiron Amir Temur hokimiyati davri, Movorounnahr o‘lkasining gullab yashnaganligi bilan bog‘liqdir. To‘rt iqlim podshohi Temur mamlakatda osoyishtalik va farovonlik o‘rnatar ekan, albatta, o‘z navbatida xalq madaniyati va ma‘rifatining yuksalishi bunga yaqqol misoldir. Lekin bu tarixiy shaxs tug‘ilmasdan ilgari Movorounnahrda vaziyat ancha murakkab kechgan edi.

Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng bizning o‘tmish ajdodlarimiz o‘lkamiz tarixining eng og‘ir davrini boshlaridan kechirishgan. Garchi siyosiy vaziyat Chig‘atoy ulusining dastlabki hukmronliklari davrida barqaror bo‘lsa, XIV asrning ikkinchi yarmida vaziyat ancha og‘ir edi. Ayniqsa, Chig‘atoy xoni Kebekxon vafotidan so‘ng boshlanib ketgan taxt uchun kurash, mamlakatni ancha zaiflashtirib qo‘ygan edi, Movorounnahr va Mo‘g‘uliston ajralib ketdi. Movorounnahrda Qozonxon (1338-1346) siyosiy nizolarga barham berish uchun ko‘p harakatlar olib bordi. Ammo musulmonlar va bosqinchilar orasida nizo va kelishmovchiliklar kuchli bo‘lgani sabab, bu holatga barham berishning iloji yo‘q edi. Chunki, bundan ancha yillar ilgari, taxtni boshqargan Tarmashirin davridagi islomlashtirish siyosatiga qarshi chiqqan mo‘g‘ullar fitna uyushtirib uni o‘ldirgan edilar. Shundan so‘ng, musulmonlarga tazyiq kuchayadi.

Ammo, turk amirlari o‘zlarini o‘nglab oldilar va mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi ochiq kurash boshladilar. Shunday kurashchilardan

biri turk amiri amir Qozog'on edi. U 1347-yilda mo'g'ullar hokimiyatiga zarba berib, mamlakatni turkiylar qo'liga o'tishiga zamin hozirladi. Bu orada Qozonxon amir Qozog'on bosh bo'lgan ko'chmanchilar uyushtirgan fitnaning qurboni bo'ldi¹⁹⁷. Amir Qozog'on (1346-1358) mamlakatni imkon qadar birlashtirishga urindi. Ammo, u ham mo'g'ul qo'shinlarining boshlig'i Tug'luq Temur tomonidan o'ldirildi. Feodal tarqoqlik hukm surgan Movorounnahrda Shahrisabz, Buxoro, Termiz, Badaxshon, Xo'jand, Shosh (Toshkent) hokimlari bir-birlari bilan tinimsiz urushib turdi¹⁹⁸. Boshqa manbalarda kelgan ma'lumotlarga qaraganda esa, 1358 yili Qozog'on kuyovi Qutlug' Temur tomonidan uyushtirilgan fitnada o'ldiriladi. Qozog'onning o'rniga taxtga uning ikkinchi o'g'li Abdulloh o'tiradi. Uning davrida bosh-boshdoqlik, xo'jasizlik va tarqoqlik shu qadar kuchli tus oladiki, Abdulloh mamlakatni butunlay idora qilolmay qoladi va bir yildan so'ng o'ldiriladi¹⁹⁹. Bundan foydalanishni istagan Tugluq Temur (1359-1363) esa Movorounnahrni zabt etishga kirishadi. 1360 yil yanvariga kelib, Sirdaryo bilan Toshkent oralig'idagi Chanoqbuloq degan mavzeda to'xtaydi. Bu yerda u o'z beklari bilan kengashib, ularni Keshga yuboradi. Ayni paytda Keshni Hoji Barlos boshqarar edi, u Amir Temurga amaki bo'lardi. Keshga tomon ko'p sonli qo'shinning kelishidan xabar topgan Hoji Barlos Xurosonga qochishga qaror qiladi. Ularning safida dastlab Amir Temur ham bo'lib, ular Amudaryo etaklariga yaqinlashganda Amir Temur bu fikrning noto'g'ri ekanligini tan olib amakisiga shunday degan edi: "Mamlakat agar hokimsiz qolsa, ul mamlakatda yuz parishonlik voqe' bo'lub va bo'lg'on el-ulus muxolifatlardan xarob bo'lgaylar. Maslahat ul-tururkim, siz Xuroson sori borsangiz men Kesh viloyati sori yongaymen, va ul ulusqa ko'ngil berib, kelgan beklar bilan yarashib, xon xizmatiga borgaymenkim, viloyat xarob bo'lmagay va raiyatlarkim, hazrat Parvardigorning bandalari tururlar, zahmat va tashvishga tushmagaylar"²⁰⁰.

Shu voqeadan so'ng, Amir Temurning Movorounnahrda taxt sari kelish jarayoni boshlanadi. Temur Keshni boshqarar ekan, bu viloyatda

¹⁹⁷ Болтаев Шариф. Ўзбек давлатчилигининг Амир Темур бошқарган босқичи ва унинг жаҳон тарихида тутган ўрни. Бухоро, 2006. -Б. 34-35.

¹⁹⁸ Мўминов И. Самарқанд тарихи. Биринчи том. -Т.: "Фан", 1971. -Б. 166.

¹⁹⁹ Саидкосимов С., Аҳмедов А., Аҳмедов Б. Амир Темур жаҳон тарихида. -Т.: "Шарқ", 2001. -Б. 60.

²⁰⁰ Саидкосимов С., Аҳмедов А., Аҳмедов Б. Амир Темур жаҳон тарихида. -Т.: "Шарқ", 2001. -Б. 61.

xarobaga aylangan ko'pgina joylarni tiklaydi, jumladan, xonavayron bo'lgan dehqon xo'jaliklari, shuningdek, chorvachilikning rivojlanishi uchun tadbirlar amalga oshiradi. Mo'g'ullar hujumiga uchramaslik uchun Amir Temur Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur xizmatiga kiradi. Chunki, bu vaziyatda Temurning kuchlari hali to'liq shakllanmagan chunki, Tug'luq Temur qudratli qo'shin bilan Movorounnahr o'lkasiga qo'shin tortgan edi. Bu tadbir, albatta, o'lkani omon saqlash va himoyalanih uchun qo'llangandi. 25 yoshga to'lgan Amir Temur Tug'luq Temur tomonidan Kesh dorug'asi etib tayinlanadi. U o'z faoliyati davomida odilona siyosat yuritib mo'g'ul bosqinchilarining kirdikorlarini ochiq fosh qildi. U mo'g'ul qo'shinining aholini talayotganligini Tug'luq Temurga bildirdi va Movorounnahrdagi mo'g'ullar talon-tarojini to'xtatishga erishdi.

Mo'g'ulistonda sodir bo'lgan qo'zg'olon Tug'luq Temurni orqaga qaytishiga sabab bo'ladi. Ammo, bu holat 1361 yili uning yana qaytib kelib Movorounnahrni to'liq egallab olishiga to'sqinlik qilmadi. 1362 yildagi Mo'g'ulistondagi notinchlik Tug'luq Temurni qaytib ortga chekinishiga sabab bo'ladi. U o'zining o'rniga o'z o'g'lini noib qilib tayinlab, o'zi Mo'g'ulistonga ketadi. O'g'li Ilyosxo'ja ayshu-ishratga berilgan shaxs bo'lib, uning siyosiy ishlarini amir Bekkichik bajarardi. Amir Bekkichik Amir Temurga qarshi ig'voni kuchaytiradi, Ilyosxo'ja esa uni qo'llab-quvvatlaydi. Ilyosxo'janing o'zi ham Amir Temurni davlat ishlaridan chetlashtiradi va hatto jismonan yo'q qilishga urinadi²⁰¹. Bu sharoitda Amir Temur mo'g'ullarni Movorounnahrdan haydashni istagan hamda hokimiyatni olishga bel bog'lagan Amir Husayn bilan ittifoq tuzadi. Amir Husaynga bu vaqtda Balx atrofidagi yerlar tegishli edi. Shuningdek, Amir Temur Amir Husaynning singlisi Uljoy Turkon og'oga ham uylanib, Husayn bilan qarindosh tutinib, ular orasidagi ittifoq yanada mustahkamlanadi.

1361-1365 yillarda Amir Temur va Amir Husayn Amudaryoning narigi qirg'og'iga o'tib, Xuroson, ayniqsa, Moxon va Obivard hududi atrofida harakat qiladilar. Ushbu davr oralig'ida ular turkman urug'iga

²⁰¹ Болтаев Шариф. Ўзбек давлатчилигининг Амир Темур бошқарган босқичи ва унинг жаҳон тарихида тутган ўрни. Бухоро, 2006. -Б. 37.

mansub Alibek Joniqurboniyga asir tushadilar va 62 kun davomida tutqunlikda saqlanadilar. Ammo, Alibekning akasi Muhammadning yordami bilan qochishga muvaffaq bo'ladilar. So'ng ular Seiston hokimi Qutbiddinning iltimosiga binoan, uning dushmanlarini tor-mor qilishga rozi bo'lishadi²⁰². 1362 yil kuz oyida Seistonda Mekroniylar bilan bo'lgan jangda Amir Temur Mamaqtuv tomonidan otilgan o'qdan jarohatlanib, o'ng qo'li tirsagi va o'ng oyog'idan qattiq shikastlanadi. Shundan so'ng, uning oyog'idagi jarohat tuzalmay, Amir Temurning tarixda "Temurlang" deb atalishiga sabab bo'ladi. Shunday bo'lsada, amirlar mo'g'ullar bilan kurashib, Termiz, Temur qopug', Huzor (G'uzor) va Keshni qo'lga qaytarib olishga muvaffaq bo'lishadi. 1363 yil Tug'luq Temur vafot etgan bo'lishiga qaramay, Ilyosxo'ja Movorounnahrni qo'l dan boy berishni istamas edi. Ikkala taraf ham urushga tayyorgarlik boshlab, ular 1365 yil 22-may kuni Chirchiq daryosi bo'yida joylashgan Chinoz bilan Toshkent oralig'ida to'qnashadilar. O'sha kuni qattiq jala quyib, qo'shin loyga botgan edi. Shu sabab ham, ushbu jang tarixda "Loy jangi" nomi bilan kirgan. Son jihatdan ustun turgan mo'g'ullar g'alaba qozonadilar. Shundan so'ng, mo'g'ullar Jizzaxni egallab, Samarqand ustiga yurish qiladilar. Bu paytda Samarqandda boshlangan Sarbadorlar harakati Samarqand xalqini birlashtirib, mo'g'ullarga qarshi kurashga o'tlanadilar. Shundan so'ng, mo'g'ullar yengilib, butun Movorounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldilar. Sarbadorlar qatlidan so'ng Amir Temurning hokimiyati Movorounnahr hududida mustahkamlanadi.

Boshqaruv masalasida esa, Amir Temur o'zini rasman xon deb e'lon qila olmas edi. Chunki, u Chingizxon avlodiga mansub emas edi, shuning uchun ham, 1370 yilda Movorounnahrni birlashtirib o'z qo'liga olgan Amir Temur, o'zini amir deb e'lon qilgan edi. U mo'g'ullardan qolgan an'anaga asoslanib, taxtga soxta xonlarni qo'ya boshlaydi. Jumladan, Suyurg'atmishxon (1370-1388), uning o'gli Mahmudxon (1388-1402) soxta xonlardan edi. Amir Temur o'ldirilgan Amir Husaynning xotini Saroymulxxonimni o'z nikohiga olishi, uning o'z mavqeyini mustahkamlashida muhim omil bo'ldi.

²⁰² Болтаев Шариф. Ўзбек давлатчилигининг Амир Темур бошқарган босқичи ва унинг жаҳон тарихида тутган ўрни. Бухоро, 2006. -Б.37.

Amir Temur davlatida qurultoy mamlakatning muhim organi bo'lgan. Temur davlatining boshqaruv shakli ikki tizimdan iborat edi. Ular “dargoh” va “devon” hisoblangan.

Dargoh – oliy davlat idorasi hisoblanib, uning boshlig'i oliy hukmdor bo'lgan. Bu haqidagi ma'lumotlar “Temur tuzuklari” da uchraydi²⁰³.

Devon-vazirlar mahkamasi hisoblangan.

Amir Temur o'zining davlat boshqaruvi haqida shunday deydi: “Men davlatim binosini islom ahkomlariga muvofiq ravishda qurdim, uni to'ra va tuzuk asosida boshqardim, o'zimning kundalik faoliyatimda nimaiki qilgan bo'lsam, barchasini qonunga asoslangan holda amalga oshirdim”. U 7 ta idoradan iborat davlat apparatini tuzdi. Bular:

- 1) **Bosh vazir devoni (mamlakat va xalq ishlari vazirligi)**
- 2) **Harbiy vazirlik (qo'shinga taalluqli ishlar vazirligi)**
- 3) **Moliya ishlari vazirligi**
- 4) **Saroy vazirligi**
- 5) **Adliya vazirligi (bosh qozi devoni)**
- 6) **Davlat xavfsizligi vazirligi (devoni mushrif)**
- 7) **Tashqi aloqalar vazirligi (devoni rasoyil)**

Markaziy-ijroiya hokimiyatiga vazirlar kengashi (arkoni davlat) boshchilik qilgan²⁰⁴. Demak, shunday vazirliklar devonni tashkil qilib, ular turli sohalarni nazorat qilishar va shu tariqa faoliyat yuritish edilar. Ya'ni, har bir vazirlik muayyan vazifalarni bajargan.

Shulardan birinchisi, ya'ni davlat va fuqarolik ishlari bo'yicha vazirning vazifasi hosil yig'im-terimi, viloyat va tuman bo'yicha soliqlarni yig'ib olish, taqsimlash, obodonchilik, pul, mablag'lar hisobi bo'yicha mas'ul bo'lgan.

Ikkinchi vazir, harbiy sohasi bo'yicha faoliyat yuritgan bo'lib, sipohilar, ularning maoshi, qurol-aslahalari ta'minoti, oziq-ovqati hamda ularning ahvoli haqida mas'ul shaxs hisoblangan.

²⁰³ Болтаев Шариф. Ўзбек давлатчилигининг Амир Темур бошқарган босқичи ва унинг жаҳон тарихида тутган ўрни. Бухоро, 2006. -Б.44.

²⁰⁴ Алимова Д.А. Ртевеладзе Э. В. -Т.: “Шарк”, 2001. -Б. 93.

Uchinchi vazirning vazifasi xo‘jalik va soliqni nazorat qilish bo‘lgan.

To‘rtinchi vazir moliya vaziri hisoblanib, xazina kirim-chiqimi, sarf mablag‘lari hisobini yuritgan. Hatto saroy otxonasi va saroyda boqiluvchi boshqa hayvonlarga sarf qilingan xarajatlardan xabardor bo‘lgan.

Bulardan tashqari, yana 3 ta vazirlik lavozimi mavjud bo‘lib, ular saltanat tarkibiga kiruvchi hamda boshqa tobe o‘lkalardan olinadigan soliq, moliya va yer egaligi ishlari bilan shug‘ullanishgan.

Ushbu yetti vazirning barchasi bosh vazir – devonbegiga bo‘ysunishgan.

Devonbegi lavozimlarida Amir Dovud, Jamoliddin Feruzshoh, G‘iyosiddin Shohmalik, Alouddin Aliko Ko‘kaldosh va Alisher Navoiylar faoliyat yuritishgan²⁰⁵. Bulardan tashqari yana vazirliklar mavjud bo‘lganki, ularni tilga olmoq joizdir. Misol uchun sakkizinchi vazirlik ham mavjud bo‘lib, adliya vazirligi hisoblangan. U sud ishlarini amalga oshirgan. Sud ishlari ham o‘z navbatida 3 ga bo‘lingan:

*** Fuqarolik sudlari**

*** Shariat tartiblari bo‘yicha sud (qozi sudi)**

*** Harbiy sud.**

Bulardan tashqari aloqa vazirligi ham mavjud bo‘lgan. Bu vazirlik o‘z davrida pochta vazifasini bajargan. Devon o‘z navbatida dargohning tarkibiy qismi hisoblanib, devonda yana shayxulislom, sadri a‘zam va ahdas qozi kabilar faoliyat yuritgan.

Vaqf ishlari bo‘yicha **sadri a‘zam** mas‘ul bo‘lgan. **Shayxulislom** esa aholi orasida shariat qoidalarining bajarilishini nazorat qilgan.

Dargohdagi lavozimlardan biri – **arzbegi** hisoblangan. U arz-dod, shikoyatlarni hukmdorga yaetkazib bergan. Bu esa adolat apparatining mamlakatda qanchalik muvaffaqiyatli davom etganligini bildiradi.

Aminlar – tartibsizliklar, joylarda adolatsizlik, hamda qonun va qoidabuzarlikni bartaraf qilishgan.

²⁰⁵ Алимова Д.А. Ртевеладзе Э. В. -Т.: “Шарк”, 2001. -Б. 94.

Dargohdan o‘rin egallagan yana bir muhim lavozimlardan biri – bu **tavochi** hisoblangan. Uning vazifasi suyurg‘ol yerlaridagi askarlar sonini aniqlash, askarlar yig‘ish va ularning qurol-aslaha ta‘minoti hamda askarlarning ma‘lum joyga yetib borishi uchun javobgar bo‘lgan.

Shuningdek, barchamizga ma‘lumki, mamlakat boshqaruvi ishlari hech qachon oson kechmagan. Bu borada Amir Temurga nasihat bergan Abu Bakr Tayobodiy shunday maslahat bergan edi: mamlakatni idora qilishda 4 narsaga amal qilish lozim:

- Kengash
- Qat‘iy qaror
- Mashvarat-u maslahat
- Ehtiyotkorlik.

Mahalliy boshqaruv tizimida Amir Temur mamlakatni ulus, viloyat, tuman va shahar hokimliklariga bo‘lgan. Mamlakatni idora qilishda Amir Temur saltanatni to‘rt ulusga bo‘lib bergan. Qobul, G‘azna va Qandahorni to Sind daryosigacha bo‘lgan yerlarni katta o‘g‘li Jahongirga, u vafot etgach uning o‘g‘li Pimuhammadga, Forsni o‘zining ikkinchi o‘g‘li Umarshayxga, G‘arbiy Eron bilan Ozarbayjonni uchinchi o‘g‘li Mironshohga va Xurosonni kenja o‘g‘li Shohruhga bergan. Viloyat, tuman va shaharlarda hokimiyat dorug‘a, kalontar va qo‘rboshi qo‘lida bo‘lgan²⁰⁶.

Sohibqiron o‘z saltanatini tuzar ekan, katta hududlarni bosib olishda o‘z qo‘shiniga tayangan. Qo‘shinning tarkibi murakkab bo‘lib, qo‘shin yengil va o‘g‘ir piyoda, otliqlar ham shu tariqa yengil qurollangan va og‘ir qurollangan otliqlarga bo‘lingan. Hatto shunday bo‘lganki, armiya vaziyatga qarab o‘z holatini o‘zgartirgan. Ya‘ni, piyoda askarlar ba‘zan otliqqa, otliq askarlar esa piyoda qo‘shinga, yoki kamonchilar safiga qo‘shilish uchun piyodaga aylangan. Otliq qo‘shin yana maxsus saralangan qismga ham bo‘lingan edi.

Sohibqiron Temurning qo‘shini o‘ntalik bo‘linmalardan iborat bo‘lgan. Lashkar “tuman” – o‘n minglik, “hazora” – minglik, “qo‘shin” –

²⁰⁶ Болтаев Шариф. Ўзбек давлатчилигининг Амир Темур бошқарган босқичи ва унинг жаҳон тарихида тугган ўрни. Бухоро, 2006. -Б.49.

besh yuzlik va “ayl” – o‘nlik birikmalarga bo‘lingan. Tumanlarda askarlar soni 10 ming, qo‘shunda 100 nafardan ortiq bo‘lgan²⁰⁷. Tumanlarni ya‘ni 10 minglik lashkarni “tuman og‘asi”, minglik qo‘shinni “mirihazora” (amiri hazor), yuzlik qo‘shinni “qo‘shunboshi”, hamda o‘nlik bo‘linmalarni “aylboshi” lar boshqargan. Janglarda g‘alabani belgilab bergan tajribali qismlar ham mavjud bo‘lib, ular zarurat tug‘ilganda jang maydoniga kiritilgan. Jumladan, ular orasida Sohibqiron joriy qilgan bo‘limlar bo‘lib ular qo‘shimcha vazifalarni bajargan:

1. Ko‘chma ko‘prik quruvchi va kemachilar. Ular armiyaning daryodan o‘tishini ta‘minlab bergan.
2. Naftandozlar yoki neft otuvchilar. Ular qo‘shinda asosiy rol o‘ynagan, chunki, ular mustahkam qal’a va istehkomlarni egallashda juda qo‘l kelgan. Ular fillar ustiga ortilgan bo‘lib, maxsus qurilmalar orqali otilgan. Bu jihatdan bu guruhning quroli “grek olovi” ga o‘xshab ketgan.
3. Qamal qilish mashinalari va tosh otuvchi moslamalar (katapulta, palaxmon) ni ishlatuvchi guruh. Mustahkam qal’alarni buzishda qo‘l kelgan.
4. Tog‘larda jang harakatlarini olib boruvchi, janglarda chiniqqan maxsus guruh. Ular abjir, qoyalarga chiqishda mohir jangchilar hisoblanishgan.
5. Ayollardan tuzilgan gvardiya. Ular erkaklar bilan bir safda turib xizmat qilishgan.
6. “Ekinchi” deb ataluvchi guruh. Ular uzoq muddatli janglar davomida qo‘shinni ta‘minlash maqsadida jang maydoniga yaqin bo‘lgan joylarda ekinlar ekib chiqishgan, dehqonchilik qilib, mahsulot yetishtirishgan.
7. To‘pchilar guruhi (Amir Temurning sharq olamida birinchi marta o‘tochar qurol – to‘p olib kirganidan so‘ng tuzilgan)²⁰⁸.

Amir Temur o‘z janglarida g‘alabaga sababchi bo‘lgan shaxslarga amir harbiy lavozimini bergan. Masalan, Ilyosxo‘ja bilan janglarda jasorat ko‘rsatgan 313 kishiga shunday lavozimlar bergan. Ayniqsa, ularning

²⁰⁷ Саидкосимов С., Аҳмедов А., Аҳмедов Б. Амир Темур жаҳон тарихида. -Т.: “Шарқ”, 2001. -Б. 85.

²⁰⁸ Болтаев Шариф. Ўзбек давлатчилигининг Амир Темур бошқарган босқичи ва унинг жаҳон тарихида тутган ўрни. Бухоро, 2006. -Б.80.

bittasiga “Amirul-umaro”, to‘rt nafariga “beklar begi”, yuz nafariga mingboshi, yuzboshi va o‘nboshi lavozimlarini bergan.

Bulardan tashqari, yana o‘n ikki nafar kishiga birdan to o‘n ikkiga qadar darajali amirlik unvonlari berilgan. O‘n ikkinchi darajali amir odatda Amirul-umaroning noibi hisoblangan. O‘n ikki amirning har biriga bittadan bayroq, nog‘ora, amirul-umaroga bitta bayroq, nog‘ora, o‘n minglik qo‘shin, tug‘ va chortug‘, to‘rt nafar beklar begining har biriga bittadan bayroq, no‘g‘ora, chortug‘ va burg‘u (karnay) berilgan²⁰⁹. Ular orasida qizil rangli bayroq Amirul-umaro yoki beklarbegiga tegishli, ot yoli osilgan uzun nayzali tug‘ tuman og‘asini, kokillar osilgan ikki do‘l nog‘ora yuzboshini bildirgan²¹⁰.

Odatda dushman qo‘shinini larzaga solish maqsadida dovul qoqilgan.

Barcha bo‘lim boshliqlari Amir Temurga yaqin, ya‘ni barlos urug‘idan uzoq bo‘lmagan urug‘lardan, aniqrog‘i, turkiylardan tayinlangan. Ular faqat 12 aymoq hisoblangan barlos, jaloyir, arg‘un, tulkichi, dulday, mo‘g‘ul, sulduz, tag‘ay, qipchoq, arlot, totor va buruldaylar orasidan saylangan.

Qurollanganlik jihatidan yengil otliq askar kamon, sadoq, qilich, arra, bigiz, taroq, bolta, qop, mesh va ikkita ot olib kelishi, shuningdek, har 18 kishining kigizdan ishlangan o‘tov olishi shart edi. Maxsus saralangan jangchilar esa dubulg‘a, qalqon, qilich, kamon hamda o‘q yo‘ylar bilan qurollangan bo‘lib, ularning har biri ikkita ot, hamda 5 tasi bitta o‘tov tashkil qilishi lozim edi. Askarlarga xizmat ishlarini amalga oshirish maqsadida xizmatchilar joriy qilingan. Jangchilar qilichni chap tomonlarida, qalqonni esa o‘ng tomonlarida olib yurishgan. O‘nboshilar qilich, sovut, hamda kamon-u o‘q, chodir va besh nafar ot, yuzboshilar esa o‘n nafar otga, o‘z o‘tovlariga, shuningdek, qilich, kamon va o‘q-yoy, gurzi, cho‘qmor va sovutga ega bo‘lishlari lozim edi. Shu bilan bir qatorda amir darajasidagi shaxslar o‘z darajalariga qarab, masalan, birinchi amir 110 ta, ikkinchisi 120, uchinchisi 130 ta, bosh qo‘mondon esa 300 dan

²⁰⁹ Саидкосимов С., Аҳмедов А., Аҳмедов Б. Амир Темур жаҳон тарихида. -Т.: “Шарк”, 2001. -Б. 86.

²¹⁰ Саидкосимов С., Аҳмедов А., Аҳмедов Б. Амир Темур жаҳон тарихида. -Т.: “Шарк”, 2001. -Б. 87.

kam bo‘l magan va o‘ziga yarasha qurol – yarog‘ olib yurishi shart bo‘lgan²¹¹.

Amir Temur qo‘shinida maosh berish ham adolatli taqsimlangan edi. Qo‘shinlar doimo maosh bilan ta‘minlagan. Har bir jangchining maoshi uning mingan otiga qarab belgilangan. Bu esa askarning darajasiga bog‘liq edi. O‘zini ko‘rsatgan botir jangchilarning maoshi 2-4 tacha otning narxiga to‘g‘ri kelgan. O‘nboshilar 10 ta oddiy jangchi maoshini, yuzboshilar ikita o‘nboshi, mingboshilar esa o‘nta yuzboshi maoshini olishgan. Jinoyatlarga yo‘l qo‘ygan askarlar o‘z maoshlarining o‘ndan bir qismidan quruq qolishgan. Amirlarning maoshlari ularning darajasiga qarab taqsimlangan bo‘lib, ular mingdan o‘n mingtagacha ot narxi bilan rag‘batlanishgan bo‘lishsa, Amir Temurning o‘g‘illari ya‘ni shahzodalar o‘n ikki min ot narxi bilan ta‘minlanishgan. Ularga hatto yerlar in‘om qilinib, viloyatlar tortiq qilingan.

Amir Temur qo‘shini “qalb”, “izofa”, “barang‘ar”, “juvang‘ar”, “qunbul” (qanbul), “qarovul” kabi qismlardan iborat edi.

Markaziy qism bu “qalb” hisoblangan, ularni esa “izofa” deb ataluvchi zaxira qismi muhofaza qilgan. Qo‘shinning eng old safi “qarovul” qismdan iborat edi. Shuningdek, asosiy qo‘shin oldidan doim “manglay” old safi joylashgan edi. O‘ng tomon qo‘shin qismi ya‘ni o‘ng qo‘l “barang‘ar”, chap qo‘l “juvang‘ar”, ularning ortida esa “qanbul” qismi joylashgan. Qo‘shinning eng orqa qismida “chag‘davul” deb ataluvchi qism turgan.

Amir Temur tuzgan davlatda yer egaligi shakllari alohida ajralib turgan. Ularning soni anchagina bo‘lib 3 ta asosiy va 3 ta in‘om hamda qo‘shimcha yer egaligi shakllaridan iborat bo‘lgan.

Asosiy yer egaligi shakllari quyidagilar:

1. Davlat yerlari
2. Mulk (xususiy) yerlar
3. Vaqf yerlari

²¹¹ Болтаев Шариф. Ўзбек давлатчилигининг Амир Темур бошқарган босқичи ва унинг жаҳон тарихида тутган ўрни. Бухоро, 2006. -Б.83.

Yerlarning ko'pchiligi davlat yerlari hisoblangan. Bu yerlar hukmdor sulolasi vakillariga, yirik mulkdorlar, harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan lashkarboshilar, amirlarga in'om sifatida – suyurg'ol qilib berilgan. Suyurg'ol yerlari soliqlardan ozod qilinib, uning egalari davlatda harbiy xizmatni o'tashi shart edi.

Mulk yerlari esa xususiy yer- mulklar hisoblanib, bunga mulkdorlar yerlari, yirik zamindorlar, harbiylar, dehqonlar va diniy arboblarga tegishli bo'lgan yerlar kirgan. Ushbu turlardagi yerlarga tarxonlik yorlig'i berilib, ular soliq va boj to'lovlardan ozod qilingan.

Saltanatning masjid, madrasa, xonaqoh va ziyoratgohlarga tegishli yerlar – jamoa yerlari hisoblangan.

Soliqlar tizimiga esa alohida ahamiyat qaratilgan bo'lib, uning adolatli solinishi va yig'imiga e'tibor qaratilgan.

Mamlakatning iqtisodiy ahvoli, avvalo, xazinaga bog'liq edi, xazina esa soliq orqali to'adi. Shuning uchun ham Sohibqiron davlatining soliq siyosati ham ibratlidir.

Aholi xiroj, molu jihat, ixrojot, tag'or, tamg'a, bog', sarishumor, alofa (ulufa), shilon puli, peshkash, sovurin puli kabi turli soha, toifa va tabaqalarga daxldor soliqlarni to'lagan²¹².

Asosiy soliqlardan biri bu **xiroj** bo'lib, hosilning 1/3 miqdorini tashkil qilgan.

Molu jihat- naqd pul yoki mahsulot shaklida olingan.

Tag'or solig'i – harbiy yurishlar paytida aholidan olinadigan g'alla, oziq-ovqat hisoblangan.

Ixrojot – saroy xarajatlarini qoplash uchun olingan.

Boj – mamlakatdan mamlakat yoki viloyatdan viloyatga o'tishda savdogarlardan olinadigan soliq.

Sarishumor – jon solig'i hisoblangan.

Xonashumor – har bir xonadon boshiga olinadigan soliq.

Shilon puli – bu hukmdor, uning oilasi, a'yonlariga beriladigan hadya hisoblangan.

²¹² Болтаев Шариф. Ўзбек давлатчилигининг Амир Темур бошқарган босқичи ва унинг жаҳон тарихида тутган ўрни. Бухоро, 2006. -Б.73.

Amir Temur mamlakatni boshqarar ekan, soliq tizimida shu jihatlarga e'tibor bergan: yerlarga adolatli tarzda soliq solinishi, soliq to'lovchini rag'batlantirish, soliqning hosil pishib yetilgandan keyin olinishi, soliq to'lash va undirishga qulaylik yaratish kabilar.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Sohibqiron Amir Temur butun dunyoni hayratda qoldirgan, yirik imperiyaga asos soldi. Uning mamlakatida xalq ozod va farovon yashadi, ilm-fan, madaniyat, san'at va me'morchilik yuksak rivojlandi. Mamlakatning adolatli boshqaruv tizimiga asos soldi. Ushbu davlat butun jahon tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - **“5 daqiqa” usuli** orqali mustahkamlash :

Talabalarni shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko'rmasin. O'qituvchi vazifa beradi. Masalan: mavzuga doir sanalarni yozish. Talabalar yozishni bir vaqtda tugatishi shart. Ko'p sanalarni yozgan va to'g'ri izohlab bergan talabalar g'olib hisoblanadi.

Misol: 1336-yil

- 1360yil ...
- 1361-yil...
- 1365-yil ...
- 1366-yil ...
- 1370-yil ...
- 1388-yil ...
- 1402-yil ...
- 1405-yil...

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Amir Temurning bolalik yillari qanday o'tgan?
2. Amir Temur hokimiyatga kelishi arafasida Movarounnahrda siyosiy vaziyat haqida nimalarni bilasiz?
3. Amir Temurning ichki va tashqi yurishlari qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
4. Temur davlatidagi vazirliklar soni nechta bo'lgan va ularning vazifalari?

5. Yer egaligi va soliq tartiblari haqida soʻzlab bering?
6. Harbiy qismlar koʻrikdan oʻtkazilganmi?
7. Harbiylarga maosh berilishda nimalarga eʼtibor qaratilgan?
8. Tumanlarda harbiylar soni qancha boʻlgan?
9. Harbiy qoʻshin tuzilishi va jangovar qurol-aslahalar?
10. Amir Temur tuzgan davlatning boʻlinib ketishi sabablari?

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abdurahimova N.A, Isakova M.I, Sulaymanova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T.: "Sharq", 2007.
2. Alimova D.A, Rtveladze E.V. Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari.- T.: "Sharq", 2001.
3. Boltayev Sh. Oʻzbek davlatchiligining Amir Temur boshqargan bosqichi va uning jahon tarixida tutgan oʻrni. Buxoro, 2006.
4. Saidqosimov S. Ahmedov, Ahmedov B. Amir Temur jahon tarixida. T.: "Sharq", 2001.
5. Muminov I. Samarqand tarixi. I-tom. –T.: "Fan", 1971.

Axborot manbalari

6. www.ziynet.net
7. www.history.ru

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. -592 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017.-104 b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. -T.: Tasvir, 2021. 36 b.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T., O‘zbekiston, 1997. 326 b.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., 1998.
6. Karimov I. A. Asarlar, 7-tom, T., 1999.
7. Abdirahimova N.A, Isakova M.S, Sulaymonova Z.M. Davlat muassasalari tarixi. -T.: Sharq, 2007. 128 b.
8. Alimova D.A, Rtveladze E.V. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari.- T.: Sharq, 2001. b.
9. Azamat Ziyoyev. O‘zbek davlatchilik tarixi. T.: Sharq, 2000. 368 b.
10. Abulg‘ozi. Shajarai Turk. -T.: Cho‘l pon, 1990. 192 b.
11. Boynazorov F. Qadimgi dunyo tarixi. T., 2006.
12. Bichurin N. Ya. Sobranie svedeniy o narodax obitavshix v Sredney Azii drevnie vremena. T. II. M.-L, 1950. -185 s.
13. Boltayev Sh. O‘zbek davlatchiligining Amir Temur boshqargan bosqichi va uning jahon tarixida tutgan o‘rni. Buxoro, 2006. 148 b.
14. Vohidov Sh, Qodirov A. Sharqning mashhur sulolalari. –T.: Akademnashr, 2013. 624 b.
15. Gumilyov L.N. Qadimgi turklar. T., 2007.
16. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana tom I.- T.: O‘zbekiston, 2009. 256 c.
17. Karimov Sh, Shamsiddinov R. Vatan tarixi.- T.: Sharq, 2010. 512 b.

18. Lunin I.V. Istoriya -T.: Fan, 1978. 245 c.
19. Muminov I. Samarqand tarixi. I-tom. –T.: Fan, 1971. 474 b.
20. Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi. II qism. T., 2005.
21. Murtazayeva R.H. O‘zbekiston tarixi. T.: Yangi asr avlodi, 2003. 675 b.
22. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi. T., 2004.
23. Mahbuba Xamidova O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi (o‘quv qo‘llanma). T., 2005.
24. Nasimxon Raxmon. Turk xoqonligi. T., 1990.
25. Orziyev M.Z, Ergashyev J. Yu. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Buxoro. Durdona, 2021. 212 b.
26. Rtveladze E. V. Sivilizatsii, gosudarstvo, kul’tur’ Sientral’noy Azii . –T.: 2005. 592. c.
27. Saidqosimov S. Ahmedov, Ahmedov B. Amir Temur jahon tarixida. T.: Sharq, 2001. 301 b.
28. Sadullayev A, Kostetiskiy V, Norqulov N O‘zbekiston tarixi. T., 1999.
29. Sagdullaev A. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., Akademiya, 2000.
30. Qudratov S.S. O‘rta Osiyoning ilk shahar va davlatlarining paydo bo‘lishi. -Termiz, 1998.
31. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. T., 1995.
32. Hasanov F. Turon xalqlari harbiy san’ati. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. 440 b.
33. Xamidova M . O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. T., 2005.
34. Xodjaniyozov G‘. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. T., 2007.
35. Ziyokor gazetasining 2000-yil mart, aprel, may sonlaridagi maqolalarga qarang: Tilab Mahmudov. Avesto haqida.-T., 2000.
36. Shoniyozov K. Qang‘ davlati va qang‘lilar. T., 1990.
37. Ergashov Sh. Qadimgi sivilizatsiyalar. T.: O‘zbekiston, 2016. 360 b.
38. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 3-tom. T., 2002.

Axborot manbalari

39. www.ziynet.net
40. www.history.ru

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu. O‘zbekistonning davlat muassasalari tarixi fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari.....	5
2-mavzu. O‘zbekiston hududida qadimgi davlat va davlat muassasalarining vujudga kelishi.....	17
3-mavzu. O‘rta Osiyoda Ahamoniylar davrida davlat boshqaruvi.....	33
4-mavzu. Yunon-Makedonlar va Salavkiylar davrida boshqaruv tartiblari.....	48
5-mavzu. Qadimgi Qang‘ va Davon davlatlarida davlat muassasalari tizimi.....	62
6-mavzu. Kushon davlatida davlat muassasalari tizimi.....	80
7-mavzu. Turk xoqonligida davlat boshqaruvi tuzimi	100
8-mavzu. O‘rta Osiyoda arab xalifaligi davlat boshqaruvi.....	117
9-mavzu. Tohiriylar, Somoniylar davrida davlat boshqaruv tartiblari va harbiy qo‘shin.....	136
10-mavzu. G‘aznaviylar davlatida boshqaruv tizimi, harbiy va siyosiy tarix.....	153
11-mavzu. Saljuqiylar davlatining boshqaruv tizmi va harbiy san’at.....	166
12-mavzu. Qoraxoniylar davlatining davlat boshqaruv tizimi.....	176
13-mavzu. Xorazmshohlar davlatining boshqaruv tartiblari.....	188
14-mavzu. Mo‘g‘ullar va Chig‘atoy ulusining siyosiy va harbiy boshqaruvi.....	208
15-mavzu. Amir Temur hukmronligi davrida davlat boshqaruvi tartiblari.....	228
Foydalanilgan manba va adabiyotlar	241

TO'RAYEV ANVAR ISMOILOVICH

O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUASSASALARI TARIXI

“ MUHAMMAD POLIGRAF ” nashriyoti

Litsenziya AI № 04 19 aprel 2023.

2023 yil 1 mayga bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x90, TIMES TAD garniturası,
15-shartli bosma taboq.soni 100 nusxa.

Duna poligraf bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Buxoro shahar Mustaqillik ko`chasi 28 uy

E-mail: ya.duna2012@yandex.ru duna_poligraf@bk.ru

ISBN 978-9943-8424-9-6

KBK 63.3(50')ya 73

UO`K 35.075(575.1)(09)